

# XXI ASR TILSHUNOSLIGI: tahlil va talqin

**3-jild**

**4-son**

**Dekabr, 2025**



### TAHRIRIYAT HAY'ATI

#### Bosh muharrir

Murodova Nigora Qulliyevna  
*filologiya fanlari doktori, professor*

#### Bosh muharrir o'rinbosari

Yusubova Rano Norboyevna  
*filologiya fanlari doktori, professor*

#### Editor – in – chief

Murodova Nigora Kulliyevna  
*doctor of philological sciences, professor*

#### Deputy Editor-in-Chief

Yusubova Rano Norboyevna  
*doctor of philological sciences, professor*

### TAHRIRIYAT KENGASHI

**Kalonov Muhiddin Bahridinovich**

*Iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

**Xujjiyev Sodiq Oltiyevich**

*Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**Narzikulova Dilnoza Xoshimjonovna**

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI

**Aynur Öz Özcan** - filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

**Nadir Mammadli**- filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)

**Ra'no Sayfullayeva**- filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Azamat Pardayev** - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Baxtiyor Mengliyev** - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Mehri Abuzalova** - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Qo'ysin To'xtayeva** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**O'rolboy Oripov** - filologiya fanlari nomzodi (O'zbekiston)

**Manzura Ernazarova** - filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

**Gulchehra Boltayeva** - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Ra'no Davlatova** – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Botir Zaripov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Alijon Allaberdiyev** – filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Fazliddin Najmiddinov** - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Xolbibi Qurbonova**- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Feruza Jumayeva**- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Ra'no Sharopova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

**Gulnoza Ernazarova** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Gulsanam Norova** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

**Nasiba Yarashova** - filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Navro'z Rahmonov**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Omongul Xolibekova**- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Dildora Agzamova** - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

**Munira Mengliyeva** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

**Erkin Musayev** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)

**Bobir Maxammadov** – filologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent (O'zbekiston)

#### Tahririyat bilan bog'lanish:

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

#### Editorial staff of the journal:

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://sciencejournals.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

## MUNDARIJA / CONTENT

<b>Mengliyev Baxtiyor</b> .....	<b>5</b>
Lingvistik ekspertologiya yo‘nalishi istiqbollari: muammo va yechim	
<b>Sadinova Nafisa</b> .....	<b>12</b>
Ish qog‘ozlari uslubida terminlarning yasalish xususiyatlari	
<b>Islomov Ikrom</b> .....	<b>17</b>
Milliy terminologiya masalalari tadqiqida zamonaviy yondashuvlar	
<b>Ernazarova Gulnoza</b> .....	<b>24</b>
Geminatsiya hodisasining pragmatik imkoniyatlari (Tohir Malikning “Shaytanat” asari misolida)	
<b>Saydullayeva Surayyo</b> .....	<b>29</b>
Ingliz, o‘zbek va turk maqollari paremiologik makonda barqarorlik va variativlik (lingvistik) jihatda ifodalanishi	
<b>Kholibekova Omongul</b> .....	<b>38</b>
Pragmastylistic features of children’s speech in english and uzbek literary discourse	
<b>Xamzayev Sobir</b> .....	<b>43</b>
Ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashayotgan so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik adaptatsiya modellari	
<b>Mattiyev Abdulaziz</b> .....	<b>51</b>
Ingliz va o‘zbek tilida metaforik tafakkur tizimi	
<b>Maxammadov Bobir</b> .....	<b>55</b>
Microsoft Windows operatsion tizimi atamalarining o‘zbek tilidagi mazmun va shakl xususiyatlari	
<b>Khodjaeva Dildora</b> .....	<b>63</b>
Integrating 21st-century skills into lesson planning: strategies for educational efficiency	
<b>Yunusova Maftuna</b> .....	<b>69</b>
Shifokor va bemorning o‘zgaruvchan nutq xatti-harakatlari modellari: o‘z-o‘zini tashxislash va o‘z-o‘zini davolash holatlari asosida	
<b>Sulaymonova Mahfuza</b> .....	<b>74</b>
Ilmiy diskursdagi metaforalarning leksik-semantik xususiyatlari	

<b>Mustafaev Elyor</b> .....	<b>83</b>
Verb idioms in english and their study	
<b>Mallayeva Zeboxon</b> .....	<b>89</b>
A.Navoiy va V.Shekspir asarlarida pretsedent nomlarning qo‘llanishi	
<b>Hamidullayeva Musharraf</b> .....	<b>94</b>
“Inoyat” va “Inobat” istilohlarining mumtoz adabiyotda badiiy-estetik va tasavvufiy-falsafiy qo‘llanishi	
<b>Axmedova Maftuna</b> .....	<b>98</b>
Texnika terminlarining leksikografik tahlili	
<b>Амонова Н.Ю.</b> .....	<b>104</b>
Использование бессоюзных сложных предложений в текстах художественного стиля	
<b>Babanazarova Sohiba</b> .....	<b>109</b>
Barqaror birikmalar kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganishning ahamiyati	
<b>Tursinbayeva Shaxloxon</b> .....	<b>114</b>
Badiiy matnda realiyalar lingvomadaniy birlik sifatida	
<b>Akramova Shohista</b> .....	<b>120</b>
Muallif matnlarini xronologik va lingvostatistik tahlil qilishda korpus yondashuvining ilmiy asoslari: (nusratulla jumaxo‘ja ijodi misolida)	
<b>Сахатова К.Ш.</b> .....	<b>127</b>
Особенности употребления многочленных сложноподчинённых предложений в романе «Война и мир» Л.Н.Толстого	
<b>Qodirova Marg‘uba</b> .....	<b>132</b>
Hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning o‘zbek va ingliz tillaridagi qiyosi	
<b>Jumaniyazova Surayyo</b> .....	<b>138</b>
Shukur Xolmirzayev hikoyalarida metaforalarning o‘rni	
<b>Axmedova Sarvinoz</b> .....	<b>142</b>
Konsept tushunchasi va uning mohiyati: kognitiv, psixologik va madaniy omillar uyg‘unligi	
<b>Shokirova Feruza</b> .....	<b>146</b>
Guljamol Asqarova she‘riyatida allyuziv antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari	

<b>Majidova Umida</b> .....	<b>150</b>
Zamonaviy o‘zbek she’riyatida shodmonqul salom ijodining o‘ziga xosligi	
<b>Davlatova Rushana</b> .....	<b>156</b>
Ikkilamchi nominatsiyaning metafora vositasida namoyon bo‘lishi	

## LINGVISTIK EKSPERTOLOGIYA YO‘NALISHI ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIM

**Mengliyev Baxtiyor,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti  
professor, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya:** Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning turli jabhalarida paydo bo‘layotgan ziddiyatli matnlarni izohlash, huquqiy masalalarni adolatli hal etish hamda matn muallifini aniqlash kabi murakkab jarayonlarda lingvistik bilimlarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, sud-ekspertiza faoliyatida turli nutqiy dalillarni to‘g‘ri talqin qilishda “lingvistik ekspertologiya”ning ahamiyati beqiyos. Bu yo‘nalish tilshunoslik, huquqshunoslik, psixologiya va kriminalistika kabi fanlar chorrahasida shakllanib, ziddiyatli matn tahlilini chuqur bilimlarga tayangan holda amalga oshiradi. Ma‘ruzada lingvistik ekspertologiyaning mazmun-mohiyati, nazariy va amaliy asoslari, metodlari, jamiyat va huquq tizimida tutgan o‘rni hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida so‘z yuritamiz.

**Kalit so‘zlar:** Lingvistik ekspertiza, Lingvistik ekspertologiya, Sud-huquq tizimi, Konfliktli matn (yoki bahsli matn), Huquqiy lingvistika (yuridik tilshunoslik), Nutqiy mazmun (pragmatik mazmun), Identifikatsiya (muallifni aniqlash), Semantik tahlil, Tuhmat va haqorat, Tahdid, Metodologiya

### **Kirish**

Hozirgi davrda fan va texnikaning jadal rivojlanishi fanlararo integratsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda. Xususan, tilshunoslik va huquqshunoslik sohalari o‘zaro chambarchas bog‘lanib, amaliy tilshunoslikning yangi va muhim yo‘nalishi – **lingvistik ekspertologiya** shakllandi. Lingvistik ekspertiza sud-huquq tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda, chunki turli sud ishlarida, ayniqsa, nizoli (konfliktli) matnlar bilan ishlash zarurati tug‘iladi.

Lingvistik ekspertologiyaning asosiy maqsadi – huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan matn (og‘zaki yoki yozma nutq, audioyozuvlar)ni chuqur lingvistik tahlil qilish orqali uning mazmuni, maqsadi, mualliflik xususiyatlari kabi masalalarga ilmiy asoslangan xulosalar berishdan iborat. Bu soha tuhmat, haqorat, tahdid, ekstremistik mazmunli materiallar, mualliflik huquqini buzish holatlari, reklama matnlari kabi bahsli masalalarni hal etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, lingvistik ekspertologiya yo‘nalishining istiqbollari keng bo‘lishiga qaramay, amaliyotda qator muammo va yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Bularga, masalan, ekspertiza metodologiyasini standartlashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq etish, hamda atamalar tizimidagi noaniqliklarni bartaraf etish kabi jihatlar kiradi. Ushbu mavzu doirasida lingvistik ekspertologiyaning nazariy asoslari, amaliy

muammolari va ularning yechimlari, shuningdek, sohaning kelajakdagi rivojlanish tendensiyalari atroflicha ko'rib chiqiladi.

### **Lingvistik ekspertologiyaning nazariy asoslari**

Lingvistik ekspertologiya, avvalo, lingvistikaning amaliy sohasi sifatida shakllangan, inson nutqidan dalil sifatida foydalanish zarurati tug'ilgan paytdan e'tiboran rivoj topa boshladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon miqyosida lingvistik ekspertizada yangi izlanishlar amalga oshirildi. Shu davrga kelib, odatda, anonim matnlar yoki ziddiyatli mualliflik munozaralarini aniqlashda metodik yondashuvlar zarurligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, turli hujjat, xat, og'zaki nutq yozuvlari, audioyozuvlarda ifodalangan so'zlarning fonetik, leksik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish orqali sud jarayonlarini yengillashtirish imkoni vujudga keldi. Bu esa sohaning nazariy jihatdan mustahkamlanishiga turtki bo'ldi. Lingvistik ekspertologiyaning shakllanishida nazariy manbalar sifatida mumtoz filologiya, semiotika, kognitiv lingvistika va pragmalingvistika asoslari muhim o'rin tutadi. Xususan, tilning murakkab tizim sifatida tekshirilishi va har bir nutqiy birlikning ijtimoiy, psixologik, pragmatik xususiyatlari turli modellarda o'rganilishi oradan vaqt o'tib tilshunos-ekspertlar amaliyotiga keng joriy etildi.

Lingvistik ekspertologiyani ba'zan “til va huquq chorrahasidagi fan” deb ham atashadi. Ma'lumki, huquqshunoslikda ushbu soha “forensik lingvistika” yoki “lingvokriminalistika” kabi atamalar bilan ham tavsiflanadi. Til tahlili qonun ustuvorligi yo'lida xizmat qilishi, insonlarning aybsiz yoki aybdor ekanligi to'g'risida sudga daliliy isbotlar taqdim etishi mumkin. Masalan, tahdidli xat, tuhmat mazmunli matn, haqoratli nutq, ekstremistik chaqiriqlarni topish, reklama matnlaridagi noto'g'ri ifodalarga huquqiy baho berish, plagiat holatlarini aniqlash lingvistik ekspertning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalariga bog'liq. Aynan shu ma'noda lingvistik ekspertologiya jamiyat rivojida ijtimoiy buyurtma tusini olib bormoqda.

Lingvistik ekspertologiyada asosan “ziddiyatli matn”, “nutqiy dalil”, “mualliflik uslubi”, “lug'aviy-semantik tahlil” kabi kategoriyalar muhim ahamiyat kasb etadi. “Ziddiyatli matn” – huquqiy masalalarni keltirib chiqarayotgan yoki muhokamaga sabab bo'layotgan har qanday nutqiy shakl (audio, video, matn). “Nutqiy dalil” – sud jarayoni, ma'muriy yoki jinoiy ishlar uchun zarur bo'lgan lingvistik xususiyatga ega dalil. “Mualliflik uslubi” – matn orqasida turgan shaxsga xos fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarning to'plami. “Lug'aviy-semantik tahlil” ijtimoiy bahs yoki huquqiy bahoni yo'naltirishda matndagi asosiy ma'no, qo'shimcha ma'no, konnotatsiyalar hamda uslubiy ranglarni izchil o'rganishni ko'zda tutadi. Ushbu kategoriyalar lingvistik ekspertologiyaga asos bo'lishi barobarida uning nazariy poydevorini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Lingvistik ekspertologiyaga tilshunoslikning bir qator nazariy yutuqlari tatbiq qilinadi. Chunonchi, sotsiolingvistika lingvistik ekspert uchun hudud, ijtimoiy guruh, yosh, jins va boshqa omillarning ta'sirini baholashda qo'l keladi. Psixolingvistika nutq egasining psixologik ahvolini ifoda etuvchi til belgilarini izohlashda zarur. Korpus lingvistikasi kompyuter texnologiyalari yordamida matndagi kollokatsiyalar, so'zlashish chastotasi, birikmalarni aniqlash va statistikasini ishlab chiqishda juda muhim. Bular

nazariy jihatdan mustahkam poydevor, lingvistik ekspertologiya fanining doimiy ravishda boyib borishiga sharoit yaratadi.

Lingvistik ekspertologiya tarixan sud majlislarida guvoh sifatida filolog yoki adabiyotshunoslarni jalb qilishdan boshlangan. Lekin bir muddat huquq tizimlari bunday guvohlikni aniq ilmiy dalil sifatida e'tirof etishda ikkilanib keldi. Vaqt o'tishi bilan dalillar isboti uchun lingvistik dalillarning ham xuddi texnik ekspertiza yoki kimyoviy tahlil singari obyektiv mezonlarga ega ekanligi isbot qilindi. Masalan, Yan Svartvik kabi tilshunoslarning ilg'or izlanishlari natijasida lingvistik ekspertologlarning haqiqiy qimmatini jahon bir ovozdan tan oldi. O'zbekistonda esa bu soha XX asr oxirlari va XXI asr boshida bosqichma-bosqich shakllanib, ayni paytda turli davlat organlari bilan hamkorlikda faol rivojlanmoqda.

Soha o'z mohiyatiga ko'ra, multiditsiplinar xarakterga ega. Gap shundaki, lingvistik ekspert huquqshunoslik, kriminologiya, sud-psixiatriya, hatto grafologiya bilan hamkorlik qilishi lozim. Zero matnga faqat til sohasidan kelib chiqqan holda yondashish ba'zan yetarli bo'lmaydi – xususan, qo'l yozuvining xususiyatlarini baholashda grafologik tahlil, shaxs psixofiziologik holatini tushunishda psixologik yondashuvlar kerak bo'ladi. Shuningdek, turli sohalardagi metodlar bilan boyitilgan holda lingvistik ekspert ko'plab ziddiyatli vaziyatlarga izoh topa oladi. Bu esa lingvistik ekspertologiyaning nazariy asoslari yanada puxta shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Til – murakkab ijtimoiy fenomen. U faqat oddiy aloqadorlik vositasi emas, balki ma'naviy-ma'rifiy dunyomiz ifodasi. Shu bois har bir nutq akti ortida muayyan ijtimoiy maqsad, psixologik kontekst, uslubiy omil ham mavjud. Lingvistik ekspertiza – bu mayda “parchalangan” ma'nolarni yaxlit, obyektiv ko'rinishda tahlil qiluvchi jarayon. Nutq aktining an'anaviy uch komponenti – lokutsiya (ma'naviy mazmun), illokutsiya (maqsad), perlokutsiya (ta'sir) – lingvistik ekspert tahlilida diqqat markazida turadi. Shunga ko'ra, lingvistik ekspertologiya til tizimi haqida chuqur nazariy bilimni ham, nutqning ijtimoiy-funksional tavsifini ham birdek inobatga oladi.

O'zbek tilshunosligi doirasida lingvistik ekspertologiya endilikda jadal rivoj topayotgan bo'lsa-da, ayrim muammolar hanuz dolzarb. Masalan, dialect va shevalar, yashash hududiga xos talaffuz va so'z boyligidagi farqlanishlarni maxsus metodlar bilan o'rganish, matnlarning semantik nozikliklarini aniqlash, rashk, g'azab, tahdid kabi psixoemotsional vaziyatlarni til vositalari orqali tekshirish kabi yo'nalishlar keng tadqiq etilishi zarur. Bu borada o'zbek tili materiallari asosida yaratilayotgan ilmiy ishlanmalar lingvistik ekspertologiyamizga nazariy negiz berib, huquqiy jarayonlarda milliy xususiyatlarimizni ham hisobga olish imkonini beradi.

Lingvistik ekspertologiyada faqatgi lingvistik belgilarnigina emas, balki mazkur belgilarni shakllantiruvchi omillarni ham e'tiborga olish lozim. Masalan, davr ruhiyati, siyosiy kontekst, ijtimoiy munosabatlar, ommaviy madaniyat yoki diniy e'tiqod ham ziddiyatli matnni tushunish va uni baholashda muhim. Demak, lingvistik ekspertologiya metodologiyasida ekstralingvistik kontekst ustun ahamiyat kasb etadi. Bu jihatni nazariy darajada izchil sharhlash sohaning mustahkam metodologik asosiga ishora qiladi.

Shunday qilib, lingvistik ekspertologiya asosan til tizimining nazariy qoidalari, nutqiy faoliyatning psixologik, ijtimoiy hamda metodologik qirralariga tayangan holda shakllanib bormoqda. Nazariy jihatdan pishiq tayyorgarlik ko‘rgan ekspertgina turli murakkab, ziddiyatli va nozik masalalarda xolis xulosalar bera oladi. Ana shu sababdan sohaning nazariy asoslari tinmay boyib, turli ilmiy maktab, lingvistik yondashuv, yangi texnik imkoniyatlar bilan takomillashib borishi tabiiy.

### **Lingvistik ekspertologiyaning amaliy qo‘llanishi**

Amaliy lingvistik ekspertologiyada, avvalo, ziddiyatli matnlarni tizimli o‘rganish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich – oldindan tanishuv va matnning umumiy ko‘rinishi bilan tanishish. Bu yerda matn janri, uslubi, hajmi, imkoniy maqsadli auditoriya kabi umumiy belgilar qayd etiladi. Ikkinchi bosqich – lingvistik tahlil, ya’ni so‘z tanlash, leksik-semantik o‘ziga xoslik, sintaktik qurilish, pragmatik unsurlar, konnotatsiyalar tadqiq qilinadi. Uchinchi bosqich – xulosa chiqarish. Ekspert tegishli huquqiy organ tomonidan berilgan savollarga tayanib, lingvistik dalillarni to‘plash va ularni huquqiy mezonlarga uyg‘un tushadigan tarzda ifoda etishi kerak. Shu bosqichda matnning ijtimoiy xavfli yoki, aksincha, shunchaki betaraf (mo‘tadil) ekanligi aniqlanadi.

Sud jarayonida lingvistik ekspert, odatda, quyidagi masalalarni yoritishga mas’ul: matnda haqorat yoki tuhmatni ifodalovchi so‘zlar bormi, bunday ifodalar shaxsni obro‘sizlantiradimi, matn da’vogar yoki javobgar to‘g‘risida qanday turdagi ma’lumotlarni e’lon qilgan, chaqiruvning qonunga zid shakllari bormi, plagiatning darajasi qanday va hokazo. Bularni aniqlashda nutqiy akt tahlili, diskursiv yondashuv, kontekstual izoh va sotsiolingvistik faktlar bir butun uslubda qo‘llanadi. Ekspert dalil topishning har bir bosqichida metodologik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ilmiy mezonlarga tayanadi: so‘zlarni lug‘aviy tahlil qilish, iboralarni kontekstda baholash, matndan tashqi omillarni ajratib ko‘rish kabilar. Natijada sud yoki boshqa huquqiy instansiya lingvistik ekspert xulosalariga asoslanib, adolatli qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Amaliy lingvistik ekspertologiyada eng ko‘p uchraydigan vazifalardan biri – muallifni aniqlash. Bunday holatlar, odatda, anonim tahdid xatlarida, noqonuniy shantaj mazmunidagi postlarda, ijtimoiy tarmoqlardagi haqoratli izohlarda, shuningdek, plagiatga doir nizolarda uchraydi. Matn avtorizatsiyasini aniqlash uchun turli metodlar mavjud: 1) leksik-semantik tahlil – so‘z boyligi, terminlar, frazeologizmlardan foydalanish chastotasi; 2) stilistik yondashuv – matnda qo‘llangan ifodalar, uslubiy rang-baranglik, bo‘laklarning joylashuvi, ohang; 3) statistik metod – so‘zlar chastotasi, harf birikmalari, bigram-trigramlarga asoslangan kompyuter dasturlari; 4) ko‘p omilli (multifaktorial) yondashuv: shaxsning jinsi, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, hududiy dialekt xususiyatlari kabi omillarni qo‘shgan holda kompleks baholash. Bu usullarni uyg‘unlashtirgan holda lingvistik ekspert matn ortida turgan shaxsni taxminiy baholash yoki aynan aniqlashga erishishi mumkin. So‘nggi paytlarda turli dasturiy yechimlar (masalan, korpus lingvistikasi, mashinada o‘qish algoritmlari) ham bu borada keng yordam bermoqda.

Huquqiy amaliyotda eng ko‘p uchraydigan holatdan biri – haqorat, tuhmat yoki obro‘sizlantirish mazmunli nutqning huquqiy bahosini olish. Lingvist-ekspert,

birinchidan, mazkur soʻz yoki iboraning lugʻaviy maʼnosini izohlaydi. Ikkinchidan, ularning kontekstdagi maʼnosini (masalan, tanqid, kinoya, haqorat, zoʻravonlik chaqiruvi) ajratib koʻrsatadi. Uchinchi bosqichda esa ushbu nutqning subyektga nisbatan nega haqorat yoki tuhmat ekani, jamiyatda qanday salbiy obroʻy keltirishi mumkinligi aniq tushuntiriladi. Demak, lingvistik ekspert kerak boʻlsa, matnning stilistik xususiyatlari (masalan, emosional soʻzlar, vulgar ifodalar) hamda kontekstual ishoralarni chuqur tahlil etadi. Bu amaliy ish, odatda, sudning xolis qaroriga xizmat qiladi.

Turli zamonda ekstremistik guruh, radikal qarash yoki jinoyat maqsadlari bilan kishilarni daʼvat qilishga intiladigan matnlar paydo boʻlib turadi. Bu kabi xavfli chaqiriqlarni barvaqt aniqlash huquqni muhofaza qiluvchi idoralar uchun muhim. Lingvistik ekspert matn ichidagi leksik birliklar, verbal daʼvat (chaqiruv feʼllari), psixolingvistik signal (buyrugʻimsimon soʻz va ifodalar) hamda matn pragmatikasi (tinglovchini yoki oʻquvchini qanday reaksiyaga undayotgani)ni sinchikovlik bilan koʻrib chiqadi. Agar matnda “zoʻravonlik qilish”, “odamlarni urish”, “portlatish” singari bilvosita yoki bevosita daʼvatlar aniq koʻzga tashlansa, bu hozirgi qonunchilik doirasida jazo masalasini shakllantirishi mumkin. Shu maʼnoda lingvistik ekspertologiyaning amaliy xulosalari yurt xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Lingvistik ekspertologiyaning amaliy qoʻllanishi faqat jinoyat yoki huquqbuzarlik ishlarida emas. Reklama sohasida yoki tovar belgilari, brend nomlari atrofidagi nizolarda ham lingvistik tahlil talab etiladi. Masalan, bir kompaniya nomi boshqa kompaniyaniqiga juda oʻxshash boʻlsa, harf oʻzgarishi juda oz miqdorda boʻlib, isteʼmolchini chalgʻitish darajasida boʻlsa, mualliflik huquqini buzish ehtimoli mavjud. Yoki reklama matnida boshqa shaxsni yerga uruvchi, yolgʻon xabarlar bilan isteʼmolchini chalkashtiruvchi iboralar mavjudligi ham lingvistik izohga muhtoj. Bunday holatlarda soʻzlarning asosiy va konnotativ maʼnolari, kontekst, sloganning maqsadi, unutilmas ifoda usuli kabi masalalar sinchiklab koʻrib chiqilib, huquqiy toʻgʻri xulosa chiqariladi.

Noverbal til unsurlari – ishora, mimika, imo-ishora, yuz ifodalari, tana tili ham baʼzan ekspertiza obyekti boʻlishi mumkin. Masalan, videotasvirlarda kimningdir tajovuzkorona intilishi, doʻq-poʻpisa tarzi, kamsitish maqsadida koʻrsatgan imo-ishoralari huquqiy baho talab qilishi mumkin. Garchi lingvistik ekspertologiya koʻproq til belgilari ustida ishlasa-da, noverbal signallarni ham kontekstda tahlil qilish zarur: ogʻzaki nutqning ohangi, tana harakati, sarf etilgan soʻzlar bilan uygʻunligi. Bu murakkab jarayonda videodagi maʼlumotni transkripsiya qilish, har bir soʻzning yuz ifodasi bilan uygʻunlik darajasini aniqlash ham kiradi. Shunda yakuniy xulosa keng qamrovli va ishonchli boʻladi.

Baʼzi hollarda bloggerlarning chiqishlari, televideniye yoki radio orqali eʼlon qilinadigan chiqishlar ham jamiyatda norozilik, bahs-munozarani keltirib chiqarishi mumkin. Chunki har bir soʻz yoki ibora muayyan mavzuda kishilarning dunyoqarashiga, hissiyotiga bevosita taʼsir etadi. Lingvistik ekspertologiya amaliyoti bu yerda ham dolzarb: u turli oqibatlarini (masalan, ijtimoiy gʻazab, adovat, kamsitish) oldini olish, xolis baho berish orqali sogʻlom axborot muhitini yaratishga hissa

qo‘shadi. Xususan, OAV xodimlari uchun ham tilning nozik jihatlarini bilish, e‘tiborli so‘z tanlash, xolis yondashuvda bo‘lish muhim.

Lingvistik ekspertiza amaliyotida bir necha muammo yoki xatarli omil kuzatiladi. Eng ko‘p uchraydigan muammo – shaxsiy manfaat yoki bosimlar bilan yuzma-yuz kelish. Ba’zida ekspertga turli tomondan ta’sir o‘tkazishga harakat qilinishi mumkin. Ikkinchidan, matnning ayrim qismlari buzilgan yoki montaj qilingan bo‘lishi xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi. Yana bir jihat – lingvistik adabiyotlar bazasi, ayniqsa, so‘zlarning tarixiy, dialektal, sleng shakllarini o‘z ichiga oladigan so‘zlarga oid lug‘at, bir xil terminning turli ma’nolari haqidagi manbalar cheklanganligi. Bular amaliy ishdagi murakkablikni oshiradi. Shunga qaramasdan, lingvistik ekspertologiya doimiy rivojlanish va tajribalar almashinuvi orqali bu sinovlarni yengib borishi lozim.

Demak, lingvistik ekspertologiyada amaliy jihatdan ham juda boy, turli sohalarni qamrab oladigan o‘ziga xos tahlil metodlari ishlab chiqilgan. Sud-huquq tizimi, OAV, reklama industriyasi, mualliflik huquqi himoyasining har birida lingvistik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda amaliy lingvistik ekspertiza kelgusi taraqqiyotida raqamli texnologiya, sun‘iy intellekt yutuqlari va kognitiv metodlar bilan yanada boyimoqda. Natijada nafaqat jinoyatning oldini olish va odil sudlov jarayoni, balki axborot xavfsizligi, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish kabi umumiy ijtimoiy maqsadlar uchun ham lingvistik ekspertologiya poydevor vazifasini o‘tab bormoqda.

**Xulosa.** Lingvistik ekspertologiya – bugungi kunda huquq, psixologiya, kriminologiya hamda tilshunoslik kabi ko‘plab fanlar kesishmasida shakllanayotgan, zamonaviy jamiyatga dolzarb amaliy yordam beruvchi soha. U ziddiyatli matnlarga xolis baho berish, mualliflikni aniqlash, obro‘ni himoya qilish, ekstremistik chaqiriqlarni fosh etish, plagiatni topish singari ko‘plab ustuvor yo‘nalishlarda g‘oyat ahamiyatli. Mustahkam nazariy asoslar, puxta metodologik yondashuvlar va keng ilmiy-amaliy tajriba unga tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida lingvistik ekspertologiya raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va xalqaro hamkorlik negizida yanada rivojlanib, huquqiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda kengroq ishtirok etishi shubhasiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baranov, A. N. Lingvistik ekspertiza nazariyasi va amaliyoti : darslik / A. N. Baranov. – Moskva : Akademik loyiha, 2024. – 592 b.
2. Galyashina, E. I. Sud lingvistik ekspertizasini tayinlash, ishlab chiqarish va baholash : uslubiy qo‘llanma / E. I. Galyashina. – Moskva : Sud ekspertisasi, 2023. – 156 b.
3. Suvonov, Z. O‘zbek badiiy matnlarini lingvistik ekspertiza qilishning nazariy-metodologik asoslari : monografiya / Z. Suvonov. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2024. – 180 b.
4. Musulmonova, K. Lingvistik ekspertiza nazariyasi : o‘quv-uslubiy majmua / K. Musulmonova, B. Mengliyev. – Toshkent : ToshDO‘TAU, 2023. – 120 b.

5. Jamolxonov, H. Imlo muammolari : o‘quv qo‘llanma / H. Jamolxonov, Q. Sapayev. – Toshkent : Universitet, 2022.
6. Bekchanov, A. Normativ-huquqiy hujjatlarning lingvistik ekspertizasi / A. Bekchanov // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2025. – № 5/S. – B. 630-635.

## ISH QOG‘OZLARI USLUBIDA TERMINLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

**Sadinova Nafisa,**

*NavDU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini  
dotsenti*

**Annotatsiya.** Maqolada ish yuritish sohasi terminlarining yasash xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Ish yuritish sohasi terminlarining yasash usullari, xususiyatlari, bu soha terminlarini hosil qiluvchi so‘z yasovchi qo‘shimchalarning faollashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, ish yuritish terminologiyasiga oid ba’zi misollar yordamida bu hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** lug‘at, ish yuritish, yasama termin, maxsuslashuv, affiksoid

**Аннотация.** В статье рассматриваются особенности образования терминов в сфере делопроизводства. Проанализированы способы образования и характерные черты терминов делопроизводства, а также активизация словообразовательных аффиксов, формирующих термины данной области. Кроме того, на примере некоторых терминов делопроизводства освещены специфические особенности этих языковых явлений.

**Ключевые слова:** лексика, деловая речь, искусственный термин, специализация, аффиксид.

**Annotation.** The article discusses the characteristics of term formation in the field of office administration. It analyzes the methods and features of term formation in office administration, as well as the increased use of word-forming suffixes that generate terms in this field. Additionally, the specific attributes of these phenomena are illustrated using select examples from office administration terminology.

**Key words:** vocabulary, business, artificial term, specialization, affixoid.

Ish yuritish sohasi terminologiyasida o‘zak-leksema tarkibli terminlar bilan bir qatorda yasama terminlar mavjud va, aytish mumkinki, yasama terminlar bu soha terminologiyasining asosiy qismini tashkil qiladi. “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha-inglizcha ish yuritish lug‘ati”da berilgan 3000 dan oshiqroq ish yuritishga oid terminlarning 850 ga yaqini so‘z-termin (bularning ichida yasama so‘z-terminlar ham mavjud) bo‘lsa, 2200 ga yaqini birikma terminlardir.[7.]

Termin yasalishi so‘z yasalishiga qiyosan o‘rganiladi, shu bilan birga bu ikki hodisaning umumiy va farqli tomonlari mavjudki. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida unumli sanalgan qo‘shimchalar terminologiya sohasida ma’lum sistema terminlarini hosil qilishda unumsiz bo‘lishi yoki umuman ishlatilmasligi mumkin. Adabiy tilda qo‘shimchalarning ko‘pma’noliligi, erkalash, kichraytirish, hurmat, kamsitish kabi ma’nolarni anglatib kelishi qusur sanalmasa, terminologiyada bu xususiyatlar kamchilik sanalib, iloji boricha ularni bartaraf etishga harakat qilinadi va qo‘shimchalar neytral

ma'no kasb etadi. Masalan, *-ma* qo'shimchasi hozirgi o'zbek tilida yangi so'z yasash bilan birga fe'ning bo'lishsizlik shaklini ham hosil qiladi. Ish yuritish terminologiyasida esa u faqat hujjat nomini hosil qiladi (*ko'chirma, ko'rsatma*), qo'shimchani boshqa ma'nolari esa o'z kuchini yo'qotadi.

Bundan tashqari, har bir terminologik sistema terminlarini hosil qiluvchi qo'shimchalar shu terminologik sistema doirasida alohida o'z xususiyatlari va imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Barcha soha terminologiyalarining terminlarini hosil qilishda o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Terminologiyaga oid ishlarda termin yasashning uch xil usuli kuzatiladi: semantik, morfologik, sintaktik usul.

Maqolada morfologik usulning ish yuritish sohasidagi termin hosil qilish xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik va shu soha terminlarini yasashda faol qo'llangan qo'shimchalar haqida so'z yuritdik.

***-ma* so'z yasovchi qo'shimchasi.** Hozirgi o'zbek tilida bu qo'shimcha fe'ldan ot va sifat yasaydi va mahsuldor hisoblanadi. Uning fe'ldan sifat yasash xususiyati ish yuritish sohasida deyarli kuzatilmaydi, hujjatchilikda mazkur qo'shimcha asosdan anglashilgan harakat natijasida yuzaga keladigan predmet yoki voqelik nomini yasaydi. Bunda termin yasash asosi fe'l so'z turkumiga mansub bo'ladi va qo'shimcha unga ikki xil ko'rinishda birikadi:

-to'g'ridan-to'g'ri fe'lga qo'shiladi: *aylanma, birlashma, boshqarma, jamg'arma, chegirma, uyushma, chizma, qoralama* kabi.

Hozirgi o'zbek tilida bu so'zlar ayni holatda fe'ning bo'lishsizlik ma'nosini ham anglatadi. Terminologiya doirasida bu ma'no sezilmaydi.

*-ma* qo'shimchasidan oldin fe'lga nisbat qo'shimchalari qo'shiladi: *buyurtma, yo'llanma, ko'rsatma, eslatma, qo'llanma* kabi. Bu o'rinda nisbat qo'shimchalari so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Nisbat qo'shimchalarisiz *-ma* qo'shimchasi so'z yasovchi emas, oddiy fe'ning bo'lishsiz shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bo'lib qolaveradi: *buyurma, yo'llama, ko'rma, eslama, qo'llama* kabi.

***-chi* so'z yasovchi qo'shimchasi.** Bu qo'shimcha hozirgi o'zbek tilida shaxs oti yasovchi sifatida qayd etiladi va ot yasovchi qo'shimchalar ichida eng mahsuldori hisoblanadi. Tilshunos M.Abdiyev *-chi* qo'shimchasining qadim zamonlarda ham barcha turkiy tillarda shaxs oti yasovchi sifatida mahsuldor hisoblangani va u hozirgi kunda ham shaxs oti yasovchi sifatida eng mahsuldor qo'shimcha ekanligini ta'kidlaydi. [1;14] A.Mo'minovaning tadqiqotida *-chi* qo'shimchasining qadim zamonlarda ham barcha turkiy tillarda shaxs oti, mansab, unvon nomlarini yasovchi sifatida mahsuldor hisoblangani va u hozirgi kunda ham shaxs oti va mansab, unvon nomlarini (*nazoratchi, bojxonachi, sportchi, tennischi, tergovchi, qoralovchi*) yasovchi sifatida eng mahsuldor qo'shimcha ekanligi ta'kidlanadi. [6;17-18] Ma'lumki, bu qo'shimchani shaxs oti yasovchi sifatidagi tarixiy imkoniyatlari haqida "Devonu lug'otit turk" va "Muhokamatul-lug'atayn" asarlarida ham so'z yuritiladi. Adabiyotlarda bu qo'shimcha yordamida hosil qilingan otlar umumiy ma'nolariga ko'ra sakkizta guruhga ajratiladi.

Ish yuritish terminologiyasida mazkur qo‘shimcha quyidagi ma’noli terminlar yasashda ishtirok etadi:

1) asosga *-chi* qo‘shimchasi qo‘shilganda hosil bo‘lgan kasb egasini anglatuvchi shaxs oti yasaydi: *hisobchi, nazoratchi, birjachi, iqtisodchi* kabi.

2) asosdan anglashilayotgan faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti yasaydi: *ixtirochi, ma’ruzachi, rasmiyatchi, raqobatchi, saylovchi* kabi.

Bu tipdagi terminlarning yasashida ikki holatni kuzatish mumkin:

– o‘zbek tilining o‘z so‘zlari va allaqachonlar o‘zbek tili lug‘at tarkibiga singib ketgan arabcha, forsha so‘zlardan termin yasaydi: *yo‘riqchi, iqtisodchi, nazoratchi, hisobchi* kabi;

– rus tili va u orqali boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlardan termin yasaydi: *birjachi, tabelchi* kabi;

**-lik so‘z yasovchi qo‘shimchasi.** Bu qo‘shimcha asosan mavhum ot yasaydi. *-lik* qo‘shimchasi termin hosil qiluvchi sifatida asosga ikki xil ko‘rinishda birikadi:

a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri asosga qo‘shiladi: *nogironlik, oshkoralik, vazirlik, joizlik* kabi;

b) *-lik* qo‘shimchasidan oldin so‘zga ma’lum qo‘shimchalar qo‘shiladi. Mas.: *-dor* qo‘shimchasi: *qarzdorlik, samaradorlik, manfaatdorlik, huquqdorlik* kabi; *-gar* qo‘shimchasi: *javobgarlik, da‘vogarlik*; *-siz* qo‘shimchasi: *nazoratsizlik, ishsizlik* kabi. Shuni ta’kidlash joizki, bu o‘rinda *-dorlik, -garlik, -sizlik* murakkab qo‘shimchalar emas, chunki o‘zbek tilida *javobgar, samarador, ishsiz* kabi mustaqil ma’noli so‘zlar ham mavjud.

Ba’zi qo‘shimchalar faqat bir asosli termin hosil qilishda qatnashsa, ba’zilari qo‘shma terminlarda va termin-so‘z birikmasi tarkibidagi terminelementlarda ishtirok etadi. Ayrimlari bu uch xususiyatga ham ega bo‘ladi. Jumladan, *-lik* qo‘shimchasi bir asosli so‘zlar bilan birga birdan ortiq asosli so‘zlardan ham termin yasaydi: *o‘nkunlik, ishbilarmonlik*;

*-lik* qo‘shimchasi terminelement hosil qilishda so‘z birikmasining har ikki qismida ham kelishi mumkin: *aksiyadorlik jamiyati, buxgalterlik hisobi, deputatlik guvohnomasi; ma’muriy javobgarlik, shaxsiy javobgarlik*.

**-(u)v qo‘shimchasi.** Bu qo‘shimcha asosdan anglashilgan harakat natijasida yuzaga keladigan predmet yoki faoliyat nomini yasaydi va termin, terminelement hosil qilishda ishtirok etadi:

1) so‘z-termin tarkibida: *boshqaruv, yozuv*.

2) termin-so‘z birikmasi tarkibida: *ichki kelishuv, tashqi kelishuv, o‘zaro kelishuv*.

**-(u)vchi qo‘shimchasi** shaxs va narsani asosdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi sifatida ifodalaydi va termin-so‘z birikmasi tarkibidagi terminelementni hosil qilishda ishtirok etadi: *ish yurituvchi, umumlashtiruvchi hujjat* kabi.

**-q(-uq) qo‘shimchasi.** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu qo‘shimcha bilan yasalgan ba’zi so‘zlarning ham ot, ham sifat vazifasida qo‘llana olishi ko‘rsatiladi. [9;590] Ish yuritish terminologiyasida uning sifat yasash xususiyatidan foydalanilmaydi,

fe’ldan ot yasash xususiyati esa faollashadi: *buyruq, topshiriq, chaqiriq* kabi. *-q/-uq* qo’shimchasi bilan yasalgan so’zlardan *-noma* affiksoidi yordamida hujjat nomi ham hosil qilinadi: *so’roqnoma, chaqiriqnoma* kabi.

**-m (-im, -um) qo’shimchasi** fe’ldan ot yasaydi: *bo’lim, kirim, chiqim*. Ish yuritish terminologiyasida bu qo’shimcha asosan bir bo’g’inli so’zlarga birikadi: *bitim, bichim, tizim* kabi.

**-dor qo’shimchasi** ish yuritish sohasida ham shaxs oti yasaydi. Buni quyidagi misollardan ham ko’rish mumkin: *qarzdor, aksiyador, mansabdor* va sh.k. Taniqli terminshunoslar S.A.Chapligin va D.S.Lotte terminologiyada affikslarning ko’pma’noliligini cheklash va ularni maxsuslashtirib qo’llash, har bir affiksga ma’lum ma’noni yuklash muhimligini qayd etishgan. [8;882]

**-lash qo’shimchasi.** F.Jumayevning ta’kidlashicha, *-lan* va *-lash* affikslari ko’pgina turkiy tillarda, jumladan, o’zbek tilida ham allaqachon fe’l yasovchi qo’shma affiks sifatida shakllanib bo’lgan. [3;94] Adabiyotlarda o’zbek tilida uchta *-lash* affiksi (*-lash<sup>1</sup>, -lash<sup>2</sup>, -lash<sup>3</sup>*) borligi qayd etiladi. *-lash<sup>1</sup>* fe’l yasovchi *-la* va o’zlik nisbat shakli yasovchi *-sh* affikslari birikuvidan, *-lash<sup>2</sup>* fe’l yasovchi *-la* va birgalik nisbat shakli yasovchi *-sh* affikslari birikuvidan, *-lash<sup>3</sup>* esa fe’l yasovchi *-la* va harakat nomi shaklini yasovchi *-sh* affikslarining o’zaro birikuvidan hosil bo’lgan. [10;154-158] *-lash<sup>3</sup>* affiksi rus tili va rus tili orqali o’zlashgan so’zlardan ish oti yasaydi: *komplekslash, industrlash, mexanizatsiyalash* kabi. Ish yuritish terminologiyasida *-lash<sup>1</sup>, -lash<sup>2</sup>* affikslariga nisbatan *-lash<sup>3</sup>* affiksi bilan termin yasash hodisasi ko’proq kuzatiladi.

**-lanish, -lashtirish** murakkab qo’shimchalari ish yuritish sohasi terminlari tarkibida ko’p uchraydi. N.Mahkamov bu qo’shimchalarning kalka ta’sirida vujudga kelganini ta’kidlaydi: “Kalkalashtirish faqat yangi so’zlar hosil qilish bilan cheklanmay, balki yangi affikslarni ham vujudga keltiradi. Masalan, *-lashtirish* (*-la+sh+tir+ish*) qo’shma affiksi ruscha-internatsional so’zlar sostavidagi *-izatsiya, -ifikatsiya* kabi affikslarni kalkalashtirish natijasida kelib chiqqan.” [4;26. 5;11]

*-lash, -lanish* qo’shimchalari termin tarkibida ham, terminelement tarkibida ham faol ishtirok etadi. Bu qo’shimchalar bilan termin hosil qilishda ikki holatni kuzatamiz:

a) o’zbekcha va o’zbek tili lug’at tarkibiga singib ketgan arabcha, forsha so’zlarga qo’shiladi (*jamlash, butlash, qadrsizlanish* va b.);

b) baynalmilal so’zlarga qo’shiladi (*attestatlash, akkreditlash, komplektlash* kabi) hamda terminologik birikma hosil qiladi (*merosni xatlash, mehnatni me’yorlash, mol ayirboshlash* kabi).

Adabiyotlarda bu qo’shimchaning roli rus tilining ta’siri kuchayishi va ruscha so’zlarni tarjima qilish bilan oshgani ta’kidlanadi. Ba’zi holatlarda tarjima qilinayotgan so’zlar bir xil qo’shimcha (masalan, *-lash* bilan: *jamlash, butlash, komplektlash*) [2;408] bilan hosil qilinib, terminlar sinonimiyasini vujudga keltiradi va bu holat bartaraf etilishi kerak. Bundan tashqari, *-lash* va *-lashtirish* qo’shimchalarini bitta so’zda qo’llash yoki o’rnini almashtirib qo’llash hollari ham uchraydi. “Ish yuritish” amaliy qo’llanmasida *standartizatsiya* – andozalash, andozalashtirish, standartlash,

*нормирование* – me'yorlash, *инвентаризация* – inventarlash, *планирование* – rejalash, rejalashtirish tarzida tarjima qilinadi. [2;429]

N.Mahkamov *-fikatsiya, -izatsiya, -irovaniye* kabi ruscha affikslarni o'zbekcha *-lashtirish* affiksi bilan, *-atsiya, -ovaniye* affikslarini *-lash* affiksi bilan almashtirishni taklif etadi. [4;27] Bu fikrga qo'shilgan holda *andozalash* o'rnida *standartlashtirish* so'zini to'g'riroq deb hisoblaymiz.

Umuman, kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, ish yuritish sohasiga oid terminlarni hosil qilishda 20 ga yaqin so'z yasovchi qo'shimchadan foydalanilgan, lekin, yuqorida ta'kidlanganidek, ularning bu soha terminlarini hosil qilishdagi imkoniyatlari bir xil emas. *-ma, -chi, -lik, -(u)v, -q(-iq, -uq, -ik), -im, -dor, -lash, -lashtirish* kabi qo'shimchalar va *-noma, -xona* affiksoidlarining soha terminlarini hosil qilishda faol ishtirok etishi kuzatiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1 Абдиев М. Б. Аффиксальный способ образования названий лиц в узбекском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1991.

2. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma (tuzatilgan va to'ldirilgan 5-nashri). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.

3. Jumayev F. *-lan* affiksli fe'l yasalmalarning ayrim qo'shma fe'llar bilan sinonimiyasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2005. – №4.

4. Mahkamov N. O'zbek tiliga o'zlashgan ruscha-internatsional so'zlar sostavidagi morfologik ko'rsatkichlar / O'zbek terminologiyasida leksik variantlar. – Toshkent: Fan, 1986.

5. Mahkamov N. Mustaqillik davri atamashunosligi: muammolar va yechimlar // O'zbek tili atamashunosligi. Axborot. 13–14-chiqaruv. – Toshkent: Fan, 2002.

6. Mo'minova A.Q. O'zbek tilida mansab va unvon nomlarining leksik-semantik tarkibi: Filol. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2000.

7. Панасенко Э.Д., Холл М.А., Маҳкамов Н., Мадвалиев А.П., Панасенко И.Ю. Қисқача русча-ўзбекча-инглизча иш юритиш луғати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995.

8. Чаплыгин С.А., Лотте Д.С. Задачи и методы работы по упорядочению технической терминологии /Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд. АН СССР, 1961.

9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

10. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.



## MILLIY TERMINOLOGIYA MASALALARI TADQIQIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR



**Islomov Ikrom,**  
*Renessans ta'lim universiteti dotsenti,*  
*filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada milliy terminologiya masalalarining hozirgi tilshunoslik paradigmalari – antroposentrik, kognitiv, korpus lingvistik, sotsioterminologik yondashuvlar asosida tadqiq qilinishi masalalari tahlil qilinadi. O‘zbek tilida milliy terminologiyaning shakllanishi, terminlarning o‘zlashuvi va milliylashuvi, lingvistik, ekstralingvistik, me‘yoriy jarayonlar hamda raqamli lug‘atchilik va sun‘iy intellekt texnologiyalari bilan bog‘liq yangi tendensiyalar tahlil qilinadi. Maqolada milliy termin tizimini o‘rganishda tizimli-struktural, tarixiy-etimologik, kognitiv, diskursiv va korpus yondashuvlarning bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari tahlili doirasida zamonaviy o‘zbek terminologiyasi oldida turgan asosiy nazariy va amaliy vazifalar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *termin, milliy terminologiya, zamonaviy o‘zbek terminologiyasi, sotsioterminologiya, korpus lingvistika, raqamli lug‘atchilik, terminologik me‘yor, o‘zlashma termin, kalkalash, sun‘iy intellekt.*

**Abstract.** This article analyzes the study of national terminology issues within the framework of current linguistic paradigms – anthropocentric, cognitive, corpus linguistic, and socioterminological approaches. It examines the formation of national terminology in the Uzbek language, the adaptation and nationalization of terms, linguistic and extralinguistic processes, normative developments, as well as new trends associated with digital lexicography and artificial intelligence technologies. The article presents reflections on the main theoretical and practical tasks facing modern Uzbek terminology, within the framework of a comprehensive analysis of complementary aspects of systemic-structural, historical-etymological, cognitive, discursive, and corpus-based approaches to the study of the national terminological system.

**Keywords:** *term, national terminology, modern Uzbek terminology, socioterminology, corpus linguistics, digital lexicography, terminological norm, borrowed term, calquing, artificial intelligence.*

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы изучения национальной терминологии в рамках современных лингвистических парадигм – антропоцентрического, когнитивного, корпусного и социотерминологического подходов. Рассматриваются формирование национальной терминологии в узбекском языке, заимствование и национализация терминов, лингвистические и экстралингвистические процессы, нормативные аспекты, а также новые тенденции, связанные с цифровой лексикографией и технологиями искусственного интеллекта. В статье изложены размышления о ключевых теоретических и практических задачах современной узбекской терминологии в контексте анализа дополняющих друг друга аспектов системно-структурного, историко-этимологического, когнитивного, дискурсивного и корпусного подходов к изучению национальной терминологической системы.

**Ключевые слова:** *термин, национальная терминология, современная узбекская терминология, социотерминология, корпусная лингвистика, цифровая лексикография, терминологическая норма, заимствованный термин, калькирование, искусственный интеллект.*

Har qanday millatning ilmiy-texnik va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda milliy terminologiya alohida ahamiyatga ega. Fan va texnika rivoji bilan bog'liq tushunchalar hamisha til orqali ifodalanadi, shu bois sohaviy terminlar tizimi milliy tilning ichki imkoniyatlari, so'z yasash modellari, o'zlashmalarni o'zlashtirish strategiyalari bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida o'zbek tilida ham yangi konseptlar, ilmiy-texnik birliklar oqimi kuchayib, ular uchun adekvat, me'yoriy jihatdan muvofiqlashtirilgan, funksional jihatdan qulay milliy terminlar tizimini yaratish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Milliy terminologiya masalalari o'zbek tilshunosligida XX asrning 20–30-yillaridan boshlab alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllana boshlagan bo'lsa-da, mustaqillikdan keyingi davrda bu masala yangi bosqichga ko'tarildi: davlat til siyosati, me'yoriy hujjatlar, Atamashunoslik/Terminologiya qo'mitasi faoliyati, tarmoq izohli lug'atlar va elektron resurslar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ko'lami kengaydi.

Bugungi kunda milliy terminlar tizimini faqat struktural-grammatik mezonlarda emas, balki antropotsentrik (inson omili, nutqiy ehtiyojlar), kognitiv (kontseptual mazmun, konseptosfera), sotsioterminologik (jamiyat, til siyosati, ijtimoiy buyurtma) va korpus lingvistikasi (korpus asosidagi statistik-empirik tahlil) tamoyillari asosida tadqiq etish talab etilmoqda.

Milliy terminologiya masalalarini zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari nuqtayi nazaridan nazariy umumlashtirish, o'zbek milliy terminologiyasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatish hamda bu boradagi ilmiy tadqiqotlar uchun konseptual mezonlar taklif etish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Zamonaviy terminshunoslikda terminning quyidagi belgilari nisbatan barqaror sifatida e'tirof etiladi: aniqlik va birma'nolilikka intilish; tizimlilik (terminlar paradigmatic va sintagmatik bog'lanishlarda namoyon bo'ladi); uslubiy neytrallik (asosan ilmiy, rasmiy-uslubiy qatlamga mansubligi); me'yoriylik (davlat va sohaviy standartlar, lug'atlarda mustahkamlanish). Biroq real nutq amaliyoti shuni ko'rsatadiki, terminlar ham ko'p hollarda polisemiya, sinonimiya, variantlilik kabi hodisalarga moyildir; bu esa milliy terminologiya tizimining ichki dinamikasini ifodalaydi.

Ma'lumki, milliy terminologiya – muayyan milliy tilning sohaviy leksikasini o'z ichiga oluvchi, milliy tilning ichki resurslari, tarixiy-leksik qatlamlari va o'zlashmalar bilan uzviy aloqada shakllanadigan tizimdir. Unda quyidagi omillar muhim sanaladi: davlat tili maqomi va til siyosati; ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati; milliy davlatchilik va huquqiy tizim (qonunlar, me'yoriy-texnik hujjatlar); ta'lim tizimi va o'quv-metodik adabiyotlar.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi (1989) va keyingi me'yoriy-huquqiy hujjatlar milliy terminologiya rivoji uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Terminlarni tartibga solish bo‘yicha maxsus komissiya va kengashlar faoliyati, yangi atamalarni tasdiqlash amaliyoti milliy termin tizimini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida tilshunoslikda antropotsentrik paradigma ustuvorlik kasb etdi, til hodisalari “inson – til – jamiyat” tizimi doirasida o‘rganila boshlandi. Bu yondashuv terminshunoslikka ham tatbiq qilinib, terminlar faqat “nomlash vositasi” sifatida emas, balki ilmiy tafakkur modeli, sohaviy bilimni konseptual tashkil etuvchi birlik sifatida talqin etilmoqda.

Kognitiv yondashuv terminlarni ma’lum kontsept va freymlar bilan bog‘liq holda o‘rganishni taklif etmoqda. Masalan, *sug‘urta*, *sun‘iy intellekt*, *gen muhandisligi*, *raqamli iqtisodiyot* kabi terminlar faqat leksik birliklar emas, balki keng ijtimoiy-kognitiv maydonni ifodalovchi konseptlarning lingvistik shakllanishidir. Kognitiv yondashuv milliy terminologiya tadqiqida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: 1) terminlarning kontseptual tuzilishini (subkontseptlar, atributlar) modellashtirish; 2) turli tillardagi terminlar orasidagi konseptual ekvivalentlik va farqlarni aniqlash; 3) terminlarning metaforik va metonimik asoslarini ochish; 4) ilmiy diskursdagi konseptual metafora va kognitiv ssenariylarni tahlil qilish.

Milliy terminologiya masalasini faqat lingvistik tizim darajasida emas, balki jamiyat, siyosat, iqtisod, ta’lim, ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq holda o‘rganish zamonaviy tadqiqotlarning muhim xususiyatidir. Xususan, sotsioterminologiya terminlarni ijtimoiy buyurtma mahsuli, siyosiy-diskursiv qarorlar natijasi, turli nutqiy amaliyotlarda (ilmiy maqola, qonun matni, OAV, reklama, internet) turlicha tatbiq qilinadigan birlik sifatida o‘rganadi. Masalan, *milliy tiklanish*, *raqamli iqtisodiyot*, *inson qadri*, *yangi O‘zbekiston* kabi leksik birliklarning terminlashuvi nafaqat ilmiy, balki mafkuraviy-madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Ayni hodisa milliy terminologiyaning faollashuvi bilan birga namoyon bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilining milliy va ta’limiy korpusi, turli sohaviy matnlar korpuslari, elektron lug‘atlar yaratila boshlagani milliy terminologiya tadqiqiga kuchli turtki berdi deyish mumkin. Korpus asosidagi tadqiqotlar terminlarning mavjud qo‘llanish chastotasi, nutqiy kontekstlar va kollokatsiyalarni, variant shakllar, sinonimik qatorlar, o‘zlashma va milliy ekvivalentlarning vazifaviy nisbatini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, raqamli lug‘atchilik va sun‘iy intellekt texnologiyalari esa terminologik bazalarni avtomatik to‘ldirish, matnlardan terminlarni avtomatik ekstraksiya qilish, ko‘p tilli terminologik bazalar (o‘zbek–ingliz–rus va boshqalar)ni yaratish, terminlarning mashina tarjimasini va terminologik konsalting tizimlarida qo‘llanishini ta’minlaydi. Bu jarayon milliy terminologiya tadqiqini faqat nazariy aspektida emas, balki texnologik va amaliy yo‘nalishda ham rivojlantirmoqda.

Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek terminologiyasi taraqqiyoti quyidagi asosiy yo‘nalishlarda kechganligi kuzatiladi:

1) davlat til siyosati va til haqidagi qonunlarni yangilash, davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha qaror va farmonlarning qabul qilinishi;

2) atamalarni tartibga soluvchi atamashunoslik qo‘mitasi hamda ilmiy kengashlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

3) turli sohalar bo‘yicha izohli, ikki va ko‘p tilli terminologik lug‘atlarning yaratilishi (ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, texnik, tibbiy, sug‘urta, moliya va b.);

4) terminologiya va leksikografiya masalalariga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmalar, darsliklarning nashr etilishi;

5) “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Zamonaviy o‘zbek tili”, “Til va adabiyot ta’limi” kabi ilmiy jurnallarda milliy terminologiya masalalariga bag‘ishlangan maxsus ruknlarning ochilishi kabilar. Ushbu institutsional baza milliy terminologiya muammolarini kompleks tadqiq qilish, terminlarni barqarorlashtirish, standartlashtirish va ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Bu boradagi yana bir muhim masala shuki, zamonaviy o‘zbek terminologiyasi tizimida o‘zlashma terminlar ulushining sezilarli darajada ortib borayotganidir. Inglizcha, ruscha, xitoycha, ba‘zan koreyscha, yaponcha va boshqa tillardan kirib kelayotgan terminlar ko‘pincha fan-texnika, axborot texnologiyalari, moliya-iqtisod, bank, tibbiyot sohalariga taalluqlidir.

Ushbu jarayonda quyidagi bir qator yondashuvlarni alohida qayd qilish lozim:

–to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashma: *server, marketing, bloger, onlayn, kredit*;

–qisman moslashtirilgan shakl: *kompyuter, internet, menedjer, kontent*;

–kalkalash (semantik yoki so‘zma-so‘z tarjima): *sun‘iy intellekt (artificial intelligence), foiz stavkasi, valyuta kursi* va b.;

–milliy neologizmlar: mavjud turkiy ildizlar asosida yangi terminlar yasash (masalan, *ko‘pkanalli (multikanal), raqamlashtirish (digitalizatsiya)* kabilar.)

Milliy terminologiya siyosatining asosiy maqsadi – tilning tabiiy rivoji, xalqaro ilmiy muomala talablaridan kelib chiqib, o‘zlashma va milliy terminlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdir. Bunda “til sofligi” va “ilmiy muloqot qulayligi” tamoyillari ehtiyotkorlik bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Milliy terminologiya tizimida terminlarning vazifaviy-uslubiy differensiasiyasi ham alohida ahamiyatga ega sanaladi. Xususan, ilmiy uslub: monografiya, maqola, dissertatsiyalarda terminlar qat’iy me’yorlangan, ko‘p hollarda o‘zbekcha ekvivalentlar tanlanadi; rasmiy-huquqiy uslub: qonunlar, nizomlar, qarorlarda terminlarning aniq, qisqa va tushunarli bo‘lishi, huquqiy noaniqliklarga yo‘l qo‘ymaslik talabi kuchli; ommaviy axborot vositalari uslubi: terminlar foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun izoh bilan, metaforik vositalar bilan birga qo‘llanadi; pedagogik diskurs:

terminlarning didaktik interpretatsiyasi (o'quv qo'llanmalar, darsliklar, ta'limiy videodarslar) kabilarni qayd qilish mumkin.

Bugungi raqamli kommunikatsiya makonida internet va ijtimoiy tarmoqlarning keskin rivojlanishi terminlarning ommalashuvi jarayonini jadallashtirib, ularning an'anaviy sohaviy chegaralarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Xususan, ilgari faqat muayyan ilmiy, texnik yoki professional doira vakillari tomonidan qo'llanilgan ko'plab terminlar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar va raqamli platformalar orqali keng jamoatchilik nutqiga kirib kelib, asta-sekin umumiste'mol leksika tarkibiga singib bormoqda. Natijada terminlarning funksional maqomi o'zgarib, ular nafaqat aniq ilmiy tushunchani ifodalovchi maxsus birlik, balki kundalik muloqotda kommunikativ vosita sifatida ham faol ishlatilmoqda. Ushbu jarayon milliy terminologiya tadqiqida "ilmiy termin – umumtil leksikasi" o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni qayta ko'rib chiqishni, terminlarning semantik soddalashuvi, metaforalashuvi, stilistik neytrallashuvi va kontekstual ko'pma'noliligi kabi hodisalarni kompleks tarzda tahlil qilishni taqozo etadi. Shu bois zamonaviy terminologik tadqiqotlarda terminlarning raqamli muhitdagi o'rni, ularning ommaviy ongda qayta talqin qilinishi hamda me'yoriy va deskriptiv yondashuvlar o'rtasidagi muvozanat masalalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Milliy terminologiya masalalarini zamonaviy lingvistik paradigmalariga tayangan holda tizimli tarzda o'rganish uchun **kompleks, ko'p qatlamli metodologik bazani** shakllantirish zarur. Bunda terminlarni faqat lisoniy birlik sifatida emas, balki **ijtimoiy-madaniy, kognitiv, diskursiv va texnologik omillar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim** sifatida talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, antroposentrik, kognitiv, sotsioterminologik, korpus-lingvistik va diskursiv yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi terminlarning shakllanishi, milliydashuvi, nutqda qo'llanilishi hamda me'yorlashuv jarayonlarini yaxlit ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar bir-birini to'ldirgan holda, milliy terminning ichki strukturasi, semantik dinamikasi va zamonaviy kommunikativ makondagi faoliyatini aniqlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Milliy terminologiya masalalarini zamonaviy yondashuvlar asosida o'rganish uchun kompleks metodologik baza zarur. Bunda quyidagi yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi samarali natija beradi:

1. Tizimli-struktural tahlil (terminlarning yasaliş modellari; terminlar tizimi, giper/giponimik munosabatlar; sohaviy mikrotizimlar (masalan, *sug'urta*, *AI*, *gen muhandisligi terminlar tizimi*)).

2. Tarixiy-etimologik yondashuv (milliy terminlarning tarixiy ildizlarini aniqlash; arabcha, fors-tojikcha, ruscha va boshqa o'zlashmalar bilan aloqalarni ko'rsatish; terminlarning tarixiy qatlamlari: jadid davri, sovet davri, mustaqillik davri).

3. Kognitiv-semantik tahlil (terminlarning konseptual tuzilishi (masalan, *milliy korpus*, *sun'iy intellekt* konseptlari; terminlar asosidagi metaforik modellarning (tarmoq, platforma, virus, navbat va b.) tahlili; o'zbek tilidagi milliy konseptosfera va terminologik tizim munosabati.)

4. Sotsioterminologik va diskursiv yondashuv (terminlarning jamiyatdagi qabul qilinishi, baholanishi, ideologik yuklamasi; OAV, siyosiy nutq, reklama va internet diskursidagi terminlar; terminologik qarorlar (yangi terminlarni tasdiqlash)ning ijtimoiy rezonansi.)

5. Korpus lingvistikasi va raqamli tahlil (milliy va sohaviy korpuslar asosida terminlarning chastotasi, variantlilik darajasini aniqlash; avtomatik term-ekstraksiya, n-gram tahlillari; ko'p tilli korpuslar yordamida termin ekvivalentlarini qiyosiy tahlil qilish).

6. Leksikografik yondashuv (terminologik lug'at maqolasining strukturasi (lemma, definitsiya, grammatik belgi, uslubiy ko'rsatkich, misollar) zamonaviy talablarga mos holda takomillashtirish; bosma va elektron lug'atlar, ma'lumotlar bazalari o'rtasida integratsiyani ta'minlash; foydalanuvchi ehtiyojlariga mos interaktiv terminologik platformalarni ishlab chiqish.)

Ushbu metodlarning bir-birini to'ldiruvchi tarzda qo'llanishi milliy terminologiya masalalarini kompleks, ko'p qirrali holda yoritish imkonini beradi.

Yuqorida qayd qilingan masalalarga doir kuzatish va tahlil natijalariga tayangan holda quyidagicha xulosalarni qayd qilish maqsadga muvofiq:

1. Milliy terminologiya til leksik tizimining o'ziga xos, yuqori darajada tartiblangan, shu bilan birga, ichki dinamikaga ega bo'lgan qatlamidir. U milliy tilning tarixiy qatlamlari, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlari, til siyosati hamda globallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq tarzda shakllanadi.

2. Zamonaviy tilshunoslik paradigmalari (antropotsentrik, kognitiv, sotsioterminologiya, korpus lingvistika) milliy terminologiyani faqat "so'z va ma'no" munosabatida emas, balki inson omili, jamiyat, diskurs va texnologik muhit bilan uyg'un holda o'rganishga imkon bermoqda. Bu esa o'zbek terminologiyasi tadqiqini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

3. Mustaqillik davrida o'zbek milliy terminologiyasi taraqqiyoti uchun zarur huquqiy-me'yoriy baza yaratildi, Atamashunoslik qo'mitasi hamda boshqa tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi, ko'plab sohaviy terminologik lug'atlar va o'quv qo'llanmalar yaratildi. Biroq o'zlashma terminlar oqimining kuchayishi, terminlarning OAV va internet orqali jadal sur'atdagi ommalashuvi, variantlilik va sinonimiya muammolari hali ham izchil hal etishni talab qilmoqda.

4. Milliy terminologiya masalalarini zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etish uchun sistem-struktural, tarixiy-etimologik, kognitiv, sotsioterminologik, diskursiv,

korpus va leksikografik metodlar yaxlit qo'llanishi zarur. Ayniqsa, milliy va ta'limiy korpuslar, raqamli lug'atchilik, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish terminologik tadqiqotlarning empirik bazasini boyitadi, nazariy umumlashtirishlarni aniq faktlar bilan dalillash imkonini beradi.

5. O'zbek milliy terminologiyasi tadqiqi istiqbolida fan va texnika tarmoqlari bo'yicha sistemaviy termin maydonlarini modellashtirish; ko'p tili (o'zbek–turk–ingliz–rus va b.) terminologik platformalar yaratish; terminlarning kognitiv-metaforik modellarini tahlil qilish; o'quv jarayoni uchun interaktiv terminologik resurslar ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalar milliy terminologiya masalalarini kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt terminologiyasi, yangi texnologiyalar leksikasi misolida yanada chuqurroq tadqiq etish uchun konseptual asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. –Тошкент, 2002.
  2. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 80.
  3. Мадвалиев А. Ўзбек химия терминологиясида дублетлик ва уни минимумга келтириш масаласи / Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар.- Тошкент: «Фан», 1986. – Б. 80-102.
  4. Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт перспективалари. 1 Республика терминология конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1986.
  5. Даниленко В.П. Русская терминология. – М.: Наука, 1977.
  6. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2019.
- Вахриддинова В. Она тили та'лимида тиниш белгиларини о'қитиш муаммолари // *Zamonaviy o'zbek tili. Ilmiy-amaliy jurnal.* –Toshkent, 2023. 2-son.

## GEMINATSIYA HODISASINING PRAGMATIK IMKONIYATLARI (Tohir Malikning “Shaytanat” asari misolida)

**Ernazarova Gulnoza**

*Navoiy davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

**Annotatsiya:** Mahoratli adiblar o'z asarlarida personajlarning qiyofasini kitobxon ko'z o'ngida to'laqonli gavdalantirish uchun uning nutqida boshqa til birliklari qatorida o'ziga xos tarzda fonetik birliklarni ham qo'llaydi. Mazkur maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” asarida geminatsiya (undosh tovushlarni qavatlab qo'llash) orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlarining, xarakteridagi maqtanchoqlik, olchoqlik, o'ziga bino qo'yish, kibr-u havo kabi xususiyatlarining tugal tasvirini yaratishdagi pragmatik imkoniyatlari misollar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** geminatsiya, fonetik birlik, uslubiy vosita, fonetik o'zgarish, ta'sirchanlik, personaj nutqi individuallashtirish, qahramon nutqi, uslubiy vosita.

**Аннотация:** Чтобы наиболее полно воплотить образы героев своих произведений, искусные писатели по-своему используют фонетические единицы в речи, наряду с другими языковыми единицами. В данной статье рассматриваются прагматические возможности геминации (наслоения согласных) в произведении Тахира Малика «Шайтанат» в создании целостного образа состояний радости и печали в психике героя, а также таких черт характера, как хвастливость, высокомерие, самомнение, заносчивость и высокомерие, в его характере, на основе примеров.

**Ключевые слова:** геминация, фонетическая единица, стилистический приём, фонетическое изменение, экспрессивность, индивидуализация речи персонажа, речь героя, стилистический приём.

**Abstract:** In order to fully embody the image of the characters in their works, skilled writers use phonetic units in their speech, along with other linguistic units, in their own way. This article highlights the pragmatic possibilities of gemination (layering consonants) in Tahir Malik's work "Shaytanat" in creating a complete image of the states of joy and sadness in the hero's psyche, as well as such features as boastfulness, arrogance, self-importance, arrogance and arrogance in his character, based on examples.

**Keywords:** gemination, phonetic unit, stylistic device, phonetic change, expressiveness, character speech individualization, hero speech, stylistic device.

**Kirish.** Badiiy asar tilini o'rganar ekanmiz tilshunoslikdagi barcha sohalar unda aks etganiga guvoh bo'lamiz. Mahoratli adiblarimiz badiiy asar yaratar ekan, tilning barcha birliklaridan, shu jumladan, fonetik birliklardan ham personaj nutqini individuallashtirishda o'rinli va unumli foydalanadi.

So'z tarkibidagi biror tovushning talaffuzda o'zgarishi (cho'ziq aytilishi, almashtirib qo'llanishi, tushirib qoldirilishi, qavatlanishi) ma'noga ham ta'sir qiladi. Bunday hollarda so'zning denotativ ma'nosi o'zgarmay, faqat konnotativ ma'nosi o'zgaradi.”<sup>1</sup>. Asar

<sup>1</sup> Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent.- O'qituvchi.-1985. – B.88.

qahramonining qiyofasini kitobxon ko‘z o‘ngida to‘laqonli gavdalantirish uchun uning nutqida o‘ziga xos tarzda qo‘llangan fonetik birliklar o‘ziga xos pragmatik vosita vazifasini o‘taydi. Buni iste’dodli so‘z san’atkori Tohir Malikning mashhur “Shaytanat” asariga qo‘llangan geminatsiya hodisasi misolida yoritishga harakat qilamiz

Ma’lumki, bu asarda shaytanat olami, ya’ni jinoyatchilar guruhi bilan bog‘liq voqealar o‘z aksini topgan. Tohir Malik asar qahramonlarining ichki ruhiy olamini fonetik birliklar vositasida poetik tasvirlashga, nutqini individuallashtirishga erishgan. Yozuvchi asar personajlarining ijtimoiy holati, kasb-kori, yashash tarzi, xarakter-xususiyatini tasvirlash jarayonida fonetik hodisalardan biri – geminatsiyani asosiy pragmatik vosita sifatida qo‘llaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Geminatsiya – ikkita bir xil undoshning so‘z tarkibida qavatlanishi.<sup>2</sup>

Badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari, xarakteridagi maqtanchoqlik, olchoqlik, o‘ziga bino qo‘yish, kibr-u havo kabi xususiyatlarining tugal tasvirini ochib berishda geminatsiyaning pragmatik imkoniyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda lingvopoetik, kognitiv pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** So‘z ustasi Tohir Malik o‘zining mashhur “Shaytanat” asarida, ayniqsa, “haq” so‘ziga turli shakldagi egalik qo‘shimchalarini qo‘shish jarayonida yuzaga chiqadigan geminatsiya hodisasidan muvaffaqiyatli foydalangan, uni badiiy dialogik nutqqa olib kirgan:

– *Nima qilmoqchisan? – dedi Sayfi titroq ovozda. Uning bu holatidan Hamdam mamnun bo‘ldi – unga aynan shu kerak edi.*

– *Seni osmoqchiman, – dedi xotirjamlik bilan. – Keyin... yoqaman.*

– *Haqqingiz yo‘q!*

– *Nega haqqim bo‘lmas ekan, haqqim bor, og‘ayni. Bu shohga ikkita odam osildi. Sen uchinchisi bo‘lasan. Biz esa qotil topilmadi, deb ishni yopdi-yopdi qilib yuboraveramiz.*

– *Haqqingiz yo‘q! – deb baqirib yubordi Sayfi.*

– *Sening haqqing bormidi?*

– *Men o‘ldirganim yo‘q!*

– *Kim o‘ldirdi?*

– *Bilmayman.*

Asardan olingan ushbu parchada geminatsiya hodisasi o‘zgacha badiiylilikni, ma’no kuchaytirishni ta’minlashda, personajlar nutqini individuallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu taxlit qo‘llanish hozirgi adabiy tilidagi ayrim undoshlarning qo‘shaloq kelishi – geminatsiya hodisasining matniy xarakterini yuzaga chiqaradi.

<sup>2</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘qituvchi. 1985. – B. 143.

Tergovchi va jinoyatchi o‘rtasidagi yuqoridagi dialogda “haq” so‘zi oxirida kelgan q tovushining qavatlanishi yuzaga kelgan. Asarda haq so‘ziga -im, -ingiz, -ing kabi egalik qo‘shimchalarini qo‘shish natijasida hosil bo‘lgan haqingiz, haqing, haqim so‘zlari o‘rniga haqqingiz, haqqing, haqqim so‘zlari qo‘llangan. Bunda q tovushining maqsadli qo‘llanilganini va voqelikka e‘tiroz, inkor, qo‘rquv kabi mazmun ifodalanganligini ko‘ramiz. Mazkur asarda, aksariyat o‘rinlarda “q”, “sh”. “r”, “s”, “z” tovushlari geminatsiyani yuzaga keltirganligini ko‘rishimiz mumkin.

Badiiy asarda muallif nutqi orqali nafaqat asar g‘oyasi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar aks etadi, balki personajlar xarakteri, ruhiyati, tashqi olamga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, kasb-kori haqidagi ma‘lumotlar bevosita namoyon bo‘ladi. Bu jihatdan muallif nutqini til birliklarining ichki imkoniyatlarini namoyish qiluvchi nutqiy birlik hisoblash mumkin: *Nima desin? “Bolam” desinmi? Haqqi bormi shunday deyishga. Tuqqanidan beri biror marta “bolam” deb suymagan, endi o‘lari oldida shunday deyishga til ham bo‘ysunmaydi. Yuragida “Bolajonim!” degan faryod uyg‘onadi, ammo qotib qolgan til, bu faryodni egasiga etkazib bera olmaydi. Yurakning tarjimoni bo‘lgan til ojiz...*

Mazkur nutqiy parchada ham aynan haq so‘ziga -im egalik qo‘shimchasini qo‘shish bilan geminatsiyaning vujudga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Birinchi misolda personaj nutqini individuallashtirishda pragmatik vosita vazifasini bajargan bo‘lsa, keyingi misolda muallif nutqida mahorat bilan qo‘llangan. Mazkur takror asar personaji Mahmudning onasiga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, ritorik so‘roq gap tarkibida kelgan. Unda yoshligida o‘z jigarbandini tashlab ketgan ona o‘limi oldidan “bolam” degan so‘zni ayta olmay qiynalayotgani tasvirlangan. Bunda geminatsiya hodisasi fikrdagi qat‘iy inkor, ta‘sirchanlik ma‘nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

Quyidagi misolda personaj nutqida, ya‘ni Mahmudning tog‘asi nutqida, geminatsiya hodisasi qo‘llangan. Bu o‘rinda geminatsiya asar personajining pushaymonlik holatini, shu bilan birga tahlikali holatini aks ettirgan: *Biz gunohkormiz... Lekin... atayin bo‘lmagan. Tasodif... to‘g‘ri, jiyan deyishga haqqim yo‘q, lekin... qonimiz bir...*

Asardan keltirilgan quyidagi misolda “eshak” so‘zidagi **sh** tovushini ikkilantirish orqali geminatsiya hodisasi hosil qilingan:

– *Xayrli ishlarning dodaxo‘jasi, – dedi Jalil, – toychoq‘ingiz o‘g‘illarini uylantiryapti. Endi toychoq demasangiz ham bo‘ladi. Ot bo‘lib qoldi. Ozgina eshshakligi ham bor-u lekin sizning hurmatingizni qilib “ot” desak ham bo‘lar.*

**Sh** undoshini ikkilantirish bilan so‘zlovchi fikr obyektiga nisbatan o‘zining munosabatlarini, his-tuyg‘ularini hazilomush, ammo samimiy ifoda etadi, ma‘no kuchaytirishga intiladi, undoshi ikkilangan so‘zga diqqatni jalb etadi. Keltirilgan nutqiy parchada “eshak” so‘zidagi “sh” geminatsiyaga uchrab fikrdagi salbiy emotsiyaning bo‘rttirilishiga xizmat qiladi. Bu o‘rinda esa haqiqiy do‘stlar orasidagi samimiyatni tasvirlashda pragmatik vosita vazifasini o‘tagan. Ya‘ni asar qahramoni Asadbekning xarakteridagi qaysarlik, qat‘iyatlilik bir so‘zlilik kabi

xususiyatlarni o‘ziga xos tarzda tasvirida qo‘llangan. Quyidagi misolda ham geminatsiya Asadbek nutqida xuddi shu mazmunni ifodalashga xizmat qilganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

– *Meni eshakka o‘xshatadi-ku, asli o‘zi eshshakdan ham battarroq qaysar.*

Keyingi o‘rinda muallif nutqida ham geminatsiyaning bunday ko‘rinishini kuzatamiz: *Agar yolg‘iz o‘zlari bo‘lishganda “sen san‘atni tushunarmiding, sen ishqi yo‘q eshshak, dardi yo‘q kessaksan”- deyishdan tiyilmasligi aniq edi.*

Asarda *“Ishqi yo‘q eshsak, dardi yo‘q kesak”* iborasi tarkibidagi “eshak” va “kesak” so‘zlarini ma‘noni kuchaytirish maqsadida geminatsiyaga uchragan holatda qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin:

– *“Xotinig nomahramlar oldida o‘tirmasin”, – derding-ku! – dedi Asadbek piching qilib.*

– *Kessaging nomahram edi, men akasiman. Nima uchun Haydar kessaging bilan do‘stsan, aytaymi? Ikkovingning halquming bir, nafsing bir... –Ikkovingning aqlingni qo‘shsa, bitta eshshakka yuk bo‘lmaydi.*

Yuqoridagi Asadbek va uning yaqin o‘rtog‘i Jalil o‘rtasidagi dialogda ham geminatsiyaning pragmatik imkoniyatini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Jalil nutqida Haydarning (laqabi kesak) xatti-harakatlariga, salbiy hislatlariga nisbatan e‘tirozi aynan geminatsiya orqali ifodalangan.

Asarning juda ko‘p o‘rinlarda yozuvchi asar personaji Haydarning fe‘l-atvoridagi maqtanchoqlik, zo‘ravonlik, manmanlik, kibr kabi salbiy illatlarni kitobxon ko‘z o‘ngida jonlantirish uchun pragmatik yukni tovushlarning qo‘shaloq holda qo‘llanishi – geminatsiya hodisasiga yuklagan. Shu orqali qahramonning xarakterini, shu bilan birga, nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Adib asarda, ayniqsa, Haydarning nutqida “xo‘roz” so‘zidagi “r” tovushi geminatsiyasini muvaffaqiyatli qo‘llagan:

– *Qorilarning xo‘rrozini toptiraman. Yo Sobitxoningni Qo‘qondan oldirib kelaymi?.. yoki*

– *Otarchilarning xo‘rrozi ham mening bo‘ynimga. Qani, qo‘lni tashla!*

Asardan keltirilgan mazkur nutqiy parchalarda “r” tovushi geminatsiyasi eng sara, eng zo‘r ma‘nolarida qo‘llangan. Shu bilan birgalikda Haydarning maqtanchoqligi, olchoqligi, manmanligini ochib berishga ham xizmat qilgan.

Keyingi misolda ham mazkur birlik asar personaji Haydarning bevosita o‘ziga bino qo‘yishlik, kibrilik kabi xususiyatlarini bo‘rttirib tasvirlash maqsadida qo‘llangan:

– *Quy, anavindan.*

– *Qaysi biridan? – Erkakning xo‘rrozi “Napoleon” dan ichadi-da...*


Asarda “z” tovushuning qo‘shoqlanishi natijasida ham geminatsiya hodisasi hosil qilingan. Masalan, *Demak, men do‘zaxda kuyaman, sen esa jannatda mazza qilasan, shundaymi?*

Xulosa qilib aytish mumkinki, Tohir Malikning “Shaytanat” asarida fonetik birliklardan biri –geminatsiya hodisasini mahorat bilan qo‘llaganligini imkon qadar


yoritib berishga urindik. Chunki fonetik birliklarni bilish va ularni mahorat bilan qo'llash ijodkorlar uchun juda ahamiyatlidir. Ular yaratgan ijod mahsullarida fonetik birliklarning o'rinli qo'llasalar, kitobxonning e'tiborini tez jalb qiladilar. Bu bilan asarning o'qishligini ta'minlaydilar va o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishadilar. Sevimli yozuvchimiz o'z asarlarida o'rnini topib, fonetik birliklardan, xususan geminatsiyadan, uslub talabiga mos holda foydalanadi, shuning uchun asarlari betakror, ta'sirchan. Adib fikrni bo'rttirib ifodalash va unga ekspressiv tus berish uchun geminatsiyani keng qo'llaydi. Geminatsiya esa asarda tovushlarning ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqarib tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT RO'YXATI**

1. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent.- O'qituvchi.-1985. – B.88.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi. 1985. – B. 143.



**INGLIZ, O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARI  
PAREMIOLOGIK MAKONDA BARQARORLIK VA  
VARIATIVLIK  
(LINGVISTIK) JIHATDA IFODALANISHI**



**Saydullayeva Surayyo,**  
*Navoiy davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz, o‘zbek va turk tillaridagi maqollar paremiologik makonda barqarorlik va variativlik nuqtayi nazaridan lingvistik jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning semantik tuzilishi, sintaktik modeli, obrazlilik xarakteri hamda ularning madaniy-mental asoslari o‘rganilib, uch tildagi paremiologik birliklarning umumiy va farqli xususiyatlari aniqlandi. Barqarorlik aspektida maqollarning prototipik shakli, o‘zgarishsiz qo‘llanishi, universal semantik yadrosi hamda tilda mustahkamlangan strukturalarning funksional vazifalari ko‘rsatib beriladi. Variativlik jhati esa maqollarning leksik, grammatik va semantik darajadagi o‘zgaruvchanligi, kontekstga mos ravishda yuzaga keluvchi modifikatsiyalar, sinonimik variantlar va madaniy moslashuv mexanizmlarini yoritadi. Ingliz, o‘zbek va turk paremiologik tizimlarining tipologik va etnomadaniy o‘xshashliklari hamda farqlari qiyoslab tahlil qilinib, ularning pragmatik funksiyalari, kommunikativ vazifasi va xalq og‘zaki ijodidagi roli ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqot natijalari uch til paremiologiyasidagi barqaror va variativ modellarni aniqlash, ularning lingvokulturologik talqinini berish hamda tarjima jarayonida maqollarni adekvat qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** maqollar, paremiologik makon, barqarorlik, variativlik, lingvistik tahlil, semantik model, sintaktik tuzilma, lingvokulturologiya, pragmatika, tarjima jarayoni, ingliz, o‘zbek va turk tillari.

### **Kirish (Introduction)**

Paremiyalar – xalqning tili, tafakkuri va madaniyatining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, ular jamiyatning tarixiy, madaniy, ijtimoiy va diniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ingliz, o‘zbek va turk tillaridagi paremiyalarni tahlil qilish orqali ushbu tillarning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlarini, hayot tarzi va diniy ta’sirlarini ko‘rish mumkin.

**Qadimiy tuzilma** – maqollar ko‘p hollarda arxaik grammatik va leksik elementlarni saqlab qoladi. **Barqaror semantik tuzilish** – ularning mazmuni asosan inson tajribasiga asoslangan bo‘lib, doimiyligi bilan ajralib turadi. **Avloddan-avlodga o‘tish** – og‘zaki va yozma nutq orqali maqollar uzoq asrlar davomida saqlanib kelgan.

Inson tilining universal xususiyatlarini izlash va yoritish zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Butun insoniyatga xos bo‘lgan “muloqot faoliyatini amalga oshirish” qobiliyatida muayyan mavhum “qoidalar” mavjudligi aniq

ko‘zga tashlanadi. Bunday xususiyatlarga, shubhasiz, til variativligi (o‘zgaruvchanligi) va til barqarorligi kiradi. Til birliklarining aniq va barqaror bo‘lishi o‘zaro tushunishni ta’minlasa, ularning moslashuvchanligi va harakatchanligi yangi ma’nomlarni yetkazishga xizmat qiladi. Shu sababli nutq faoliyatida “eski tajribani yangi bilan, modellashtirilgan, oldindan aytib bo‘ladigan narsalarni modellashtirib bo‘lmaydigan, oldindan aytib bo‘lmas narsalar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyati muvozanatlangan”<sup>3</sup> ligini ko‘rishimiz mumkin.

**Barqarorlik va variativlik** – bu haqiqatning muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar bo‘lib, insoniyatni hayotning ko‘plab sohalarida oldinga siljitgan. Bir tomondan, biz hammamiz xavf va qo‘rquvdan xoli, xavfsiz va bashorat qilinadigan dunyoda yashashni, kundalik faoliyatlarimiz bilan bermalol shug‘ullanishni istaymiz. Boshqa tomondan esa, ko‘pchilik barqarorlikni turg‘unlik bilan bog‘laydi, turg‘unlik esa taraqqiyot va ijodkorlikning dushmanidir. Ammo barqarorlikni faqat shu ma’noda talqin qilish shart emas.

So‘nggi o‘n yilliklar inson faoliyatining turli ko‘rinishlarida ko‘plab o‘zgarishlarni olib keldi, ulardan eng hayratlanarlisi – axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishidir. Bu texnologiyalar nafaqat insonlar o‘rtasidagi shaxsiy muloqotni osonlashtirdi, balki turli, ko‘pincha bir-biridan juda uzoq hududlarda yashovchi odamlar orasida ham muloqot imkonini yaratdi. Biroq, masalan, Internet orqali muloqot qilish holati ham, aslida, muloqotning asosida til yotganini – ya’ni **barqaror, ammo variativ** bo‘lgan homo sapiensga xos xususiyatni – o‘zgartirmadi. Bundan tashqari, ko‘plab odamlar bir nechta tildan foydalanish qobiliyatiga ega, bu esa ularni yanada moslashuvchan muloqotchilarga aylantiradi.

Tilshunoslikda **barqarorlik (stability)** – bu til yoki muayyan nutq guruhida **lingvistik shakllarning izchil (doimiy) qo‘llanilishini** anglatadi. **Variativlik (variability)** esa – **bir xil ma’noni ifodalash uchun turli nutqchilar yoki guruhlar tomonidan turlicha lingvistik shakllarning ishlatilishini** bildiradi. Tildagi o‘zgarishlar ko‘pincha variativlik natijasida yuzaga keladi – ya’ni turli variantlar orasida birining ustunlik qilishi va boshqalar o‘rnini bosishi bilan bog‘liq.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review)**

Jahon tilshunosligida rus tilshunos olimlar N.D.Arutyunova, V.V. Vorobyov, V.I.Karasik, V.V.Krasnix, V.N.Teliya<sup>4</sup>, ingliz tilshunos olimlar D.Kristal<sup>5</sup>,

<sup>3</sup> Звегинцев В.А. Мысли о лингвистике (Из лингвистического наследия В.А. Звегинцева)/ Предисл. В.М. Алпатова. Изд. 2-е. М.: Изд-во ЛКИ, 2008. — 336 с.

<sup>4</sup> Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл: логико-семантические проблемы. — 3-е изд., стер. — М.: [Едиториал УРСС](#), 2003. — 383 с./ Воробьев В. В. Лингвокультурология. — Москва : Российский ун-т дружбы народов, 2008. — 336 с. : ил., табл. : 22 см.; ISBN 978-5-209-02717-1./ Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с. ISBN 5–88234–552–2/ Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. — М.: ИТДГК «Гнозис», 2002. — 284 с. ISBN 5-94244-009-3/ В.Н. Телия Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с

<sup>5</sup> Crystal, D. Linguistics / D. Crystal. - GB: Penguin Books, 1990. - 276 p.

M.A.K.Halliday<sup>6</sup>, F.R.Palmer<sup>7</sup>, E.Sweetser<sup>8</sup>, A. Taylor<sup>9</sup>, B.J.Whitinglar<sup>10</sup>, o‘zbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, A.E.Mamatov, R.Rasulov, H.Berdiyorovlarni<sup>11</sup>, M.A.Temirova<sup>12</sup>, D.A.Tosheva<sup>13</sup>, X.D.Abdullayev<sup>14</sup>, D.I.Mirzayeva<sup>15</sup>, B.M.Jo‘rayeva<sup>16</sup>, Sh.Sh. Qalandarov<sup>17</sup>, Z.R.Narmuratov<sup>18</sup>, G.I.Ergasheva<sup>19</sup>, N.E.Abdullayeva<sup>20</sup> alohida xizmatlarini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Turk tilshunosligida esa **M. Esat Ileri**, **M. Halit Bayrı**, **Omer Asım Aksoy**, **M. Nihat Özön** va **M. Ali Ağakay**, S.Basharan<sup>21</sup>, Halis Gözpinar<sup>22</sup>, Sinan Gönenning<sup>23</sup>, I.M.Mirzaaliyev<sup>24</sup>, Sh.R.Usmonova<sup>25</sup> tadqiqotlar olib borishgan.

### Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ingliz, o‘zbek va turk tillaridagi paremiyologik birliklarni lingvokulturologik, semantik va diskursiv jihatdan tahlil qilish orqali ushbu tillarda ifodalangan milliy-

<sup>6</sup> Halliday, M.A.K. Functional Diversity in Language as Seen from a Consideration of Modality and Mood in English / M.A.K. Halliday // Foundations of Language. - Springer, 1970. - Vol. 6, № 3. - P. 322-361.

<sup>7</sup> Palmer, F.R. Semantics: a new outline / F.R. Palmer. - M.: Vyssaya skola, 1982. - 110 p

<sup>8</sup> Sweetser, E. From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure / E. Sweetser. - Cambridge: Cambridge University Press, 1991. - 174 p.

<sup>9</sup> Taylor, A. The proverb / A. Taylor. - Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1931. - 223 p.

<sup>10</sup> Whiting, B.J. Proverbs, sentences, and proverbial phrases: from English Writings Mainly before 1500 / B.J. Whiting. - Cambridge: Harvard University Press, 1968. - 733 p.

<sup>11</sup> Raxmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining asosiy ma’no turlari. -T.:Fan, 1966.-B.58// Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarning shakllanish masalalari. Filol.fan.dokt....diss.\_T., 1999.- 317 b.// Berdiyrov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiyologik lug‘ati. (Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma). -T.:O‘qituvchi, 1984. – 288 b

<sup>12</sup> Temirova M.A. O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi.fil.fan.falsafa dok. Diss, -Toshkent- 2018. 166 b.

<sup>13</sup> Tosheva T.D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol.fan.falsafa d-ri.diss.,-Toshektn, 2017. -150 bJo

<sup>14</sup> Abdullayev X.D. Xalq maqollarining “Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni va badiiy-estetik funksiyalari. Fil.fan.nomzod.Diss. IToshkent-2005. 153 b

<sup>15</sup> Mirzayeva D.I. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik hamda pragmatik jihatdan tadqiqi. Fil.fan.falsafa d-ri.diss. Andijon- 2022

<sup>16</sup> Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatic xususiyatlari. Filol.fan.doktir diss. - Samarqand, 2020. 230 b.

<sup>17</sup> Qalandarov Sh.Sh. O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfimizatsiyasi: filol.fan.fals.d-ri...diss.- Farg‘ona, 2019.-144 b

<sup>18</sup> Narmuratov Z.R. Ingliz va o‘zbek tillarida “Ta’lim”, “Ilm” konseptlariga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan., fals., d-ri.,diss. – Termiz, 2022. 189 b

<sup>19</sup> Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy- tipologik tadqiqi. Fil.fan.nomzodi diss. -Toshkent, 2011. 165 b

<sup>20</sup> Abdullayeva N.E. Ingliz va o‘zbek xalq maqollaridagi graduonimik munosabatlarning lingvopragmatik xususiyatlari. Fil.fan.falsafa d-ri.diss...- Toshkent, 2019. 150 B

<sup>21</sup> **M. Esat Ileri** <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/esat-mahmut-karakurt> // **M. Halit Bayrı** <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/bayri-mehmet-halit> // **Omer Asım Aksoy** Atasozleri ve Deyimler Sozlugu 1 – Atasozleri Publisher : Inkilap Kitabevi Publication date : January 1, 2007 Language : Turkish Print length : 486 pages ISBN-10 : 9751001250 ISBN-13 : 978-9751001252// **M. Nihat Özön** Osmanlıca Türkçe Sözlük Yayınevi : [İnkılap Kitabevi](#) Basım Dili : Osmanlıca Sayfa Sayısı : 926 // **M. Ali Ağakay** Türk dili -- mecaz anlamlı sözcükler – sözlükler Ankara : [yayl.y.], 1949 280 s. ; 24 cm. // **Basaran S. Hedislerin Turk Atasozlerine Tesiri.** -Turkiya, 2017. – 22 s.

<sup>22</sup> Halis Gözpinar *The Role of Proverbs in Forming Intercultural Awareness (On the Basis of Teaching English, Georgian and Turkish Languages)*. Black Sea Journal. 1(21), 116-126.

<sup>23</sup> **Sinan Gönen. Batı türklerinin qoşuq (Menzum) ATASÖZLERİ ÜZERINE BİR ARAŞDIRMA. Doktora tezi. Danışman-Saim Sakaoğlu, Konya-2006, 733 s**

<sup>24</sup> Mirzaaliev I.M. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi (“Devonu lug‘atit-turk” materialı misolida). Filol. fan. fals. dok. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2020.

<sup>25</sup> Usmonova Sh.R. O‘zbek va turk tillarida somatic frazeologizmlar. Filol.fan.nomzodi diss. -Toshkent, 1998. 162 b

madaniy dunyoqarashning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, paremiyalar orqali xalq tafakkuri va qadriyatlar tizimini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

### **Tahlil va natijalar (Analysis and results).**

**Barqarorlik (Stability):** Tillar vaqt o'tishi bilan va turli nutqchilar orasida nisbatan izchil qoladigan ko'plab xususiyatlarga ega. Bular qatoriga asosiy grammatik tuzilmalar, so'z ma'nolari va talaffuz qoidalari kiradi. Masalan, ingliz tilidagi **asosiy subyekt-fe'l-obyekt (SVO)** so'z tartibi odatda barqarordir.<sup>26</sup> Demak barqarorlikni ingliz, o'zbek va turk tillarida quyidagicha talqin qilishimiz mumkin:

1. Grammatik tuzilmaning barqarorligi: **Ingliz tilida** so'z tartibi **Subject + Verb + Object (SVO):** *She reads a book./ They built a house.* Ushbu tuzilma asrlar davomida ingliz tilining asosiy sintaktik qonuniyatlaridan biri bo'lib qolmoqda. **Hozirgi zamon ingliz tilida bu tartib hatto dialektlarda ham kuchli saqlanib qolgan, chunki u tushunarli va izchil ifoda uchun zarur hisoblanadi.**

*O'zbek tilida:* So'z tartibi: **S + O + V** (Subyekt + Obyekt + Fe'l): *Men kitob o'qiyman./ U do'stini kutmoqda.* O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lsa-da, odatiy va eng tushunarli shakli **SOV** bo'lib qolmoqda. Bu tartib yillar davomida barqaror tarzda saqlanmoqda.

*Turk tilida:* So'z tartibi: **S + O + V:** *Ben kitap okuyorum./ O çayı içiyor.* Turk tilida ham o'zbek tiliga o'xshab, **fe'l odatda gap oxirida keladi**, bu holat doimiy saqlanmoqda.

2. So'z ma'nolarining barqarorligi ingliz yilida *Mother* — "ona" degan ma'noni asrlar davomida saqlab qolgan. *Water* — "suv" degan ma'no o'zgarmay kelgan. **Bu kabi asosiy leksik birliklar jamiyat ehtiyojiga mos ravishda chuqur ildiz otgan bo'lib, vaqt o'tishi bilan ham o'z ma'nosini yo'qotmagan. Ularning barqarorligi kundalik muloqotni soddalashtiradi va tilni o'rganishni osonlashtiradi.**

*O'zbek tilida:* *ona* — ona, ayol kishi; *non* — asosiy oziq-ovqat mahsuloti sifatida doimiy. Ushbu asosiy leksik birliklar uzoq tarixga ega bo'lib, **o'z ma'nolarini deyarli o'zgartirmay** kelmoqda. Ular xalqning asosiy ehtiyojlari va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi.

*Turk tilida:* *Anne* – ona; *Ekmek* — non. Bu so'zlar qadimiy turkiy ildizlarga ega bo'lib, **ma'no jihatidan barqaror** va har doim hayotiy ahamiyatga ega sohalarni aks ettiradi.

<sup>26</sup> Ewa Piechurska-Kuciel and Liliana Piasecka Variability and Stability in Foreign and Second Language Learning Contexts: Volume 1 2012 Cambridge Scholars Publishing 12 Back Chapman Street, Newcastle upon Tyne, NE6 2XX, UK ISBN (10): 1-4438-3579-X, ISBN (13): 978-1-4438-3579-4 p 341

3. Morfologik barqarorlik **ingliz tilidagi oddiy fe'l qo'shimchasini qo'shish orqali yasalishi: walk → walked (past)/ play → played. Fe'llarga -ed qo'shimchasining qo'shilishi ingliz tilida muntazam fe'llar uchun barqaror qoidadir. Bu birlik grammatik vaqtni ifodalash uchun keng qo'llaniladi va o'quvchilar uchun oson yodda saqlanadi.**

*O'zbek tilida:* Fe'l zamon qo'shimchalari orqali ifodalanadi: *yoz-di, bor-gan, kel-ar edi*. Zamon va nisbat ifodalaydigan qo'shimchalar (*-di, -gan, -ar edi*) o'zbek tilida qadimdan mavjud bo'lib, hozirgacha **barqaror ishlatilmoqda.**

*Turk tilida* ham o'zbek tilidagi kabi zamon qo'shimchalari orqali ifodalandi: *geldi, gelecek, geliyor*. Bu qo'shimchalar yuzlab yillardan buyon turk tilida foydalanilib kelinmoqda. **Zamonaviy turk adabiyotida ham ayni shakllar saqlanmoqda.**

4. Fonologik (talaffuz) barqarorlik ingliz tilida quyidagicha:

[θ] tovushi — *think, thank, three* so'zlarida. Bu tovush o'zining **fonemik o'rnini** asrlar davomida saqlab qolgan. Uning mavjudligi ingliz tilining boshqa tillardan farqlanuvchi belgilaridan biridir. Ba'zi lahjalarda bu tovush o'zgarsa-da, standart ingliz tilida barqaror saqlanadi.

*O'zbek tilida:* “*sh*”, “*ch*”, “*ng*” kabi tovushlar talaffuzda doimiy: *shahar, cho'l, tong*. Bu tovushlar o'zbek tilining fonetik tizimida **ajralmas birliklar** bo'lib, boshqa turkiy tillarda ham o'xshash shaklda mavjud. Ular talaffuz va yozuvda barqaror.

*Turk tilida:* “*ç*”, “*ş*”, “*ğ*” kabi tovushlar: *çocuk, şehir, dağ*. Bu tovushlar turk tiliga xos va **fonemik tizimda barqaror joy olgan**. Ular talaffuz va imloda kam o'zgaradi.

5. Stilistik va ekspressiv barqarorlik ingliz tilida (maqollar misolida): **“A stitch in time saves nine”/ “Honesty is the best policy”**. Bu maqollar asrlar davomida deyarli o'zgarmagan va **o'z ifodaviy kuchini yo'qotmagan**. Ular madaniy va axloqiy qadriyatlarni **barqaror tarzda aks ettirib, nutqda takrorlanadigan, ishonchli iboralarga aylangan**.

*O'zbek tilida:* *Mehnat qilgan to'q bo'lur./ Boshni og'riqdan saqla, elni - nohaqlikdan*. Ushbu maqollar **avloddan avlodga o'tib kelayotgan hikmatli iboralar** bo'lib, ularning shakli, ma'nosi va ishlatilish joyi o'zgarmay kelmoqda.

*Turk tilida:* “*Azıcık aşım, kaygısız başım*”/ “*Damlaya damlaya göl olur*” Bu maqollar **an'anaviy og'zaki nutq merosi** sifatida saqlanib qolgan. Shakli va g'oyaviy ifodasi o'zgarmay, keng qo'llaniladi.

O'zbek, turk va ingliz tillarida **barqarorlik tildagi izchillik, tushunarlik va madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi**. Har bir tilda fonologik, morfologik va leksik birliklarning barqarorligi nutqni tushunish va avlodlararo aloqa vositasi sifatida tilning uzviyligini ta'minlaydi.

**Variativlik (Variability):** Tillar fonologiya (tovush tizimi), morfologiya (so'z tuzilishi), sintaksis (gap tuzilishi) va pragmatika (nutqdagi kontekstga mos ishlatish) kabi barcha darajalarda o'zgaruvchanlik (variatsiya) bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, turli nutqchilar yoki guruhlar **bir xil ma'no yoki vazifa uchun turli til**

shakllarini qo'llashlari mumkin. Masalan, Amerikaning ba'zi lahjalarida "going to" iborasi "gonna" shaklida qisqartiriladi.<sup>27</sup>

Ingliz tilida variativlikni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

**1. Fonetik variativlik:** "going to" → "gonna"/"want to" → "wanna"/"did you" → "d'ya". Bu shakllar norasmiy so'zlashuvda tez-tez uchraydi. Bu **reduksiya (qisqarish)** hodisasi bo'lib, talaffuz soddalashtiriladi. "I'm going to see her." → "I'm gonna see her". Bu **norasmiy nutqda tabiiy** va qulay talaffuz qilishni ta'minlaydi. Ma'nosi esa har ikkala gapda bir xillikni saqlab qoladi ya'ni *Men uni ko'rmoqchiman*.

O'zbek tilida esa **fonetik variativlikni** *kelayapman / kelopman / kelaman kabi shakllarda ko'rishimiz mumkin*. Ushbu shakllar bir xil ma'noni bildiradi (hozirgi zamonda harakatni ifodalovchi fe'l), ammo talaffuz va qisqarish darajasiga ko'ra farqlanadi. Bu **dialektlar, ijtimoiy guruhlar yoki norasmiy uslubga bog'liq**.

Turk tilida ham o'zbek tilidagi shakllar singari *geliyorum / geliyom / geliyin kabi variantlarni uchratishimiz mumkin*. Bu variantlar **rasmiy, norasmiy va dialektal** kontekstlarda ishlatiladi. Norasmiy nutqda qisqartmalar keng tarqalgan.

**Morfologik variativlik** *Ingliz tilida: "learned" (AmE) vs. "learnt" (BrE)/ "gotten" (AmE) vs. "got" (BrE)/ "dived" vs. "dove"*. Ingliz tilida **hududiy (dialektal) morfologik variatsiya** mavjud. "He has gotten better." (American English)/ "He has got better." (British English) Bu shakllar bir xil grammatik ma'noni bildiradi, lekin **hududiy normaga bog'liq**.

O'zbek tilida: *Men bormoqchiman / Men borishim kerak*. Har ikkala shakl **kelajakdagi harakat niyatini yoki zaruratini** bildiradi, lekin grammatik ifoda turlicha. Bu variativlik **ifoda uslubining xilma-xilligi** natijasida yuzaga keladi.

*Turk tilida: Gitmek istiyorum. / Gitmek niyetindeyim*. Har ikki shakl harakatga nisbatan niyatni bildiradi. Lekin **grammatik ifoda** turlicha. Bu **stilistik yoki ijtimoiy vaziyatga bog'liq**.

**3. Sintaktik variativlik.** *Ingliz tilida: "Only John said he was sorry." / "John only said he was sorry."* Bu ikki jumlada so'z tartibining o'zgarishi **turli urg'u va nozik ma'no farqlarini** yuzaga keltiradi: "Only John said..." – faqat Jon aytdi. "John only said..." – Jon faqat aytdi (hech narsa qilmadi, faqat aytdi). Bu sintaktik variativlik **ma'no tusini, pragmatik urg'uni** o'zgartiradi.

O'zbek tilida: *Men bugun maktabga boraman. / Bugun men maktabga boraman*. So'z tartibi farqlanadi, lekin ma'no o'zgarmaydi. Bu **stilistik urg'u va gapni muayyan elementga qaratish** orqali sodir bo'ladi.

*Turk tilida: Ben sinemaya gidiyorum. / Sinemaya ben gidiyorum*. So'z tartibi farq qiladi, bu esa **e'tiborni turli so'zlarga qaratish** uchun ishlatiladi. Bu **stilistik variatsiya** hisoblanadi.

<sup>27</sup> O'sha manba

#### 4.Leksik variativlik

*Ingliz tilida ushbu variativlikni 1.3 – jadvalda ko‘rishimiz mumkin:*

American English	British English
truck	lorry
apartment	flat
elevator	Lift
fall (autumn)	autumn

Bu leksik variatsiyalar **geografik farqlarga asoslangan sinonimlar** bo‘lib, har biri o‘z hududida barqaror ishlatiladi. Masalan: “*He took the elevator.*” (AmE)/ “*He took the lift.*” (BrE). Tarjima ma’no bir xillikni saqlab qolgan ya’ni ***U liftga chiqdi.***

*O‘zbek tilida: Ko‘ylak / koylak//Avtomobil / mashina.* Biror tushunchani ifodalovchi **muqobil so‘z shakllari** mavjud. Bu **turli ijtimoiy guruhlar, hududlar** yoki **uslubiy kontekst** bilan bog‘liq bo‘ladi.

*Turk tilida: Araba / otomobil//Çocuk / evlat.* Uslub va maqsadga qarab bir tushuncha turli leksik shakllarda ifodalanadi. **Sinonimlar orqali variativlik** yuzaga keladi.

Demak, **barqarorlik** tildagi izchillik va an’anani saqlasa, **variativlik** tilga **moslashuvchanlik, ijtimoiy va stilistik boylik** beradi. Har uchala til — o‘zbek, turk va ingliz — fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajada **muayyan doirada variativlikni namoyon qiladi.** Tilshunoslikda bu ikki tushuncha **bir-birini to‘ldiradi va tildagi dinamik muvozanatni ta’minlaydi.**

Variativlik tildagi o‘zgarishlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yangi til shakli paydo bo‘lib, kengroq ishlatila boshlanganida, u asta-sekin eskisini siqib chiqarishi mumkin. Biroq, variativlik doimo o‘zgarish bilan yakunlanmaydi. Ba’zi til o‘zgarishlari uzoq vaqt davomida bir-biriga raqobatchi shakllarning birga yashashiga olib keladi – ularning hech biri ustunlikka ega bo‘lmaydi.<sup>28</sup>

Variativlik ichki (lingvistik) va tashqi (ijtimoiy) omillarning kombinatsiyasi orqali shakllanadi.<sup>29</sup> Quyida ichki va tashqi omillarning paremiyalarda ham ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin:

*1.3.2.-jadval. Variativlik ichki va tashqi omillarning kombinatsiyasi.*

<sup>28</sup> Shayna Gardiner and Naomi Nagy “Stable Variation vs. Language Change, & the Factors That Constrain Them” Department of Linguistics, University of Toronto, Sidney Smith Hall, 100 St. George St., Toronto, ON, Canada M5S 3G3 <https://repository.upenn.edu/server/api/core/bitstreams/6315009e-db58-40f0-8253-759be26418a6/content>

<sup>29</sup> <https://www.mq.edu.au/faculty-of-medicine-health-and-human-sciences/departments-and-schools/departments-of-linguistics/our-research/language-variation-and-change#:~:text=Understanding%20the%20variability%20of%20language,eventually%20leading%20to%20language%20change.>



Til barqarorligi va variativligi tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan boʻlib, har bir tilning dinamik rivojlanishini taʼminlaydi. Tahlil qilingan maqollar orqali shuni koʻrish mumkinki, ingliz, oʻzbek va turk tillarida frazeologik birliklar, yaʼni maqollar nafaqat madaniy va tarixiy tajribaning mahsuli, balki til tizimidagi ichki va tashqi omillar taʼsirida shakllangan va shakllanayotgan birliklardir.

**Xulosa qilib aytganda**, maqollar barqarorlik va variativlik oʻrtasidagi muvozanatni ifoda etuvchi yorqin til birliklari hisoblanadi. Ular tildagi ijtimoiy, lingvistik va madaniy oʻzgarishlarning jonli koʻzgidir. Shu sababli, ularni oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Звегинцев В.А. Мысли о лингвистике (Из лингвистического наследия В.А. Звегинцева)/ Предисл. В.М. Алпатов. Изд. 2-е. М.: Изд-во ЛКИ, 2008. — 336 с.
2. Арутюнова Н. Д. Предложение и его смысл: логико-семантические проблемы. — 3-е изд., стер. — М.: [Едиториал УРСС](#), 2003. — 383 с./
3. Crystal, D. Linguistics / D. Crystal. - GB: Penguin Books, 1990. - 276 p.
4. Halliday, M.A.K. Functional Diversity in Language as Seen from a Consideration of Modality and Mood in English / M.A.K. Halliday // Foundations of Language. - Springer, 1970. - Vol. 6, № 3. – P. 322-361.
5. Palmer, F.R. Semantics: a new outline / F.R. Palmer. – М.: Vyssaya skola, 1982. - 110 p
6. Sweetser, E. From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure / E. Sweetser. - Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 174 p.
7. Taylor, A. The proverb / A. Taylor. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1931. – 223 p.
8. Whiting, B.J. Proverbs, sentences, and proverbial phrases: from English Writings Mainly before 1500 / B.J. Whiting. – Cambridge: Harvard University Press, 1968. - 733 p.
9. Raxmatullayev Sh. Oʻzbek frazeologiyasining asosiy maʼno turlari. – T.:Fan, 1966. – B.58.
10. Mamatov A.E. Oʻzbek tili frazeologizmlarning shakllanish masalalari.

Filol.fan.dokt....diss. – T., 1999. – 317 b.

11. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. (Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma). -T.: O‘qituvchi, 1984. – 288 b.

12. Temirova M.A. O‘zbek va qirg‘iz xalq maqollari tipologiyasi.fil.fan.falsafa dok. Diss, - Toshkent- 2018. 166 b.

13. Abdullayev X.D. Xalq maqollarining “Qutadg‘u bilig” poetikasidagi o‘rni va badiiy-estetik funksiyalari. Fil.fan.nomzod.diss. Toshkent – 2005. 153 b.

14. Mirzayeva D.I. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqol va matallarning lingvokulturologik hamda pragmatik jihatdan tadqiqi. Fil.fan.falsafa d-ri.diss. Andijon – 2022.

15. Jo‘rayeva B.M. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Filol.fan.doktir diss. – Samarqand, 2020. 230 b.

16. Qalandarov Sh.Sh. O‘zbek lingvomadaniy muhitida xalq maqollari evfimizatsiyasi: filol.fan.fals.d-ri...diss.- Farg‘ona, 2019. – 144 b

17. Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillarida frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy- tipologik tadqiqi. Fil.fan.nomzodi diss. – Toshkent, 2011. 165 b

18. **M. Esat Ileri** <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/esat-mahmut-karakurt> // **M. Halit Bayrı** <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/bayri-mehmet-halit> // **Omer Asım Aksoy** Atasozleri ve Deyimler Sozlugu 1 – Atasozleri Publisher : Inkilap Kitabevi Publication date : January 1, 2007 Language : Turkish Print length : 486 pages ISBN-10 : 9751001250 ISBN-13 : 978-9751001252// M. Nihat Özön Osmanlıca Türkçe Sözlük Yayınevi : İnkilap Kitabevi Basım Dili : Osmanlıca Sayfa Sayısı : 926 // M. Ali Ağakay Türk dili -- mecaz anlamlı sözcükler – sözlükler Ankara : [yayl.y.], 1949 280 s. ; 24 cm. // Basaran S. Hedislerin Turk Atasozlerine Tesiri. -Turkiya, 2017. – 22 s.

19. Halis Gözpinar *The Role of Proverbs in Forming Intercultural Awareness (On the Basis of Teaching English, Georgian and Turkish Languages)*. Black Sea Journal. 1(21), 116-126.

20. **Sinan Gönen. Batı türklerinin qoşuq (Menzum) ATASÖZLERİ ÜZERINE BİR ARAŞDIRMA. Doktora tezi. Danışman-Saim Sakaoğlu, Konya-2006, 733 s**

21. Shayna Gardiner and Naomi Nagy “Stable Variation vs. Language Change, & the Factors That Constrain Them” Department of Linguistics, University of Toronto, Sidney Smith Hall, 100 St. George St., Toronto, ON, Canada M5S 3G3 <https://repository.upenn.edu/server/api/core/bitstreams/6315009e-db58-40f0-8253-759be26418a6/content>

<https://www.mq.edu.au/faculty-of-medicine-health-and-human-sciences/departments-and-schools/departments-and-schools/department-of-linguistics/our-research/language-variation-and-change#:~:text=Understanding%20the%20variability%20of%20language,eventually%20leading%20to%20language%20change.>



## PRAGMASTYLISTIC FEATURES OF CHILDREN'S SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY DISCOURSE



**Kholibekova Omongul**

*Associate Professor (PhD) of the Department  
of Applied English Studies*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek badiiy diskursida bolalar nutqining pragmastilistik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi hamda ingliz va o'zbek badiiy matnlarida bolalar nutqi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, pragmastilistika, diskurs, bolalar nutqi, nutq akti nazariyasi

**Abstract:** This article examines the pragmastylistic features of children's speech in English and Uzbek literary discourse. It explores how children's speech is formed, the role of pragmatic and stylistic markers, and how speech act theory is applied to represent child characters in fiction.

**Keywords:** pragmatics, pragmastilistics, discourse, children's speech, speech act theory.

**Introduction.** Children's speech in literary texts reflects not only the author's aesthetic intentions but also complex psycholinguistic processes linked to cognitive development, emotional expression, and the child's broader cultural environment. In fiction, a child character's linguistic behaviour simultaneously mirrors real developmental patterns and serves as a stylistic device for constructing authenticity. Because children think, perceive, and communicate differently from adults, their fictional speech often displays age-specific lexical choices, simplified or non-linear syntactic structures, egocentric expressions, and emotionally charged utterances. This article aims to study the pragmastylistic nature of children's speech in English and Uzbek literary discourse, focusing on speech acts, stylistic indicators, and cultural codes that influence the representation of child characters in these literary traditions.

Psycholinguistically, the representation of children's speech is shaped by the developmental stage of the child—ranging from limited vocabulary and concrete thinking in early childhood to more abstract reasoning and pragmatic awareness in later years. Emotional and social factors such as attachment, play, identity formation, and peer interaction also influence how children express themselves in narratives. Cultural norms further shape the communicative style: for example, expectations about politeness, hierarchy, or family relationships may determine how a child addresses adults or interacts with peers in English and Uzbek literary contexts.

Because of these multidimensional influences, analysing children's speech in literary discourse requires a pragmastylistic approach—one that integrates linguistic

form, pragmatic intention, and stylistic realization. Pragmastylistics allows researchers to identify how authors encode children's communicative intentions (e.g., requests, protests, curiosity, humour) and how these intentions are artistically transformed into stylistic markers of child speech. This approach also illuminates how narrative voice, dialogic interaction, and socio-cultural context contribute to the construction of a believable child persona. Ultimately, the study of children's speech in literature reveals both the universal mechanisms of child language development and the culturally specific ways authors represent children's cognition, emotions, and socialization through artistic discourse.

**Methods and analysis.** Children's speech in literary texts reflects not only aesthetic intentions but also deep psycholinguistic processes related to cognitive development, emotional expression, and cultural environment. A child character's speech is closely shaped by age, psychological maturity, communicative needs, and social factors. Therefore, its analysis requires a *pragmastylistic* approach that integrates linguistic form, pragmatic intention, and stylistic realization<sup>30</sup>.

Literary discourse is a communicative phenomenon that combines textual structure, context, pragmatic purpose, and aesthetic function<sup>31</sup>. When children appear as characters, the discourse reveals specific linguistic patterns conditioned by their cognitive and emotional state.

The key features of child speech in literary discourse include:

**Simplicity** — short syntactic patterns, reduced complexity.

**Directness** — minimal implicit meaning, open expression.

**Emotionality** — expressive vocabulary, interjections, evaluative words.

**Dialogic dynamism** — frequent question–answer sequences, rapid turn-taking.

These features reflect the natural speech behavior of real children and enhance the authenticity of fictional narratives.

**Results.** The development of children's speech proceeds through several psycholinguistic stages. According to Vygotsky and Bruner, verbal development can be divided into three major stages<sup>32</sup>:

1. **Situational–personal stage** (0–2 years).
2. **Situational–cognitive stage** (2–3 years).
3. **Extrasituational–cognitive stage** (4–7 years).

In fiction, these developmental stages manifest through characteristic linguistic markers: short, unfinished or fragmented sentences; repetitive structures (lexical and syntactic repetition); emotional interjections and simple evaluative units; child neologisms and intuitive grammar; reliance on nonverbal cues (gestures, applause, silence). Such markers reflect how children process, understand, and verbally represent the world around them.

<sup>30</sup> Arutyunova, N. D. *Discourse*. Moscow: Linguistic Encyclopedia, 1990

<sup>31</sup> Mey, J. *Pragmatics: An Introduction*. Oxford: Blackwell, 2001.

<sup>32</sup> Van Dijk, T. A. *Discourse and Context*. Cambridge University Press, 2008.

Pragmastylistics studies how language is used in context to achieve communicative purposes through stylistic choices. Speech act theory (J. Austin, J. Searle) provides a suitable framework for analyzing children's dialogic behavior.

### **Discussion.**

#### **Types of Speech Acts**

Child speech in literary texts typically employs:

**Locutionary acts** — basic propositional content;

**Illocutionary acts** — questions, commands, requests, evaluations;

**Perlocutionary acts** — intended psychological effect on the listener.

For example, in *The Lion, the Witch and the Wardrobe*, Edmund frequently employs question acts such as "Why can't we go now?" These interrogatives do not merely request information; they reveal layers of cognitive and emotional meaning. Psycholinguistically, Edmund's questions demonstrate his developmental tendency to negotiate uncertainty through inquiry. Pragmatically, they function as indirect expressions of confusion, anxiety, or resistance. Such question acts also highlight C. S. Lewis's stylistic strategy of portraying child characters as cognitively active and emotionally transparent, using interrogation as a means of externalizing inner conflict.

In contrast, Uzbek writer X. To'xtaboyev often constructs child speech through direct evaluative statements like "U juda yaxshi bola" ("He is a very good boy"), which serve as openly expressed and highly affective illocutionary acts. These utterances reflect a culturally rooted communicative norm in which children articulate moral judgments and emotional attitudes explicitly. From a pragmastylistic standpoint, such evaluations indicate a discourse style where emotional stance-taking is a primary linguistic resource, revealing children's socialization into Uzbek value systems such as respect, collectivism, and moral clarity. From a psycholinguistic perspective, such behaviour demonstrates children's awareness of context-sensitive politeness strategies and their ability to encode intentions through multimodal cues. Stylistically, To'xtaboyev leverages this culturally embedded gesture to enhance narrative authenticity and to portray children as socially intelligent participants in communication.

Collectively, these examples illustrate how English and Uzbek children's literature encode different pragmatic pathways—English narratives often foreground cognitive inquiry through interrogatives, while Uzbek texts prioritise emotional evaluation and culturally meaningful indirect acts. Through such contrasts, pragmastylistic analysis reveals the deep interconnection between child cognition, cultural communication styles, and literary representation.<sup>33</sup>

The following table summarizes key differences in how children's speech is represented in English vs. Uzbek literary discourse:

---

<sup>33</sup> Lewis, C. S. *The Lion, the Witch and the Wardrobe*. Harper Collins, 1990.

Feature	English Literature	Uzbek Literature
Syntactic structure	Short, clear, dialog-focused	Emotional, descriptive, narrative-rich
Pragmatic purpose	Cognitive inquiry; questioning	Emotional expression; moral positioning
Cultural code	Individualism, independence	Collectivism, respect, ethics
Nonverbal markers	Rarely explicit	Frequent (applause, silence, gestures)

A notable distinction emerges in the use of indirect and non-verbal pragmatic strategies. While English literature generally encodes illocutionary force through explicit verbal acts—questions, refusals, requests—Uzbek literary discourse frequently employs culturally embedded indirect cues. For example, in To‘xtaboyev’s work “Jannati odamlar”, the act of clapping (*qarsak chalish*) operates as an indirect illocutionary act meaning “Stop speaking.” This gesture reveals a shared pragmatic code in Uzbek culture, where non-verbal signals carry significant communicative weight and serve to regulate social interactions without overt confrontation. Such multimodal communication highlights children’s awareness of culturally appropriate strategies for maintaining interpersonal harmony.

Interactional patterns with adults further reinforce these cultural orientations. In English texts, children often negotiate or challenge adult authority through questioning, signaling the development of agency, self-confidence, and independence. In contrast, Uzbek narratives emphasize hierarchical relationships, respect, and socially appropriate restraint. Children’s speech toward adults is typically mitigated, polite, and indirect, reflecting culturally sanctioned norms of deference and communal responsibility. Stylistically, these differences shape the narrative functions of dialogue in the two literary traditions. In English literature, child speech often serves as a mechanism for cognitive exploration and plot progression, whereas in Uzbek literature, children’s dialogue frequently reinforces moral themes, social values, and collective identity. English authors use creativity, imagination, and humor to portray the child’s developing worldview, while Uzbek writers integrate proverbs, emotionally charged diction, and culturally meaningful gestures to build authentic, socially grounded child characters.

**Conclusion**

The study demonstrates that children’s speech in English and Uzbek literary discourse shares several universal features rooted in early cognitive and linguistic development. These include lexical and syntactic simplicity, heightened emotional expressiveness, and a tendency toward directness in conveying needs or reactions. Such universals reflect fundamental psycholinguistic patterns: children rely on accessible vocabulary, concrete reasoning, and overt emotional signalling regardless of cultural background. However, the analysis also identifies striking divergences arising from

pragmatic orientation and cultural embedding. English literary texts, particularly those within the classic children’s fantasy tradition, tend to foreground cognitive exploration and the child’s developing sense of autonomy. Characters frequently employ questioning, hypothesizing, and self-reflective speech acts, revealing an individual-centred communicative ethos. These linguistic behaviours align with cultural values that encourage curiosity, personal opinion, and independent reasoning.

In contrast, Uzbek literary discourse featuring child characters places greater emphasis on emotional transparency, moral evaluation, and community-oriented norms. Children openly express approval, disapproval, affection, or moral judgment, reflecting their socialization into a collectivist value system where interpersonal harmony and ethical clarity are prioritized. Moreover, Uzbek children’s speech often incorporates culturally coded indirect strategies—such as symbolic gestures, humor, or mitigated critiques—that rely on shared contextual knowledge within the group.

A pragmastylistic approach proves especially effective in uncovering these nuanced cross-cultural differences. By integrating linguistic forms, pragmatic intentions, and stylistic choices, this methodology reveals how authors construct believable child voices that simultaneously reflect real developmental tendencies and culturally shaped patterns of interaction. It highlights how narrative contexts, communicative norms, and stylistic strategies intersect to produce distinct portrayals of children’s cognition, emotions, and social behaviour. Ultimately, such an approach not only clarifies the psycholinguistic foundations of child speech in literature but also illuminates the cultural scripts and communicative values that shape children’s voices in English and Uzbek artistic discourse.

### Reference:

1. Arutyunova, N. D. *Discourse*. Moscow: Linguistic Encyclopedia, 1990.
2. Mey, J. *Pragmatics: An Introduction*. Oxford: Blackwell, 2001.
3. Van Dijk, T. A. *Discourse and Context*. Cambridge University Press, 2008.
4. Leech, G. *Principles of Pragmatics*. London: Longman, 1983.
5. Vygotsky, L. S. *Thought and Language*. MIT Press, 1986.
6. Bruner, J. *Child’s Talk: Learning to Use Language*. Norton, 1983.
7. Crystal, D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. Blackwell, 2003.
8. Lewis, C. S. *The Lion, the Witch and the Wardrobe*. Harper Collins, 1990.
9. To‘xtaboyev, X. *Sariq devni minib*. Tashkent, 1970.
- To‘xtaboyev, X. *Jannati odamlar*. Tashkent, 1982.



## INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHAYOTGAN SO'ZLARNING FONETIK, MORFOLOGIK VA SEMANTIK ADAPTATSIYA MODELLARI



**Xamzayev Sobir**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**ANNOTATSIYA.** Mazkur maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashayotgan so'zlarning fonetik, morfologik va semantik adaptatsiya jarayonlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda o'zlashma so'zlarning talaffuzidagi moslashuv, o'zbek tilining fonetik tizimiga mos modifikatsiyalar hamda morfologik kategoriyalarga qo'shilish mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, semantik darajadagi o'zgarishlar, ma'no kengayishi, torayishi va ma'no ko'chish hollari o'rganilgan. Tahlillar natijasida inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi faqat lingvistik jarayon emasligi, balki madaniy, texnologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi aniqlangan. Maqola xorijiy tillardan so'z qabul qilish jarayonida o'zbek tilining moslashuvchanligini ko'rsatadi va lingvistik dinamikani tushinishda muhim nazariy xulosalar beradi.

**Kalit so'zlar:** inglizcha o'zlashmalar, fonetik adaptatsiya, morfologik moslashuv, semantika, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, o'zbek tili

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются процессы фонетической, морфологической и семантической адаптации слов английского происхождения в узбекском языке. Анализируются изменения произношения, модификации, связанные с системой узбекской фонетики, а также механизмы включения заимствований в морфологические категории языка. Особое внимание уделяется семантическим трансформациям, таким как расширение, сужение и перенос значений. Результаты исследования показывают, что заимствование английских слов связано не только с лингвистическими факторами, но и с культурными, технологическими и социальными изменениями. Статья демонстрирует гибкость узбекского языка в процессе интеграции новых единиц и представляет теоретически значимые выводы для понимания языковой динамики.

**Ключевые слова:** англицизмы, фонетическая адаптация, морфологическая интеграция, семантика, языковые изменения, расширение значения, сужение значения, узбекский язык

**ANNOTATION.** This article examines the phonetic, morphological, and semantic adaptation of English loanwords in the Uzbek language. The study analyzes pronunciation changes, modifications influenced by the Uzbek phonetic system, and the mechanisms through which borrowings integrate into Uzbek morphological categories. Semantic transformations, including meaning extension, narrowing, and shift, are also explored. The findings reveal that the adoption of English-origin words is not solely a linguistic process, but is shaped by cultural, technological, and social factors. The article highlights the adaptability of the Uzbek language in accommodating new lexical items and provides significant theoretical insights into language dynamics and ongoing linguistic change.

**Keywords:** English borrowings, phonetic adaptation, morphological integration, semantics, meaning extension, meaning narrowing, Uzbek language

## KIRISH

O‘zlashma so‘zlarning milliy til tizimiga moslashuvida fonetik adaptatsiya birinchi bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda chet tilidan kirgan so‘zlar o‘zbek tilining tovush tizimi, artikulyatsiya xususiyatlari va fonetik qonunlariga muvofiqlashtiriladi. Tilshunoslikda bu hodisa “fonetik integratsiya” yoki “akkomodatsiya” deb ham ataladi [5, 48]. Fonetik adaptatsiyaning asosiy vazifasi – o‘zlashma so‘zning talaffuzini milliy til normalariga yaqinlashtirish, uni fonologik jihatdan muvofiq holga keltirishdir. Bu jarayonda so‘zning ma’nosi saqlanib qoladi, ammo fonetik jihatdan muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidan kirgan “computer” so‘zi o‘zbek tilida “kompyuter” shaklida, “manager” so‘zi “menejer”, “marketing” – “marketing”, “brand” – “brend” shaklida ishlatiladi. Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilidagi adaptatsiya jarayonida so‘zning asosiy fonemalari saqlanadi, lekin talaffuz qonunlariga moslashtirish natijasida ayrim ovozlarda o‘zgarishga uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi /æ/ ovozi ko‘p hollarda o‘zbek tilida /ye/ bilan almashadi (“manager” → “menejer”), /ʌ/ ovozi esa /a/ bilan ifoda etiladi (“marketing” → “marketing”). Bunday moslashuvning sababi – tillar fonetik tizimining farqliligidadir. Har bir til o‘zining “akustik me’yorlar tizimi”ga ega, va chet so‘zlar ham ana shu me’yorlarga mos holda qayta ifoda etiladi. O‘zbek tilida bu jarayon tabiiy til taraqqiyotining bir qismi bo‘lib, u so‘zni milliy til muhitida qabul qilish va uning talaffuzini qulaylashtirishga xizmat qiladi.

## METODLAR

Mazkur maqolada ingliz tilidan o‘zlashayotgan so‘zlarda yuz beradigan o‘zgarishlarni tadqiq etish uchun fonetik, morfologik, semantic va konseptual metodlardan foydalanilgan. Jumladan, fonetik adaptatsiya jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin:

- Talaffuzning akustik moslashuvi. Bu bosqichda chet tili tovushlari o‘zbek tili fonemalariga yaqin ovozlarda almashtiriladi. Masalan, “*software*” → “*softver*”, “*browser*” → “*brauzer*”, “*printer*” → “*printer*”, “*online*” → “*onlayn*”. Bu misollarda inglizcha tovush birikmalari milliy talaffuz qonuniyatlariga moslashgan.

- Orfoepik me’yorlashtirish. Bu bosqichda adaptatsiya qilingan so‘zlar milliy orfoepiya qoidalariga moslashtiriladi. Masalan, “*email*” so‘zi xalq orasida “imeyl” tarzida, “*chat*” – “*chat*”, “*file*” – “*fayl*” ko‘rinishida qo‘llaniladi. Ayrim hollarda kundalik nutqda qo‘shimcha suffikslar orqali fonetik moslashuv yanada mustahkamlanadi: “*skanerlash*”, “*postlash*” va hokazo.

Fonetik adaptatsiya jarayonining muvaffaqiyati tilning fonematik tizimi qanchalik barqaror va ochiq ekanligiga bog‘liq. O‘zbek tilining singarmonizm va tovush muvofiqligi qonunlari chet so‘zlarni oson qabul qilish imkonini yaratadi [3, 61]. Internet lug‘atidagi yangi so‘zlarning aksariyati (masalan, “*layk*”, “*post*”, “*chat*”, “*follower*”, “*strim*”) orfografik jihatdan asl shaklida saqlansa-da, ularning talaffuzi milliy

artikulyatsiyaga moslashtiriladi: “*layk*” (/laik/ → /laik/), “*chat*” (/tʃæt/ → /ʃat/), “*post*” (/poust/ → /post/). Bu holat tilning fonetik moslashuv qobiliyati yuqori ekanligini koʻrsatadi. Aslida chet tilidan oʻzlashgan soʻzlarning fonetik adaptatsiyasi faqat texnika yoki texnologiya sohasi bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarga ham keng tarqalgan. Masalan, “*intervyu*”, “*biznes*”, “*menejment*”, “*marketing*”, “*byudjet*”, “*servis*” singari soʻzlar oʻzbek tilining lugʻat fondida mustahkam oʻrin olgan.

Shu tariqa, fonetik adaptatsiya til lugʻatini boyitishdagi ilk va eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon orqali soʻzlar milliy tilda tabiiylashadi, talaffuzdagi qiyinliklar bartaraf etiladi va kommunikatsiyadagi qulaylik taʼminlanadi.

Oʻzlashma soʻzlarning milliy til tizimida faol qoʻllanishi uchun ularning morfologik moslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon tilning ichki tuzilishi va qonuniyatlariga mos ravishda chet soʻzlarning grammatik tizimga integratsiyalanishini taʼminlaydi [4, 11]. Morfologik integratsiya natijasida oʻzlashma soʻzlar faqat nom sifatida emas, balki feʼl, sifat, ot va boshqa soʻz turkumlari tarkibida faol qoʻllanila boshlaydi.

Morfologik adaptatsiya tildagi oʻzgarishlarning eng barqaror va tizimli koʻrinishi boʻlib, u lugʻat boyishining ichki mexanizmi hisoblanadi. Til faqat soʻzlarni qabul qilibgina qolmay, balki ularni oʻz grammatik qonunlariga boʻysundirib, yangi morfemik modellar yaratadi.

Feʼl yasashdagi integratsiya modellari. Oʻzbek tilida chet tilidan kirgan koʻplab soʻzlar feʼl yasash qoʻshimchalari bilan birlashib, yangi grammatik birlik yaratadi. Bu jarayon tilning morfologik tizimi ochiq ekanligini koʻrsatadi. Masalan: “*post qilmoq*” (ingl. *to post*), “*layk bosmoq*” (ingl. *like*), “*chatlashmoq*” (ingl. *chat*), “*strim qilmoq*” (ingl. *stream*), “*follov qilmoq*” (ingl. *follow*). Bu feʼllar ikki qismdan tashkil topgan:

- chet tilidan kirgan leksik asos;
- oʻzbek tilidagi feʼl yasash qoʻshimchasi yoki yordamchi feʼl.

Tilshunoslar bu holatni “funktional gibridizatsiya” deb taʼriflaydilar. Ularning fikricha, soʻz yasashning bunday usuli milliy morfologik modellarning yangi bosqichga koʻtarilishini anglatadi. Masalan, “*layk bosmoq*” ifodasi grammatik jihatdan oʻzbek tiliga toʻliq mos boʻlsa-da, semantik jihatdan ingliz tili konsepti bilan bogʻliq. Bu turdagi gibrid feʼllar zamonaviy oʻzbek tilidagi eng faol neologizmlar qatlamini tashkil etadi. Ular orqali til yangi maʼno sohalarni oʻzlashtiradi: “*post qilmoq*” – axborot tarqatish, “*chatlashmoq*” – onlayn muloqot, “*strim qilmoq*” – jonli efirni boshqarish kabi kognitiv faoliyat turlarini ifoda etadi.

Barchaga maʼlumki, oʻzbek tilida feʼl yasashning ikki asosiy usuli bor:

- 1) affiksatsiya orqali yaratish (masalan, “*brendlashmoq*”, “*servislashmoq*”, “*arxivlashmoq*”) va 2) analitik biriktirish orqali yaratish (masalan, “*layk bosmoq*”,

“*post qilmoq*”). Birinchi holda chet tilidan olingan soʻz oʻzbek tiliga xos affiksni qabul qiladi. Masalan: “*brend*” → “*brendlash*” → “*brendlashmoq*”, “*servis*” → “*servislash*” → “*servislashtirish*”, “*arxiv*” → “*arxivlash*” → “*arxivlangan*”. Bu model oʻzbek tilidagi soʻz yasash qonuniyatlariga toʻliq mos keladi va chet tilidan olingan soʻzlarning morfologik adaptatsiya darajasini oshiradi.

Ikkinchi holatda soʻz va yordamchi feʼl (asosan “*qilmoq*”, “*bosmoq*”, “*bermoq*”) birikmasidan yangi maʼno hosil boʻladi. Masalan, “*post qilmoq*” faqat harakatni emas, balki axborot tarqatish konseptini ifoda etadi. Bu kognitiv oʻzgarish tildagi maʼno modellarining rivojini koʻrsatadi. Bunday birikmalar nutqda frazeologizatsiya bosqichiga oʻtib, keyinroq lugʻatda mustaqil feʼl sifatida mustahkamlanadi. Masalan, “*chatlashmoq*” soʻzi ilk bora gibrid birikma sifatida qoʻllanilgan boʻlsa, hozir lugʻatda feʼl sifatida qayd etilgan.

Morfologik integratsiya faqat grammatik oʻzgarish emas, balki kognitiv jarayon hamdir. Yangi feʼl yaratilishi inson ongidagi yangi faoliyat turini anglash ehtiyoji bilan bogʻliq. Masalan, “*skanerlash*”, “*targeting qilish*”, “*onlayn qoʻshilish*”, “*vebinar oʻtkazish*” kabi feʼllar yangi ijtimoiy amaliyotlarning lingvistik aksidir.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan, morfologik adaptatsiya tildagi demokratiklashuv jarayonini ham koʻrsatadi: yangi soʻzlarni ilk qoʻllovchilar koʻpincha yoshlar va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridir. Ular tildagi yangi feʼl modellarini joriy etib, keyinchalik ommaviy til qatlamiga olib kiradi. Bu jarayon tilning faol rivojlanish bosqichini belgilaydi [1, 165]. Chunki til yangi voqelikni ifoda etish uchun yangi grammatik vositalar yaratayapti. Bu holat oʻzbek tilining jonli, ijtimoiy faol va kognitiv jihatdan moslashuvchan ekanligini tasdiqlaydi.

Morfologik adaptatsiya jarayonini tadqiq etish tilning ichki rivoj qonuniyatlarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Uning orqali tilning leksik yangilanish salohiyati, grammatik moslashuv mexanizmi va kognitiv funksiyasi aniqlanadi. Tilning global muhitda yashovchanligini taʼminlaydigan asosiy omil – bu uning morfologik ochiqligi va grammatik moslashuv qobiliyatidir. Shu jihatdan oʻzbek tili chet soʻzlarni qabul qilishda nafaqat fonetik, balki morfemik jihatdan ham yuqori integratsiya salohiyatiga ega.

## **NATIJALAR**

Tildagi oʻzgarishlar jarayonida semantik adaptatsiya lugʻat boyishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chet tillardan oʻzlashgan soʻzlar faqat fonetik va morfologik jihatdan moslashibgina qolmay, maʼno sohasida ham muayyan transformatsiyaga uchraydi. Bu hodisa tildagi “maʼno koʻchishi”, “maʼno kengayishi” va “semantik qayta ifoda” kabi jarayonlar bilan uzviy bogʻliq.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, semantik adaptatsiya – inson ongidagi mavjud konseptlar bilan yangi konseptlar oʻrtasidagi bogʻlanish jarayonidir. Inson

yangi soʻzni qabul qilar ekan, uning maʼnosini mavjud bilimlar tizimi bilan bogʻlaydi, yaʼni til orqali yangi reallikni tasvirlaydi. Shu asnoda, har bir soʻz oʻzining “freym”i, yaʼni maʼno makoniga ega. Yangi soʻzning milliy tildagi faoliyati ana shu freymning qayta tuzilishi bilan belgilanadi. Masalan, ingliz tilidagi “*post*” soʻzi ilk maʼnoda “pochta orqali yuborish”ni anglatgan boʻlsa, internet muhitida u “onlayn axborotni joylashtirish” maʼnosini oldi. Oʻzbek tilida esa u “post qilish”, “post yozish”, “post joylashtirish” kabi ifodalar orqali yangi semantik freym yaratadi.

Semantik adaptatsiyaning asosiy turlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Maʼno kengayishi (semantic broadening). Bu holatda soʻzning maʼno doirasi kengayadi, u yangi konseptual sohalarni qamrab oladi. Masalan, “*layk*” soʻzi ilk bor “yoqish belgisi” maʼnosini anglatgan boʻlsa, hozir u “qoʻllab-quvvatlash”, “doʻstona munosabat bildirish”, “hamfikrlik ifodasi” kabi maʼnolarni ham qamrab olgan. Bu semantik kengayish kognitiv jihatdan ijtimoiy munosabatni ramziy ifodaga aylantirish bilan bogʻliq. Semantik kengayish tildagi maʼno tizimining dinamikasini koʻrsatadi. Oʻzbek tilidagi koʻplab yangi soʻzlar funksional kengayish orqali koʻp maʼnolilikka ega boʻlgan. Masalan, “onlayn” soʻzi dastlab “internet orqali” maʼnosini anglatgan boʻlsa, hozir u “foydalanuvchi faolligi”, “jonli ishtirok” kabi pragmatik maʼnolarni ham qamrab olgan.

2. Maʼno torgʻayishi (semantic narrowing). Baʼzan soʻz milliy tilda cheklangan faoliyat yoki sohani ifodalash uchun qoʻllaniladi. Masalan, “*targeting*” soʻzi ingliz tilida keng reklama strategiyasini anglatrsa, oʻzbek tilida u asosan “ijtimoiy tarmoqlarda auditoriyani aniqlash” maʼnosida ishlatiladi. Bu holat tildagi semantik lokalizatsiyaning bir koʻrinishi boʻlib, milliy madaniyat va ijtimoiy tajriba taʼsirida yuzaga keladi.

Lakoff va Jonsonning kognitiv metafora nazariyasiga koʻra, inson yangi voqelikni anglash uchun mavjud konseptlarni metafora sifatida qoʻllaydi [2, 84]. Internet lugʻatidagi koʻplab soʻzlar ana shu asosda yaratilgan: “*tarmoq*” – ijtimoiy aloqa maydoni, “*strim*” – jonli maʼlumot oqimi, “*chat*” – virtual suhbat holiga aylangan. Metaforalash jarayoni tildagi semantik yangilanishning eng samarali usulidir. Masalan, “*follower*” soʻzi (“ergashuvchi”) kognitiv jihatdan “yetakchiga ergashish” modeliga bogʻliq. Lekin ijtimoiy tarmoq kontekstida bu “diqqat va qiziqishni yoʻnaltirish” maʼnosini ham qamrab oladi. Bu orqali metafora voqelikni faol idrok etish vositasiga aylanadi.

Semantik adaptatsiyaning yana bir muhim koʻrinishi – soʻzning grammatik funksiyasining oʻzgarishi. Masalan, “*layk*” ilk bor feʼl sifatida (“to like”) ishlatilgan boʻlsa, oʻzbek tilida u ot (“bitta layk”) sifatida faollashgan. Keyinchalik “layk bosmoq” frazeologik birlik sifatida nutqda mustahkamlangan. Shu bilan soʻzning semantik strukturasida ham funksional kengayish yuzaga kelgan. Tildagi funksional koʻchish –

bu jonli kommunikatsiyaning tabiiy natijasi bo‘lib, u ma’no yaratish faoliyatining kognitiv mexanizmi bilan bog‘liq.

Global muhitdagi so‘zlar milliy tilda qabul qilinishi jarayonida semantik interferensiya ham kuzatiladi. Masalan, “kontent” so‘zi ingliz tilida har qanday axborot materialini anglatga, o‘zbek tilida u asosan ijtimoiy tarmoqdagi media postlar bilan bog‘langan ma’noda qo‘llaniladi. Bu holat tildagi semantik lokalizatsiyaning yaqqol namunasidir. Shu bilan birga, ba’zi so‘zlar ikki til semantikasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yangi gibrud ma’nolarni yaratadi. Masalan, “vloger” – “video blog yaratuvchi” ma’nosini anglatga-da, o‘zbek kontekstida u “internet orqali o‘z faoliyatini namoyon etuvchi ijodkor” tushunchasini ham o‘z ichiga oladi.

Semantik adaptatsiya jarayonini to‘liq anglash uchun uning ikki til – ingliz va o‘zbek tillaridagi ko‘rinishini qiyosiy tahlil qilish muhim. Bu orqali so‘z ma’nosining qanday tarzda lokalizatsiya va madaniy qayta talqinga uchrashi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, har bir so‘z o‘zbek tilida yangi kognitiv freym asosida qabul qilingan. Bu freymilar tildagi ma’no yaratish jarayonining madaniy va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

Tildagi ma’no o‘zgarishi faqat lingvistik hodisa emas, balki kognitiv tajribaning natijasidir. Inson ongi yangi voqelikni qabul qilar ekan, uni mavjud bilimlar tizimi bilan bog‘laydi va shunday qilib yangi semantik freymilar yaratadi. O‘zbek tilidagi “post”, “chatlashmoq”, “layk bosmoq”, “onlayn suhbat”, “kontent yaratish” kabi iboralar shunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu ifodalar nafaqat leksik yangilik, balki inson faoliyatining yangi kognitiv turini ham ifoda etadi. Kognitiv nuqtai nazardan, semantik adaptatsiya “ma’no yaratish faoliyati” deb qaraladi. Bu jarayonda inson yangi so‘zni qabul qilar ekan, uning ma’nosini shaxsiy tajribasi, madaniyati va ijtimoiy muhiti bilan uyg‘unlashtiradi.

Internet muhitidagi lug‘at tizimi inson muloqotining yangi tipini yaratadi. Unda so‘zlar nafaqat axborotni uzatish, balki ijtimoiy munosabatni ifoda etish vazifasini ham bajaradi. Masalan, “layk bosish” nafaqat yoqish, balki “men sening fikringni qo‘llab-quvvatlayapman” degan ijtimoiy ishora sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bunday semantik qayta ifodalar tildagi pragmatik faollikni oshiradi, ya’ni so‘zning kommunikativ ahamiyati ko‘payadi.

## TAHLIL

Global so‘zlar milliy tilda qabul qilinishi jarayonida ularning ma’nosi mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashadi. Masalan, o‘zbek tilida “*follower*” so‘zi ko‘p hollarda “kuzatuvchi”dan ko‘ra “ixlosmand”, “muhlis” ma’nolarida ishlatiladi. Bu holat milliy mentalitet ta’sirining yorqin namunasidir. Shuningdek, “*strim*” so‘zi ham jonli efrni anglatish bilan birga “onlayn tadbir o‘tkazish”, “ishni internet orqali boshqarish” kabi

keng ma'nolarni qamrab oldi. Bu semantik kengayish internet muhitining jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq.

Semantik adaptatsiya tilning kognitiv faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, so'z ma'nosining kengayishi inson ongidagi yangi konseptlarning ifodaga chiqishi orqali amalga oshadi. Global muhitdagi so'zlar milliy madaniyat ta'sirida lokal ma'nolarga ega bo'ladi, bu esa tilning ijtimoiy va kognitiv mustaqilligini ta'minlaydi. Internet lug'atining semantik rivoji tildagi ma'no sistemasining ochiqligini va universal fikrni milliy voqelikka moslashtirish qobiliyatini namoyon etadi. Kognitiv-semantik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili yangi ma'no yaratish jarayonlarini faol qabul qilmoqda va uning lug'at tizimida global va milliy omillar o'zaro uyg'unlashib rivojlanmoqda.

Umuman olganda, tilshunoslikda lug'at tarkibidagi o'zgarishlar, ayniqsa, globallashtirish va raqamli kommunikatsiya davridagi neologizmlarning moslashuv jarayonlari, zamonaviy ilmiy izlanishlarning markaziy mavzusiga aylanib bormoqda. Tilning rivojlanishini faqat yangi so'zlar yaratilishi bilan emas, balki ularning fonetik, morfologik, semantik va kognitiv jihatdan integratsiyasi bilan tavsiflash mumkin.

## XULOSA

Fonetik adaptatsiyaning umumiy qonuniyatlari. Internet va global kommunikatsiya ta'sirida o'zbek tili lug'at tarkibiga kirgan o'zlashmalar milliy fonetik tizimga mos holda o'zgarib bormoqda. Bu jarayonda chet so'zlar talaffuz va orfoepiya qoidalariga moslashtirilib, tilning tabiiy ritmik asosiga singib ketmoqda. Masalan, “kompyuter”, “marketing”, “brend”, “layk”, “chat” kabi so'zlar orqali tildagi fonologik moslashuvning faolligini ko'rish mumkin. Bu holat tilning faol yangilanish qobiliyatini tasdiqlaydi.

Morfologik integratsiya va grammatik moslashuv. O'zlashma so'zlar faqat nom shaklida emas, balki fe'l yasashda ham faol ishtirok etmoqda. “Post qilmoq”, “chatlashmoq”, “layk bosmoq”, “strim qilish”, “arxivlashmoq” kabi gibrid birikmalar orqali tilning morfologik tizimi yangi faoliyat turlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat tilning ichki grammatik modellari ochiqligini va uning yangilikka moslashuvchanligini ko'rsatadi. Morfologik adaptatsiya natijasida yangi affiksatsiya jarayonlari ham faollashgan. Masalan, “brendlashmoq”, “targeting qilish”, “kontent yaratish” kabi birikmalar tildagi fe'l yasash mexanizmlarini boyitmoqda. Bu jarayon morfologik integratsiyaning faol kognitiv ko'rinishidir.

Semantik adaptatsiya va ma'no kengayishi. Global lug'at elementlari milliy ma'no tizimida yangi semantik freymlar yaratmoqda. Masalan, “layk” so'zi yoqish belgisidan tashqari “qo'llab-quvvatlash”, “hamfikrlik” kabi ma'nolarni qamrab olgan; “post” so'zi esa “axborot tarqatish”, “fikr bildirish”, “jamo'a bilan muloqot qilish” ma'nolarida ishlatila boshlagan. Bunday semantik kengayish tilning kognitiv faoliyati

bilan bog‘liq bo‘lib, inson ongidagi yangi konseptlarning ifodasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ma’no lokalizatsiyasi jarayonida so‘zlar milliy madaniyat va ijtimoiy muhitga moslashtiriladi. Masalan, “*follower*” – “kuzatuvchi”dan ko‘ra “muxlis”, “ixlosmand” ma’nosida qabul qilingan.

Kognitiv mexanizmlar va ma’no yaratish jarayoni. Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, tildagi har bir o‘zgarish inson ongidagi bilimlar tizimi bilan bog‘liq. Yangi so‘zlar qabul qilinishi jarayonida inson mavjud freymlarni qayta faollashtiradi yoki yangisini yaratadi. Bu jarayonda “internet”, “onlayn hayot”, “axborot oqimi”, “raqamli dunyo” kabi metaforalar tildagi konseptual tuzilmalarni kengaytiradi. O‘zbek tilidagi “*layk bosmoq*”, “*chatlashmoq*”, “*post qilmoq*”, “*strim olib borish*” kabi ifodalar kognitiv faoliyatning yangi turlarini tilda ifoda etish imkonini berdi. Bu so‘zlar faqat leksik yangilik emas, balki inson tafakkuridagi yangi anglash jarayonlarining ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, global lug‘at elementlari o‘zbek tili tizimiga faqat tashqi ta’sir sifatida emas, balki ichki rivojlanish manbai sifatida kirib kelmoqda. Bu jarayon tilning kognitiv, morfologik va semantik tizimini boyitmoqda. Amaliy jihatdan, bunday tahlillar internet sohasiga oid so‘zlarni me’yoriy asosda tizimlashtirish, zamonaviy o‘zlashmalarni ta’lim va tarjima jarayonlarida to‘g‘ri qo‘llash, hamda milliy lug‘atchilik va korpusli tadqiqotlar sohasida yangi yo‘nalishlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAT RO‘YXATI

1. Khamzaev S.A. Patterns of interaction of categories generalizing external factors of vocabulary development. *Foreign Linguistics and Linguodidactics*. Issue – 2 № 2 (2024) / ISSN 2181-3701. – Samarqand: SamDChTI, 2024. – Pp. 164-178.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live by*. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 361 p.
3. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Darslik)*. – T.: Universitet, 2006. – 238 b.
4. Rozen Ye.V. *Razvitiye slovarnogo sostava v aspekte sotsiolingvistiki // Lingvistika i metodika v vysshey shkole*. – M.: MGPIIYA, 1970. – 234 s.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik*. – T., 2004. – 257 b.



## INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA METAFORIK TAFAKKUR TIZIMI



**Mattiyev Abdulaziz,**  
*Andijon davlat chet tillari instituti*  
*dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida metaforik tafakkur tizimi kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Metafora nafaqat badiiy nutqning bezak vositasi, balki inson tafakkurining asosiy konseptual mexanizmi sifatida baholanadi. Tadqiqotda Lakoff va Jonsonning konseptual metafora nazariyasi asos qilib olingan bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillaridagi universal hamda milliy-madaniy metafora modellarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Metaforalar korpus tahlili, qiyosiy yondashuv va madaniy-semantik sharh usullari orqali o‘rganildi. Natijalar ingliz va o‘zbek metaforik tafakkurida umumiy universal konseptlar mavjudligini, biroq ularning ifoda mexanizmlari milliy dunyoqarash asosida farqlanishini ko‘rsatdi. Tadqiqot lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi va til o‘qitish metodikasi uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** *metaforik tafakkur, konseptual metafora, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyat, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, madaniy konnotatsiya.*

### KIRISH

Metafora uzoq vaqt davomida asosan badiiy nutqqa xos stilistik figura sifatida talqin etib kelingan. Klassik ritorika an‘analarida metafora tilning bezagi, muallifning estetik mahoratini namoyon etuvchi vosita sifatida ko‘rilgan. Biroq XX asr oxirlaridan boshlab kognitiv lingvistika metaforaga tamoman yangi ko‘z bilan qaray boshladi. G. Lakoff va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metafora inson tafakkurining markaziy mexanizmidir: inson murakkab, mavhum tushunchalarni kundalik tajribadagi aniq obrazlar orqali tushunadi va tashkil qiladi.

Metafora bizning dunyoni ko‘rish va ifodalash usullarimizni shakllantiradi. Masalan, ko‘plab tillarda hayot yo‘l sifatida tasvirlanadi; muvaffaqiyatlar “oldinga yurish”, muammolar esa “to‘siqlar” sifatida ko‘riladi. Shuningdek, vaqt pul, bilim nur, sevgi olov tarzida konseptual modellashtiriladi. Bu tasvirlar tasodifiy emas — ular inson tajribasida ildiz otgan kognitiv sxemalardir.

Ingliz va o‘zbek tillari turli genealogik hamda madaniy muhitlarga mansub bo‘lsa-da, ularning metaforik tafakkur tizimlarida bir qator umumiyliklar mavjud. Shu bilan birga, har bir til o‘z tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini metaforalar orqali aks ettiradi. Masalan, ingliz tilida vaqtni boshqarish, samaradorlik, individuallik tushunchalari yetakchi metaforalar orqali ifodalanadi; o‘zbek tilida esa jamiyat, mehmondo‘stlik, tabiat va jamoaviy qadriyatlarga tayangan metafora modellari ustunlik qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ingliz va o‘zbek tillarida metaforik tafakkur tizimini qiyosiy tahlil qilish, universal va milliy xususiyatlarni aniqlash hamda ularning lingvomadaniy mazmunini ochib berishdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

1. metaforaning kognitiv mohiyatini yoritish;
2. ingliz va o‘zbek tillarida eng ko‘p uchraydigan konseptual metafora turlarini belgilash;
3. metaforalar orqali ifodalangan madaniy qadriyatlarni tahlil qilish;
4. natijalarni qiyosiy jihatdan umumlashtirish.

Mazkur mavzu nazariy jihatdan til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash imkonini bersa, amaliy jihatdan tarjima, til o‘qitish va madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2. TADQIQOT METODI

Tadqiqot sifatli (qualitative) yondashuv asosida olib borildi va bir nechta metodlar qo‘llanildi.

### 2.1. Korpus tahlili

Ingliz va o‘zbek tillaridagi adabiy matnlar, publitsistik maqolalar, kundalik nutq namunalaridan iborat mini-korpus tuzildi. Har ikkala tilda metaforik birliklar aniqlanib, ularning konseptual asoslari belgilanib bordi.

### 2.2. Konseptual metafora tahlili

Lakoff va Jonson modeli asosida metaforalar manba soha (source domain) va maqsad soha (target domain) sifatida ajratildi. Masalan, “hayot yo‘l” metaforasida YO‘L — manba, HAYOT — maqsad soha hisoblanadi.

### 2.3. Qiyosiy yondashuv

Ingliz va o‘zbek metaforik birliklari struktura, semantika va pragmatik funksiyasi bo‘yicha qiyoslandi. Metaforalar qanday konseptlarni ifodalashi va ular qaysi madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi alohida ko‘rib chiqildi.

### 2.4. Madaniy-semantik sharh

Har bir asosiy metafora modeli madaniy kontekstda talqin qilindi. Tarixiy tajriba, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar metafora shakllanishiga qanday ta’sir qilgani izohlandi.

Olingan natijalar sifatli umumlashtirish usuli yordamida tizimlashtirildi.

## 3. NATIJA

### 3.1. Universal metafora modellari

Tadqiqot natijalari ko‘rsatishicha, ingliz va o‘zbek tillarida bir qator universal konseptual metaforalar mavjud:

- HAYOT — YO‘L
- VAQT — BOYLIK / RESURS
- SEVGI — OLOV
- BILIM — NUR
- TANISHUV — SAYOHAT

Bu metaforalar insonning umumiy tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, deyarli barcha tillarda uchraydi. Masalan, ingliz tilidagi *life is a journey* modeli o‘zbek tilida “hayot yo‘l” tarzida ifodalanadi. Har ikkala tilda ham insonning tug‘ilishi — yo‘lning boshlanishi, qarish — yo‘lning oxiri sifatida metaforik talqin qilinadi.

### 3.2. Milliy-madaniy farqlar

Shu bilan birga, har ikki tilda sezilarli madaniy xususiyatga ega metaforalar kuzatildi.

- O‘zbek tilida yer, hosil, daraxt, urug‘, bog‘ kabi obrazlarga asoslangan metaforalar keng tarqalgan. Bu dehqonchilik an‘analari, tabiat bilan yaqinlik, baraka va mehnat qadriyatlari bilan bog‘liq.
- Ingliz tilida esa vaqtni boshqarish, tizim, mexanizm, bozor kabi konseptlar ko‘proq uchraydi. Bular industrial jamiyat, shaxsiy mas‘uliyat va natijaga yo‘naltirilganlikni aks ettiradi.

Masalan, ingliz tilidagi *time is money* metaforasi vaqtni resurs sifatida ko‘radi, o‘zbek madaniyatida esa vaqt ko‘proq sabr, yetilish va hayot aylanishi bilan bog‘lanadi.

### 3.3. Emotsional metaforalar

Emotsiyalar ham turli obrazlar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida g‘azab *boiling*, *exploding* kabi jarayonlar bilan bog‘lansa, o‘zbek tilida “ichida o‘t yoqildi”, “yuragi o‘rtandi” kabi metaforalar ishlatiladi.

Bu farqlar til orqali inson tanasi va ruhiy holatiga bo‘lgan turlicha tasavvurlarni namoyon etadi.

### 3.4. Ijtimoiy qadriyatlarning aks etishi

Metaforalar jamiyatning asosiy qadriyatlarini aniq ko‘rsatadi:

- O‘zbek metaforalari ko‘proq oilaviylik, birdamlik, mehmondo‘stlikni ifodalaydi.
- Ingliz tilida esa erkinlik, mustaqillik, mas‘uliyat kabi konseptlar ustun turadi.

Shunday qilib, metafora — bu madaniyatning yashirin “lug‘ati”, unda jamiyat dunyoni qanday ko‘rishi mujassam.

## 4. MUHOKAMA

Olingan natijalar metaforaning inson tafakkuridagi o‘rni juda chuqur ekanini ko‘rsatadi. Metafora inson ongida dunyo modelini yaratadi, murakkab tushunchalarni tushunarli obrazlarga aylantiradi.

Universal metaforalar insonning biologik va psixologik tajribasi bilan bog‘liq. Masalan, yorug‘lik — ko‘rish, anglash manbai. Shu bois bilim ko‘pincha “yoritish”, “nur” orqali ifodalanadi.

Biroq metafora faqat universal tajribaga tayangan emas. U madaniyatga xos qadriyat, an‘ana, tarixiy xotira bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu sababli bir tildagi metaforani boshqasiga so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha noto‘g‘ri talqinga olib keladi. Tarjima jarayonida metaforaning konseptual asosini anglash juda muhim. Metaforik tafakkurni o‘rganish, ayniqsa, til o‘qitish sohasida samarali. O‘quvchi metaforik modelni tushunganida, yangi tilni nafaqat grammatik tizim sifatida, balki butun bir dunyoqarash sifatida qabul qiladi.

Bu tadqiqot, albatta, cheklovlardan xoli emas: korpus hajmining nisbatan kichikligi, ayrim metaforalarni sub’yektiv talqin qilish ehtimoli shular jumlasidan.

Kelgusida turli janrlar, yosh guruhlari va mintaqaviy variantlarni qamrab olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi metaforik tafakkur tizimi bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham o'ziga xosdir. Universal metaforalar insoniyat tajribasining o'xshash jihatlarini aks ettirsa, milliy-madaniy metaforalar har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixini ifodalaydi. Metafora inson tafakkurining markaziy vositasi bo'lib, til orqali dunyo manzarasini shakllantiradi. Uni chuqur o'rganish lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi, psixolingvistika va til o'qitish metodikasi uchun muhim ilmiy natijalar beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Lakoff, G., Johnson, M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. *Metaphor and Emotion*. Oxford: Oxford University Press.
3. Kövecses, Z. *Metaphor and Culture*. Oxford: Oxford University Press.
4. Gibbs, R. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*.
5. O'zbek tilshunosligida metafora bo'yicha zamonaviy maqolalar va monografiyalar.



## MICROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI ATAMALARINING O‘ZBEK TILIDAGI MAZMUN VA SHAKL XUSUSIYATLARI



**Maxammadov Bobir,**  
*Andijon davlat chet tillari instituti  
mustaqil izlanuvchisi, dotsent  
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya.** Zamonaviy o‘zlashmalarning semantik taraqqiyoti va ulardagi keng ko‘lamli semantik o‘zgarishlar mazkur o‘zlashmalarni chuqur tahlil qilish va o‘rganishni taqozo etadi. Bu, asosan, ma‘no hajmining kengayishi yoki torayishi, so‘z leksik ma‘nosining hosila ma‘noni yuzaga keltirish usullari, turli shakldagi semantik o‘zgarishlar, manba til so‘zi lug‘aviy ma‘nolarining so‘z oluvchi tilda aks etishi darajasi kabi muammolar yechimini talab etadi.

**Kalit so‘zlar:** *operatsion tizim, Microsoft Windows, terminologiya, atamalar tizimi, leksik-semantik tahlil, o‘zbek tili, kompyuter lingvistikasi, ekvivalentlik, moslashuv, kalkalash, o‘zlashma so‘zlar.*

### KIRISH

Manbalarda tilshunoslar “semantik evolyutsiya” tushunchasini diaxronik (lisoniy evolyutsiya) o‘zgarishlar tahlili uchungina xarakterli deb hisoblashadi. Biroq “til birliklarining nutq/matndagi sinxron (nutq evolyutsiyasi) funksiyasiga nisbatan uni qo‘llash o‘rinlidir”<sup>34</sup>.

O‘rganilayotgan mavzu doirasida M.Tarasovanning “Globallashuv sharoitida rus va nemis tillaridagi inglizcha o‘zlashmalarning semantik o‘zgarishlari” nomli dissertatsiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Ishning uchinchi bobida so‘nggi o‘n yil ichida paydo bo‘lgan inglizcha o‘zlashmalarning assimilyatsiya darajasi, semantik o‘zgarishlari, rus va nemis tillarida qo‘llanish sohalarini tahlil qiladi. Olima o‘zlashmalarni ijtimoiy-siyosiy leksika, Angliya-Amerika realiyalari, ommaviy madaniyatga xos leksika, shaxs nomi, ilmiy-amaliy texnika sohasi leksikasi<sup>35</sup> kabi beshta muhim soha doirasida ajratib o‘rganadi. Bular orasida ijtimoiy-siyosiy leksikaga davlat boshqaruvi tizimidagi o‘zgarishlar natijasi sifatida qaraydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Shuni alohida qayd etish lozimki, o‘zbek tilida o‘zlashma so‘zlarning bevosita semantik o‘zgarishlari bilan bog‘liq tadqiqotlar miqdori ko‘p emas. Leksikadagi

<sup>34</sup> Останин Е.В. Семантическая эволюция слова (на материале глагола гореть и его дериватов): Дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск: 2006. – С. 4.

<sup>35</sup> Тарасова М. В. Семантические изменения английских заимствований в русском и немецком языках в условия глобализации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Белгород: 2009. – С. 10.

o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish borasida F.Abdullayev<sup>36</sup>, E.Begmatov<sup>37</sup>, A.Rustamov<sup>38</sup>, B.Vafojev<sup>39</sup>, R.Doniyorov<sup>40</sup>, M.Mirzayev<sup>41</sup>, N.G‘ulomova<sup>42</sup>, K.Yusupov<sup>43</sup>, U.Qo‘ziyev, A.To‘raxojayeva<sup>44</sup>, D.Hasanova<sup>45</sup>, N.Isakova<sup>46</sup> kabi olimlarning xizmati katta. Biroq ularning ishlari bevosita o‘zlashmalarning semantik tadqiqiga bag‘ishlanmagan. O‘zbek tiliga o‘zlashmalarning kirib kelishida AKT terminlari o‘ta muhim o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, AKT dan kirib kelayotgan terminlar ko‘pincha ingliz tilidan (ba’zan rus tili vositasida) o‘zlashadi va dastlab sohaga xos nutqda qo‘llanib, keyinchalik kalkalash, semantik moslashuv hamda fonetik-morfologik adaptatsiya orqali umumtil qatlamida me’yorlashadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlanaverarkan, ular bilan birga kirib keladigan birliklarning kengayishi davom etadi. Mamlakatimizda AKT terminlarini tizimli o‘rganish va me’yorlash amalda 2004-yildan boshlangan – aynan shu yili BMT Taraqqiyoti dasturi hamkorligida ilk yirik “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati” nashr qilindi<sup>47</sup>. Ammo terminlarning shakllanishi va qo‘llanishi undan sal oldin, 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshida oliy ta’lim darsliklari va amaliy qo‘llanmalar orqali yo‘lga qo‘yilgan. 2010-yilda “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati”ning yangilangan ikkinchi nashri chop etiladi. 2014-2015-yillarda lug‘atning mobil ilovasi va onlayn versiyalari ommaga taqdim etildi<sup>48</sup>. 2022-yil UNICON.UZ mutaxassislari ishtirokida “Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati”ning me’yorlashning keyingi bosqichi (taxm. 10 ming atama) nashr etiladi<sup>49</sup>. Bundan tashqari, D.Kadirbekova, D.Saidqodirova va O.Abulboqiyeva<sup>50</sup> tomonidan AKT terminologiyasi va uning leksikografik xususiyatlari mavzusida ham ilmiy ishlar olib borilgan. Ma’lumki, AKT terminologiyasi ulkan makon bo‘lib, uning tarkibi butun tizimdagi birliklarni o‘z ichiga oladi. Xususan, tadqiqot obyekti hisoblangan Windows

<sup>36</sup> Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1966.

<sup>37</sup> Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi: Izohli lug‘at. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DINS, 2007. – 608 b.

<sup>38</sup> Rustamov A. So‘z xususida so‘z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.

<sup>39</sup> Vafojev B. Ko‘hna so‘zlar tarixi. – Toshkent: Fan, 1991.

<sup>40</sup> Usmonov O., Doniyorov R. Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati. – 2-nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 1979.

<sup>41</sup> Mirzayev M. va boshq. O‘zbek tili. – Toshkent, 1978.

<sup>42</sup> Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – 152 с.

<sup>43</sup> Yusupov K. O‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri. – Toshkent: Fan, 1974.

<sup>44</sup> To‘raxojaeva A. O‘zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi: Ma’ruza matni. – Qo‘qon, 2010.

<sup>45</sup> Hasanova D., Boymatov O. O‘zlashma lug‘aviy birliklarning o‘zbek tili so‘z yasalishidagi mavqeyi haqida

<sup>46</sup> Isakova N. Mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so‘zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Samarqand, 2020. – 52 b.

<sup>47</sup> [https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/akt-izohli-lugatining-yangilangan-ikkinchi-nashri?utm\\_source](https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/akt-izohli-lugatining-yangilangan-ikkinchi-nashri?utm_source)

<sup>48</sup> [https://daryo.uz/2014/08/26/bmt-taraqqiyot-dasturi-akt-izohli-lugatining-mobil-dasturini-chiqardi?utm\\_source](https://daryo.uz/2014/08/26/bmt-taraqqiyot-dasturi-akt-izohli-lugatining-mobil-dasturini-chiqardi?utm_source)

<sup>49</sup> Azimov U, Komilova M, Ahmedova Y, Adasheva Sh. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2022. – B. 824.

<sup>50</sup> Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фил.фан.фалсафа доктори (PhD) афтореферати. – Тошкент, 2017; Saidqodirova D. Ingliz va o‘zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2018; Abulboqiyeva O.A. O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiya terminlari tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha.fals.doktori (PhD) diss.avtoref. – Urganch, 2025.

operatsion tizimi terminologiyasi ham shu axborot kommunikatsion texnologiyalari ichiga kiradi. Ushbu tizimni o'zbekchalashtirish ishlari 2014-2015-yillarda boshlangan bo'lib, Microsoft tomonidan ilk bor Windows uchun Uzbek (Latin) til paketini chiqardi va ushbu ishning tashabbuskorlari Z.Y.Rahimjonov va uning jamoasidir. Ular Windows Vista va Window 7 kabi talqinlarning tarjimasini bilan shug'ullanishgan, lekin undan so'ng Windows operatsion tizimining ko'plab talqinlari chiqarilgan va bunda ishlar sustlashib, tizimdagi ishlar to'xtab qolgan. Hozirgi kunda ko'plab dasturiy ta'minotlarning ishlab chiqilishi terminlarning real vaqt rejimida yangilanib turishiga ehtiyoj sezmoqda. Shu o'rinda bir holatga urg'u berish mumkinki, o'zbek tili AKT terminlarining 10 mingdan ortiq atamaları izohli lug'ati mavjud, lekin ular aynan Windows terminlarining barchasini qamrab olmagan. Shu sababli o'zbek tilidagi Microsoft Windows operatsion tizimi terminlarini izchil o'rganish uchun avvalo, ularning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish talab etiladi.

### TAHLIL VA NATIJA

Avvalgi tahlillarda ingliz tilidagi Windows terminlari andozasida turk tili terminlarining leksik-xususiyatlari o'rganilgan edi, bu gal ham o'zbek tilini aynan shu andoza asosida o'rganish maqsadga muvofiq, ya'ni operatsion tizimning foydalanuvchi interfeysidagi (FI) terminlarning o'zbek tilidagi ko'rinishlarini leksik-semantik tahlil qilish mazkur faslning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Windows tizimi terminologiyasi o'zbek tiliga turli tarjima usullari orqali kirib kelgan bo'lib, ular tarkibiy tuzilishi jihatidan ham, ma'no xususiyatlari jihatidan ham rang-barangdir. Shuningdek, ushbu terminlarning o'zbek tilidagi muqobillari bilan solishtirilgan holda o'rganilishi, ularning sinonimik qatori, antonimik juftliklari, ko'p ma'nolilik holatlari, shu bilan bir qatorda, terminologik metafora va metonimiya kabi ma'no ko'chirish hodisalari aniqlanishi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki murakkab dasturiy ta'minot interfeysini milliy tilga tarjima qilish oddiy ekvivalent tanlashdan ko'ra chuqurroq semantik va kognitiv jarayonlarni talab qiladi.

Windows terminologiyasining semantik xususiyatlarini aniqlash jarayonida ularni leksik-semantik guruhlariga ajratish tizimida mavjud o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Terminlarning bunday tematik tasnifi tilshunoslikda semantik maydon nazariyasiga tayanadi, ya'ni o'xshash tushunchalar bir maydon yoki guruh hosil qiladi. Ingliz tilida ushbu terminlarni foydalanuvchi interfeysidagi terminlarni 14 ta semantik maydonga ajratgan edik, xuddi shunday o'zbek tilini ham shu asosda o'rganishga qaror qildik (*ish stoli (1); oynalarni boshqarish (2); fayllar tizimi (3); ilovalar (4); sozlamalar (5); akkauntlar va identifikatsiya tizimi (6); xavfsizlik va maxfiylik (7); tarmoq va internet (8); yangilanishlar (9); quvvat (10); vaqt va til (11); maxsus imkoniyatlar (12); bildirishnomalar (13); qurilmalar (14)*).

*Ish stoli interfeysi elementlariga grafik interfeysning turli komponentlarini ifodalovchi teminlar kiradi. Masalan, oyna, menyu, tugma, belgi, yorliq, ish stoli paneli*

kabi atamalar. Ular foydalanuvchining ko‘rish va boshqarish elementlarini bildiradi. Leksik jihatdan bu guruh atamalari ko‘pincha oddiy so‘zlar yoki qisqa birikmalardan iborat bo‘lib, ko‘pchiligi metaforik asosda tanlangan (*oyna, ish stoli, savatcha kabi*). Masalan, *xususiyatlar oynasi, boshlash menyusi, buyruqlar satri* shular jumlasidandir.

*Fayl tizimi va ma’lumotlar tuzilmalari elementlari guruhida* operatsion tizimdagi ma’lumot saqlash va tuzilmaviy birliklarni ifodalaydi. Masalan, *disk, jild, fayl, fayl tizimi, katalog, yorliq, arxiv, disk birligi, fleshka* kabilar. Bu atamalar orasida o‘zaro sinonimlar ham uchraydi (*disk C – sistemaviy disk*). Ularning aksari o‘zlashma yoki adaptiv tarjima natijasidir. Ushbu guruh doirasida iyerarxik tushunchasi ham muhim. *Ildiz katalog (root), ota-ona jild (parent folder), farzand jild (subfolder)* kabi atamalar tarjimada ba’zida qo‘llanadi va ular orqali terminlar orasidagi munosabat ifodalanadi.

*Amallar va buyruq terminlari.* Bu guruhga foydalanuvchining tizimida bajaradigan harakatlarni ifodalovchi terminlar kiradi. *Ochish, yopish, saqlash, nusxa olish, ko‘chirish, o‘chirish, qo‘shish, yuklash, bosib chiqarish* kabi fe’l tarzidagi terminlar shular jumlasidan. Bular aslida terminlashgan so‘zlar bo‘lib, interfeysda muayyan amalni bildiradi. Ma’nodosh va qarama-qarshi juftliklar aynan shu guruhda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu guruh atamalarini tahlil qilishda ularning so‘z turkumi jihatidan fe’l va fe’l hosilalari ekanini, terminologik ma’noda buyruqni ifodalash uchun buyruq mayli shaklida interfeysda ko‘rsatilishini aytish lozim. Masalan, menyuda *Saqlash* deb nomlanadi, ammo jarayon davomida *fayl saqlanmoqda* kabi xabar paydo bo‘ladi.

*Sozlamalar (tizim komponentlari va dasturiy ta’minot terminlari).* Ushbu guruh Windows OT ning ichki qismlari va dasturlarini ifodalovchi atamalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, *operatsion tizim, yadro, drayver, xotira, registr, protsess, xizmat turi, dastur, ilova, kutubxona, qulf ekran.* Bu guruh atamalari, asosan, mutaxassislariga xos bo‘lib, oddiy foydalanuvchi ko‘pini bilmasligi mumkin, lekin tizimni chuqurroq tushunishda muhim. Leksik jihatdan bu terminlar orasida ko‘plab o‘zlashma va yarim tarjimalar bor: *kernel – yadro, driver – drayver, service – xizmat, thread – ip.* Ba’zilari esa rus tilidan o‘zlashgan shaklda: *registry – reyestr, библиотека DLL – DLL kutubxonasi.* Ushbu guruh terminlari tizim arxitekturasiga bog‘liq bo‘lib, ularni semantik maydon sifatida *tizimning ichki unsurlari* deb atash mumkin.

*Qurilmalar terminlari.* Bu guruh Windows ishlaydigan kompyuterning jismoniy qurilmalariga oid terminlarni qamrab oladi. Bunga *monitor, klaviatura, sichqoncha, printer, skaner, videokarta, qattiq disk, SSD, chipset, port, adapter, USB-kalit* kabi atamalar kiradi. Aslida bu terminlarning ba’zisi kompyuter arxitekturasiga tegishli bo‘lsa-da, Windows foydalanuvchi uchun ularni ham o‘z interfeysida aks ettiradi (masalan, *qurilmalar panelida ushbu qurilmalar ro‘yxati va ularning drayverlari bilan ishlashi bor*). Leksik jihatdan bu guruh atamalarining aksariyati xalqaro atamalardir va

o‘zbek tilida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan (printer, skaner, monitor). Ba‘zilari o‘zbekcha so‘z bilan ifodalanib (*sichqoncha, ona plata (motherboard)*), xalq orasida ishlatiladi. Lekin texnik adabiyotlar *sistema platasi* ko‘proq uchrasa-da, *ona plata* atamasi ham metaforik yo‘l bilan kirib kelgan va foydalanuvchilarga tushuntirishda qulay usul sanaladi. Bu guruh terminlarini semantik maydon sifatida *kompyuter jihozlari* deb olish ham mumkin.

*Tarmoq va aloqa terminlari.* Windows OT tarmoq funksiyalarini ta‘minlashi sababli bu sohadagi terminlar ham uning doirasida qo‘llanadi. Masalan, *tarmoq, server, mijoz, protokol, IP manzil, shlyuz, DNS, hosting, fayrvol, voqea jurnali*. Bu guruh atamalari ham ko‘p jihatdan xalqaro bo‘lib, ba‘zilari bevosita o‘zlashgan (server, prokol, DNS), ba‘zilari tarjima qilingan yoki tavsifiy nom olgan (mijoz – client uchun, xavfsizlik devori – firewall, paket – network packet uchun). Leksik-semantik tahlilda ko‘rinadiki, ushbu guruh atamalari orasida metaforik ifodalar ham mavjud: *server* aslida “xizmat ko‘rsatuvchi”, *client* esa “xizmat oluvchi” ma‘nosini anglatadi. *Bulut* atamasi (cloud) so‘nggi paytlarda “bulutli texnologiya”, “bulutli saqlash” kabi shakllarda ishlatilmoqda, bu ham metaforik ifoda hisoblanadi (bulut orqali tarmoqdagi ko‘rinmas infrastruktura tasvir etiladi). Ushbu atamalar o‘zaro semantik maydon hosil qilib, tarmoq arxitekturasi tushunchalar tizimini shakllantiradi.

Yuqoridagi tasnifdan ko‘rinib turibdiki, Windows terminlari mazmuniga ko‘ra guruhlanar ekan, har bir guruh ichida atamalarning o‘zaro semantik bog‘liqligi bor. Bunday guruhlash, birinchidan, terminlarning yanada tizimli o‘rganilishiga imkon beradi, ikkinchidan, tarjima va yaratish jarayonida izchillikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Masalan, foydalanuvchi interfeysi terminlari guruhida tugmalar nomini bir xil uslubda tarjima qilish, qurilmalar guruhida esa iloji boricha xalqaro atamani tanlash yoki an‘anaviy tarjimini qo‘llash kabi qarorlar qabul qilinadi.

Leksik-semantik guruhlar orasida ma‘noviy o‘tishlar ham kuzatiladi. Masalan, *fayl tizimi* mavzusi *tizim komponentlari* mavzusiga ulanadi, *dasturiy ta‘minot* terminlari *foydalanuvchi interfeysi* bilan ham aloqador bo‘lishi mumkin, chunki dastur interfeys orqali ko‘rinadi. Bu hodisa lingvistik maydonlarning kesishishi deb talqin qilinadi. Bir termin bir necha guruhda ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, *registry (reyestr)* tizimning ichki tarkibiy qismi bo‘lsa-da, foydalanuvchi undan bilvosita *regedit* dasturi orqali foydalanishi mumkin, ya‘ni interfeys elementiga ham ega. Shunday terminlarga kompleks yondashuv kerak bo‘ladi.

Ta‘kidlash joizki, Windows Vista va Windows 7 talqinlarining o‘zbek tilidagi tarjimasidan so‘ng keyingi talqinlar ishlamadi. Shu sababli Microsoft Terminology Uzbek (Latin) qismidagi terminlar tarjimasiz qolib ketdi. Shunday bo‘lsa ham, ajratib olingan 34289 ta ingliz tilidagi leksik birliklarning 10982 tasi tarjima qilingani

ahamiyatga molikdir. Ularni 14 ta semantik maydon kesimida ajratilgan statistikasi quyidagicha:

**1-jadval**

T/R	Semantik maydon	Terminlar soni
1.	Ish stoli	55
2.	Oynalarni boshqarish	310
3.	Fayllar tizimi	324
4.	Ilovalar	475
5.	Sozlamalar	24
6.	Akkauntlar va identifikatsiya tizimi	187
7.	Xavfsizlik va maxfiylik	228
8.	Tarmoq va internet	338
9.	Yangilanishlar	94
10.	Quvvat	68
11.	Vaqt va til	312
12.	Maxsus imkoniyatlar	14
13.	Bildirishnomalar	65
14.	Qurilmalar	351

Ushbu ajratilgan leksik birliklar 2845 tani tashkil etib, foydalanuvchi uchun zarur bo‘lgan terminlardir. Windows OT (operatsion tizimi) terminlarini tematik guruhlash ularning leksik-semantik xossalarini yaxshiroq anglashi uchun qulay vositadir. Har bir guruh doirasida terminlarning kelib chiqishi, tuzilishi va ma’nosi bo‘yicha o‘xshash tamoyillar ko‘rinadi. Bu guruhlar tahlili ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi Windows terminologiyasi bir vaqtning o‘zida xalqaro standartlarga mos (terminlarning aksari qismi umumqabul qilingan shaklda) va milliy til xususiyatlariga moslashgan (tarjima va mos ekvivalentlar orqali) ko‘rinish kasb etgan.

Windows operatsion terminlarining semantik munosabatlariga o‘tishdan oldin ularning tuzilishi o‘rganilmas ekan, paradigmatic va sintagmatik aloqalarni qayta ishlash, konseptual maydon chegaralarini belgilash hamda sinonimik-antonimik qatorlarni farqlash metodik jihatdan qiyinlashadi. Shu sababdan dastlab terminlarning formal-struktur tarkibi haqida tushuncha paydo bo‘lishi talab etiladi. Microsoft Windows operatsion tizimi terminlari tarkibiy tuzilishi bo‘yicha bir necha turlarga bo‘linadi. Ularning ayrimlari sodda so‘zlardan iborat bo‘lsa, ko‘plab terminlar qo‘shma yoki murakkab birikmalar shaklida keladi. Shuningdek, ba’zi qisqartmalar va akronimlar ham termin sifatida uchraydi.

**Xulosa**

Yuqoridagilarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, o‘zbek tilidagi Vindovs terminlari leksik tarkib va semantik jihatdan boy hamda xilma-xil qatlam hosil qilgan. Ular xalqaro texnik atamalar sistemasiga integratsiyalashgan holda, o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari va boyib borayotgan leksik manzarasini ham

namoyon etadi. Terminlarni milliy tilda muvofiqlashtirish jarayonida bir qator ilmiy muammolar (ekvivalent tanlash, ma'no nozikliklarini saqlash, me'yoriy yozuv va talaffuz) yuzaga kelgan bo'lsa-da, izchil lingvistik yondashuv va mutaxassislar hamkorligi bilan ularning yechimi topilmoqda.

Kompyuter texnologiyalarining istiqboldagi rivojlanishi yangi tushunchalarni ifodalovchi terminologik birliklarni talab qiladi. O'zbek tilshunoslarining asosiy vazifasi mazkur yangi atamalarning leksik-semantik muvofiqligini ta'minlab, ularni me'yorlashtirilgan shaklda til fondiga kiritishdan iborat. Microsoft Vindovs terminologiyasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot tajribasi bu yo'nalishda puxta ilmiy-uslubiy zamin yaratgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Останин Е.В. Семантическая эволюция слова (на материале глагола гореть и его дериватов): Дисс... канд.филол. наук. – Новосибирск: 2006. – С. 4.
2. Тарасова М. В. Семантические изменения английских заимствований в русском и немецком языках в условия глобализации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Белгород: 2009. – С. 10.
3. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Begmatov E.A. O'zbek ismlari ma'nosi: Izohli lug'at. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi DINS, 2007. – 608 b.
5. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
6. Vafoyev B. Ko'hna so'zlar tarixi. – Toshkent: Fan, 1991.
7. Usmonov O., Doniyorov R. Ruscha-internatsional so'zlar izohli lug'ati. – 2-nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 1979.
8. Mirzayev M. va boshq. O'zbek tili. – Toshkent, 1978.
9. Гулямова Н. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Ташкент: Фан, 1985. – 152 с.
10. Yusupov K. O'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri. – Toshkent: Fan, 1974.
11. To'raxo'jaeva A. O'zbek orfografiyasi va punktuatsiyasi: Ma'ruza matni. – Qo'qon, 2010.
12. Hasanova D., Boymatov O. O'zlashma lug'aviy birliklarning o'zbek tili so'z yasalishidagi mavqeyi haqida
13. Isakova N. Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss... – Samarqand, 2020. – 52 b.
14. [https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/akt-izohli-lugatining-yangilangan-ikkinchi-nashri?utm\\_source](https://www.undp.org/uz/uzbekistan/publications/akt-izohli-lugatining-yangilangan-ikkinchi-nashri?utm_source)
15. [https://daryo.uz/2014/08/26/bmt-taraqqiyot-dasturi-akt-izohli-lugatining-mobil-dasturini-chiqardi?utm\\_source](https://daryo.uz/2014/08/26/bmt-taraqqiyot-dasturi-akt-izohli-lugatining-mobil-dasturini-chiqardi?utm_source)

16. Azimov U, Komilova M, Ahmedova Y, Adasheva Sh. Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Kafolat print company” nashriyoti, 2022. – B. 824.

17. Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Фил.фан.фалсафа доктори (PhD) афтореферати. – Тошкент, 2017;

18. Saidqodirova D. Ingliz va o‘zbek tillarida internet terminlarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) diss. ... avtoref. – Toshkent, 2018;

19. Abulboqiyeva O.A. O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiya terminlari tadqiqi: Filol.fan.bo‘yicha.fals.doktori (PhD) diss.avtoref. – Urganch, 2025.



## INTEGRATING 21ST-CENTURY SKILLS INTO LESSON PLANNING: STRATEGIES FOR EDUCATIONAL EFFICIENCY



**Khodjaeva Dildora,**  
*Navoi State University*  
*Teacher of the Department of Practical English*  
*Course*

**Annotation.** This article addresses the critical need for integrating 21st-century skills into lesson planning to enhance educational outcomes. As the contemporary educational landscape evolves due to technological advancements and globalization, it becomes imperative to equip students with essential skills such as critical thinking, collaboration, and digital literacy. It is emphasized that the progressive shift in Uzbekistan’s education system, highlighting government reforms that aim to embed these skills within curricula across schools. Effective strategies for implementation are discussed, including Project-Based Learning (PBL), technology integration, and the incorporation of soft skills, all designed to foster student engagement and prepare them for future workplace challenges. The article underscores the importance of well-trained educators in this transition and advocates for collaborative efforts between policymakers and educators to create supportive learning environments. Overall, it serves as a comprehensive guide for educational professionals seeking to enhance their lesson planning by embedding essential skills necessary for students to navigate an increasingly complex world.

**Keywords:** 21st-Century Skills, Educational Efficiency, Critical Thinking, Collaboration, Digital Literacy, Project-Based Learning.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ta’lim natijalarini yaxshilash uchun 21-asr ko’nikmalarini dars rejalashtirishda integratsiya qilishning muhim ehtiyojini ko’rib chiqadi. Zamonaviy ta’lim texnologik taraqqiyot va globallashtirish asnosida rivojlanar ekan, o’quvchilarni tanqidiy fikrlash, hamkorlik va raqamli savodxonlik kabi muhim ko’nikmalar bilan tanishtirish zarur. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimidagi progressiv o‘zgarishlarni ta’kidlab, ushbu ko’nikmalarni maktablar o’quv dasturiga kiritishga qaratilgan hukumat islohotlarini yoritiladi. Samarali strategiyalar haqida, jumladan, loyihaga asoslangan ta’lim (PBL), texnologiya integratsiyasi va yumshoq ko’nikmalarning kiritilishi, bularning barchasi talabalarning faolligini oshirish va ularni kelajakdagi ish joyidagi qiyinchiliklarga tayyorlash uchun mo’ljallangan. Maqola bu o’tish davrida yaxshi tayyorlangan o’qituvchilarning muhimligini ta’kidlaydi va boshqaruv tizimi va o’qituvchilar o’rtasida hamkorlikda qo’llab-quvvatlovchi o’quv muhitini yaratish sa’y-harakatlarini qo’llab-quvvatlaydi. Umuman olganda, u o’quvchilarning tobora tezlashib borayotgan dunyoda harakat qilishlari uchun zarur bo’lgan muhim ko’nikmalarni o’zida mujassamlashtirgan holda o’z darslarini rejalashtirishni yaxshilashga intilayotgan ta’lim mutaxassislari uchun keng qamrovli qo’llanma bo’lib xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar:** 21-asr ko’nikmalari, ta’lim samaradorligi, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, raqamli savodxonlik, loyihaga asoslangan ta’lim.

**Introduction.** The educational landscape is continually evolving due to advancements in various fields, particularly influenced by globalization and the digital era. These changes necessitate new approaches and methods in lesson planning to prepare students for modern challenges. As we entered the twenty-first century, the pace of these changes accelerated significantly. In today's globalized world, it is no longer sufficient for students to be merely curious learners; they must also possess essential 21st-century skills—such as critical thinking, collaboration, and digital literacy—to succeed in their careers. This article discusses innovative strategies for educators to effectively integrate these skills into lesson plans, fostering an environment that promotes creativity and problem-solving. The growing emphasis on 21st-century skills highlights the urgent need for educational systems to adapt, ensuring that students are not only knowledgeable but also equipped to be productive and innovative in an increasingly complex workplace. Ultimately, the integration of these skills is vital for preparing the next generation of learners to thrive in a dynamic global economy.

In today's rapidly evolving world, the pace of development is unprecedented. The 21st century has ushered in an era where everything can change at the click of a button. As humanity embraces technology, digital literacy has become essential due to our reliance on various gadgets. However, possessing technical knowledge alone is insufficient for students to thrive in their careers. To be effective in the workplace, learners must also develop key interpersonal skills and the ability to apply their knowledge effectively. Without these critical competencies, students risk missing out on career opportunities and may struggle to solve problems throughout their lives.

The Metiri Group (2003) asserts that the high-stakes testing period of today will only benefit students if the criteria are applied correctly. Students are being trained to succeed in the world of yesterday, not the world of tomorrow, if they lack 21st-century abilities. The world our children grow up in is different from the world their parents grew up in. Today's youth communicate with friends, family, specialists, and people in their community and around the world via computers, pagers, instant messaging, and cell phones. The media constantly bombards them with images meant to capitalize on the billions of dollars in discretionary spending that they either control or have influence over.

The expectation among this generation is to actively engage with and participate in media, which has resulted in a decline in television watching time and an increase in computer, game, and Internet usage (Cheryl Lemke;2003, 4).

The 21st century has seen the global community transition into a new era termed the "knowledge economy" or "knowledge age." In order to provide the community with new services, this new environment highlights the value of knowledge, creativity, and innovation (Alimuddin;2011). As P. Modi points out, students' personal and professional success in the workforce depends on their ability to acquire 21st-century skills. Students who practice these abilities become more adept at solving problems and making decisions. They gain the ability to collaborate on projects and interact with

others in an efficient manner (In Skills for Future; 2023). The phrase "preparing young people for a new society and economy" refers, according to Kushtrim Shala Innovation Consultant, to a set of abilities that are essential to each person's physical and mental development and whose advantages accrue not only to the individual but also to those around them.

A broad range of soft skills, learning skills, literacy skills, and life skills are together referred to as "21st Century Skills".

It is critical to emphasize the growing significance of 21st-century skills in the present educational landscape. Students today are expected to be more productive than they were in the past. The first measures toward strengthening and implementing the necessary skills for Uzbekistan's education system have been taken in Presidential and other specialized schools. It is worth noting that these schools have been opened in every region and district throughout the Republic. According to the Kun.uz website, the presidential and specialized school curriculum and evaluation system will be implemented in 500 schools across the Republic. In this circumstance, the specialized and presidential schools will serve as "support schools" for them. This indicates that the aforementioned schools have adequate facilities to hold classes in an engaging environment in order to give pupils with high-quality knowledge and teach all relevant skills. Furthermore, it is crucial to highlight professionals that have the necessary experience to work effectively to make classes more efficient by incorporating 21st century skills into curriculum and lesson plans. As reported by kun.uz, the technology will be adopted in all schools within the next five years. This year, 500 "linguists" were brought from overseas to instruct in schools. On any case, providing foreign teachers to all schools is unlikely to have recognizable results on the educational system. It would be preferable to train local teachers to work effectively with 21st century abilities. Sunnatilla Abdullayev states in his article that teachers who hold an international or national certificate in their subject are eligible for a bonus of up to 50%. This is stated in the President of Uzbekistan's directive "On approval of the National Program on the Development of Public Education for 2022-2026." It is a notable step for local educators to expand their knowledge and become global educators.

There are various techniques for utilizing and developing 21st-century abilities in the classroom process; additionally, it is related to countries' economic development. Schools and universities require being equipped with digital tools to integrate 21st-century skills into the classroom curriculum. Shelby Pinkerton suggests some strategies such as project-based learning (collaboration, critical thinking, and communication), technology integration (tools such as tablets, computers, and interactive whiteboards to engage students in learning), real-world connections (real-world experiences through virtual global exchanges), incorporating soft skills (communication, teamwork, and empathy), and personalized learning. The tools that educators today implement directly expand all four skills: communication, collaboration, critical thinking, and creativity. According to Mandi Dimitriadis, an experienced classroom teacher, these skills are

frequently referred to as "the new basics". These are the abilities, dispositions, and attitudes that our students will need to prosper in their future professional and recreational lives. These new fundamentals assist students in becoming leaders and global students, as well as being creative in every situation, thinking critically to see the main core of the issue, communicating with one another to understand peers, demonstrating empathy, and, finally, working collaboratively to succeed in a team.

The Partnership for 21st Century Skills emphasizes that successful 21st-century skills implementation requires strengthening basic academic topic knowledge and understanding among all students. To develop critical thinking and communication skills, students must have a solid foundation in fundamental academic subjects. All 21st-century abilities can and should be taught within the framework of core academic courses. As previously said, core subjects have particular importance since they provide foundational knowledge. Faria Education Group suggests a guide to inspire curriculum designers' creativity and innovation in creating a unique curriculum map, which includes 21st-century core subjects such as English, reading or language arts, world languages, governments and civics, mathematics, geography, arts, economics, history, and science. Second, twenty-first-century themes include civic literacy, health literacy, global awareness, financial, economic, business, and entrepreneurial literacy, and environmental literacy.

All of the information presented above demonstrates the importance of developing 21st-century skills in each curriculum and lesson planning, as students are global citizens with the ability to communicate with other students around the world and easily obtain any resource they require. Educators must be digitally and globally aware to teach intellectual, initiative, social, accountable, and responsible students for the future.

As the educational landscape evolves, it is imperative for systems to adapt to ensure that students acquire the critical 21st-century skills needed for success. By integrating these competencies into lesson planning, educators empower students to become responsible and innovative global citizens capable of addressing the challenges of an ever-changing world. Policymakers and educators must collaborate to create supportive environments that prioritize these skills, ultimately preparing students for the complexities of the future workforce.

Applying 21st-century skills in lesson planning: Techniques for educational effectiveness and the role of artificial intelligence" can substantially influence educational practice and support the progression of students' observable outcomes. However, when designing the lesson, it is essential to foreground emerging technologies, such as artificial intelligence. Winda Trisnawati states that The integration of Artificial Intelligence in education presents a critical paradox for 21st-century skill development: while it can strategically foster skills like collaboration and communication by acting as an interactive tool and personalizing learning pathways, it simultaneously threatens to erode the very foundations of critical thinking, creativity,

and character by encouraging over-reliance and automated problem-solving, making it imperative for educators to guide its use not as a crutch but as a catalyst that challenges students to leverage AI to enhance, rather than replace, their own cognitive and ethical capacities. Therefore, consciously navigating this paradox is the main issue facing modern educators. Lesson planning must intentionally use AI in a way that maximizes its advantages while actively reducing its risks if it is to genuinely attain educational success. This entails creating exercises in which artificial intelligence (AI) performs the repetitious and computational assignments, such as providing initial data sets for analysis, producing several text drafts, or providing grammar corrections, so freeing up students' cognitive resources. The lesson's main emphasis must then be on higher-order activities that AI is unable to complete, such as critically assessing the data produced by AI, imaginatively combining many viewpoints, discussing the ethical consequences, and using innovative ideas to tackle challenging issues.

The focus of the lesson must then be on higher-order tasks that AI cannot perform, such as evaluating AI-generated data critically, creatively integrating several points of view, talking about the ethical ramifications, and applying creative thinking to difficult problems.

#### REFERENCE:

1. Cheryl Lemke "enGauge 21st Century Skills: Digital Literacies for a Digital Age" Copyright © 2003 by the North Central Regional Educational Laboratory and the Metiri Group.
2. Faria Education Group "Guide: Integrating 21st Century Skills into Curriculum" <https://www.onatlas.com/resource-library/guide-integrating-21st-century-skills-into-curriculum>
3. Kushtrim Shala "21st Century Skills and Their Importance" <https://www.britishcouncil.al/en/programmes/education/21st-century-schools/why/importance>
4. Kun.uz "Curriculum of presidential and specialized schools to be introduced in 500 ordinary schools" <https://kun.uz/en/news/2023/08/28/curriculum-of-presidential-and-specialized-schools-to-be-introduced-in-500-ordinary-schools>
5. Mandi Dimitriadis, DipT "12 ways to help students develop 21st Century Skills with Makers Empire" <https://www.makersempire.com/developing-21st-century-skills-with-makers-empire/>
6. Partnership for 21st Century Skills "Curriculum and Instruction: A 21st Century Skills Implementation Guide" <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED519422.pdf>
7. Shelby Pinkerton "21st Century Skills for Student Success: A Comprehensive Guide" <https://levelupvillage.com/skills-for-the-21st-century/>
8. Sunnatilla Abdullayev "The salaries of some teachers will be increased up to 50 percent" <https://qalampir.uz/en/news/ba-zi-uk-ituvchilarning-maoshi-50-foizgacha-oshiriladi-61185>

9. Team iCEV "What Are 21st Century Skills?"  
<https://www.icevonline.com/blog/what-are-21st-century-skills>
10. PPSDP International Journal of Education ,Volume 2 (2) (Special Issue) 05-06 July 2023, 501-513



**SHIFOKOR VA BEMORNING O'ZGARUVCHAN  
NUTQ XATTI-HARAKATLARI MODELLARI:  
O'Z-O'ZINI TASHXISLASH VA  
O'Z-O'ZINI DAVOLASH HOLATLARI ASOSIDA**



**Yunusova Maftuna,**  
*BuxDU O'zbek tilshunosligi va  
jurnalistika kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)*

**Abstract.** *The article analyzes the changing speech behaviors observed in medical dialogues between doctors and patients, particularly focusing on the themes of self-diagnosis and self-treatment. The study examines the correlation between authoritarian and collegial types of speech, as well as their manifestation in communicative strategies and tactics. The analysis results show that 80% of doctors' communication occurs in an authoritarian-collegial mode. In dialogues about self-treatment, the doctor's speech is shaped through supportive, prohibitive, and indifferent strategies. The changing speech models reveal the socio-psychological essence of doctor-patient communication.*

**Keywords:** *medical discourse, doctor-patient communication, self-treatment, communicative strategy, authoritarian and collegial speech, speech behavior.*

**Аннотация.** *В статье анализируются изменяющиеся речевые поведения, наблюдаемые в медицинских диалогах между врачом и пациентом, в частности темы самодиагностики и самолечения. В исследовании изучаются соотношения авторитарного и коллегиального типов речи, а также их проявления в коммуникативных стратегиях и тактиках. Результаты анализа показали, что 80% общения врачей происходит в авторитарно-коллегиальном режиме. В диалогах о самолечении речь врача формируется через поддерживающие, запрещающие и игнорирующие стратегии. Изменяющиеся речевые модели раскрывают социально-психологическую сущность коммуникации между врачом и пациентом.*

**Ключевые слова:** *медицинский дискурс, общение врача и пациента, самолечение, коммуникативная стратегия, авторитарная и коллегиальная речь, речевое поведение.*

**Annotatsiya.** *Maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi tibbiy dialoglarda kuzatilgan o'zgaruvchan nutq xatti-harakatlari, xususan, o'z-o'zini tashxislash va o'z-o'zini davolash mavzulari tahlil qilinadi. Tadqiqotda avtoritar va kollegial nutq turlarining o'zaro nisbatlari, ularning kommunikativ strategiya va taktikalarda namoyon bo'lishi o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, shifokorlarning 80% muloqotlari avtoritar-kollegial rejimda amalga oshadi. O'z-o'zini davolash haqidagi dialoglarda shifokor nutqi qo'llab-quvvatlovchi, taqiqlovchi va e'tiborsiz strategiyalar orqali shakllanadi. O'zgaruvchan nutq modellari shifokor-bemor kommunikatsiyasining ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochib beradi.*

**Kalit so'zlar:** *tibbiy diskurs, shifokor-bemor muloqoti, o'z-o'zini davolash, kommunikativ strategiya, avtoritar va kollegial nutq, nutq xatti-harakati.*

**Kirish.** *Zamonaviy tibbiyot amaliyotida shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot, nafaqa, tashxis va davolash jarayonining, balki ijtimoiy ishonch va tibbiy madaniyatning muhim ko'rsatkichiga aylandi. Raqamli texnologiyalar va internetdagi axborot oqimining kuchayishi natijasida bemorlarning o'z so'li'iga doir mustaqil qaror*

qabul qilish, ya'ni o'z-o'zini tashxislash va o'z-o'zini davolash tendensiyasi kuchaymoqda.

Bunday vaziyatda shifokor va bemor muloqoti yangi kommunikativ muvozanatni talab qiladi. Shifokor avtoritar tibbiy modeldan voz kechib, bemorni teng hamkor sifatida ko'rishga o'tmoqda. Shu bilan birga, bemorlarning o'z-o'zini davolashga bo'lgan moyilligi ko'pincha noto'g'ri tibbiy qarorlarga olib kelishi mumkin.

Mazkur maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi o'z-o'zini tashxislash va davolash mavzusidagi dialoglar kommunikativ strategiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Zamonaviy tibbiy kommunikatsiyada shifokor va bemor o'rtasidagi dialoglar tobora murakkablashib bormoqda. Bu jarayon tibbiy muassasalar va aholining tibbiy savodxonlik darajasi o'rtasidagi tafovut, axborot texnologiyalari orqali mustaqil tibbiy ma'lumot olish imkoniyatlarining kengayishi bilan bog'liq. Natijada bemorlar ko'pincha o'z-o'zini tashxislash yoki o'z-o'zini davolash holatlariga murojaat qilmoqdalar.

Shu nuqtai nazardan, tibbiy suhbatlarda avtoritar (buyruqbozlik, direktiv) va kollegial (hamkorlikka asoslangan) nutq modellarining o'zaro almashinuvi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Maqolaning maqsadi shifokor va bemor o'rtasidagi o'zgaruvchan nutq modellari tizimini o'z-o'zini tashxislash va o'z-o'zini davolash kontekstida lingvopragmatik jihatdan tahlil qilishdir.

### Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda tibbiy muloqot jarayonida **shifokor va bemor o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarni** o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tibbiy diskursda nutq xatti-harakatlari faqat diagnostik yoki davolash jarayonining texnik jihati emas, balki ishtirokchilarning ijtimoiy-psixologik rollarini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Bu kabi ilmiy izlanishlarni Goffman, J.Heritage va V.Maynard kabi tilshunoslar ilmiy ishlarida fikrlarini bayon qilishgan. Shifokor nutqi, odatda, **institutsional hokimiyatga** ega bo'lgan, rasmiy, normativ va tavsiyaviy xarakterda bo'lsa, bemor nutqi **tajriba, hissiyot va subyektiv holat** asosidagi ifoda shakli sifatida namoyon bo'lishini E.G.Mishler va C.N.Candlin tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin.

Bundan tashqari, tibbiy diskursda J.L Austin va J.Searllarning tadqiqotlarida nutq xatti-harakatlari nazariyasiga tayangan holda, shifokor va bemor muloqotida **illokutsional aktlarning** turlari — so'rov, tavsiya, ogohlantirish, dalda berish va aniqlashtirish — turlicha kommunikativ maqsadlarining aks ettirilishi ochiqqlangan. Shuningdek, bu aktlarning dinamik o'zgarishi, ayniqsa, bemorning **o'z-o'zini tashxislash** yoki **o'z-o'zini davolash** holatlarida yaqqol namoyon qilingan.

Zamonaviy tadqiqotlarda bemorlarning o'z sog'lig'i haqidagi bilimlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi tibbiy ma'lumotlardan foydalanish darajasi ortgani sababli, **o'z-o'zini tashxislash** hodisasi kengayib bormoqda. Bu holatda bemorlar shifokor bilan muloqotda faqat ma'lumot oluvchi emas, balki **teng hamkor yoki muhokamaga kirishuvchi subyekt** sifatida ishtirok etadi. Natijada tibbiy muloqotdagi nutq

strategiyalari o‘zgaradi: shifokorlar ko‘proq **interaktiv, tushuntiruvchi va ishonch asosidagi** uslublarni qo‘llashga majbur bo‘ladi.

O‘z-o‘zini davolashga oid tadqiqotlarda esa bemorning nutqida **tajriba asosida dalillar keltirish**, “men uchun ishlagan” kabi **subyektiv ishonch strategiyalari** haqidagi ma`lumotlarni J.Broom tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Shifokor esa bu jarayonda **diskursiv muvozanatni** saqlash, bemorni mantiqan to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ammo uning shaxsiy qarashlarini inkor etmaslik strategiyalarini qo‘llaydi. (Pilnick va Dingwall, 2011).

Mahalliy tadqiqotlarda ham shifokor va bemor muloqoti madaniy kontekstda o‘rganila boshlagan bo‘lib, **O‘zbekiston sharoitida tibbiy diskursning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari**, xususan, hurmat ifodalovchi birliklar, kinoya, metafora va yumshoqlashtiruvchi strategiyalar muhim rol o‘ynashi ta’kidlanmoqda. Bu borada, M.Abuzalova, N.G‘aybullayeva, D.Yo‘ldosheva, D.Sobirovalarning ilmiy ishlarida guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shu jihatdan, o‘z-o‘zini tashxislash va davolash holatlari **nutq xatti-harakatlarining o‘zgaruvchan modeli** sifatida, tibbiy muloqotning zamonaviy tendensiyalarini ochib beruvchi yangi tadqiqot yo‘nalishidir.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shifokor va bemor o‘rtasidagi kommunikatsiya modeli **an’anaviy vertikal munosabatdan interaktiv hamkorlik** shakliga o‘tmoqda.

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

O‘z-o‘zini tashxislash va o‘z-o‘zini davolash usulini tanlashda bemor o‘z tajribasiga, qarindoshlari, tanishlari, farmatsevtlari maslahatlariga, forumlar va tibbiy veb-saytlardagi sharhlarga, dori vositalarining reklamasiga va o‘zi ishonadigan boshqa manbalarga tayanadi. Keyinchalik, shifokor kabinetida o‘zini topib, bemor ko‘pincha o‘z tashxisi haqida tasavvurga ega bo‘ladi va davolanish va o‘z-o‘zini davolash usullari haqida o‘z fikrini bildiradi, bu har doim ham shifokor tomonidan baham ko‘rilmaydi. Shunday qilib, shifokorlarning aralash reaksiyasi bemorlarning “xalq” va boshqa noan’anaviy davolash usullari yordamida o‘z-o‘zini davolash haqidagi xabarlar tufayli yuzaga keladi, bu tibbiyot fani zamonaviy qoidalarga to‘liq mos kelmaydigan dunyoning sodda manzarasini aks ettiradi.<sup>51</sup> Boshqa tomondan, soxta tibbiy bilimga ega bo‘lgan bemorlarni o‘z-o‘zini tashxislash va davolash to‘g‘risidagi xabarlar va mutaxassisning ekspert fikri bilan bo‘lishish yoki e’tiroz bildirish uchun shifokorlar e’tiboridan chetda qolmaydi. Shu munosabat bilan, o‘z-o‘zini davolash to‘g‘risidagi suhbat bemorning davolash va diagnostika jarayonida tashabbuskorligining namoyishi bo‘lib xizmat qiladi va zamonaviy tibbiy nutqda kuzatilgan o‘tish davri hodisasining ko‘rsatkichlaridan biridir: bu ota-onalik munosabatlarini yengish istagi, shifokor va bemor o‘rtasidagi aloqa bo‘lishi mumkin. Tibbiy nutqdagi munosabatlarning paternalistik modelidan sherikka o‘tish bemorlar tomonidan diagnostika va davolash usulini izlashda teng ishtirok etish imkoniyati sifatida qabul qilinadi, bu, albatta, ularning munosabati, nutq turlarida aks etadi: masalan, xulq-atvor va til vositalarini tanlash kai. Shuning uchun mutaxassisning noprofessionalning mulohazasiga adekvat

<sup>51</sup>Jura A. Tibbiy diskursda kommunikativ ishonch. – Prag, 2013.

munosabati juda muhim, chunki shifokorning javob nutqi - tibbiy nutqning kommunikativ va ijtimoiy rahbari - suhbatning borishiga, uning ohangiga va turiga ta'sir qiladi: u esa, o'z o'nida aloqani rivojlantirish va natijada bemor bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish imkoniyatini yaratadi.

Tahlil obyektni - o'z-o'zini davolash haqidagi dialoglarni aniqlash uchun semantik, leksik, leksik-grammatik va kommunikativ-pragmatik darajadagi tibbiy maslahatlar yozuvlarini o'rganish o'tkazildi. Semantika nuqtai nazaridan taktikaning eng aniq belgilari semantik klishe'lardir (klishe deganda bir narsa qotib qolgan, takrorlanuvchi shakl yoki ibora tushuniladi)<sup>52</sup> Bu ko'pincha ko'p marta ishlatilgani sababli zerikarli bo'lib qoladi. Bu ibora bir nechta kontekstda qo'llanilishi mumkin: masalan: Men shifokorga bormadim, o'zim davolandim.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, 80% suhbatlar avtoritar-kollegial rejimda kechadi. Nutqning avtoritar turlari 60% (154 fragment), kollegial turlari esa 40% (131 fragment)ni tashkil etdi. Dialoglarning 20% da esa nutqning bir turi ustunlik qiladi.

O'z-o'zini davolashga oid nutq birliklari asosida semantik tahlilda quyidagilarni aniqladik:

- “o'zim” leksemasining faol ishlatilishi (3 marta);
- dori nomlari (37 ta), o'zgartirilgan dori nomlari (2 ta);
- “muqobil tibbiyot” mahsulotlari (aloe, bo'rsiq yog'i, zaytunyog'i, va h.k.);
- harakat bildiruvchi fe'llar: *ichmoq* (41), *surtmoq* (1), *tomizmoq* (5), *chaymoq* (3) va boshqalar.(keltirilga misollar shifokor va bemor o'rtasidai og'zaki dialoglar orqali tahlil qilingan)

### **Tahlil va natijalar**

O'z-o'zini davolashga oid dialoglar shifokor va bemor o'rtasidagi paternalistik (avtoritar) modeldan sheriklik (kollegial) modeliga o'tish jarayonining ifodasidir. Bemorning mustaqil tashxis va davolashga intilishi — tibbiy institutsional ishonchning kamayishidan dalolat beradi. Shu sababli, shifokor nutqidagi moslashuvchanlik, ya'ni nutq strategiyalarini bemorning psixotipi va kommunikativ xatti-harakatlariga qarab tanlash zaruriy hisoblanadi. Ratsional va konstruktiv ta'sir taktikalarini qo'llash shifokor va bemor o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik muhitini yaratadi. Aksincha, hissiy bosim yoki tajovuzkor tanqidlar kommunikativ to'siqlarni kuchaytiradi va davolash jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy muloqotda avtoritar va kollegial strategiyalar birgalikda qo'llanadi. Shifokor o'z kommunikativ uslubini bemor tipi, vaziyatning xavfliligi va tibbiy masalaning darajasiga qarab tanlaydi.

Eng samarali muloqot modeli – bu konstruktiv tanqid va ratsional ta'sirning birikmasi, chunki:

- ✓ bemorni psixologik jihatdan himoya qiladi,
- ✓ ishonchni saqlaydi,
- ✓ tibbiy tavsiyalarni ongli qabul qilishga olib keladi.

<sup>52</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Boshqa tomondan, buzg'unchi tanqid va hissiy ta'sir bemor bilan kommunikativ konfliktni kuchaytiradi hamda tibbiy ishonchni kamaytiradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, shifokor-bemor dialoglari tibbiy muloqotning institutsional va shaxsiy jihatlarini birlashtiradi. O'z-o'zini tashxislash va davolash holatlarida shifokorlarning avtoritar, kollegial hamda gibrid strategiyalaridan foydalanishi kuzatildi. Konstruktiv tanqid + ratsional ta'sir modeli eng samarali bo'lib, tibbiy ishonchni mustahkamlaydi. 1. Tibbiy kommunikatsiyada shifokor nutqining etik, empatik va argumentativ (Argument (lotincha argumentum) — 1) biron bir mulohaza (konsepsiya, na-zariya)ning haqiqatligini (rostligi-ni) tasdiqlash uchun keltiriladigan mulohaza (yoki mulohazalar majmui)<sup>53</sup> komponentlari ishonchli aloqaning asosi sifatida qaralishi kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Arutyunova N.D. *Diskurs va kommunikatsiya asoslari*. – Moskva: Nauka, 2010.
2. Issers O.S. *Kommunikativ strategiyalar va taktika nazariyasi*. – Moskva, 2008.
3. Jura A. *Tibbiy diskursda kommunikativ ishonch*. – Prag, 2013.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. *Tibbiy etika va kommunikatsiya asoslari*. – Toshkent, 2023.

---

<sup>53</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Argument>



## ILMIY DISKURSDAGI METAFORALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI



**Sulaymonova Mahfuza,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti I bosqich doktoranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ilmiy diskursdagi metaforaning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Metaforaning ilmiy tafakkurdagi konseptual, kognitiv va kommunikativ vazifalari o‘zbek, rus va ingliz tillari misolida yoritiladi. Ilmiy metaforalar tildagi semantik kengayish, terminologik shakllanish va bilish jarayonidagi ramziy model sifatida talqin qilinadi. Maqolada milliy obrazlilik va ilmiy aniqlik uyg‘unligi ham ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** metafora, ilmiy diskurs, leksik-semantik tizim, kognitiv model, konseptual metafora, terminologiya, milliy obrazlilik, semantik kengayish, ilmiy tafakkur, ramziy ifoda.

Navoiyning Xamsa dostonlari boblariga berilgan sarlavhalarga jiddiy eʼtibor qaralib tadqiqot markaziga chiqarilgan, masalan, olim T.Jalolov “Xamsa” talqinlari” asarining xotimasida shunday keltiradi: “Navoiy oʻz “Xamsa”sining har bir bobiga cheksiz zoʻr pafos bilan yozilgan nasriy sarlavhalar qoʻyadi. Har bir nasriy sarlavha oʻsha bobning siqiq jumalarda, ixcham qilib bayon etilgan mazmunidir.” [2,97]. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida ham shunday sarlavhalar tanlaydiki, shoir sarlavhalarda Farhodni oshiqlik sifatleri bilan tilga oladi. Sarlavhalarda jumalalararo bogʻlanish, bunday bogʻlanishni yuzaga keltiruvchi vositalar masalasi ham muhim ahamiyatga egadir. Pretsedent birliklar sarlavhalarda shakliy (tashqi) va mazmuniy (obrazli) izchillikka xizmat qiluvchi vositalar sanaladi. Bu usul XLVII bobda pretsedent nomlar ishtirokida quyidagicha keltirilgan: *Farhod koʻngli jarohatlari Shirin nomasi navardidagʻi kalomi **Masih Maryam**, balki ul kogʻazgʻa chirmab yiborgan marhamlaridin oʻngalmoqqa yuz qoʻygʻoni va Shirin bagʻri haroratlari Farhod bitigi mazmunidin, balki **Maryam** rishtasigʻa chirmab yiborgan isitma taʼvizi afsunidin taskin torqoni va bu silsilai muhabbatni Shopur mutaharrik qilgʻonin Xusrav anglab ani salosili mehnatqa tortqoni va Farhod halokigʻa charx zolidek tadbir qilgʻoni va aning umri zavoli tadbiri topilgʻoni.* Bob sarlavhasida Farhod koʻnglidagi jarohatlar Shirin maktubidagi Maryamning oʻgʻli Masih kabi jon bagʻishlovchi soʻzlardan tuzala boshlagani, Shirin bagʻri haroratlari ham Farhod xati mazmunidan taskin topgani, bular orasidagi muhabbat zanjirini Shopur harakatga keltirayotgani, Xusrav bilib qolib uni azob zanjiriga solgani va Farhodni qatl etish uchun chora-tadbir qidirgani bayon etiladi.

Ko‘rinadiki, “Navoiy ...har bir bobning sarlavhasida sodir bo‘ladigan voqealarning mundarijasini berib boradi”. [3,200].

Ma‘lumki, diniy kitoblarda Iso alayhissalomning o‘z nafasi bilan o‘lganlarni tiriltiruvchi, jon bag‘ishlovchiligiga ishora sifatida Masih so‘zi qo‘shib qo‘llanadi. Sharq she‘riyatida ma‘shuqa yoki ma‘shuqaning lablari jonbaxshlikda Masih(Iso)ga o‘xshatiladi. Yuqorida keltirilgan sarlavhada Navoiy Shirin maktubida bitilgan so‘zlar hayotbaxshligini Masih nafasiga qiyoslagan. Ushbu pretsedent nom Alisher Navoiy asarlarida, xususan, g‘azallarida ham keng qo‘llanadi: *Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey habib* [4,22]. baytining mazmunini “*Suyukligim, men sening so‘zlaringni Masih nafasi deb bilaman*”, deb tahlil qilish mumkin. *Sendadur nag‘mai Dovud ila anfosi Masih, Bordurur yo‘q esa davronda farovon hofiz* [5,243] misralarida “Dovud nag‘masi va Masih nafasi senda”, ya‘ni oshiq qanchalar fig‘on chekmasin (Dovud nag‘masi), foydasiz ekanligi, Masihning jon bag‘ishlovchi nafasi bilan Dovudning jon oluvchi ovozi ma‘shuqaga xosligi ta‘kidlanadi. Ya‘ni, masihanfos ma‘shuq dardida fig‘on chekkan oshiq Dovud ovozi hosil qilsa ham naf yo‘qligi qayd etilmoqda.

Shekspir asarlarida ishq mavzusini yoritishda rim mifologiyasidagi obrazlarga murojaat qilish ustuvorligi kuzatiladi. V.Shekspirning “Romeo va Juletta” tragediyasining asl variantida Montekkiga (Romeoning otasi) jiyani Benvolio Romeoning g‘alati bo‘lib qolganligi haqida aytganida, Montekki uni tasdiqlab, o‘g‘li o‘rmonga ketib qolishi, u yerdan tong otgandan so‘ng qaytib kelishini aytadi. Bu o‘rinda Rim mifologiyasida boshiga quyosh chambaragi taqqan, manglayida nurlar toji charaqlagan, o‘ng qo‘lida mash‘al ko‘targan, qanotli, ba‘zida esa qanotsiz otlar qo‘shilgan aravada xudolar va odamlarga yorug‘likni (kunduzni) olib kelgan tong ma‘budasi Avrora nomini eslatadi: *Many a morning hath he there been seen, With tears augmenting the fresh morning dew. Adding to clouds more clouds with his deep sighs; But all so soon as the all-cheering sun Should in the furthest east begin to draw The shady curtains from Aurora's bed, Away from the light steals home my heavy son, And private in his chamber pens himself, Shuts up his windows, locks far daylight out And makes himself an artificial night: Black and portentous must this humour prove, Unless good counsel may the cause remove.* [6, 13-14].

M.Shayxzoda tarjimasida esa pretsedent nom (Avrora) tushirib qoldirilib, *tong parisi* pretsedent jumlasini orqali ishora qilingan: *Ko‘p ko‘rganlar saharlarda uni o‘rmonda; Qo‘shar ekan shabnamlarga ko‘z yoshi namin, Bulutlarga qo‘shar ekan noladan bulut; Lekin, quyosh kun chiqarning qirg‘oqlarida – Tong parisi yotog‘idan qora pardani Bir irg‘itib tashlar ekan, o‘sha soatda – G‘amgin o‘g‘lim nurdan qochib kelarkan uyga.* [7,33].

Romeo ishq dardiga muhtalo bo‘lganini sezgan do‘sti, amakisining o‘g‘li Benvolio undan kimni sevib qolganini so‘raydi, Romeo shunday javob beradi: Well, in that hit you miss: she'll not be hit With **Cupid's** arrow; she hath **Dian's** wit; And, in strong proof of chastity well arm'd, From love's weak childish bow she lives unharm'd. She will not stay the siege of loving terms, Nor bide the encounter of assailing eyes, Nor ope her lap to saint-seducing gold: O, she is rich in beauty, only poor, That when she dies with beauty dies her store. [6, 18]. Asl variantda sevgi xudosi Kupido nomi tilga olinadi, Kupido yer yuzida hayotning davom etishini ta‘minlovchi sevgi

jozibasining timsolidir. U qo‘llarida olovli mash‘al ushlagan, sadog‘iga sevgi o‘qlari joylangan holda tasavvur qilingan. Shuningdek, Rim mifologiyasida oy ma‘budasi bo‘lgan Diana nomi ham keltiriladiki, Romeoning Julettaga bo‘lgan sevgisi qanchalar kuchli ekanligi, ruhiyatidagi o‘zgarishlar pretsedent nomlar asosida yorqin tasvirlangan.

Tarjimada *Kupido* nomi keltirilmagan bo‘lsa-da, M.Shayxzoda unga *sevgi ilohi* ifodasi bilan ishora qilgan: *Yanglishibsan: unga qarab sevgi ilohi Behudaga mo‘ljal olib uzgandi o‘qni; U Diana – oy tangrisi, g‘oyat zehnli, Begunoh qiz sovutidan o‘qlar o‘tolmas! O‘qni unga tegdirolmas sevgi ilohi!.. Uni so‘zga qamal qilsang pinagin buzmas, O‘rab olgan qarollarga g‘oyat jiddiydir, oltinlarning jozibasi unga daxlsiz, go‘zallikka boy bo‘lsa ham, afsuski, ajal – Samarasiz go‘zalligin qamrar bir mahal.* [7,37].

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** Qadimda odamlar osmon jismlarini ma‘budlarning timsoli deb ularni ezgulik va yomonlik keltiruvchilarga ajratib tasavvur qilishgan. Masalan, sharqda ham, g‘arbda ham rangidan kelib chiqib qizg‘ish sayyora «Mirrix (mars)»gni «urush xudosi» deb atashgan. “Mirrix yoxud Bahrom Quyosh tizimidagi yulduzlardan. Uning manzili Zamin va Mushtariy oralig‘ida. Mirrix va Quyoshning o‘rtasidagi masofa 2264 milyon kilometr. Hajmi Zamin kurrasining 0,11 qismiga barobar. Mirrix eng mashhur yulduzlar sirasidan. Uni ilk Odam kashf etgan. Mirrix qizil porloq rangda. Bu xususiyat uni boshqa yulduzlardan alohida ajratib turadi.” [8, 222].

*Mirrix* (mars) sharq mumtoz adabiyotida Bahrom deb ham atalgan, Navoiy asarlarida aynan shu nom bilan keltirilgan, masalan, “Saddi Iskandariy” dostonining XLIII bobida Iskandar Hindistonga yurish qilgani, hind hukmdorining jabr-zulmidan xabar topgani va hind hukmdori kechirim so‘ragani va Iskandar uning gunohidan o‘tgani bayon qilinar ekan, A.Navoiy hind nayzabozlarini shunday tasvirlaydi: *Zuhalrang o‘lub, lek Bahromkin, Zamiri aro barcha hangom kin.* [9,33]. Ya‘ni bular Zuhal (Saturn) yulduzi singari oltin rangda, Bahrom (Mars) yulduziday otashin va g‘azabnok, o‘ylaganlari nuqul urush va adovat edi.

Shekspir asarlarida ham urush xudosi *Mars* pretsedent nom sifatida keltirilgan, bunga misol sifatida “Koriolan” tragediyasidan bir misolni havola etamiz: *Than when I first my wedded mistress saw, Bestride my threshold. Why, thou Mars, I tell thee. Ya‘ni Ikkov ko‘rishganimizdan shodman naqadar! Eshitgil Mars, biz yashirin to‘pladik lashkar.*

She‘riy parcha mazmunidan anglashiladiki, Avfidiy o‘zining sobiq raqibini uning jasoratlarini hurmat qilganligi uchun urush xudosining nomi bilan ataydi, ya‘ni dushmanning nomini tilga olmasdan uni urush xudosi – Mars nomi bilan ataydi. Bu bilan Avfidiy o‘z dushmanida xudolarga xos jasurlik va yengilmas kuch xususiyatlari borligini e‘tirof etadi.

Jahonning buyuk shoiri hazrat Alisher Navoiyning adabiy-badiiy asarlarida qo‘llangan pretsedent birliklar sharq xalqlarining tarixi, madaniyati va adabiyotini to‘liq o‘zida aks ettiradi, desak aslo mubolag‘a etmagan bo‘lamiz. Shunga ko‘ra uning asarlaridagi pretsedentlik turlarini aniqlash, shakllanish manbalari va mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ularning vazifalarini belgilash katta ahamiyatga ega.

**Xulosalar (Conclusions).** Pretsedent nomlar badiiy asarlarda g‘oyaviy, tavsifiy, nominativ, estetik, uslubiy, ekspressivlik, ramziy kabi vazifalarni bajarishi bilan birga, qahramonlar haqidagi aniq tasavvurni, ularning ruhiy olamini, ularning biro harakati, holati, xususiyati haqida axborot, ma’lumot berish vazifasini bajaradi, ishonarli vosita sifatida implitsit usullardan biridir. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, pretsedent nomlar “tanish nomlar” sifatida badiiy matnda matnlararo aloqadorlikni ta’minlaydi, boshqa matnga muayyan maqsad bilan ishora qiladi, ekspressivlikni ta’minlaydi, matnni idrok qilish osonlashtiradi, tez tushunilishini taminlaydi, pretsedent nom mentalitetning o‘ziga xosliklarini ifodalovchi, milliy lisoniy ongni o‘zida namoyon etuvchi birliklardir, ular millatning madaniy kodi sifatida avloddan avlodga ko‘chadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Евгенева А.П. Словарь русского языка: В 4-х т. – М.: изд-во Полиграфресурсы, 1999.
2. Jalolov T. “Xamsa” talqinlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
3. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Navoiy Alisher. Badoyi’ ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Birinchi tom. –Toshkent: Fan, 1987.
5. Navoiy Alisher. Badoyi’ ul-bidoya. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Birinchi tom. –Toshkent: Fan, 1987.
6. <http://shakespeare.mit.edu>. Romeo and Juliet.
7. Shekspir V. Tanlangan asarlar. 5- jildlik. 1-jild. – T., 1981.
8. Jaloliddin Rumi. Ma’naviy masnaviy. Birinchi jild. Ikkinchi kitob (Tarjima sharhi bilan). –T., 2007.
9. [https://thelib.ru/books/shekspir\\_uilyam/koriolan](https://thelib.ru/books/shekspir_uilyam/koriolan).



**“INOYAT” VA “INOBAT” ISTILOHLARINING  
MUMTOZ ADABIYOTDA BADIY-ESTETIK VA  
TASAVVUFIIY-FALSAFIY QO’LLANISHI**



**Hamidullayeva Musharraf ,**  
*Renessans ta’lim universiteti*  
*Magistratura talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mumtoz adabiyotda keng qo’llanilgan “inoyat” va “inobat” tasavvufiy istilohlarining etimologik kelib chiqishi, lisoniy-semantik tuzilishi, konseptual xususiyatlari hamda ularning badiiy matndagi funksional-diskursiv vazifalari ilmiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi, tasavvufiy leksikaning semantik-kognitiv tarkibini yoritish hamda mumtoz matnda ruhiy-ma’naviy jarayonlarning til vositasida ifodalanish mexanizmlarini o’rganishga xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar.** inoyat, inobat, tasavvufiy leksika, semantika, konsept, kognitiv lingvistika, paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, mumtoz adabiyot tili

**Annotation.** This article presents a linguistic-conceptual analysis of the Sufi terms “inoyat” and “inobat”, which hold a central position in classical Turkic and Persian literary discourse. The study examines their etymological origins, semantic development, conceptual structures, and functional-discursive roles in mystical texts. The methodological framework relies on semantic analysis, conceptual modeling, paradigmatic–syntagmatic relations, and cognitive-linguistic approaches. The findings demonstrate that “inoyat” represents a top-down divine grace directed toward the human being, while “inobat” signifies a bottom-up spiritual return, attentiveness, and ethical readiness on the part of the devotee. The article contributes to a deeper understanding of Sufi lexical semantics and the mechanisms through which spiritual experience is encoded and conveyed in classical literary language.

**Keywords.** inoyat, inobat, Sufi terminology, semantics, conceptual analysis, cognitive linguistics, paradigmatic relations, syntagmatic relations, classical literary discourse

Mumtoz adabiyot tilining ichki tuzilishida tasavvufiy leksika alohida semantik qatlam sifatida shakllanib, unda ko‘plab istilohlar nafaqat lug‘aviy, balki konseptual, kognitiv va pragmatik mazmunlar bilan boyigan. Ana shunday ko‘p qatlamli birliklar qatoriga “inoyat” va “inobat” terminlari kiradi. Ushbu birliklar mumtoz matnlarda ruhiy-ma’naviy holatlar, ilohiy-banda munosabati, tasavvufiy ontologiya va axloqiy-didaktik g‘oyalarni ifodalovchi muhim konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada bu ikki terminning etimologiyasi, lisoniy-semantik taraqqiyoti, matndagi funksional-diskursiv yuklamasi hamda ularning konseptual maydoni akademik yondashuvda tahlil qilinadi.

“Inoyat” va “inobat” istilohlari ko‘plab mumtoz shoirlar ijodida, shu jumladan, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy, Abdurahmon

Jomiy, Zahiriddin Muhammad, Fuzuliy, Mashrab va yana bir qator ijodkorlar asarlarida uchrab, ularning ichki ma’no olamida chuqur tasavvufiy-falsafiy tushunchalarga aylangan. Ushbu ikki soʻz koʻp hollarda bir-biriga yaqin ma’nodan ishlatilgan boʻlsa-da, ular mumtoz matnlar doirasida oʻziga xos semantik va tasavvufiy yuklamaga ega.

### “Inoyat” istilohining lisoniy xususiyatlari:

**Etimologiyasi.** “Inoyat” soʻzi arabcha ināyat عناية – marhamat, eʼtibor, lutf, mehr maʼnolarini bildiradi. Tasavvuf terminologiyasida esa bu soʻz Allohning bandaga ilohiy rahmati, jamiki maxluqotlariga fazl-u karami; murshidning esa shogirdga mehr bilan nazar solishi maʼnosida ishlatilgan. Xususan, Alisher Navoiy ijodida “inoyat” ilohiy marhamatning badiiy timsoli sifatida koʻp uchraydi. “Gʻaroyib us-sigʻar” devonidan joy olgan ushbu ruboiy bunga yaqqol misol boʻladi:

*Yo Rabbki, inoyatingni yor ayla manga,  
Yoʻqluqqa hidoyatingni bor ayla manga,  
Ham kahfi kifoyatingni dor ayla manga,  
Ham durri inoyating nisor ayla manga.*

Bu baytda “inoyat” ilohiy yordam, yaʼni Haqning bandaga mehr bilan yoʻl koʻrsatishi sifatida talqin etiladi.

### Lisoniy-semantik qatlamlari

Tilshunoslik nuqtai nazaridan “inoyat” quyidagi semantik komponentlardan tarkib topadi:

- ~ denotativ maʼno: marhamat, eʼtibor, gʻamxoʻrlik;
- ~ konnotativ maʼno: Haqning lutf-u karamiga daxldor ruhiy holat;
- ~ assotsiativ maʼno: nur, baraka, hidoyat, iltifot;
- ~ pragmatik maʼno: subyektning ilohiy marhamatni qabul qiluvchi sifatida talqin qilinishi.

Fors adabiyotining mashhur gʻazalnavis ijodkori Hofiz Sheroziyning quyidagi satrlarida esa:

*Ishqning mulki-yu, quvonch ganji  
Menda bor, bu – inoyatidur uning.*

Badiiy-tasavvufiy maʼnoda shoir bu baytda shunday demoqchi: “Men ishqning saltanatiga kirganman, qalbimda quvonch va maʼrifatning boyligi bor – bu mening mehnatim emas, bu Uning – Yaratgan (maʼshuqa)ning inoyati (marhamati) tufayli”.

**Stilistik va diskursiv funksiyalari.** “Inoyat” mumtoz diskursda metaforik timsol, tasavvufiy konsept, ruhiy holat markazi va estetik mazmuni kuchaytiruvchi sema sifatida faol ishlatiladi.

Demak, mumtoz sheʼriyatda “inoyat” – ilohiy mehrning badiiy ifodasi boʻlib, u orqali shoirlar iloh va banda oʻrtasidagi ruhiy aloqa, lutf va marhamatni tasvirlaganlar.

### “Inobat” istilohining lisoniy xususiyatlari

**Etimologiyasi.** “Inobat” arabcha inābat عنابت – soʻzidan olingan boʻlib, vakil qilish; qaytish, tavba, itoat bilan yuzlanish; gunohdan qoʻl tortish; koʻz ochilishi

ma'nolarini anglatadi. Tasavvufda “inobat” – banda tomonidan Allohga qaytish, tavba qilish va itoat bilan yashash holatini bildiradi. Ahmad Yassaviy o'z hikmatlarida “inobat”ni insonning ruhiy tozalanishi va Haqqa qaytishi vositasi sifatida talqin etadi:

*Irodatsiz ushbu yo'lg'a kirmadilar,  
Inobatsiz yo'lg'a qadam qo'ymadilar,  
Ijozatsiz biror qadam urmadilar,  
Murid bo'lg'an bu sifatlik bo'lmoq kerak.*

Umumiy mazmuni esa shunday: Haqqa eltuvchi yo'l iroda, inobat va ijozat ustiga quriladi. Kim bu uch narsani saqlasa, u muridlikning haqiqiy martabasiga erishadi. “Inobat” so'zi bu yerda pirning e'tibori – Allohning nazari ma'nosidadir. Demak, murid (banda) o'z ustoz (Yaratgan)ning ruxsati bilan yo'lga qadam qo'yadi. Inobatsiz qadam – yo'ldan adashishning boshlanishi ekaniga ishora qilinmoqda.

### **Lisoniy-semantik qatlamlari**

Tilshunoslik nuqtai nazaridan “inoyat” quyidagi semantik komponentlardan tarkib topadi:

- ~ denotativ ma'no: qaytish, itoat;
- ~ konnotativ ma'no: tavba, ruhiy uyg'onish, o'zini anglash;
- ~ assotsiativ ma'no: hushyorlik, nazar, intizom, e'tibor.
- ~ pragmatik ma'no: muridning o'z murshidi oldidagi mas'uliyati;

Alisher Navoiy ham o'zining “Favoyid ul-kibar” devonida “inobat” tushunchasini ma'naviy komillikka, Xoliqqa eltuvchi yo'l sifatida ifodalaydi:

*Zoe o'ldi, ey ko'ngul, g'aflatdin ayyomi shabob,  
Bori etma favt isyondin inobat chog'in.*

Shoir o'z ko'ngliga murojaat qilmoqda: Ey ko'nglim, sen dunyo orzularida adashding, o'tgan yoshlik qaytmaydi – bu g'aflat edi. G'aflatda o'tgan yoshlikni endi tuzatish imkonning bor: tavba qil, Haqqa qayt, bu lahzani – tavbani kechiktirma, chunki inobat chog'i – Alloh nazari seni kutmoqda.

### **Stilistik va diskursiv funksiyalari**

“Inobat” mumtoz matnlarda didaktik kategoriya, tasavvufiy axloqiy me'yor, kognitiv uyg'onish markeri sifatida ishlatiladi.

Demak, shoirlarning umumiy ifodasiga ko'ra, “inobat” – bu ruhiy hushyorlik, Alloh yoki pir nazarida qalbni e'tibor bilan ushlab, tavba qilish va Haq yo'lida bo'lishning asosiy sharti. Bu nafaqat ichki e'tibor, balki harakat va xulq bilan namoyon bo'ladigan tasavvufiy fazilatdir.

### **“Inoyat” va “inobat”ning lingvokonseptual tizimidagi o'zaro munosabati**

**Inoyat** → ilohiy marhamat, rahmat, nazar – Haqning bandaga ko'rsatadigan e'tibori

**Inobat** → hushyorlik, e'tibor, nazar bilan yo'lni tutish – Allohga qalb bilan ergashish

Mumtoz adabiyotda “inoyat” va “inobat” tushunchalari o‘zaro sabab-oqibat munosabatida keladi. Ya’ni, “inoyat” – ilohiy marhamat, “inobat” – insonning unga javob tariqasidagi itoati va tavbasi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, insonning Haqqa yaqinlashish jarayonida “inoyat” Allohdan bandaga tushgan lutf-u iltifot, “inobat” esa bandaning Haqqa yuzlanishi, tavbasidir. Bu jihatdan ular ruhiy poklanishning ikki qirrasini ifodalaydi.

**Inoyat → Inobat**

Allohning marhamati – inoyat tushmasa, inson qanchalik hushyor bo‘lsa ham ruhiy yuksalishga yetolmaydi.

**Inobat → Inoyat**

Inobat qilgan, ya’ni e’tibor, hushyorlik va itoat bilan harakat qilgan inson Allohning inoyatini qabul qiladi. Shoirlar inobatni marhamatni qabul qilish uchun qalb tayyorlash sifatida talqin qiladilar.

**Sintagmatik uyg‘unligi**

Inoyat – tashqi marhamat, fazilat, rahmat.

Inobat – ichki tayyorgarlik, qalbning uyg‘onishi.

Shunday qilib, tasavvufiy hayotda bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi: inobat bo‘lmasa, inoyat samara bermaydi; inoyat bo‘lmasa, inobat ma’nosiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mumtoz adabiyotda “inoyat” va “inobat” so‘zlari tasavvufiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan holda ishlatilgan bo‘lib, ular ilohiy va insoniy munosabatning badiiy ko‘rinishlarini ifoda etadi. Ular tasavvufiy konsept maydonining markaziy birliklari bo‘lib, mumtoz matnlarning semantik, konseptual va kognitiv strukturasi shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G‘aroyib us-sig‘ar. – Toshkent
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Sulaymon Boqirg‘oniy [matn]: to‘plovchilar Sayfiddin Rafiddinov, Nodirxon Hasan. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Hofiz Sheroziy g‘azallari tarjimasini.
4. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she‘riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991.
5. O‘zbek tili izohli lug‘ati.



## TEXNIKA TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI



**Axmedova Maftuna,**  
*NavDU O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada texnikaga oid terminlar va ularning izohli lug'atlarda berilishi haqida so'z yuritilib, terminlarning davriy ketma-ketlikda yaratilgan lug'atlardagi izohlarida semantik ma'no kengayishi hamda ularning maxsus belgi bilan izohlanishi haqida to'xtalib o'tilgan hamda ayrim terminlarni izohli lug'atlarda qiyoslash orqali ilmiy xulosalar izohlangan.

**Kalit so'zlar:** izohli lug'at, texnika terminlari, politexnika, maxsus pometa, leksema, soha terminlari, gibrid terminlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются термины и их обособленные значения, используемые для определения семантических манов и их специальных знаков. В статье рассматриваются термины и их обособленные значения, используемые для определения семантических манов и их специальных знаков. В статье рассматриваются термины и их обособленные значения, используемые для определения некоторых терминов и их специальных знаков.

**Ключевые слова:** толковый словарь, технические термины, политехника, специальная техника, лексема, отраслевые термины, гибридные термины

**Annotation:** The article discusses technical terms and their presentation in explanatory dictionaries, the expansion of semantic meaning in the explanations of the terms in the dictionaries created in the periodic sequence and their use with special characters, and explains the scientific conclusions by comparing some terms in the explanatory dictionaries.

**Keywords:** glossary, technical terms, polytechnical engineering, special purpose, lexicon, industry terms, hybrid terms.

XXI asr butun dunyoda globallashuv davri bo'ldi. Insoniyat juda tez o'zgarishlarga uchrayotgan yangi taraqqiyot bilan yuzlashdi. Bu davrning insoniyat uchun ahamiyati juda katta bo'ldi. Jamiyat hayotidagi rivojlanishlar, albatta, ijtimoiy hodisa bo'lmish tilga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu hodisa, birinchi navbatda, tilning leksik tarkibida ko'rina boshlaydi, ya'ni tilning lug'at tarkibi boyib, o'zgarishlarga uchrab boraveradi. Jumladan, jamiyatdagi ma'lum bir soha taraqqiyotining, o'zgarishlarining ayni namoyishi uning terminlari orqali aks etadi. Bu esa, yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi.[2;5] Ana shunday hodisalar har bir tilning

leksikografiyasini boyitadi, to'ldiradi, nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun, ilmiy kashfiyotlar uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili ham yuqoridagi kabi jarayonlarni boshdan kechirib, leksik qatlamida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, texnika sohasi rivojlangani sari texnika terminologiyasi ham to'xtovsiz rivojlanib, o'zgarishlarga uchrashda davom etmoqda va, albatta, bu jarayon tilshunoslikka oid lug'atlar va lug'atchilikka oid tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda. Bu holatni davriy ketma-ketlikda yaratilgan o'zbek tilining izohli lug'atlari misolida kuzatish mumkin, chunki vaqt oralig'idagi o'zgarishlar leksikografik tadqiqotlarda, lug'atlarda berilgan leksik birliklardagi farqlarda yaqqol ko'rinadi.

Chorak asrdan ko'proq vaqt oralig'ida O'zbek tilining izohli lug'ati 3 marta qayta ishlandi. Z.M.Ma'rufov tahriri ostida 2 tomli 60 ming so'z va so'z birikmasini o'zida jamlagan "O'zbek tilining izohli lug'ati" 1981-yilda yaratilgan bo'lsa, A.P.Madvaliyev tahriri ostida 2006-2008-yillarda kirill alifbosida, 2020-yilda lotin alifbosida 5 jildli 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasini o'zida jamlagan "O'zbek tilining izohli lug'ati" ishlab chiqildi. Izohli lug'atlarda berilgan texnika va texnologiyaga oid terminlardan (davrdagi farqlarni) o'rganish, tahlil qilish uchun obyekt sifatida foydalanildi.

Tabiiyki, texnika va texnologiya tushunchalari va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar terminlarining ko'pchilik qismi o'zga tillarga tegishli. O'z-o'zidan texnika terminologiyasining asosiy qismini o'zlashma qatlamga oid lug'aviy birliklar tashkil qiladi. Shunday bo'lsa-da, o'zbek tiliga o'z til imkoniyatidan kelib chiqqan holda tarjima qilingan birliklar ham bor. Tarjima qilingan terminlarning ya'ni o'z qatlam terminlarining ko'pchiligi 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981-yil) va 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2020-yil)da ko'p ma'noli so'z sifatida izohlab berilgan. Tahlilga tortish natijasida, ma'lum bir terminlarning maxsus pometalalar bilan har ikkala lug'atda ham berilganligini, lekin ayrim terminlarning izohi aynan berilgan-u, maxsus pometa bilan berilmaganligini ko'rish mumkin. Tadqiqot obyektini texnika terminlari bo'lganligi sababli, lug'atlardagi maxsus pometa bilan berilgan terminlar o'rganildi.

Ma'lumki, barcha izohli lug'atlarning terminologik sohaga doir o'rganilish tadqiqini maxsus pometalarsiz tasavvur qilish ancha murakkab. Chunki, tadqiqotlarning aynan lug'atshunoslik mavzusi bilan aloqador so'zlarning leksikografik tavsifi uchun xizmat qiluvchi belgi-ishoralar tizimi xususiy va umumiy belgilarni o'z ichiga olishi ta'kidlanadi. [6;43]

Leksikografik tadqiqotlarning mavzusi turli xil terminologik leksikaning tahlili bo'lganligi boisdan, aynan ularning tahlili o'quvchi va tadqiqotchi uchun osonroq bo'lishi bilan birga, soha terminologiyasi uchun xizmat qiluvchi belgi-ishoralar tizimi sohada maxsus pometa deb yuritiladi. Shuningdek, xususiy belgilar so'zning texnika, xo'jalik, fanning ma'lum sohasiga oidlikni ko'rsatishi ham aytiladi.[6;43] Bu belgilar termin izohida ushbu birlikning qaysi sohaga mansubligiga ishora qiladi. Yana ta'kidlanadiki, izoh tarkibida muayyan fan sohasiga oidlikni ko'rsatuvchi, ishora qiluvchi so'z yoki so'z birikmasi bo'lmagan hollarda pometalalar qo'llanadi.[9;157]

Texnikaning mashinasozlik, aviatsiya, mexanika kabi bir nechta sohalarini qamrab olgan terminlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da davriy ketma-ketlikdagi har uchala nashrida ko‘rib chiqildi va ular maxsus pometa bilan berilgan va, aksincha, maxsus pometa bilan berilmagan texnika terminlari sifatida tahlil qilindi.

Texnika va uning negizidan o‘sib chiqqan texnologiya sohasi juda ko‘p tarmoqlidir. Shu jihatdan kelib chiqib, tadqiqot obyekti sifatida texnikaga doir termin va tushunchalar, ba’zi tabiiy fanlarga ham, texnikaga ham aloqador bo‘lgan tushuntirishlar, texnologik jarayonlarni ifodalovchi birikma terminlar, mexanizmlar, turli sohalarga mansub o‘lchov birliklari va asboblari, apparatlar, materiallar, sohaga oid bo‘lgan protssesual qonun-qoidalar va ularning vazifasi qamrab olindi. Tahlil jarayonida 5 jildli (2020-yil) O‘TIL da keltirilgan termin va tushunchalarga doir kiritilgan maqolalarning izohi kengroq, terminning kelib chiqishi tarixi ham ancha batafsil yoritilganligi kuzatildi. 2 tomli O‘TILda esa, termin yoki tushuncha nomi, o‘zlashgan qatlamga oid bo‘lsa, qaysi tildan olingani va vazifasi, ko‘p ma’noli so‘z bo‘lsa, arab raqamlari bilan ketma-ketlikda ifodalangan ma’nolari, omonim so‘z bo‘lsa, rim raqamlari bilan ma’nolari izohlanganini ko‘rishimiz mumkin.

2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (1981-yil) nashr etilganidan buyon o‘tgan davr mobaynida juda ko‘plab texnikaga oid termin, atama va tushunchalar kirib keldi va lug‘atda berilganlarining ma’nolari kengaydi va bular o‘z navbatida yangi to‘ldirilgan, qayta tahrirlangan va bugungi tilimizning me’yorlariga xos bo‘lgan yangi lug‘atga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Masalan: *vanna*, *bandaj*, kabi terminlarning 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (1981-yil) faqat bir ma’noda berilgan va uning vazifasi haqida fikr yuritilgan:

**BANDAJ** [ r <fr] Tananing kasal joyini normal holatda tutib turish uchun tang‘ib bog‘lab qo‘yiladigan maxsus tortqi, qullob. **O‘TIL 2 tomli** (1981-yil) 78-bet.

**VANNA** [ r] **1** Cho‘milish uchun belgilangan maxsus uzun tos. *Sirlangan vanna*. *Vannada cho‘milmoq* / Texnikada har xil eritma, suyuqlik va sh.k.solish yoki turli protsseslar olib borish uchun belgilangan idish.

5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa, xuddi shu leksemalarning ma’nolari kengaygan va ular maxsus pometa bilan bilan berilgan:

**BANDAJ** [fr. Bandage – belbog‘, bog‘ich] **1** Homiladorlik va undan keyingi davrda, operatsiyadan oldin yoki keyin tananing tegishli (kasal) joyini normal holatda tutib turish uchun tang‘ib bog‘lanadigan (kiyiladigan) maxsus kamar, belbog‘. **2. tex.** Mashina detallari yoki konstruksiyalarning puxtaligi va chidamliligini oshirish maqsadida ularga kiygiziladigan metall halqa.

**VANNA** [ lot vannus – idish, kosa] **1** Cho‘milish, yuvinish uchun yasalgan katta uzunchoq tos, idish. *Sirlangan vanna*. **2.tex.** Har xil eritma, suyuqlik va sh.k.ni solish yoki turli jarayonlarni olib boorish uchun foydalaniladigan maxsus idish. **3** Gigiyena va profilaktika maqsadida suv, balchiq, havo yoki oftob ta’sir ettirish yo‘li bilan amalga oshiriladigan muolajalar; davolash (davolanish)ning shunday vositasi.

*Biplan, ballaster, vagranka, detonatsiya, distillyatsiya, domkrat, drezina, kalit, kesma, kommutator, korobka, nitrogliserin, rubilnik, taqsimlagich, xurushlamoq, siklon* kabi leksemalar 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da maxsus pometa bilan berilmagan texnikaga oid terminlardir.

**BIPLAN** [r<fr] Ustma-ust ikki qavat qanotli samolyot. 2 tomli O‘TIL, 116-bet.

**BIPLAN** [bi..+plan] *tex.* Ikkita ustma-ust joylashgan qanotga ega bo‘lgan samolyot. 5 jildli O‘TIL 1-jild, 269-bet.

**DISTILLYATSIYA** [r <lat] Suyuqlikni bug‘ga aylantirib yana sovutish yo‘li bilan tozalash, shu yo‘l bilan sof suyuqlik hosil qilish. 2 tomli O‘TIL, 229-bet.

**DISTILLYATSIYA** [lot. Destillatio – tomchilab oqish] *kim. tex.* Suyuqliklarni, suyuq aralashmalarni bug‘ga aylantirib, sof tarkibiy qismlarga ajratish, tozalash. 5 jildli O‘TIL 1-jild, 629-bet.

**DISTILLYATSIYA** (2 tomli O‘TIL)da atamasi bilan 3 ta termin ifodalangan bo‘lsa, O‘TIL (5 jildli) da 4 ta termin berilgan va bir *DISTILLYATOR* – Suyuqliklarni distillovchi apparat (629-b.) yangi termini qo‘shilgan.

**DOMKRAT** [r<nem] Mashina, vagon kabi og‘ir narsalarning ostiga qo‘yib ularni ko‘taradigan maxsus asbob. 2 tomli O‘TIL, 233-bet.

**DOMKRAT** [goll. dommekracht]. *tex.* Mashina, vagon kabi og‘ir narsalarni sozlash-qurish va ta‘mirlashda o‘z ustiga qo‘yiladigan og‘irliklarni (500 tonnagacha) vaqtinchalik ma‘lum balandlikka ko‘tarib beradigan mexanizm. 5 jildli O‘TIL 1-jild, 641-bet.

**DREZINA** [r<nem] t.y. Temir yo‘l izlarida qo‘l kuchi yoki motor bilan yurgiziladigan to‘rt g‘ildirakli arava. 2 tomli O‘TIL, 236-bet.

**DREZINA** [nem. Draisine – nemis ixtirochi injeneri Dreza (Drais) ismidan] *tex.* Temir yo‘l izlarida uncha uzoq bo‘lmagan masofaga borishga mo‘ljallangan, qo‘l kuchi yoki motor bilan motor bilan yurgiziladigan to‘rt g‘ildirakli arava. (5 jildli O‘TIL 1-jild, 654-bet).

2006-2008-yillarda yangi chop etilgan 5 jildli O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2020-yil lotin alifbosida) mualliflar aytganidek, “Yangi ko‘p jildli izohli lug‘atni tuzishda 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli izohli lug‘at materiallaridan foydalanildi. Lekin u ikki jildli lug‘atning to‘ldirilgan yoki qandaydir o‘zgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lug‘atdir.[2;5] Maqsadi va mazmuni umumiy bo‘lgan davriy ketma-ketlikda tuzilgan lug‘atlarda mashinasozlik, aviatsiya, energetika, metallurgiya, ayrim binokorlik va arxitektura kabi ko‘plab bir-biriga yondosh sohalar uchun berilgan termin va tushunchalarni ifodalovchi leksemalar ikki xilda ya‘ni maxsus pometa bilan berilgan terminlar va maxsus pometa bilan berilmagan terminlar berilgan. Masalan: *avtoklav, avtokran, avtosug‘orgich, akvalang, amortizator, akkumulyator, benzovoz, gazogenerator, gidrogenerator, gidrolokator, dvigatel, dvijok, dirijabl, drel, karbyurator, kondensator, kultivator* kabi. Vaholanki, texnika va politexnikaga oid lug‘atlarda bunday leksemalar soha termini sifatida keltirilgan va ma‘nolari izohlangan.

Bunday leksemalar 2 tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham, 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ning har ikkala nashrida ham bir qanchani tashkil etadi. Ayrim leksemalarga oid maqolalar ularni “texnika va texnologiya” sohasi termini ekanligini izohlab keladi.

**VAGRANKA** [r. Vagranka – cho‘yan eritish pechi] *tex.* Cho‘yan va rangli metallar eritiladigan maxsus pech. O‘TIL (2020-yil).

Xuddi shunday bir-biriga yondosh bo‘lgan texnik sohalar uchun berilgan termin va tushunchalar maxsus pometa bilan berilmagan va ularni “texnika va texnologiya” integral semasi birlashtirib turganini ko‘rish mumkin. Masalan:

**AVTOSUG‘ORGICH** Chorva mollari va parrandalarni sug‘orish uchun mo‘ljallangan avtomatik qurilma.

**VERNER** [ixtirochi fransuz olimi P.Vernye (P.Vernier) nomidan] 1 Uzunlik va burchakni aniq o‘lchash uchun ishlatiladigan moslama.

2. Radiopriyomnik va boshqa radioappaturalarni aniq sozlash uchun mo‘ljallangan moslama.

**VEZDEXOD** [ r. “vezde xodit” birikmasidan – “hamma yerda yuruvchi” ma’nosida] Har qanday og‘ir yo‘lda, yo‘lsizlikda ham yura oladigan avtomashina.

**VENTILYATOR** [lot. Ventilator – yelpig‘ich, sovuruvchi, shamollatuvchi] Yopiq binodagi havoni yangilaydigan, havoni tozalab turadigan, mashina qismlarini sovitadigan shamolparrakli mexanizm. *Elektr ventilyator*

**DREL** [nem.Drillbohrer – burg‘i, parma] Metallar, yog‘och va b.materiallarda teshiklar ochish uchun ishlatiladigan dastaki yoki elektrik ko‘chma mexanizm.

**DETAL** [fr.detail – tafsilot; mukammallik] 1 Mashina, mexanizm, asbob va shuningdek, umuman biroor buyumning qismi, bo‘lagi. *Mashina detali. Detal ishlash.*

**DVIGATEL** [r. “dvigatel” – harakatlantirgich; qo‘zg‘atuvchi] Energiyaning biror turini mexanik energiyaga aylantiruvchi va boshqa mashinani harakatga keltiruvchi mashina. *Ichki yonish dvigateli.*

**DVIJOK** [r. “dviyok” - harakatlangich] Ichki yonishli dvigateldan yoki boshqa biror manbadan energiya olib ishlaydigan ko‘chma elektr stansiya. Bu terminlar 1989-yilda nashr etilgan “Politexnika lug‘ati”da ham kiritilgan va ularning izohiy ma’nolari ancha katta hajmli maqola ostida berilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5 jildlida vibro leksemasi asosida gibrid terminlar keltirilgan va quyidagicha izohlangan.

**VIBRO** – [lot. Vibrare – titratmoq, qaltiratmoq, tebratmoq] O‘zlashma baynalmilal so‘zlarning birinchi tarkibiy qismi bo‘lib, shu so‘zlarning tebranishiga, vibratsiyaga aloqadorligini ko‘rsatadi. [2;457]Shundan so‘ng VIBRO o‘zlashma termini bilan boshlanuvchi 5 ta leksema keltiriladi. Lekin ularning faqatgina bittasi *tex.* maxsus pometasi bilan beriladi. Beshala terminning izohidagi maqoladan hamda *vibro* gibrid termini qo‘shilmasi orqali ularning texnikaga aloqadorligi anglashiladi.

**VIBROBOLG‘A** *texn.* Zarb bilan ishlaydigan asbob.

**VIBROIZOLYATSIYA** [vibro..+fr. Isolation – ajralish, ajratish, uzish] Odamlar va inshoot, mashina, asboblarni vibratsiyaning zararli ta’siridan himoya qilish.

**VIBROMETR** [vibro..+yun. Metron – o’lchov] Tebranuvchi jismlarning siljishini, turli qurilmalar vibratsiyasini o’lchaydigan asbob.

**VIBROTO‘QMOQ** Zarba va tebranishlar ta’sirida yerga qoziq, truba qoqadigan, shuningdek, muzlagan materiallarni yumshatadigan, tuproqni zichlaydigan zarbiy vibratsion mashina.

Izohli lug‘atlarni tahlil qilish jarayonida aynan yuqoridagi holatlar kabi berilgan terminlar, ma’nosi boshqa, bajaradigan vazifasi turli xil ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolaridan bittasi texnikaga oid bo‘lgan so‘zlar, bevosita texnika termini sifatida berilganligi aniqlandi.

Umuman, izohli lug‘at tuzish jarayonida so‘zlarni aniq, ixcham va tushunarli ta’riflash asosiy tamoyil sifatida amal qilinarkan, texnika terminlarini ta’riflashda maxsus pometa bilan berish ayrim chalkashliklarning oldini oladi va ularni soha termini sifatida ajratib ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2 tomli.– Moskva: “Rus tili” nashriyoti, 1981.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli.– Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
3. Dadaboyev. H. O‘zbek terminologiyasi. – T, 2019.
4. Madvaliyev A. Izohli lug‘atda xalqaro terminelementli so‘z va terminlarga munosabat masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2009, 2-son, 38-43 betlar.
5. Беркович Т.Л. Содержание и функции помет для терминологической лексики в общих словарях разных типов // Словарные категории. Сборник статей. – М.: 1988.
6. Инструкция для составления “Словаря современного русского литературного языка”. – М.: 1958.
7. Politexnika lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi”, 1989.
8. Современный англо-русский политехнический словарь. – Бишкек, 1997.
9. Saidov O‘. “O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi”: Filol.fan.bo‘yicha fals. dokt....diss. – Qarshi, 2023.
10. Mavlyanov S.J. “O‘zbek tili diplomatik terminlari”: Filol.fan.bo‘yicha fals. dokt....diss. – Toshkent, 2022.



## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БЕССОЮЗНЫХ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ТЕКСТАХ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СТИЛЯ



**Амонова Н.Ю.**  
*магистрант Навоийского  
государственного университета*

**Аннотация:** В статье рассматривается использование бессоюзных сложных предложений (БСП) в текстах художественного стиля. Особое внимание уделено синтаксическим особенностям этих конструкций, их роли в создании выразительности, динамичности и эмоциональной насыщенности произведений. Анализируются примеры из произведений классических авторов, а также современные подходы к использованию БСП в литературе.

**Ключевые понятия:** синтаксический параллелизм, эмоциональная экспрессия, художественный стиль, бессоюzie, выразительность, синтаксическая структура.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola adabiy matnlarda birlashmagan murakkab jumalardan foydalanishni o'rganadi. Bu konstruksiyalarning sintaktik xususiyatlariga, asarda ifodalilik, dinamiklik, hissiy boylik yaratishdagi rolga alohida e'tibor qaratilgan. Klassik mualliflardan misollar, shuningdek, adabiyotda ushbu jumalardan foydalanishga zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sintaktik parallellik, emotsional ifoda, badiiy uslub, asintetik safsata, ekspressivlik, sintaktik tuzilish.

### **Введение**

Использование бессоюзных сложных предложений (БСП) в литературных произведениях давно привлекло внимание лингвистов и литературоведов. Эти конструкции, лишенные союзов, обладают особыми стилистическими свойствами, которые позволяют авторам создавать уникальную атмосферу и подчеркивать внутреннюю динамику текста. В отличие от традиционных сложных предложений, где части соединяются союзами, бессоюзные конструкции могут быть связаны различными интонационными, ритмическими и структурными приемами, что делает их мощным инструментом для передачи субъективных переживаний героев.

Употребление бессоюзных сложных предложений (БСП) в художественных текстах является важным аспектом литературного стиля. Эти конструкции играют ключевую роль в передаче сложных эмоций и мыслей персонажей, в создании уникальной атмосферы и динамичности повествования. В отличие от обычных сложных предложений, где части связаны союзами, бессоюзные конструкции

придают тексту особую экспрессию и напряженность. С помощью БСП писатели могут акцентировать внимание на психологическом состоянии героев, на внутреннем конфликте или на смене темпа повествования. [1, 45]

Цель настоящего исследования заключается в анализе синтаксических и стилистических особенностей бессоюзных сложных предложений, а также в определении их роли в художественном стиле. Задачи исследования включают анализ примеров использования БСП в произведениях классической и современной литературы, а также выявление их стилистических функций и способов использования в различных жанрах.

Задача данного исследования заключается в том, чтобы исследовать роль БСП в художественном стиле, их использование в классической и современной литературе, а также определить, какие функции они выполняют в контексте повествования [2, 95]. В ходе исследования будут рассмотрены такие аспекты, как эмоциональная экспрессия, динамика действия, параллелизм в структуре предложения и другие стилистические особенности. Важно также отметить, что бессоюзные сложные предложения являются не только грамматическим приемом, но и средством воздействия на восприятие читателя, создавая определенные акценты и подчеркивая важные моменты произведения.

#### **Методология исследования.**

Исследование основывается на анализе синтаксических структур бессоюзных сложных предложений в контексте их стилистической функции. В качестве основного метода использован метод контекстного анализа, который позволяет учитывать как грамматические особенности, так и эмоциональные, психологические и нарративные функции БСП. Также применялась методика сравнительного анализа, чтобы сопоставить использование БСП у различных авторов и в разных жанрах литературы.

Для примера были выбраны произведения таких авторов, как Лев Толстой, Антон Чехов, Федор Михайлович Достоевский, а также более современные писатели, чтобы продемонстрировать эволюцию использования БСП в литературе.

Помимо этого, проведены следующие виды анализа:

1. Синтаксический анализ: С помощью синтаксического анализа исследуются грамматические особенности бессоюзных сложных предложений, их структура и способы связи частей предложения. Особое внимание уделяется различиям в использовании БСП в разных жанрах (проза, драматургия, поэзия).

2. Контекстуальный анализ: Важным является анализ контекста, в котором используются БСП, поскольку значение бессоюзных конструкций может варьироваться в зависимости от настроения, жанра и сюжета произведения.

3. Стилистический анализ: Используются методы анализа художественного стиля авторов, исследуется, как БСП влияют на эмоциональную атмосферу текста и какие стилистические функции они выполняют.

4. Сравнительный анализ: Сравнивается использование БСП у различных авторов и в разных исторических эпохах, что позволяет выделить тенденции в изменении их роли в литературе.

#### **Результаты и обсуждение.**

Результаты исследования показывают, что бессоюзные сложные предложения активно используются авторами для создания динамичности текста и усиления эмоционального воздействия на читателя. В произведениях Л. Толстого БСП часто используются для передачи внутренних переживаний персонажей, их мыслей, сомнений и переживаний. Например, в произведении "Анна Каренина" Толстой использует бессоюзные конструкции для акцентуации драматического напряжения, когда описываются моменты психологической изоляции героев.

У А. Чехова бессоюзные предложения часто выступают средством создания лаконичности и многозначности. Например, в "Человеке в футляре" БСП подчеркивают внутреннюю противоречивость и эмоциональное отстранение героя.

Ф.М. Достоевский, в свою очередь, использует БСП для изображения душевных терзаний персонажей, что позволяет усилить драматизм и выразительность текста. Например, в "Преступлении и наказании" бессоюзные конструкции усиливают внутренние монологи Раскольникова, подчеркивая его эмоциональное напряжение и психологическую нестабильность.

В современных текстах БСП часто используются для создания ощущения непрерывности действия, ускорения темпа повествования или отражения внутреннего потока сознания персонажа.

Исследование показало, что бессоюзные сложные предложения являются неотъемлемой частью художественного стиля. Они играют важную роль в создании эмоциональной атмосферы, углублении психологизма персонажей и усилении динамики повествования. БСП используются как средство выражения сложных внутренних состояний героев, помогают передать сомнения, терзания и ускоряют восприятие действия. В классической и современной литературе этот прием продолжает оставаться актуальным, позволяя писателям воздействовать на читателя не только через содержание, но и через форму.

Таким образом, бессоюзные сложные предложения открывают перед автором широкие возможности для художественного самовыражения, их использование способствует усилению выразительности и драматизма текста. Будущее литературного процесса, вероятно, будет связано с новыми формами использования синтаксических конструкций, в том числе БСП, что позволит еще глубже проникать в психологию персонажей и открывать новые горизонты повествования. Бессоюзные сложные предложения служат важным инструментом для создания определенной атмосферы в произведении и углубления психологизма персонажей.

Результаты исследования показали, что бессоюзные сложные предложения являются важным стилистическим инструментом в произведениях многих авторов. Важно отметить, что их использование не ограничивается только классическими произведениями, но активно применяется и в современной литературе.

#### 1. Роль БСП в передаче психологии персонажей:

Как показал анализ произведений Л.Н. Толстого, БСП используются для того, чтобы передать внутренние переживания персонажей, их сомнения и страдания. В таких произведениях, как "Анна Каренина", бессоюзные конструкции помогают подчеркнуть внутренний конфликт персонажа, не перегружая текст лишними деталями и объяснениями. [4, 101].

#### 2. Строение и интонация:

В произведениях А.П. Чехова БСП играют роль создания лаконичности и выразительности. Например, в "Человеке в футляре" Чехов использует [3, 105] такие предложения для передачи эмоционального отчуждения героя от окружающего мира, что создает эффект дистанцированности. Это позволяет подчеркнуть глубину внутреннего мира персонажа, его чувства без лишних слов.

#### 3. Динамика и ритм:

Ф.М. Достоевский использует БСП для усиления ритма повествования и для создания напряженной атмосферы. В "Преступлении и наказании" бессоюзные конструкции часто используются в моменты душевных терзаний главного героя, где переход от одного состояния к другому происходит в ускоренном темпе. [5, 203].

#### 4. Современные авторы и БСП:

В современной литературе БСП часто применяются для создания динамичных и напряженных сцен, ускорения повествования. В произведениях, таких как "Три секунды" (Ю Несбё) или "Ночной город" (Николай Рябцев), бессоюзные конструкции используются для изображения быстрого потока событий, иногда с элементами психоделического восприятия. Это придает тексту ощущение времени, которое как бы вырывается из привычной структуры.

#### **Заключение**

Таким образом, бессоюзные сложные предложения являются мощным инструментом для создания выразительности в художественных текстах. Их использование позволяет авторам не только придать тексту динамичность, но и усилить эмоциональное воздействие на читателя. БСП эффективно используются для выражения внутреннего мира героев, отображения их сомнений, переживаний и психологических конфликтов. Исследование показало, что бессоюзные конструкции служат важным средством создания художественного эффекта, вносящего глубину и многозначность в текст.

### **Список использованной литературы.**

1. Баранов, Н.Ю. "Русский синтаксис: теория и практика". — М.: Наука, 2006.
2. Тихонов, М.П. "Синтаксическая структура и выразительные средства русского языка". — СПб.: Изд-во СПбГУ, 2010.
3. Чехов, А.П. "Собрание сочинений в 10 томах". — М.: Правда, 1954.
4. Толстой, Л.Н. "Анна Каренина". — М.: Гослитиздат, 1956.
5. Достоевский, Ф.М. "Преступление и наказание". — М.: Эксмо, 2004.



## BARQAROR BIRIKMALAR KOGNITIV NUQTAYI NAZARDAN O'RGANISHNING AHAMIYATI



**Babanazarova Sohiba,**  
doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada frazeologik birliklarni o'rganishda kognitiv yondashuvning roli va afzalliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot frazeologizmlarning nafaqat til birliklari, balki inson ongini, madaniy tajribasini va dunyoni idrok etishini aks ettiruvchi vositalar sifatida o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi. Maqolada frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, yadro va dinamik komponentlari, mental reprezentatsiya va konseptualizatsiya jarayonlari, shuningdek, ularning madaniy-konseptual ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari frazeologiyani inson tafakkuri, madaniyati va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog'lash imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** barqaror birikmalar, frazeologik birliklar, kognitiv yondashuv, semantik struktura, konseptualizatsiya, mental reprezentatsiya, antroposentrik tilshunoslik, kommunikativ funksiyalar, madaniy konseptlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль и преимущества когнитивного подхода в изучении фразеологических единиц. Исследование показывает, что фразеологизмы следует рассматривать не только как языковые единицы, но и как средство отражения человеческого сознания, культурного опыта и восприятия мира. В статье анализируется культурно-концептуальное значение фразеологических единиц. Результаты исследования позволяют связывать фразеологию с мышлением, культурой и коммуникативной деятельностью человека.

**Ключевые слова:** устойчивые единицы, фразеологические единицы, когнитивный подход, семантическая структура, концептуализация, ментальная репрезентация, антропоцентрическая лингвистика, коммуникативные функции, культурные концепты.

**Abstract.** This article analyzes the role and advantages of the cognitive approach in studying phraseological units. The study demonstrates that phraseologisms should be examined not only as linguistic units but also as a means of reflecting human consciousness, cultural experience, and perception of the world. The article explores the cultural and conceptual significance of phraseological units. The research results make it possible to connect phraseology with human thinking, culture, and communicative activity.

**Keywords:** stable units, phraseological units, cognitive approach, semantic structure, conceptualization, mental representation, anthropocentric linguistics, communicative functions, cultural concepts.

**Kirish.** Hozirgi kunda kognitiv tadqiqotlar ko'lamining ancha kengayib borayotganligi barqaror birikmalarni o'rganishda ham yangi – kognitiv yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Barqaror birikmalarni ushbu aspektda tadqiq etishga

qaratilgan ishlarning ko‘payib borayotgani ularni o‘rganishdagi ilmiy e‘tiborning o‘zgarayotgani hamda an‘anaviy muammolarga yangicha nigoz bilan qaralayotganini anglatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kognitiv yondashuv doirasida ko‘plab olimlar izlanishlar olib borgan bo‘lib, ushbu maqolada ayni mavzuga aloqador ayrim tadqiqotlarnigina tahlil qilamiz. Xususan, frazeologizmlarga oid A.V.Kunin ilgari surgan ayrim ilmiy qarashlarni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga katta e‘tibor beriladi. A.V.Kunin fikricha, “frazeologiya – bu nutqning barqaror bo‘laklari, ya‘ni murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lgan birliklar haqidagi fan” . Agar muallif frazeologik birliklar ma‘nosini tushunishda ularning tarkibiy qismlarini hisobga olish zarurligini nazarda tutgan bo‘lsa, u holda frazeologik birliklarni o‘rganish jarayonida ularning semantik komponentlarini ham tahlil qilish lozim bo‘ladi. N.N. Amosova frazeologik birliklarga yangicha yondashuv taklif qiladi. Unga ko‘ra, frazeologik birlikning ma‘nosi faqatgina komponentlarning ma‘nosidan kelib chiqmaydi; balki ular orasidagi semantik bog‘lanish, nutqdagi funksional birikish va umumiy kontekst asosida shakllanadi. So‘zlar frazeologizm tarkibiga kirganda, ular o‘zlarining alohida grammatik va leksik xususiyatlarini to‘liq yo‘qotmaydi, balki birlik tarkibida qayta talqin qilinadi . Ushbu tadqiqotlar g‘oyalarini quyidagi batafsil izohlaymiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada nazariy tahlil metodi yordamida kognitiv lingvistik va frazeologiya sohasidagi mavjud adabiyotlar o‘rganildi. Xususan, A.V. Kunin, N.N. Amosova va boshqa olimlarning frazeologik birliklarning semantik tuzilishi va ularning nutqdagi funksiyasi haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Bu metod frazeologik birliklarning nazariy asoslarini aniqlash va ularning semantik komponentlarini o‘rganish imkonini berdi. Shuningdek, kognitiv tahlil metodi qo‘llanilib, frazeologik birliklarning ma‘no tuzilishi, yadro va dinamik komponentlari, konseptualizatsiya jarayoni o‘rganildi. Tadqiqot davomida frazeologik birliklarning mental reprezentatsiya, ma‘no shakllanishi va xotiraga integratsiya bosqichlari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqotda qo‘llangan metodlar interdisiplinar yondashuvni ta‘minladi. Shu tarzda maqola frazeologik birliklarni o‘rganishda zamonaviy kognitiv-diskursiv paradigмага mos keladigan metodologik asos yaratdi.

**Tahlil va natijalar.** Frazeologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarni an‘anaviy yo‘nalishlardan farqlaydigan asosiy jihat shundaki, idiomalarning kommunikativ vazifasini, ya‘ni ular orqali uzatiladigan turfa axborotlarni o‘rganishga qiziqish ortib borayotgani sababli tadqiqning markazi tizim markazidan antropomarkazga siljidi. Ilmiy paradigmalarda almashinuvi frazeologizm ta‘rifiga bo‘lgan qarashning ham o‘zgarishiga sabab bo‘ldi [1; 22]. “An‘anaviy” frazeologiya frazeologik birliklarni faqat til tizimi birliklari sifatida ko‘rgan bo‘lsa, kognitiv yondashuvda frazeologizmlar nutqda tayyor holda qo‘llanadigan “matn ichidagi mikro-matn” sifatida izohlanadi. Ularning

nominativ asosi mazmuni situativ xarakterga ega bo‘lib, konseptuallashtirish jarayonida matnda vaziyatni ifodalashga xos bo‘lgan barcha turdagi axborotlar ixcham holatda frazeologizm tarkibiga tortiladi[2; 8].

Barqaror birikmalar o‘zida mavjud bo‘lgan xususiyatlari sababli muayyan darajada madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisani aks ettirar ekan, tilning dunyo manzarasi bilan, ya’ni ma’lum etnik madaniyat doirasida shakllangan dunyo haqidagi tasavvurlar majmuasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu muammolarni o‘rganish antroposentrik tilshunoslik paradigmasi doirasiga kiradi[3; 17].

Inson – tilning va til vositasida yaratilgan dunyo manzarasining markaziy figurasi hisoblanadi. Til birliklarini o‘rganish orqali lingvistlar insonning dunyoni qanday talqin qilishi va idrok etishidagi xususiyatlar haqida ma’lumot oladilar; bu talqin esa insonning faoliyati va ongining turli ko‘rinishlariga muvofiq shakllanadi. Tilda aks etuvchi murakkab bilimlar tizimi – kognitiv tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti bo‘lib, unga tilda ifodalangan bilimlar, shu jumladan, real olam haqidagi tasavvurlar, qayta ishlash, tasniflash, saqlash, eslash, tasvirlash hamda bilimlar bilan ishlash mexanizmlari kiradi[3; 17].

Aynan til tadqiqotchiga ko‘plab bevosita kuzatib bo‘lmaydigan tafakkur jarayonlari, kategoriyalash va konseptuallashtirish jarayonlariga kirish imkonini beradi[4; 10-13]. Hozirgi zamon tilshunosligida, kognitiv-diskursiv paradigma doirasida rivojlanib borayotgan istiqbolda, til strukturalarining ong strukturalari bilan qanday bog‘liq ekani markaziy o‘rinda turadi. Bu bog‘liqlikning nazariy jihatdan izohlanishi til va mental madaniyat, til va insonning bilish faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qonuniyatlarini ochib berishni talab qiladi[5; 14].

Barqaror birikmalar til birligi sifatida inson tajribasi, dunyoni idrok etishi va tasavvuri bilan bog‘langan bo‘lib, ular tilda alohida o‘rin tutadi. Chunki ular insonning ruhiy kechinmalari, hayotiy kuzatuvlari va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Shu bois bunday birliklar oddiy ma’no tashuvchi vosita bo‘libgina qolmay, balki insonning ichki olamini aks ettiradi.

Kognitiv yondashuvning rivojlanishi frazeologiyaning zamonaviy muammolariga yangi nuqtayi nazar bilan qarash imkonini bermoqda. Frazeologik birliklarning semantik tuzilmasida yadro – mazmunning eng barqaror qismi hamda “o‘zgaruvchan qismi” – morfemik, leksik va boshqa turli darajalarda o‘zgarishga uchrashi mumkin bo‘lgan nisbatan dinamik komponentni ajratish mumkin[6; 25].

Frazeologik birliklarning ma’no hosil bo‘lishining kognitiv bosqichi – bu shunday bilimlarni konseptualizatsiya qilish jarayoniki, unda mavjud konseptual tuzilmaning mazmuniy to‘ldirilishi yoki periferiya bo‘yicha tuzatishlar emas, balki mutlaqo yangi konseptual strukturaning tug‘ilishi ro‘y beradi.

Bu jarayon bir necha bosqichlardan iborat:

1. Fragmentning mental reprezentatsiyasi fazasi, ya’ni bilvosita hosila nomlashga ehtiyoj tug‘diradigan voqelik bo‘lagining aqliy aks ettirilishi; buning natijasida, til birligining nomlash qobiliyatiga ega bo‘lgan konseptual shakllanishi faollashadi va o‘xshash vaziyatlarni nomlaydi.

2. Faol konseptning o‘zgarmagan ko‘rinishdan voz kechish fazasi. Bunda, ushbu konseptni avvalgi shaklda va oldingi verbalizatsiya shaklida qo‘llash kommunikativ niyatga mos kelmagani uchun nutq egasi holatni ifodalash uchun boshqa shakl izlay boshlaydi. Shu bois frazeologik birlikning derivatsion bazasiga tegishli konseptual struktura faollashadi.

3. Frazeologik birlikning ma’no kognitiv bazasining shakllanish fazasi, u konseptual tizimning barcha faollashtirilgan bo‘linmalari o‘zaro ta’siri jarayonida vujudga keladi.

So‘nggi faza – bu genetik diskurs fragmentini qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga ko‘chirishning murakkab ko‘p bosqichli jarayoni; bilvosita referensiyaning shakllanishi, oldindan mavjud kontekstlar bilan bog‘lanish (belgi-mazmunning assimetrik dualizmining rivojlanishi) va hokazo[6; 26].

Inson ongida atrof-muhit haqidagi barcha bilimlar juda katta miqdordagi konseptlar ko‘rinishida saqlanadi. Ko‘pchilik olimlar konseptni ifodalashning asosiy vositasi sifatida frazeologizmlarni tan oladi. Masalan, N.F.Alefirenko shunday deydi: “Konseptning tilda eng ko‘p obyektivlash vositalari sifatida so‘z, frazeologizm, so‘z birikmasi, gapning strukturaviy sxemasi va hatto agar unda ma’lum bir konseptning mohiyati ochib berilgan bo‘lsa matn ham xizmat qilishi mumkin. Zamonaviy kognitiv lingvistika tadqiqotlarida konseptlarni verbalizatsiya qilish vositalari sifatida eng ko‘p so‘z va frazeologizmlar ko‘rib chiqiladi. Sintaktik konseptlar esa birinchi bor G.Y.Voloxina va Z.D.Popova tomonidan batafsil o‘rganilgan”[7; 62].

**Xulosa.** Xulosa sifatida aytish mumkinki, kognitiv yondashuv an’anaviy frazeologiyadan farqli ravishda, frazeologizmlarning nutqdagi funksiyasi, situatsiyaviy mazmuni va semantik bog‘lanishlarini o‘rganishga imkon beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklar mazmunini shakllantirish jarayoni bir nechta kognitiv bosqichlardan iborat bo‘lib, unda mental reprezentatsiya, konseptualizatsiya va ma’no kognitiv bazasining shakllanishi asosiy o‘rin tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гусельникова О. В. Динамика фреймовой структуры фразеологизмов с семантикой количества в обыденном сознании носителей русского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Барнаул, 2007. -257 с.

2. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Шк. «Языки рус. культуры», 1996. -288 с.
3. Иванченко Н.В. Репрезентация идей конфуцианства в устойчивых единицах китайского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2017. – 177 с.
4. Голованова Е.И. Введение в когнитивное терминоведение: учеб.пособие / - М.: Флинта: Наука, 2014. – 224 с.
5. Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – М.: Наука, 2004. – 294 с.
6. Петкелите К.Р. Когнитивные основы формирования значения устойчивых сочетаний с компонентном-цветообозначением: Дисс. ...канд. филол. наук. – Калининград, 2011. - 213 с.
7. Алефиренко Н.Ф. Методологические основания исследования проблемы вербализации концепта//Вестник ВГУ. Серия Гуманитарные науки. 2004. № 2. – С. 60-66.

## BADIY MATNDA REALIYALAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

**Tursinbayeva Shaxloxon,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Badiiy matnlar tarkibida til va madaniyatni birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini o‘taydigan tilshunoslik termini bu – realiyalardir. Realialar, asosan, ma’lum bir madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa tillarga tarjima qilishda qiyinchiliklarga sabab bo‘ladigan narsa-predmetlar, obyektlar, hodisalar yoki ijtimoiy jarayonlarning umumiy nomidir. Shuning uchun ham realialar lingvomadaniyatshunoslikning asosiy birliklaridan biri sifatida bugungi kungacha chuqur tadqiq qilingan, lekin realialarning tarixiy ko‘rinishlari, ulardan kelib chiqqan bir necha xil zamonaviy realialar, istorizm shakliga o‘tgan realialar mavjudki, ular hali o‘zbek tilshunosligida to‘laligicha o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda XIV asr temuriylar davri tarixi qalamga olingan asarlardan biri bo‘lgan “Ulug‘ saltanat” romanida faol qo‘llanilgan realialar tadqiqot obyekti sifatida o‘rganildi hamda tarixiy va zamonaviy realialarning madaniy ahamiyati, bugungi kundagi ma’no va shakl rivojini yoritib berish asosiy maqsad qilib belgilandi.

**Аннотация.** Лингвистическим термином, служащим связующим звеном между языком и культурой в литературных текстах, является реалия. Реалия – это общее название вещей, предметов, явлений или социальных процессов, характерных для той или иной культуры и вызывающих трудности при переводе на другие языки. Именно поэтому реалии до сих пор глубоко изучаются как одна из основных единиц лингвистики и культурологии, однако исторические проявления реалий, ряд современных реалий, производных от них, и реалии, перешедшие в форму историзмов, до сих пор не получили полного изучения в узбекской лингвистике. Поэтому в данной научно-исследовательской работе в качестве объекта исследования были изучены реалии, активно используемые в романе «Великий Салтанат» – одном из произведений, повествующих об истории эпохи Тимуридов XIV века. Главной целью было пролить свет на культурное значение исторических и современных реалий, развитие их смысла и формы в наши дни.

**Abstract.** The linguistic term that serves as a bridge between language and culture in literary texts is realia. Realia is a general name for things, objects, phenomena or social processes that are characteristic of a particular culture and cause difficulties in translating into other languages. That is why realia has been studied in depth as one of the main units of linguistic and cultural studies to this day, but the historical manifestations of realia, several modern realias derived from them, and realias that have passed into the form of historicism have not yet been fully studied in Uzbek linguistics. Therefore, in this scientific research work, realias actively used in the novel “The Great Empire”, one of the works that chronicles the history of the Timurid era of the 14th century, were studied as an object of research, and the main goal was to shed light on the cultural significance of historical and modern realias, the development of their meaning and form today.

**Kalit so‘zlar.** Realia, geografik, entografik siyosat va jamiyat realiyalari, realialarning sematik ma’no qirralari.

**Ключевые слова.** Реальность, географические, этнографические политико-социальные реалии, семантические аспекты реалий.

**Keywords.** Reality, geographical, ethnographic and political and social realities, semantic aspects of realities.

**KIRISH.** Tillar orasidagi farqlar madaniyatlar orasidagi farqlarga asoslanadi. Mazkur tavofutlar tilning leksik va frazeologik qatlamida ko‘zga tashlanadi, binobarin, tilning nominativ birliklari aksariyat hollarda nolisoniy omillar bilan bog‘lanadi. Bu nolisoniy omillar o‘zida madaniyatni aks ettirgani uchun ham, ma‘lum bir madaniyatgagina xos bo‘lgan, shuningdek, boshqa madaniyatlarda va ularning tilida mavjud bo‘lmagan predmetlar va semalar tilshunoslikda *muqobilsiz leksika* termini bilan yutiriladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** “Muqobilsiz leksika” termini ilmiy muomalaga tadqiqotchilar Ye. M.Vereshchagin va V.G. Kostomarovlar tomonidan kiritilgan. Ular mazkur terminni quyidagicha izohlashgan: “*Muqobilsiz leksika boshqa madaniyat va tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar, ya’ni faqat muayyan madaniyatgagina xos bo‘lgan madaniyat unsurlari, shuningdek, boshqa tilda tarjimasi bo‘lmagan, bir so‘z bilan aytganda, o‘zi taalluqli bo‘lgan tildan tashqarida muqobili bo‘lmagan so‘zlardir*” [7,83].

L.S.Barxudarovning yozishicha: “*Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobilga ega bo‘lmastir*” [3,84]. Shuningdek, ular 3 guruhga bo‘linadi: 1. Atoqli otlar; 2. Realiyalar; 3. Tasodifiy lakunalar.

Realiya – *lot. haqiqiy narsalar* degan ma‘nolarni berib, abstrakt va yoki mavhum predmetlardan farqli o‘laroq mavjud narsalarga nisbatan keng qo‘llaniladi. Realiyalar, shuningdek, faqatgina ma‘lum bir xalq orasida mavjud bo‘lgan predmetlarga nisbatan qo‘llaniladigan atama bo‘lib, boshqa xalqlar hayotiy faoliyatida uchramaydigan, uchrasa ham ma‘lum farqlarga ega bo‘lgan buyumlardir. L.Barxudarov ta‘biri bilan aytganda: “*Realiyalar – boshqa tilda so‘zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar va vaziyatalarni ifodalovchi so‘zlardir. Moddiy va madaniy hayotdagi: milliy taomlar nomlari, milliy libos nomlari va h.k*” [6,94].

S. Vlixov va S. Florinlar esa unga quyidagicha ta‘rif berishgan: “*Realiyalar – muayyan bir xalqning hayoti, turmushi, urf-odatlarini, madaniyati, ijtimoiy taraqqiyotiga oid narsa, predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari bo‘lib, ular milliy va davriy xususiyatga egadirlar*” [4,3]. Shu bilan birga realiyalar har doim tarixiylik va milliylikni bir vaqtning o‘zida aks ettira oladi.

Realiyalar borasida lingvokulturologik aspektda ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Xususan, rus tilshunosligida birinchilardan bo‘lib G.D. Tomaxin onomastik xususiyatga ega bo‘lgan realiyalarni ajratib olgan: *toponimlar* – milliy va tarixiy assotsiatsiya uyg‘otuvchi geografik nomlar; *antroponimlar* – tarixiy shaxslar, jamoat arboblari, olimlar, yozuvchilar, san‘atkorlar, badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodidagi mashhur qahramonlarning nomlari; adabiyot va san‘at asarlarining nomlari, jamiyat va davlat hayotidagi tarixiy faktlar va hayotiy voqealar, davlat tashkilotlari va muassasalar

nomlari. Bundan tashqari, appelyativ lug‘at bilan ifodalangan realiyalarni alohida ikki guruhga tasniflaydi: tabiiy geografik muhit, o‘simlik (flora) va hayvonot (fauna) dunyosi xususiyatlarini bildiruvchi atamalar hamda ba‘zilari davlat tuzilishi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti, huquqshunoslik, harbiy ishlar, san‘at, ta‘lim tizimi, kundalik turmush, urf-odatlar va boshqalarga oid so‘zlar (jumladan, mashhur atamalar)ni kiritadi [10,6].

Guvohi bo‘lganimizdek, turli tillar va turli madaniyatlarda realiyalar anglatgan ma‘nolar bir-biridan tubdan farq qiladi yoki nisbatan o‘xshash bo‘lib keladi. Lekin aynan takrorlanishi kuzatilmaydi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** V.S. Vinogradov ham realiyalar bo‘yicha izlanishlar olib borgan, shuni alohida ta‘kidlash kerakki, V.S. Vinogradovning tasnifi boshqa olimlar va tadqiqotchilar tasnifiga nisbatan ancha to‘liq hamda mukammaldir [8,172].

1. Kundalik narsa va hodisalarni tavsiflovchi realiya so‘zlari;
2. So‘zlar – etnografiya va mifologiyani aks ettiruvchi reallik;
3. Tabiat hodisalarini aks ettiruvchi haqiqat so‘zlari;
4. Davlat tuzilishi, boshqaruv apparati va jamiyat hayotini tavsiflovchi real so‘zlar;
5. Til va madaniyat o‘rtasidagi assotsiativ aloqalarni aks ettiruvchi real so‘zlar.

Biz esa yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda realiyalarni quyidagicha guruhlarga ajratdik:

1. Kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan realiyalar:
  - a. Kiyim-kechak realiyalari
  - b. Oziq-ovqat realiyalari
  - c. Musiqa hamda musiqiy asbob nomlari realiyalari
2. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar:
  - a. Milliy bayram va tadbir nomlari realiyalari
  - b. Davlat lavozim va unvon realiyalari, tashkilot realiyalari
  - c. Jamiyatning etnik guruhlari va ularning vakillari nomlari
3. Geografik realiyalar:
  - a. Flora va fauna realiyalari
  - b. Muayyan joylarga xos landshaftlar.

**1. Kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan realiyalar.** “Ulug‘ saltanat” asarida mavjud realiyalardan misollar tanlab olinib mazkur ishda tahlil qildik.

Kiyim-kechak realiyalari: *Amir Husayn Temurbek bilan savash qurib, mag‘lublik jandasini egnigiga ilibdi, taxtdan quvilibdi.* Ushbu jumlada “mag‘lublik jandasi” ibora

tarkibida qo‘llanilgan realiyadir, semantik jihatdan – yutqazish semasini metaforik usulda ifodalash uchun ishlatilgan. *Janda* – (*fors. ko ‘hna, eski*) ustki kiyim bo‘lib, mato bo‘laklaridan quroq usulida uzun va keng qilib tikilgan. Asosan, qalandar va shayxlar kiygan, ikkinchi nomi – xirqa.

Oziq-ovqat realiyalari: *Biroz ko ‘kraging ko ‘tarilib qoldi-da, endi madad istab kelsam, og ‘zingga talqon solib olganday lom-mim demaysen. “Talqon”* – ovqat turi bo‘lib, qo‘qonjo‘xori, makkajo‘xori, bug‘doy, oqishoq, qotgan non va meva qoqilaridan tayyorlanadigan milliy taom. Ushbu taomning o‘ziga xos jihati shundaki, tarkibida bir necha xil foydali masalliqlardan tayyorlangan taomning bir qoshig‘i insonni kun bo‘yi to‘q tutish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham ro‘zadorlar saharlik qilishganda talqondan 1 qoshiq iste‘mol qilishgan va kun davomida o‘zlarini tetik his qilishgan.

Milliy cholg‘u asbob realiyalari: *Ichkaridan qattiq qahqaha ovozlari eshitildi. “Men nima deyman-u qo ‘bizim ne deydir, – o ‘zicha navkarlaridan o ‘pka qildi amir. Olamni suv olsa, bularga nima! To ‘pig ‘iga chiqarmidi! Tushundik!..” “Qo ‘biz”* – torli-tirnama cholg‘u asbobi. O‘rta asr (Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Darveshali Changiy va boshqalar) manbalarida qo‘biz turkiy xalqlarning eng sevimli cholg‘u asbobi sifatida ta‘riflangan.

**2. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar ham uch turga bo‘lib tahlil qilindi.** Milliy bayram va tadbir nomlari realiyalari.

*Amir Husayn isirg‘alari tanidi, chunki singlisiga to ‘yining ertasi kuni o ‘zi ko ‘rmana sifatida hadya qilgandi, ammo ochko ‘zlik va hirs kuchliligidan qaytarib berishga ko ‘zi qiymadi. “Ko ‘rmana”* – kelin yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqqa birinchi marta ko‘rishda yaqin kishilar, qarindosh-urug‘lar tomonidan beriladigan sovg‘a.

*Amirlar-u bahodirlar suronini eshitishgach, ular ham na ‘ra chekib maydonga ot qo ‘ydilar. Ko ‘pkari boshlanib ketdi.* O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy, ommaviy, milliy o‘yinlaridan biri. Asosan, g‘alaba va hosil bayramlari, to‘y va sayillar munosabati bilan o‘tkazilgan. Sababi shundaki, turkiy xalqlarning asosiy qismi chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan shug‘ullanganlar. Bu kabi bayramlar o‘tkazilganda chorva mollari ular uchun qimmatbaho sovg‘a hisoblangan. Bilamizki, ushbu jonvorlardan iste‘mol uchun sut, go‘sht mahsulotlari olinadi, shu bilan birga ularning terisidan va yungidan issiq kiyimlar, sanoat mahsulotlarini olish mumkin bo‘lgan.

Davlat lavozim va unvon realiyalari: *Bu orada boshqa amirlar-u, bahodirlar ham qutlug‘ davraga yaqinlasha boshladilar. Suyurg‘atmish-o ‘g‘lon, Amir Joku-barlos, Amir Dovud-dug‘lat, Amir Muayyad-arlot, Amir Soribug‘a-jaloyir, Amir Oqbug‘a-nayman, Davlatshoh baxshi uyg‘ur, Abbas-bahodir, Elchi-bahodir va Husayn barloslar Temurbekni qutlashga keldilar.* Chingizxon avlodidan bo‘lmagan boshqa turkiy xalqlarning aslzoda va zodagonxonadonlari, vakillariga “*Amir*” unvoni bilan xitob etishgan.

Agar *Alufa-tavochining yumushi Sohibqiron maktubini Xorazm voliysiga topshirishdan iborat bo'lsa, o'nboshining vazifasi boshqacharoq, ochiqrog'i, Jahongir Mirzoning dardlariga malham topish.*

Tavochi (mo'g'ulcha — hisobchi) 13-19-asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Eronda hukmdorning farmon va topshiriqlarini tegishli joylarga zudlik bilan yetkazuvchi oliy harbiy mansabdor. Tavochi zimmasiga harbiy yurish rejalashtirilganda saltanat tuman va viloyatlardan, tobe yurtlardan hukmdor farmonida belgilangan miqdorda oziq-ovqat, ot-ulov, yem-xashak, qurol-aslaha va qo'shin jam qilish, lashkargohga yig'ilgan lashkarni ko'rikka tayyorlash, yurish chog'ida, dam olish va ov qilish uchun qo'shinni qulay manzillarga joylashtirish singari vazifalar yuklatilgan [5].

O'nboshi — harbiy unvon, 10 kishidan iborat eng kichik harbiy bo'linma boshlig'i. Turkiy xalqlar tuzgan eng qadimiy davlatlar (mas, Xunlar va Turk xoqonligi)da ilk marta joriy qilingan.

*Hozirgidek Temurbekning esida, besh yil avval ular Amir Husayn bilan birga darvishlar orasida amal-taqal kun kechirib yurgan chingiziy shoirta'b Qobulshohni darveshlik jandasidan chiqarib, xonlik martabasiga mindirdilar, ushbu ash'or bandasining she'rlari el orasida mashhur edi. “Darvesh” – faqir kishi, kambag'al degan semalarga ega hamda dunyo ne'matlaridan voz kechib haqni, haqiqatni izlab yo'lga otlangan shaxslarga nisbatan darvesh leksemasi qo'llangan [5].*


Jamiyatning etnik guruhlari va ularning vakillari: *Ustiga-ustak, Amir Muayyad-arlot sharobxo'rlik vaqtida qizishib bir amirning o'g'lini urib o'ldirib qo'yib, qochib ketgan ekan. Shu sababdan uning harami, ya'ni Temurbekning singlisi Shirin-bikani Balxga eltsunlar, deb kishi yo'llabdi. “Haram” – yoki ikkinchi nomi saroy. Musulmon ayollari yashaydigan uyning yopiq va qo'riqlanadigan qismi. Haramga faqat haram sohibi hamda uning yaqin qarindoshlarigina tashrif buyurishlari mumkin bo'lgan [5].*

**3. Geografik realiyalarga flora** – o'simliklar dunyosi, fauna – hayvonlar va muayyan joylarga xos lanshaftlar realiyalarini kiritishimiz mumkin.


**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki, realiyalar tarixiylik va milliylikni o'zida birlashtirgan holda ma'lum bir xalqning madaniy boyliklarini ko'rsatuvchi va izohlovchi termindir. Ushbu tadqiqot ishimizda ham XIV asrda, ya'ni Temuriylar davrida qo'llangan realiyalar bugungi kunda ham keng qamrovda tilda foydalanilishining, shu bilan birga bu kabi realiyalar barqaror birliklar tarkibida saqlanib qolganligining guvohi bo'lamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammad Ali. (2019). Ulug‘ saltanat. Birinchi kitob (Jahongir Mirzo). – T.: “Davr press” NMU. – B. 446.
2. Qutbiddinova N. (2023). Realiya tushunchasi va uning tilshunoslikda o‘rganilishi. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences journal*. (E)ISSN:2181-1784 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz) SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(3). – B.6.
3. Usmonova Sh. (2019). *Lingvokulturologiya (darslik)*. Toshkent. – B. 84.
4. Vlahov, Sergei and Florin, Sider. (1980). *Neperevodimoe v perevode*, Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniia. – S.8.
5. Vikipediya <https://share.google/JIN4NY56g6DcCUWPM>
6. Бархударов Л.С. (1975). Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. - М.: Международные отношения. – С. 94.
7. Верцагин Е.М., Костомаров В.Г. (1980). Лингвострановедческая теория слова. - М.: Русский язык. - С. 53.
8. Виноградов, В.С. (1978). Лексические вопросы перевода художественной прозы // В.С. Виноградов. – М.: Издательство Московского университета. – 172 с.
9. Томахин Г.Д. (1997). Реалии в языке и культуре. М.: Иностр. язык в школе. № 3.



**MUALLIF MATNLARINI XRONOLOGIK VA  
LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA  
KORPUS YONDASHUVINING  
ILMIY ASOSLARI: (NUSRATULLA  
JUMAXO‘JA IJODI MISOLIDA)**



**Akramova Shohista,**  
*Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi*  
*ToshDO‘TAU doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada o‘zbek adabiyotshunosligining yirik vakili Nusratulla Jumaxo‘ja matnlari korpus lingvistikasi asosida xronologik va lingvostatistik tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — muallif leksikasidagi semantik va uslubiy o‘zgarishlarni besh tarixiy davr kesimida aniqlash hamda til siyosatining leksik tizimga ta’sirini ko‘rsatishdir. 1970–2023 yillarga oid ilmiy, badiiy-tanqidiy va publitsistik matnlarning tokenizatsiya, lemmalashtirish, chastota tahlili, TTR, hapax legomenalar va kollokatsion ko‘rsatkichlar asosidagi tahlili sovet davriga xos rasmiy birliklar ulushining kamayishi, mustaqillikdan keyin esa ta’limiy va ma’naviy-estetik leksikaning kuchayganini ko‘rsatdi. Natijalar Jumaxo‘ja idiolektining evolyutsion xarakterini va korpus metodlarining o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ilmiy salohiyatini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** korpus lingvistikasi, lingvostatistika, diaxron tahlil, leksik dinamika, Jumaxo‘ja idioleksi, chastota profili, kollokatsiya.

**Аннотация.** В статье проводится корпусный, хронологический и лингвостатистический анализ научных и публицистических текстов Нусратулло Джумахаджи. Цель исследования — определить семантические и стилистические изменения авторской лексики в пяти исторических периодах и выявить влияние языковой политики на её формирование. Анализ корпуса 1970–2023 гг. с применением токенизации, лемматизации, частотных показателей, TTR, hapax legomena и коллокационных метрик показывает сокращение советской официальной терминологии и рост образовательной и духовно-философской лексики в постсоветский период. Работа демонстрирует эволюционный характер идиостиля автора и высокую эффективность корпусных методов в литературоведении.

**Ключевые слова:** корпусная лингвистика, лингвостатистика, диахрония, лексическая динамика, идиостиль, частотный анализ, коллокации.

**Abstract.** This article provides a corpus-based chronological and linguostatistical analysis of Nusratulla Jumakhodja’s scholarly and publicistic writings. The study aims to identify semantic and stylistic shifts in his lexicon across five historical periods and to assess the impact of language policy on lexical development. Analysis of texts from 1970–2023 using tokenization, lemmatization, frequency profiling, TTR, hapax legomena, and collocational metrics shows a decline in Soviet administrative terminology and an expansion of educational and spiritual-philosophical vocabulary in the post-independence period. The findings confirm the evolutionary nature of Jumakhodja’s idiolect and the methodological value of corpus approaches for Uzbek literary studies.

**Keywords:** corpus linguistics, linguostatistics, diachrony, lexical change, idiolect, frequency analysis, collocations.

## **KIRISH**

Muallif matnlarini lingvistik, xususan, leksik darajada tadqiq etish hozirgi adabiyotshunoslik va matn lingvistikasining eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan

biridir. Badiiy-uslubiy tizimning shakllanishi, muallifning individual dunyoqarashi, davr ruhiyati va ijtimoiy-madaniy omillar til strukturasi orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois muallif leksikasidagi o‘zgarishlar va barqarorlikni aniqlash, ularning vaqt bo‘yicha dinamikasini modellashtirish ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuqori ilmiy qiymatga ega. An’anaviy stilistik yondashuvlar ko‘proq intuitiv talqin va sifatga asoslangan bo‘lsa, korpus lingvistikasining paydo bo‘lishi muallif tilini miqdoriy, obyektiv va tekshiriladigan metodlar yordamida chuqur tahlil qilish imkonini yaratdi. O‘zbek adabiyotshunosligi so‘nggi yillarda korpus metodlariga murojaatni boshlab, individual uslub, til siyosati, leksik evolyutsiya va davrlararo lingvistik o‘zgarishlarni tadqiq etishda yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda. Biroq bu yo‘nalish hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, yirik adabiyotshunos olimlarning ilmiy merosi korpus asosida tizimli o‘rganilmagan. Shunday tadqiqotchilardan biri — filologiya fanlari doktori, professor Nusratulla Jumaxo‘ja [1:119] bo‘lib, uning 50 yildan ortiq ilmiy va publitsistik faoliyati o‘zbek adabiyotshunosligining turli bosqichlarida yuzaga kelgan ilmiy-uslubiy tendensiyalarni aks ettiradi. N.Jumaxo‘janing ilmiy-adabiy merosi tematik jihatdan nihoyatda rang-barang bo‘lsa-da, uning leksik qatlamida davrlar bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. Xususan, 1989-yilda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishi o‘zbek ilmiy-uslubiy tilining shakllanishida burilish nuqtasi bo‘lib, ushbu davrgacha matnlarda ruscha-boshqaruv leksikasining ustuvorligi seziladi. Mustaqillikdan keyingi yillarda esa til siyosati, milliy ong va ma‘naviy-ma‘rifiy sohadagi o‘zgarishlar natijasida leksik tizim yangilangan, o‘zbekcha terminlarning ulushi oshgan, muallif uslubida semantik markazlar qayta shakllangan. Bunday jarayonlarni faqat intuitiv talqin asosida emas, balki korpus lingvistikasining lingvostatistik ko‘rsatkichlari — chastota profili, TTR (type-token ratio), hapax legomenalar ulushi, kollokatsion struktura, semantik klasterlar, diaxron taqsimot kabi indikatorlar yordamida aniq modellashtirish mumkin. Bu metodlar nafaqat muallif uslubining evolyutsiyasini aniqlash, balki tilning davriy o‘zgarish mexanizmini ham ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi.[2:231]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Nusratulla Jumaxo‘ja kabi yirik olimning ilmiy merosi o‘zbek adabiy tafakkurining turli bosqichlarini, Sovet davridan tortib mustaqillik va zamonaviy davrgacha bo‘lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning til vositasida aks etishini o‘zida mujassam etadi. Uning 1970–2023 yillarga oid keng ko‘lamli ilmiy asarlari xronologik segmentatsiya asosida o‘rganilganda, nafaqat individual uslubning transformatsiyasi, balki o‘zbek ilmiy tilining umumiy evolyutsiyasi ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi — Nusratulla Jumaxo‘ja matnlaridagi leksik birliklarning xronologik o‘zgarishlarini korpus metodlari orqali aniqlash, davrlar bo‘yicha leksik tendensiyalarni modellashtirish va muallifning stilistik o‘ziga xosligini lingvostatistik

ko'rsatkichlar asosida tavsiflashdir. Tadqiqotning yangiligi shundaki, Jumaxo'ja ijodi ilk bor korpus lingvistikasining to'laqonli metodologiyasi asosida, ya'ni statistik ko'rsatkichlar, kollokatsion struktura va semantik klasterlash orqali chuqur tizimli tahlil qilinmoqda.

### **TADDIQOT METODLARI**

Tadqiqot metodologiyasi korpus lingvistikasining miqdoriy-statistik yondashuvlari va diskursiy tahlil prinsiplari uyg'unligida shakllantirildi. Jumaxo'janing 1970–2023 yillar oralig'ida yaratilgan ilmiy, adabiy-tanqidiy, ma'rifiy hamda publitsistik matnlari yagona elektron korpusga jamlandi va diaxron rivojlanishni aniqlash imkonini beruvchi besh bosqichli tarixiy model asosida segmentatsiya qilindi. Bu yondashuv muallif tilidagi o'zgarish jarayonlarini izchil kuzatish, leksik transformatsiyaning ichki mexanizmlarini aniqlash hamda til siyosati bilan bog'liq tashqi omillarning ta'sirini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Korpusni shakllantirish jarayonida barcha matnlar elektronlashtirilib, orfografik farqlanishlar normallashtirildi, sarlavha, izoh va bibliografik qismlar ajratib tashlandi. Raqamlashtirish bosqichida OCR texnologiyalaridan foydalanildi, matnlar UTF-8 standarti asosida kodlandi va lingvistik shovqinlar tizimli ravishda filtrlandi. Matnlar mazmunij-janr xususiyatlariga ko'ra teglanib, ularning korpus ichidagi funksional o'rni aniq belgilandi.

Keyingi bosqichda matnlar tokenizatsiya va lemmalashtirishdan o'tkazildi, so'zlarning morfologik xususiyatlari aniqlanib, agglutinativ tuzilmaga xos grammatik birliklar normalizatsiya qilindi. Ayniqsa, fe'l shakllarining zamon-shaxs ko'rsatkichlari, ega-kelishik affikslari, shuningdek, sovet davriga oid boshqaruv terminlarining fonetik-grafik variantlari bir xil standartga keltirildi. Bu jarayon keyingi statistik hisob-kitoblarning aniqligini ta'minladi.

Leksik tizimning umumiy strukturasi baholash maqsadida chastota tahlillari, TTR ko'rsatkichi, hapax legomenalar ulushi va davrlar bo'yicha leksik profil tahlil qilindi. Ushbu ko'rsatkichlar muallif uslubidagi boyish, torayish yoki semantik siljishlarni aniq qayd etish imkonini berdi. Ayniqsa, terminologik qatlamning o'zgarishi, ruscha o'zlashmalarning kamayishi va ma'naviy-estetik birliklarning ko'payishi lingvostatistik indekslarda yaqqol aks etdi.

Diaxron o'zgarishlarni modellashtirishda leksik birliklarning vaqt bo'yicha tarqalish darajasi (lexical dispersion) asosiy indikator sifatida qo'llanildi. Bu metod muallif tilidagi semantik markazlarning qaysi davrda kuchaygani yoki aksincha, zaiflashganini ko'rsatib berdi. Korpusdagi asosiy konseptual birliklarning mazmunij bog'lanishlarini aniqlash uchun MI, t-score va log-likelihood mezonlari ishlatildi; natijada talant, ma'naviyat, xalq, maktab, davlat, falsafa kabi so'zlarning barqaror kollokatsion maydonlari statistik jihatdan tiklandi.

Semantik klasterlash yordamida har bir davrga xos tushunchaviy tizimlar aniqlanib, ularning ichki tuzilmasi o'rganildi. Ma'naviyat–ma'rifat, adabiyot–tarix, ta'lim–til, davlat–jamiyat kabi markaziy klasterlar muallif dunyoqarashi va ijodiy paradigmasining vaqt davomida qanday qayta shakllanganini ko'rsatdi. Shuningdek, Jumaxo'ja matnlari o'zbek ilmiy uslubining umumiy korpusi bilan qiyoslab tahlil qilindi va bu yondashuv muallifga xos individual uslubiy ko'rsatkichlarni aniqlashga, standart ilmiy diskursdan farqlanuvchi leksik-morfologik xususiyatlarni yoritishga yordam berdi.

Stilometrik indikatorlar — funksional so'zlar ulushi, gap uzunligi, sintaktik konstruksiyalarning takrorlanish chastotasi, morfologik markerlarning barqarorligi — muallif idiolektining ichki strukturaviy xususiyatlarini aniqlashda qo'llandi. Bu mezonlar Jumaxo'janing ijodiy evolyutsiyasini nafaqat leksik, balki sintaktik darajada ham modellashtirish imkonini berdi.

Ushbu metodik yondashuvlarning integratsiyasi natijasida Jumaxo'ja leksikasining evolyutsiyasi, stilistik barqarorlik va o'zgaruvchanlik zonalari, terminologik transformatsiya jarayoni hamda konseptual maydonlarning shakllanish mexanizmi ilmiy asosda rekonstruksiya qilindi.

aniq statistik asosda modellashtirildi.

Tadqiqot doirasida 1970–2023 yillarni qamrab olgan muallif korpusining lingvostatistik modellashtirilishi Nusratulla Jumaxo'ja leksikasining evolyutsiyasi izchil va bosqichma-bosqich kechgan jarayon ekanini ko'rsatdi. Korpusdagi jami birliklar bo'yicha aniqlangan chastota profillari, leksik dispersiya ko'rsatkichlari, kollokatsion bog'lanishlar hamda semantik klasterlash natijalari muallif tilidagi o'zgarishlarning ikki asosiy omil ta'sirida shakllanganini tasdiqlaydi: (1) davrning til siyosati, (2) muallifning ilmiy-estetik pozitsiyasining takomillashuvi.

### **Tadqiqot natijalari**

Korpus tahlili Nusratulla Jumaxo'ja matnlarining ellik yillik davr mobaynida uchraydigan leksik qatlamlarining keskin differentsiallashtirilganini va ularning diskursiv vazifasi tubdan o'zgarganini yaqqol ko'rsatdi. Avvalo, sovet davri matnlarida ustun bo'lgan boshqaruv–institutsional leksika muallif tilidagi semantik markazlardan birini tashkil etgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng bu qatlam keskin regressiyaga uchradi. Studentlar, aspirant, fan kandidatlar, kadrlar siyosati, sirtqi forma, qabul plani, protsentlashtirish, konkurs yo'li, oblast, KPSS, aktual problema kabi birliklarning chastotasi 1970–1988 yillarda yuqori bo'lib, umumiy leksik fondning qariyb o'ndan bir qismini tashkil etgan. Til siyosati o'zgarishlari boshlangan 1989–1991 yillarda bu qatlamning ulushi kamayishni boshladi, mustaqillikning ilk yillaridan boshlab esa mazkur terminlar stilistik-passiv zonaga ko'chdi. 2010-yillarga kelib ularning faol qo'llanilishi deyarli yo'qolgan bo'lib, ayrim birliklar (xususan, KPSS) butunlay iste'mol

doirasidan chiqqani kuzatildi. Oblast shaklining viloyat bilan, fan kandidatlarini terminining PhD tizimi bilan almashuvi, aktual problema o‘rnida dolzarb masala birikmasining normativlashuvi bu tendensiyaning tabiiy til o‘zgarishi sifatida mustahkamlanganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, estetik–badiiy konseptlarni ifodalovchi leksika muallif uslubida tobora markaziy o‘rin egallab bordi. Klassik adabiyot, hayotiy kartina, ma’no otenkasi, talant sohibi kabi birliklarning chastotasi 1980-yillar oxiridan boshlab muntazam oshib, mustaqillikning dastlabki davridayoq sezilarli semantik kuchayish namoyon qildi. 2000-yillarda bu qatlam muallif uslubining asosiy tayanch maydoniga aylandi, 2010–2023 yillarda esa yuqori dispersiya qiymatlari bilan korpus bo‘ylab barqaror taqsimlangan konseptual yadroga aylandi. Semantik klasterlash natijalari mazkur birliklarning yagona “estetik–interpretativ klaster”ga birlashganini, Jumaxo‘ja ilmiy-badiiy tafakkurining aynan shu yadro atrofida shakllanganini tasdiqlaydi.

Ta’lim va ilmiy muhitga oid birliklar ham diaxron rivojlanishda muhim transformatsiyalarni boshdan kechirdi. Sovet davri matnlarida ta’lim strukturasi, yosh olimlar soveti, aspirant, doklad kabi birliklar reja, ko‘rsatma, baho normalari, protsentlashtirish kabi institutsional terminlar bilan bog‘langan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng bu birliklarning kollokatsion muhiti keskin o‘zgardi. Endilikda ular ilmiy anjuman, talqin, ma’naviyat, innovatsion yondashuv kabi zamonaviy ilmiy konseptlar bilan barqaror kombinatsiyada qo‘llanila boshladi. Bu holat ta’lim tizimining boshqaruvga yo‘naltirilgan modeldan ilmiy–pedagogik rivojlanishga yo‘naltirilgan modelga o‘tganini til birliklari darajasida aks ettiradi.

Korpusdagi ruscha–byurokratik elementlarning asta-sekin normallashtirilgan o‘zbekcha shakllar bilan almashishi ham muhim lingvistik hodisalardan biridir. Oblast/viloyat, aktiv/faol, aktual problema/dolzarb masala, studentlar/talabalar kabi juftliklar til siyosati ta’sirida amalga oshgan normativ o‘zgarishning asosiy ko‘rinishlarini tashkil etadi. Bu almashuvlar semantik jihatdan ham, uslubiy jihatdan ham milliy ilmiy diskursga yaqinlashuvning muhim ko‘rsatkichidir.

Stilometrik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi muallif idiolektining murakkablashganini yanada aniqroq tasvirlaydi. TTR indeksining sovet davridagi nisbatan past ko‘rsatkichlardan (0.41–0.45) mustaqillik davrida keskin oshishi (0.52–0.57), zamonaviy davrda esa 0.60 dan yuqori qiymatlarga ko‘tarilishi Jumaxo‘ja tilining leksik boyishi, mavzu doirasining kengayishi va uslubiy rang-baranglik kuchayganini anglatadi. Hapax legomenalar ulushining oshishi — xususan, mustaqillik davrida 5.2 foizdan 8.9 foizga ko‘tarilishi — muallifning innovatsion leksika yaratish faoliyati kuchayganidan darak beradi.

Umuman olganda, tadqiqot muallif leksikasida ikki qutbli evolyutsiya mavjudligini ko‘rsatdi: sovet davriga xos ma’muriy–normativ diskursdan bosqichma-

bosqich estetik–ilmiy diskursga o‘tish. Bu transformatsiya nafaqat leksik birliklar tanlanishida, balki ularning semantik maydonlari, kollokatsion bog‘lanishlari va stilometrik parametrlarida ham izchil aks etgan. Korpus asosida qayd etilgan bu o‘zgarishlar Jumaxo‘ja tilining tarixiy sharoitlar o‘zgarishiga sezgirligini, uning ilmiy-badiiy tafakkuri esa mustaqillik davri bilan uyg‘un holda yangi konseptual makonga ko‘chganini ko‘rsatadi.

### **XULOSA**

O‘tkazilgan korpus-lingvistik tadqiqotlar Nusratulla Jumaxo‘ja matnlarining ellik yildan ortiq davrdagi leksik va uslubiy evolyutsiyasini ilmiy asosda qayta konstruktsiya qilish imkonini berdi. Lingvostatistik ko‘rsatkichlar, diaxron segmentatsiya, kollokatsion tahlil va semantik klasterlash natijalari muallifning tilidan nafaqat individual ijodiy jarayonlar, balki o‘zbek ilmiy-uslubiy tilining umumiy tarixiy rivojlanish bosqichlari ham aks etishini ko‘rsatdi. Tadqiqot Jumaxo‘ja tilining ikki yirik paradigmasini aniq namoyon etdi: sovet davriga mansub boshqaruv–institutsional diskurs va mustaqillikdan keyingi estetik–ilmiy diskurs.

Sovet davriga oid *protsentlashtirish, qabul plani, sirtqi forma, studentlar, oblast, KPSS, aktual problema* kabi terminlar yuqori funksional yukga ega bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillik davriga o‘tilishi bilan ularning semantik ahamiyati susayib, o‘rnini *klassik adabiyot, hayotiy kartina, ma’no ottenkasi, talant sohibi, ta’lim strukturasi, yosh olimlar soveti* kabi milliy-estetik va ilmiy-metodik birliklar egalladi. Bu esa muallif uslubi bilan til siyosati o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Korpus tahlili shuni ko‘rsatdiki, Jumaxo‘ja leksikasi vaqt o‘tishi bilan sintaktik zichlik, semantik boylik va leksik xilma-xillik jihatidan sezilarli darajada murakkablashgan. TTR va hapax legomenalar ulushining o‘sishi muallifning ijodiy til qurilishida mustaqillikdan keyin yangicha konseptual maydonlar yaratganini ko‘rsatadi. Kollokatsion tahlil esa estetik, ma’rifiy va ilmiy semantik yadrolarning barqarorlashuvini aniqladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muallifning idioleksion evolyutsiyasi ikki asosiy yo‘nalishda kechgan: bir tomondan, tarixiy davrning ijtimoiy-siyosiy diskursidan ozod bo‘lish; ikkinchi tomondan, o‘zbek adabiyotshunosligining estetik-nazariy paradigmalarni mustahkamlovchi yangi ilmiy-uslubiy modelni shakllantirish.[3:98] Bu jarayon Jumaxo‘ja ijodining nafaqat davr tilini aks ettiruvchi hodisa, balki o‘zbek adabiy tafakkurining taraqqiyot bosqichlarini belgilovchi muhim manba ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, korpus yondashuvi orqali olingan natijalar muallif matnlarini diaxron va sinxron ko‘rinishda o‘rganishning konseptual afzalliklarini yaqqol namoyon qildi. Ushbu tadqiqot o‘zbek adabiyotshunosligida muallif uslubini modellashtirish,

leksik evolyutsiyani aniqlash va ilmiy matnlar dinamikasini statistik asosda baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois mazkur ish natijalari kelgusida:


- adabiyotshunoslik korpuslarini shakllantirish,
- o‘zbek ilmiy tilining tarixiy qatlamlarini o‘rganish,
- stilometrik tahlil asosida mualliflik identifikatsiyasini takomillashtirish,
- terminologik almashuv jarayonlarini modellashtirish uchun mustahkam metodik zamin yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**


1. Abdullayeva O. 2021. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.

2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. 2008. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.

3. Abjalova M., G‘ulomova N. 2022. “Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari”. Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Shukrat Sirojiddinov muharrirligida, 89–93. Toshkent: ToshDO‘TAU nashriyoti, <http://compling.navoiy-uni.uz>.



**ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ  
МНОГОЧЛЕННЫХ СЛОЖНОПОДЧИНЁННЫХ  
ПРЕДЛОЖЕНИЙ  
В РОМАНЕ «ВОЙНА И МИР» Л.Н.ТОЛСТОГО**



**Сахатова К.Ш.,**  
*магистрант Навоийского государственного  
университета*

**Аннотация:** В статье рассматривается использование многочленных сложноподчинённых предложений в романе Льва Толстого \*«Война и мир»\*, с акцентом на их синтаксические характеристики и функциональные особенности. Анализируется роль этих конструкций в раскрытии психологического состояния персонажей, а также в создании многослойной структуры текста, отражающей сложность и многоаспектность восприятия мира.

**Ключевые понятия:** сложноподчинённое предложение, синтаксис, психологизм в литературе, стиль Л.Толстого, поток сознания.

**Annotatsiya:** Annotatsiya: Maqolada Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi ko‘pyoqli murakkab jumjalarning qo‘llanilishi, ularning sintaktik xususiyatlari va funksional xususiyatlariga urg‘u berilgan. Bu konstruksiyalarning personajlarning psixologik holatini ochib berish, dunyoqarash idrokining murakkabligi va serqirraligini aks ettiruvchi ko‘p qatlamli matn strukturasi yaratishdagi roli tahlil qilinadi.

**Tayanch tushunchalar:** murakkab gap, sintaksis, adabiyotdagi psixologizm, Lev Tolstoy uslubi, ong oqimi.

## **Введение**

В романе Л. Н. Толстого «Война и мир» многокомпонентные сложноподчинённые предложения (МССП) занимают одно из центральных мест в организации синтаксического строя текста. Писатель использует их как выразительное средство для создания объёмной картины мира, передачи движения событий и внутренней динамики человеческого сознания. Подобные конструкции позволяют автору показать множественность точек зрения, столкновение различных чувств, идей и мировоззрений, а также внутреннюю раздвоенность и психологическую глубину персонажей.

Многочленные сложноподчинённые предложения в художественной системе Толстого — это не просто грамматическая форма, а особый способ художественного мышления. В них проявляется стремление писателя к целостному изображению мира, где каждый элемент связан с другим и где одновременно сосуществуют разные планы реальности — внутренний и внешний, личный и исторический. Толстой нередко соединяет в одном предложении

несколько предикативных частей, связанных различными типами союзов, что придаёт фразе смысловую и интонационную насыщенность [2, 98].

Роман Льва Толстого «Война и мир» является одним из величайших произведений мировой литературы, отличающимся сложной структурой и глубоким философским содержанием. Одной из характерных особенностей произведения является использование многочисленных сложноподчинённых предложений, которые Толстой применяет для более точного и многогранного раскрытия внутренних переживаний героев. Эти синтаксические конструкции играют ключевую роль в передаче эмоциональных состояний, мыслей и раздумий персонажей, а также в создании определённой атмосферы текста [1,76]. Цель данной работы — проанализировать использование сложноподчинённых предложений в «Войне и мире», рассмотреть их синтаксические особенности и роль в общей структуре произведения.

Важную роль в передаче внутренних переживаний героев играют сложноподчинённые предложения, позволяющие Толстому точно и многозначно передавать эмоции, мысли, сомнения и философские размышления своих персонажей.

Сложноподчинённые предложения, в частности многочисленные конструкции, позволяют углубить восприятие текстов, придавая им психологическую насыщенность. Эти предложения часто используются для выражения сложных мыслей персонажей, их раздумий, переживаний и внутренней борьбы. Кроме того, такие конструкции служат для создания многослойного смысла, где каждое слово и каждое предложение связаны с контекстом, расширяя восприятие произведения.

Цель настоящего исследования — провести синтаксический анализ многочисленных сложноподчинённых предложений в «Войне и мире» и выяснить их роль в раскрытии внутреннего мира персонажей, а также в создании философской и психологической глубины произведения. Для этого будет использован комплекс методов: синтаксический анализ, контекстуальный анализ, а также исследование литературной стилистики Толстого, что позволит выявить, как сложноподчинённые предложения влияют на восприятие текста и понимание героев.

#### **Методология исследования.**

Исследование опирается на комплексный подход, включающий синтаксический, контекстуальный и стилистический анализы.

Синтаксический анализ заключается в изучении структур сложноподчинённых предложений в тексте и выявлении их ключевых

характеристик. Это позволяет проследить, как Толстой использует различные типы подчинённых предложений для создания специфической структуры текста.

Контекстуальный анализ помогает понять, как именно сложноподчинённые конструкции влияют на восприятие сюжета и глубину раскрытия персонажей. В этом контексте важно учитывать, как герои размышляют о своих чувствах, событиях и мирах, что тесно связано с их внутренним состоянием.

Литературно-стилистический анализ фокусируется на языке Толстого и его уникальном подходе к созданию текста, включающем использование сложных синтаксических форм для усиления философского и психологического эффекта.

Кроме того, для более глубокого понимания роли синтаксиса в произведении будет проведено сравнительное исследование с использованием других крупных произведений русской литературы того времени, таких как работы Ф.М. Достоевского и И.А. Гончарова.

Особое внимание уделено проблеме разграничения структурно-семантических типов многочленных сложных предложений, что напрямую связано с вопросом о синтаксическом статусе данных конструкций. Сопоставление выявленных семантических разновидностей позволило определить наиболее частотные типы СМП в романе Л. Н. Толстого «Война и мир» и установить цели их использования в художественном тексте.

Результаты исследования и обсуждение.

Многочленные сложноподчинённые предложения в «Войне и мире» выполняют несколько важных функций:

1. Передача психологической глубины: Толстой использует сложноподчинённые предложения для изображения состояния неопределённости, раздумий и внутренней борьбы персонажей. Например, в размышлениях Пьера Безухова о смысле жизни часто встречаются предложения, состоящие из нескольких частей, что подчёркивает его сомнения и сложность его мышления. Эти конструкции помогают читателю ощутить внутренний конфликт героя, его поиски и попытки разобраться в себе. Пример: «Он думал, что, может быть, и сам бы мог быть счастлив, если бы он не был так далеко от того, что он хотел бы иметь, и если бы всё, о чём он думал, не было бы таким сложным и противоречивым». Такие предложения создают эффект внутренней неустойчивости, добавляя к повествованию психологическую сложность. Во-вторых, сложноподчинённые предложения позволяют Толстому выстраивать цепочку размышлений, привнося элементы философского осмысления. Это особенно заметно в рассуждениях о войне, где каждое предложение развивает предыдущее, создавая многослойное восприятие событий. Подобные конструкции также помогают выделить акценты, усиливая смысл и драматизм. В-третьих,

сложные синтаксические структуры участвуют в формировании ритма текста. Перемежающиеся короткие и длинные предложения создают контраст, который усиливает эмоциональное восприятие сцены.

2. Создание многозначности: В «Войне и мире» сложноподчинённые предложения часто используются для того, чтобы подчеркнуть сложность событий и философскую нагрузку текста. Они способствуют тому, чтобы одно предложение могло передавать несколько значений одновременно. Это характерно для эпизодов, когда герои размышляют о судьбе, о смысле жизни и о своём месте в мире.

3. Формирование философской глубины: Одной из особенностей произведения является то, как Толстой через сложноподчинённые предложения встраивает философские размышления, не только героев, но и автора. Например, в многочисленных рассуждениях о войне и мире Толстой использует эти конструкции для того, чтобы затронуть тему исторической судьбы и свободы воли [3, 90].

4. Роль в ритмическом строении текста: Толстой использует многочленные сложноподчинённые предложения для создания сложной ритмической структуры текста, где чередование длинных и коротких предложений способствует созданию эффекта напряжённости и вовлекает читателя в события. [4, 102]

### **Заключение**

Использование многочленных сложноподчинённых предложений в «Войне и мире» является важным инструментом для создания многослойности текста и глубины внутреннего мира персонажей. Эти синтаксические конструкции играют ключевую роль в передаче мыслей, переживаний и философских размышлений героев. В отличие от простых предложений, сложноподчинённые позволяют Толстому создавать текст, который многозначен и многогранен, где каждый элемент имеет свой смысл и значение в контексте общего замысла.

Сложноподчинённые предложения способствуют созданию особой атмосферы произведения, в которой исторические события и личные переживания переплетаются, а судьбы героев раскрываются через сложные и многозначные размышления. Это позволяет читателю не только понять внутренний мир персонажей, но и проникнуть в философскую глубину самого произведения.

В заключение следует отметить, что использование многочленных сложноподчинённых предложений в романе Льва Толстого «Война и мир» играет важную роль в раскрытии психологического состояния персонажей и создании многозначных смысловых слоёв. Это средство позволяет автору не только глубже передать переживания героев, но и выстроить целую философскую картину мира,

где каждый момент наполнен оттенками значений. Синтаксические конструкции, используемые Толстым, обогатили текст и сделали его не только литературным шедевром, но и примером мастерства психологического анализа через язык.

### **Список литературы:**

1. Толстой, Л. Н. (2001). «Война и мир». Москва: Издательство "Русский путь".
2. Стернин, И. В. (2010). «Синтаксис русского языка: Теория и практика». Москва: Наука.
3. Котельникова, Т. В. (2005). «Психологизм в произведениях Льва Толстого». Санкт-Петербург: Алетейя.
4. Неволлина, И. В. (2012). Стиль Л.Н. Толстого в "Войне и мире". Москва: Издательство РГГУ.



## HURMAT IFODALOVCHI MORFOLOGIK VOSITALARNING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI QIYOSI



**Qodirova Marg‘uba**

*O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
“O‘zbek va jahon filologiyasi” kafedrası o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakllanishi, qo‘llanishi va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda har ikki tildagi hurmat ifodasining grammatik (ayniqsa, affiksial) vositalar orqali ifodalanish usullari o‘rganilib, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** hurmat ifodasi, morfologik vositalar, qo‘shimchalar, affikslar, tilshunoslik, o‘zbek tili, ingliz tili, xushmuomalalik, daraja bildiruvchi shakllar,

**Аннотация:** В статье проводится сопоставительный анализ формирования, употребления и семантических свойств морфологических средств выражения уважения в узбекском и английском языках. Изучаются способы выражения уважения грамматическими (особенно аффиксальными) средствами в обоих языках, показываются их сходства и различия.

**Ключевые слова:** выражения уважения, морфологические средства, суффиксы, аффиксы, языкознание, узбекский язык, английский язык, вежливость, формы степени,

**Abstract:** This article provides a comparative analysis of the formation, use, and semantic properties of morphological means of expressing respect in Uzbek and English. It studies the ways in which respect is expressed through grammatical (especially affixal) means in both languages, and shows their similarities and differences.

**Keywords:** expressions of respect, morphological means, suffixes, affixes, linguistics, Uzbek language, English language, politeness, forms of rank.

**KIRISH.** Uslubshunoslikda morfologiya doirasidagi grammatik ko‘rsatkichlarda uslubiy imkoniyatlar chegaralangan, degan fikr mavjud. Bu mulohazani hatto V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiydek taniqli tilshunoslar ham e’tirof etishgan. M.N.Kojina bu haqida quyidagilarni yozgan: “Morfologik vositalar leksik va so‘z yasovchi vositalardan farq qilib, ularga nisbatan kam darajada emotsional-ekspressiv, ammo u yoki bu shaklni og‘zaki-so‘zlashuv yoki ilmiy va rasmiy uslubga xos yozma-kitobiy doiralarda bo‘lgan an’analar bilan bog‘liq holda ko‘proq funksional bo‘yoq beradi”<sup>54</sup>.

**Adabiyotlar tahlili.** Hurmat ifodalovchi vositalar, ayniqsa, morfologik darajadagi shakllar, tilshunoslikda muhim pragmatik va ijtimoiy funksiyani bajaradi. O‘zbek tilshunosligida bu boradagi dastlabki izlanishlar N. Mahmudov, Sh. Rahmatullayev, G’. Zokirov kabi olimlarning asarlarida ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zbek tilidagi hurmat

<sup>54</sup>Кўнғуров Р. “Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари”. –Тошкент.: Фан, 1980 й. 12-13-бетлари.

bildiruvchi affikslar (masalan, -siz, -ingiz, -lari) ning grammatik vazifasi bilan birga, ularning sotsiolingvistik ahamiyatini ham ta'kidlaydilar.

Ingliz tilida esa hurmat ifodalari ko'proq leksik va sintaktik vositalar orqali namoyon bo'lishi tufayli, ushbu soha bo'yicha G. Leech, R. Lakoff, P. Brown va S. Levinson kabi tilshunoslar tomonidan olib borilgan pragmatik tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Brown va Levinsonning "Politeness Theory" (Xushmuomalalik nazariyasi) ingliz tilidagi hurmat ifodalarining ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini ochib beradi. Qiyosiy tadqiqotlar jihatidan esa, o'zbek va ingliz tillarini qiyoslagan ishlar nisbatan kam uchraydi. Mavjud tadqiqotlar ko'proq umumiy morfologik tizimga yoki fonetik, sintaktik darajalarga qaratilgan. Masalan, A. Jo'raevning qiyosiy grammatika sohasidagi ishlari grammatik strukturalarni solishtirsada, hurmat ifodasi kabi pragmatik jihatlar yetarlicha yoritilmagan. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda (masalan, D. Karimov, M. Siddiqova) hurmat ifodasining milliy madaniyat bilan bog'liqligi va tilga xos xususiyatlari qayd etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakl, mazmun va funksional jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash uchun **qiyosiy-tipologik** yondashuv asos qilib olindi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalovchi morfologik vositalarning shakli, qo'llanilishi va vazifalari qiyosiy tahlil qilindi. Quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

#### **1.Morfologik tizimdagi farqlar:**

O'zbek tilida hurmat ifodasi ko'proq **morfologik qo'shimchalar** orqali amalga oshiriladi. Masalan:

-fe'llarga qo'shiladigan hurmat shakllari: *boring, keling, ayting,*

-egalik qo'shimchalari orqali: *kitobingiz, ismingiz, qarorlari.*

Ingliz tilida esa morfologik shakllar cheklangan bo'lib, hurmat ifodasi asosan **leksik-sintaktik vositalar**, ya'ni muomala shakllari (*sir, madam, please*), yordamchi fe'llar (*would you, could you*) va sarlavhalar orqali amalga oshiriladi.

#### **2.Hurmat ifodasining grammatik vositalar bilan ifodalanish darajasi:**

O'zbek tilida hurmat grammatik jihatdan chuqur shakllangan va har bir grammatik qatlamda (fe'l, ot, olmosh) o'z aksini topadi. Ingliz tilida esa bu jihat sintaktik va pragmatik darajada ko'proq namoyon bo'ladi.

#### **3.Shaxs va ijtimoiy maqomni ifodalash**

O'zbek tilida 2-shaxsdagi so'zlovchilar uchun maxsus hurmat shakllari mavjud (*siz, sizlar, ular*), bu esa ijtimoiy maqom, yosh va rasmiylik darajasini aks ettiradi. Ingliz tilida esa "you" zamonaviy tilda universal bo'lib, shaxsiy maqom farqlari ko'proq intonatsiya va kontekst orqali beriladi.

#### **4.Til va madaniyat munosabati:**

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hurmat ifodalari har ikki tilda ham milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek tilidagi murakkab hurmat shakllari — jamiyatdagi hierarxiyani, oilaviy va ijtimoiy aloqalardagi muomala madaniyatini aks ettiradi. Ingliz tilida esa rasmiylik va xushmuomalalik odob-uslub doirasida ifodalanadi.

### 5. Umumiylik va tafovutlar:

-Har ikki til hurmat ifodalarini muhim kommunikativ vosita sifatida ishlatadi.

-O‘zbek tilida bu ko‘proq **grammatik**, ingliz tilida esa **pragmatik** vositalar orqali ifodalanadi.

-Har ikki tilda ham ijtimoiy vaziyatga moslashish (adaptatsiya) asosida hurmat darajasi belgilanadi.

Morfologik shaklni tadqiq qilgan B.Mengliyev umumiy grammatik ma’noning asosini kategorial ma’no, umumiy grammatik ma’no tarkibiga kirib, mohiyatga mansub bo‘lmagan, ammo u bilan dialektik yaxlitlik hosil qilgan ma’noni yondosh ma’no, umumiy grammatik ma’no tarkibiga kirmaydigan, shakl mohiyatiga mansub bo‘lmagan ma’noni hamroh ma’no sifatida belgiladi va umumlisoniy ma’noni ochish yo‘lini aniqladi. Son miqdor ifodalashga ixtisoslashgan morfologik hodisadir. Ushbu miqdor ma’nosi “noaniq”, “aniq”, “sifat”, “bo‘linuvchan”, “bo‘linmas” kabi unsurlar bilan dialektik yaxlitlikda yuzaga chiqadi. Chunonchi, deyluk “-lar” shakli miqdoriy ko‘plik ifodalar ekan, u bilan bir paytning o‘zida “bo‘linuvchi–bo‘linmaslik”, “noaniq” kabi belgini– yondosh ma’noni voqelantirib yuboradi.

Boshqacha aytganda, miqdor belgisi hech qachon sifat belgisiz yuzaga chiqmaydi. “-lar” shakli nutqda “hurmat” ma’nosini ifodalaydi.

Masalan: *Ustozimning kitoblari. Buvimning hassalari.*

Ammo bu hamroh ma’nodir, ya’ni boshqa kategorial ma’noga mansub ma’noning qorishib tajallilanishidir. Shuning uchun umumlisoniy ma’noni ochayotganda lisoniy birlik uchun zotiy bo‘lgan xususiyatning “yopishib” tajallilanishi, voqelanishini izchillik bilan kuzatish lozim bo‘ladi. Bu bir umumlisoniy ma’noga omonimik munosabatda bo‘lgan boshqa bir umumlisoniy ma’no mavjudligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga ham imkon beradi.

Morfologik qayta bo‘linish jarayoni o‘zbek tilining hozirgi holatida ham kuzatiladi. Bunda ko‘p morfemali so‘z tarkibidagi affikslarning ma’no – vazifa jihatidan qayta taqsimlanishi jarayonlari yuz beradi. Sh.Rahmatullaevning ko‘rsatishicha, hozirgi o‘zbek adabiy tili tizimida yangi hurmat shaklining paydo bo‘lishi va hurmat kategoriyasi tegishli vositalari qatoriga qo‘shilishi ayni morfologik qayta bo‘linish tufayli yuz bergan. Olim bu jarayonni quyidagicha tasvirlaydi: Adabiyotlarda “-lar” ko‘p ma’noli bitta qo‘shimcha sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv tarixiy-etimologik nuqtayi nazardangina to‘g‘ri. Hozirgi til grammatik sistemasidan kelib chiqsak, yagona “-lar” affiksiniki deb keltiriladigan ba’zi ma’nolar

ham mazmunan, ham vazifada mustaqillik kashf etganini ko‘ramiz. Ana shunday ma‘nolardan biri – hurmat ma‘nosi. Misollarni tahlil qilish ko‘rsatadiki, hurmat ma‘nosini ifodalovchi “-lar” alohida affiks deb, son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil shakl deb qaralishi lozim.

Zamonaviy ingliz tilida esa, ikkinchi shaxsda ko‘plik (“you” –sen yoki siz bitta so‘z orqali) bilan neytral tarzda ifodalanadi, o‘zbek tilida esa *you (siz)* so‘zining ko‘plik shakli begonalar tomonidan qo‘llaniladigan hurmat belgisidir va ota-onaga va boshqa keksa oila a‘zolariga murojaat qilish usuli deb qaraladi: *you are right, dad -siz haqsiz dada*. Ikkinchi shaxs birlikda (*san*) bolalarga yoki yaqin do‘stlarga murojaat qilishda ishlatiladi va boshqa holatlarda qo‘llanilsa qo‘pollik belgisi hisoblanadi. Rus tilida qoidalar o‘xshash, ammo yanada qulayroq va bolalar odatda do‘stlari va ota-onalariga *Ты* (birlik) deb murojaat qilishadi, *Вы* (ko‘plik) esa begonalar va yoshi kattalar uchun qo‘llaniladi. Ingliz va o‘zbek tillarida kishilar suhbatlashyotganda xalaqit berish yoki suhbatni buzish qo‘pollik hisoblanadi.

Ingliz tilida asosan insonlarning kasbi, unvoniga qarab familiyalari orqali murojaat qilishadi: *Dr. Jones, Professor Saunders*; maktablarda esa ko‘pincha o‘qituvchilarning ismi bilan: *Miss Ann, Mr Smith, Mrs Smith* kabi ta‘kidlab o‘tildi.

Lekin ba‘zi til maktablarida, universitetlarda o‘qituvchilar o‘zlarining familiyalari bilan murojaat qilinishlarini afzal ko‘rishadi. Umuman har qanday tashkilot rahbariga ingliz tilida *boss* deb murojaat qilinadi. Ammo ko‘pgina so‘zlashuvchilarga bunday muomala qilish biroz g‘alatidek tuyuladi. Qulaylikni his qilish uchun ular uchun ham birinchi ismni qo‘llashadi. Bundan ham yaxshi usuli tanishgan inson taklif qilgan ism bilan murojaat qilishdir. Chunki ingliz madaniyatida qanday murojaat qilinishi tanishuvning avvalida aytib o‘tishadi va agar so‘ralgan nom bilan murojaat bo‘lmasa bu albatta qo‘pollik hisoblanadi. Masalan, dunyo bo‘yicha mashhur IELTS imtihonida gapirish (speaking) qismida ham qanday murojaat qilinishi salomlashgandan so‘ng so‘raladi. Ingliz tilidan farqli o‘laroq, boshqa masalan xitoy, yapon, rus tillarida hurmatni ifodalash uchun olmoshlar yoki o‘ziga xos yo‘llardan foydalanib o‘zidan yoshi ulug‘larga, oila a‘zolariga murojaat qilishadi. Lekin ingliz tilida bunday olmoshlarni uchratilmaydi.

Ingliz tilida esa bunday holatda quyidagi iboralardan foydalaniladi: *Excuse me, I’m sorry to interrupt. Would you mind helping me...? Yoki, Excuse me, would you mind if I get past?* Balki, bu oddiy ko‘rinishi mumkin, lekin ingliz tilida *please, thank you* so‘zlari ham juda ham muhim hisoblanadi. Juda ham mayda va oddiy narsalarni bajarishni so‘ralganda ham mazkur so‘zlardan foydalanish kerak: *could you please pass me the salt?, thank you* yoki oddiygina *please pass the salt* va keyin *thank you* deyish kifoya qiladi.

Qolaversa, hurmatni faqat soʻzlar bilan emas harakatlar bilan ham koʻrsatiladi. *Be on time. Be punctual* kabi soʻzlarni harakat orqali ifodalash kerakli joga vaqtda yetib borishdir. Oʻzbeklarda kech qolish harakatiga juda ham ahamiyat berilmasa ham inglizlarda bunga jiddiy diqqat qaratilib, chuqur hurmatsizlik hisoblashadi. Har qanday xodim yoki ishchi kech qolishi mumkin, lekin bu haqida xabar joʻnatib oldindan ogohlantirishi zarur. Yana bir hurmat namunasi bu tinglash (listening) odobi boʻlib, soʻzlovchi gapiryotganda tinglovchining telefonda suhbatlashishi, yoki boshqa narsa bilan band boʻlishi qoʻpollikdir. Suhbatda navbat kelishini sabr bilan kutish hurmatning belgisi hisoblanadi.

Shuningdek, biror bir joyda navbatda turilganda, yoshi katta odamlarga oʻz navbatini berish ingliz va oʻzbek madaniyatida hurmat belgisi sanalsa, gʻarb madaniyatida hurmatsizlikdir. Agar kimdir siz bilan gaplashsa va siz uning koʻziga qaramasangiz, ular sizni nimanidir yashirmoqchi yoki sirli nimadir bor deb oʻylashlari mumkin. Aksariyat inglizlar qoʻl berib koʻrishadi. Agar biror millat vakilining dini yoki ijtimoiy qoidalarini qoʻl berib soʻrashishni inkor etsa va shuning uchun oʻzini noqulay his qilsa, hardoin qoʻllarni birlashtirib, boshni oldinga egib salomlashish mumkin. Ushbu harakat yordamida ular inglizlar xushmuomalalik bilan qoʻl silkitishni xohlamasligingizni aytishingiz mumkin boʻladi. Ulardan baʼzilari qoʻl siqishni istamasangiz, juda hayron boʻlishadi, ammo bu yaxshi boʻlib, Oʻzini noqulay his qiladigan narsalarni qilishga xojat boʻlmaydi. Barcha musulmon mamlakatlarida ayol va erkak qoʻl berib soʻrashish mumkin boʻlmagan holatlardan hisoblanadi, yevropada esa ayol bilan erkak qoʻl berib koʻrish odatiy holdir. Yurtimizda yosh kelinchaklar hurmat-ehtiroمنى eng yaxshi namunalarini koʻrsatmoqda. Demak, har qanday mamlakatlarda hurmat ifodalanishining verbal (ogʻzaki) va non-verbal (ogʻzaki boʻlmagan) shakllari mavjud boʻlib, ular insonlarning madaniyatiga bogʻliq holda ifodalanadi. Ular bir biriga oʻxshashi va farq qilishi mumkin. Hurmat insonlarni tinch, osuda yashashi uchun ham oʻz hissasini qoʻshadi<sup>55</sup>.

Ingliz tilida hurmatni ifodalovchi funksional-semantik maydon turli grammatik, pragmatik va paralingvistik vositalar uygʻunligidan iborat. Ushbu maydonning asosiy maqsadi suhbatdosh bilan munosabatni uygʻun va hurmatga asoslangan tarzda olib borishdir. Bularning barchasi nafaqat til qoidalariga, balki madaniy va kontekstual talablar hamda sharoitlarga mos ravishda amalga oshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Oʻzbek va inglizlarda soʻzlashuv xulqi, muomala madaniyati bilan ajralib turadi. Yuqorida koʻrib chiqqan asar tahlillaridan koʻrinib

<sup>55</sup> Oskouhi F, Movahed Mohammadi H, Rezvanfar A. The role of non-verbal communication on educational performance of faculty members of Agricultural Sciences and Natural Resources University in Sari. A paper presented in agricultural sciences and natural resources conference; 2013; Sari. Sari: Mazandaran; 2013. Persian. [Google Scholar

turibdiki, o‘zbek xalqi ham kattalarga hurmat va kichiklarga izzatga juda katta ahamiyat berishadi. Ingliz xalq madaniyatida hurmat etiket qoidalari sifatida amalga oshiriladi. Hurmat ifodalovchilar qonun-qoida sifatida qo‘llaniladi. Bu fikrni lo‘nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda nutqimiz uchun juda ham zarur bo‘lgan vositalardan biri hisoblanadi. Binobarin, xalqning ko‘p asrlik ijtimoiy tajribasida ming martalab tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar har kun, har soat nutqimizga mazmuniy go‘zallik, o‘ziga xos jilo baxsh etadi. Umuman olganda, o‘zbek va ingliz tillaridagi hurmat ifodalovchilar orqali insonlar orasidagi ijtimoiy masofani va hurmatni uzoq vaqtlar davomida saqlanib qolishiga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдулла Қодирий. “Ўткан кунлар”. – Тошкент.: Шарқ. 2014 й.
2. Ҳасанова Д.”Ёшга кўра хосланган лексик бирликларнинг изоҳда берилиши”. – Тошкент.: “Involta” илмий журнали. № 4. 2022 й. <https://involta.uz/>.
3. Қўнғуров Р. “Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари”. – Тошкент.: Фан, 1980 й. 12-13-б.
4. Зикриллаев Ғ. “Истиклол ва адабий тил”. – Тошкент.: Фан, 2004 87 Б.
5. Содиқова Ш.Б. “Ўзбек тилида ҳурмат категорияси” – Тошкент.: Фан, 2010 й 18 Б.
6. Замонавий ўзбек тили. Морфология. – Тошкент.:2008 й.
7. Содиқова Ш.Б. “Ўзбек тилида ҳурмат категорияси” – Тошкент.: Фан, 2010

## SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA METAFORALARNING O‘RNI

**Jumaniyazova Surayyo**

*NavDU O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hikoyalarida metaforaning o‘rni, o‘zbek nasrida obrazlilik va badiiy vositalardan mohirona foydalanganligi misollar orqali ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar.** Lingvomadaniy birlik, metafora, emotsional-ekspressiv xususiyatlar, milliy ruh, mentalitet, badiiy-funksional xususiyatlar, ijtimoiy-madaniy belgilar, ruhiy-ma’naviy tasvirlar.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается роль метафоры в рассказах народного писателя Узбекистана Шукур Холмирзаева, внесшего огромный вклад в развитие узбекской литературы XX века. На примерах показывается, как писатель мастерски использует образность и художественные средства в узбекской прозе.

**Ключевые слова.** лингвокультурные единицы, метафора, эмоционально-экспрессивные особенности, национальный дух, менталитет, художественно-функциональные особенности, социально-культурные маркеры, духовно-нравственные образы.

**Annotation.** This article explores the role of metaphor in the short stories of Shukur Xolmirzayev, the People’s Writer of Uzbekistan who made a significant contribution to the development of twentieth-century Uzbek literature. Through various examples, the study demonstrates how the author skillfully employs imagery and artistic devices in Uzbek prose.

**Keywords:** short story, linguocultural units, metaphor, emotional-expressive features, national spirit, mentality, artistic-functional characteristics, socio-cultural markers, spiritual and moral imagery.

**Kirish.** Shukur Xolmirzayev ijodi o‘zbek hikoyachiligida milliy tafakkur, xalqona obrazlilik va madaniy qatlamlarni badiiy ifodalashda alohida o‘rin tutadi. Uning hikoyalarida metafora nafaqat tasviriy vosita, balki lingvomadaniy birlik sifatida ham funksional ahamiyatga ega.

**METAFORA** [yun. metaphora – ko‘chirish] Bir obyekt nomini ikkinchi obyektga o‘xshatish asosida ko‘chirish; konseptuallashtirish turlaridan biri. Metaforalar tilda so‘z, birikma, gap va matn shaklida voqelanadi.<sup>56</sup>

Metafora adib badiiy tafakkurining ichki yadrosini tashkil etadi. U milliy dunyoqarash kodlarini (tabiat, mehnat, ijtimoiy munosabatlar), xalqona qarashlar va qadriyatlarni, ijtimoiy-ma’naviy holatni ramziy shaklda aks ettiradi. Metafora orqali yozuvchi xalq hayoti, turmush falsafasi, qadriyatlari, ruhiyatini lingvistik obrazlarda mujassamlashtiradi. Masalan: *Qiziq, o‘qlog‘liq miltig‘im qo‘limda, o‘rtoqlarim*

<sup>56</sup> Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent-2024. –B 56.

*o‘zimdanda ko‘p bo‘lsa besh metr narida. Nimadana qo‘rqaman, deb o‘zimga tasalli bersam ham, baribir bo‘lmaydi. Mana, pistaning yer betiga quloqch otib ketgan yo‘g‘on tomiri ustida tizzamga tirsaklarimni tirab, miltiq imni quchoqlab o‘tiribman.*

Yuqorida yozuvchining “Yovvoyi olmazor qaroqchisi” hikoyasidan keltirilgan parchada “yer beti” metaforasi tilimizda eng ko‘p uchraydigan, mazmun jihatdan keng qamrovli badiiy vositalardan biridir. Metoforalar voqelikni keng miqyosda, umumlashgan holda tasvirlashga xizmat qiladi. Matnga falsafiy chuqurlik, epiklik ruhini beradi.

*So‘ng yana o‘rmonga jim-jitlik cho‘kadi. Faqat yo‘lovchilarning qadam tovushlari, ular qimirlatib o‘tgan shoxni iziga qaytarib turadi, yigit o‘tib olgach, uni qo‘yvoradi va tag‘in olg‘a chiqib, o‘tkir ko‘zlari bilan bexato yo‘l topib boradi.*

Shukur Xolmirzayev “Miltiq otildi” hikoyasida o‘tkir ko‘z metaforasi qo‘llangan. Bu lingvomadaniy birlik sifatida tilimizda faol qo‘llanadi. “O‘tkir” so‘zining denotativ ma‘nosi – keskirlik, tig‘lik, qirqish xususiyatidir. “Ko‘z” – ko‘rish a‘zosi. Denotativ jihatdan bu ikki so‘zning birikishi mantiqan mos emas, chunki ko‘z “keskir” bo‘la olmaydi. Bu yerda u **ko‘rishning kuchi va aniqligini** bildiradi. O‘tkirlik idrokning aniqligi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek xalq tafakkurida “ko‘z” – idrokning, donolikning, ichki sezgirlikning ramzi. “O‘tkir ko‘z” esa xalqona nutqda hushyorlik, ziyraklik, atrofni tez ilg‘ash, yo‘lni to‘g‘ri topish, ko‘ngli va nigohi tiniq inson sifatini ifodalaydi. . Shu sabab “o‘tkir ko‘z” metaforasi o‘zbek madaniyatida **sezgirlik**, ko‘pni ko‘rganlik bilan bog‘lanadi.

*Bu vaqtda u oq eshakli odam anhor bo‘yida joylashgan, devorlari pastak, ichi jiqqa daraxt hovlisiga kirgan, qo‘ltiq tayog‘ini ustun tagiga tashlab, likonglab ko‘rpachaga o‘tdi. Kafilari qotib ketgan, dag‘al qo‘li bilan tizzasining ko‘zini uqalab, devorga suyandi.*

Hikoyada qo‘llangan **anhor bo‘yi** – daryo yoki anhorning qirg‘oq qismi, suv yoqasidagi hudud ma‘nosini anglatadi. Metaforik kontekstda “anhor bo‘yi” osoyishtalik, sokinlik, tabiiy muhitni badiiy tarzda ifodalaydi. Metafora makon obrazini jonlantiradi, o‘quvchida vizual effekt hosil qiladi. Suv bo‘yining tasviri qahramonning ruhiy holati bilan uyg‘un tarzda qo‘llangan. Hikoyaning keyingi o‘rinlarida ham **anhor bo‘yi** metaforasi ham qo‘llanilgan:

*Shu oqshom bu faqirgina chorbog‘da yaxshigina bazm bo‘ldi. So‘ng uy orqasidagi to‘qayzor ichida bir necha bor miltiq ovozi yangradi. Shundan keyin anhor bo‘yidagi choyxona ham raykom sekretari Muzrob Obidovning har shanbada kelib ketadigan joyi bo‘lib qoldi.*

Keyingi o‘rinda qo‘llangan **tizzaning ko‘zi** anatomik jihatdan mavjud bo‘lgan o‘rinni – tizza bo‘g‘imining markaziy, dumaloq qismini bildiradi. Nasriy matnda bu ifoda tizzaning shu qismidagi og‘riq, charchoq, hayot mashaqqatlari bilan toblangan qahramon tanasini kitobxon ko‘z o‘ngida tiniq tasvirlarda gavdalantirish uchun ishlatilgan.

Yozuvchining “Qariya” hikoyasida ham metaforalar o‘ziga xos lisoniy belgining ma’nosi va madaniy mazmun birikuvidan tarkib topuvchi, madaniy muhit bilan til o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida qo‘llangan.

*Qo‘ziboy chol – oriq, oyoqlari chilcho‘pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirsam, umrida ko‘rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuq so‘rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi.*

Quyuq leksemasi asl denotativ ma’noda **zichlik, shiddat, ko‘plab elementlarning bir joyga jamlanishini** bildiradi. Masalan, “quyuq tutun”, “quyuq qorong‘u”. Bu leksema predmet yoki hodisaning **fizik zichligini** ifodalaydi.

Adibning “Qariya” hikoyasidan keltirilgan nutqiy parchada quyuq so‘rashmoq metaforasi mazmun, mohiyat jihatdan to‘la darajali (o‘zaro muomala, munosabatdagi xatti-harakat, holat haqida) ma’nosida qo‘llangan. Quyuq suhbat. Quyuq salom alik<sup>57</sup>. Muallif asarlarida xalqona til, milliy qadriyatlar, udumlar, ijtimoiy-madaniy belgilar va til orqali berilgan ruhiy-ma’naviy tasvirlar o‘ziga xos lingvomadaniy qatlamni tashkil etadi. **Milliy etik muloqotning asosiy unsurlari** hisoblanadi. Shuning uchun “quyuq so‘rashmoq” metaforasi o‘zbekona muomala madaniyatiga xos bo‘lgan **samimiyat, bag‘rikenglik**, mehmondo‘stlik kabi etnomadaniy qadriyatlarni ifodalaydi.

*Ko‘chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi. Soyning tik qirg‘og‘ida qadimgi qo‘rg‘on vayronalari qaqqayib turar, uning vodiya qarab ochilgan shinaklarini kaptarlar in qilgandi.*

“Ko‘cha boshi” – bu aslida **ko‘chaning boshlanish nuqtasi**, bir uchini bildiradi. Oddiy geografik tushuncha. “Qariya” hikoyasida cho‘ziq, davomli, bo‘yli narsalar, joy, maydonlarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi; shunday narsalarning ikki uchidan, chekkasidan, tomonidan biri<sup>58</sup> kabi metaforik ma’no ifodalaydi.

*Shu kecha qattiq shamol bo‘ldi, chol bekorchilikda ekib, yaqinda o‘rib qo‘ygan makkajo‘xorilarini har tarafga sochdi. Bostirma eshigi ko‘p marta ochilib-yopildi. Allaqayoqda bir it uzoq hurdi, tongga yaqin uvladi. Qo‘ziboy cholning ta‘bi battar xira bo‘lib uyg‘ondi.*

Belgi darajasi yuqori (ortiq) bo‘lgan; kuchli, zo‘r, juda. Qattiq tovush. Qattiq og‘riq. Qattiq iztirob. Qattiq shamol. Qattiq sovuq. Qattiq zarba. Qattiq hurmatlamoq. Qattiq azob chekmoq. Qattiq charchamoq.<sup>59</sup>

Xulosa qilib aytganda, metafora yozuvchiga qahramon ruhiyatining murakkab qatlamlarini qisqa va aniq berishga yordam beradi.

Shukur Xolmirzayev o‘z hikoyachiligida metaforani shunchaki qo‘llamaydi, balki **g‘oya, xarakter, milliy ruh va muhitni ochuvchi kuchli semantik vosita** sifatida

<sup>57</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – Б..395.

<sup>58</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – Б. 335.

<sup>59</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – Б..264.

qo‘llaydi. Yozuvchining nasrida metafora ko‘pincha *o‘zbek qishlog‘i, tog‘, adir, shamol, quyosh, qushlar, anhorlar* bilan bog‘liq holda ishlatiladi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarda metaforalar asarning estetik tabiatini belgilaydi, qahramon ruhiyatini qisqa va kuchli ifodalashga xizmat qiladi, milliy-madaniy kodlarni jonlantiradi. Butun hikoya kompozitsiyasida muhim vazifani bajaradi, shuningdek, yozuvchi uslubining asosiy elementiga aylanadi. Aynan shu jihatlar tufayli Shukur Xolmirzayev nasrida metafora **asosiy badiiy unsur** sifatida namoyon bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent-2024. – B 56.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – Б..395.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – Б. 335.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – Б..264.



## KONSEPT TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI: KOGNITIV, PSIXOLOGIK VA MADANIY OMILLAR UYG‘UNLIGI



**Axmedova Sarvinoz**

*NavDU Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kognitiv lingvistika, psixologiya va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida tahlil qilinadigan “konsept” tushunchasining nazariy asoslari, semantik tuzilishi hamda uning lisoniy va madaniy mohiyati atroflicha yoritiladi. Konseptning inson ongidagi mental birlik sifatidagi o‘rni, uning ko‘p qatlamli – konseptual yadro, periferiyalar hamda obrazli-assotsiativ tizimdan iborat murakkab strukturasi belgilovchi kognitiv, psixologik va madaniy omillar ilmiy manbalar asosida sharhlanadi.

**Kalit so‘zlar.** Konsept, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, mental birlik, konseptual yadro, periferiyalar, madaniy kod, semantik tuzilma, milliy ong, tafakkur, psixologik assotsiatsiya, obrazli-assotsiativ qatlam.

Tilshunoslik, kognitiv lingvistika va madaniyatshunoslik sohalarida “konsept” tushunchasi eng ko‘p muhokama qilinadigan ilmiy kategoriyalardan biri bo‘lib, inson tafakkuri, psixik jarayonlari va madaniy merosi birlashadigan murakkab semantik birlik sifatida qaraladi. Konsept — bu ongdagi bilimlar tizimida mavjud bo‘lgan mental birlik. Bu tushuncha insonning bilish faoliyatini o‘rganadigan kognitiv tilshunoslikda markaziy o‘rin tutadi. Rus olimi S.A. Askoldov kontseptni “bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlik” [2] sifatida ta’riflaydi. V.A. Maslova esa konseptni “konsept — til va madaniyat kesishmasidagi murakkab birlik bo‘lib, til orqali ifodalanadigan, lekin tildan tashqarida ham — madaniy ong va mentalitetda mavjud bo‘lgan semantik tuzilma”- deb belgilaydi.[3] Shu bois konseptni o‘rganish — tilni emas, balki til orqali insonning ichki olamini, ijtimoiy xotirasini, ruhiy jarayonlarini, qadriyatlarini o‘rganish demakdir.

Konseptning mohiyati uning ko‘p qatlamli semantik tizimga egaligida namoyon bo‘ladi. Unda ma’no, baholash, hissiy rang, obraz, milliy an’ana, tarixiy xotira va individual tajriba birlashadi. Inson biror so‘zni eshitganda nafaqat lingvistik ma’no, balki shu so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy, psixologik, tarixiy va emotsional tasavvurlarni ham ishga soladi. Masalan, “ona” so‘zi nafaqat biologik tushunchani, balki mehr, mehribonlik, qo‘llab-quvvatlash, ona vatan, ona til kabi ko‘plab madaniy tasavvurlarni ham chaqiradi. Shuning uchun konsept tilning semantik minimumidan

ancha keng bo‘lgan tushunchadir: u til orqali ifodalanadi, ammo til doirasidan ham kengroq bilish maydoniga daxldor.

Kognitiv lingvistika konseptlarni inson miyasidagi “bilish birligi” sifatida ko‘rib, ularni ongda shakllanadigan mental struktura deb talqin qiladi. Unga ko‘ra, konseptlar prototip modellariga tayanadi, masalan, “qush” konsepti deyilganida odam ongiga birinchi navbatda chumchuq, kaptar kabi prototiplar keladi, ammo pingvin yoki tuyaqush ham shu kategoriya doirasida qoladi. Demak, konseptlar ongda ravshan markaz (prototip) va xiralashgan chekka elementlar (kategoriya chegaralari) asosida shakllanadi.

Psixologik yondashuv konseptning emotsional va assotsiativ komponentlariga urg‘u beradi. Psixologlar fikricha, konseptlar insonning shaxsiy xotirasi, kechinmalari, tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, L.S. Vygotskiy til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, til orqali shakllanadigan tushunchalar (konseptlar) insonning psixik rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.[1] Unga ko‘ra, bola til yordamida tushunchalarni o‘zlashtirib borar ekan, uning konseptual tizimi murakkablashib boradi. Shaxsning o‘ziga xos konseptlar tizimi esa butun hayot davomida shakllanishda davom etadi. Shu ma’noda, har bir inson konseptlarni o‘z ongida individuallashtiradi: umumiy madaniy mazmundan tashqari uning o‘z hayotiy tajribasi bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’no qatlamlari ham shakllanadi.

Madaniy omillar esa konseptni milliy ongning asosiy birligi sifatida qaraydi. Har bir xalqning madaniy xotirasida alohida qadrlanadigan tushunchalar — “mehmonnavozlik”, “halollik”, “vatan”, “mehr-oqibat”, “andisha”, “nomus”, “oriyat” kabi so‘zlar konseptual tizimda o‘ziga xos yadroga ega. Ular faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki shu xalqning mentaliteti, qadriyatlarini, dunyoqarashi va hayot falsafasini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek xalqining “mehmon” konseptida oddiy tashrif buyurgan odam emas, balki e‘zozlanadigan, hurmat bilan kutib olinadigan, unga eng yaxshi taom taklif qilinadigan, uydagi tartib va marosimga ta’sir qiladigan ijtimoiy-madaniy figura mujassam. Shu bois konseptlar milliy o‘zlikni anglatuvchi ramziy birliklar sifatida xizmat qiladi.

Turli olimlar konseptga turlicha ta’rif berishgan. S.A. Askoldov kontseptsiya atamasini rus tilshunosligiga XX asr boshlarida kiritgan va uni og‘zaki, kontseptual va majoziy shakllarga ajratgan. U kognitiv tushunchani asosiy xususiyat sifatida ko‘rsatgan. D.S. Lixachev esa kontseptning salohiyatini uning lingvistik va madaniy tajribalar bilan bog‘liqligi orqali izohlagan. Y.S. Stepanov kontsept va tushuncha so‘zlarini sinonim sifatida qarasa-da, ularning turli sohalarda, jumladan falsafa, mantiq va tilshunoslikda farqlanishi mumkinligini ta’kidlaydi. E.S.Kubryakova kontseptni xotira birligi sifatida ta’riflab, uni “xotira, aqliy lug‘at, kontseptual tizimlar va dunyoqarashning faol birligi” deb biladi. V.V. Kolesov esa kontseptda badiiy xususiyatlar mavjudligini ta’kidlab, uni adabiyotshunoslikda ham qo‘llash mumkinligini bildiradi. [4]

O‘zbek tilshunosligida kontsept tadqiqoti 1990-yillardan boshlangan. Sh.Safarov, N.Mahmudov, E.Mamatov, M.Rahmatova, U.Yusupov, G.M.Xoshimov, T. Mardiyev,

M.E.Umarxodjayev va boshqa olimlar kontseptni o‘rganish bo‘yicha bir qator maqolalar va darsliklar nashr etgan. M.Rahmatova kontseptni inson bilimlari milliy madaniyat bilan bog‘liq ekani va aqliy tasvir sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. T.Mardiyev esa kontseptning lingvistik va madaniy naqshlari, ularning murakkab tipologik tuzilishini tahlil qiladi. Umarxodjayev kognitiv tilshunoslikning til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni, tilning dunyoni kontseptualizatsiya qilishdagi ahamiyatini o‘rganishini qayd etadi.[4]

Konseptlar tilda turli shakllarda namoyon bo‘ladi: so‘z, frazeologizm, matn, obraz, ramz, hatto badiiy tafakkur orqali. Adabiy matnlarda konseptlar yanada keng, ko‘p qirrali, emotsional va obrazli shaklda ifodalanadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodida “ishq” konsepti nafaqat muhabbatni, balki ilohiy kamolot, ruhiy poklanish, tasavvufiy ma’rifatning yuksak darajasini ham o‘z ichiga oladi. Abdulla Qahhor asarlarida “vijdon” konsepti ijtimoiy adolat, halollik va shaxsiy mas’uliyat orqali talqin etiladi. Demak, badiiy adabiyot konseptlarning eng boy va serqirra ifodalanadigan maydonidir.

Konseptning kognitiv jihati shundan iboratki, u insonning dunyoni bilish modelini tashkil etadi. Har bir shaxs borliqni mazmunan til orqali idrok etadi: til uning ongida konseptual tuzilma hosil qiladi. Kognitiv jarayonlar konseptlarni kategorialashtiradi, ularni ongda tartiblaydi, bir-biriga bog‘laydi, iyerarxiyasini belgilaydi. Masalan, “oila” konsepti ongda bir nechta kichik konseptlardan tashkil topadi: ota, ona, farzand, mehr, tarbiya, hurmat, oila qadriyatlari, uy, ro‘zg‘or va hokazo. Bu kichik birliklar esa yana boshqa konseptlar bilan bog‘lanadi: masalan, “ona” konsepti “mehr”, “shafqat”, “tarbiya”, “vatan”, “ona til”, “ona yurt” kabi konseptlarni uyg‘otadi.

Psixologik omillar konseptlarning emotsional qatlamini tashkil qiladi. Har bir so‘z ongda hissiy iz qoldiradi yoki mavjud izlarni uyg‘otadi. Psixologlar konseptlarni emotsional tajriba asosida shakllanadigan “mental modellar” sifatida talqin qiladi. Masalan, kimdir uchun “bolalik” konsepti quvonchli xotiralar bilan, boshqalar uchun esa qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yoki “maktab” konsepti ayrimlarga tarbiya, do‘stlar, ustozlar obrazini eslatsa, boshqalar uchun tartib-intizom, imtihon, hayajon kabi omillarni uyg‘otadi. Bu esa konseptlarning subyektiv qirralarga ham ega ekanligini ko‘rsatadi.

Madaniy omillar esa konseptning ijtimoiy xotiradagi o‘rnini belgilaydi. Konseptlar asrlar davomida xalqning tarixiy tajribasi, diniy e’tiqodi, urf-odati, an’anasi, mafkurasi orqali shakllangan. Etnosning madaniy kodlari — maqollar, matallar, dostonlar, qo‘shiqlar, marosimlar konseptual tizimni barqaror saqlab turadi. Masalan, o‘zbek xalqida “andisha” konsepti madaniy kodning yadro unsurlaridan biridir. U faqat “uquv”, “mulohaza”, “noziklik” ma’nolarini emas, balki boshqaga hurmat, o‘zini nazorat qilish, ijtimoiy tartibga bo‘ysunish kabi ko‘plab madaniy xususiyatlarni ifodalaydi. Shu bois konseptlar madaniyatning asosiy davomchisi sifatida ham xizmat qiladi. Konseptlar tilning grammatik tizimiga emas, balki semantik va madaniy mazmuniga asoslanadi. Shu sababli ular o‘zgaruvchan, dinamik, tarixiy jarayonlarga

ta'sirchan bo'ladi. Masalan, “erkinlik”, “demokratiya”, “millat”, “Vatan”, “taraqqiyot” kabi konseptlarning mazmuni jamiyat taraqqiyoti bilan birga o'zgarib boradi. Buning dalili sifatida mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti va ilm-fanida “mustaqillik”, “milliy tiklanish”, “ma'naviyat”, “innovatsiya” kabi konseptlarning mazmuni yangicha talqin etila boshlaganini ko'rish mumkin.

Konseptning strukturasi ham murakkab: olimlar uni odatda uch qismga ajratadi — konseptual yadro, konseptual periferiyalar va obrazli-assotsiativ qatlam. Yadro — eng barqaror ma'no, asosiy semantik mazmun, universal tasavvurlar yig'indisi. Periferiyalar esa kontekstga, paytga, shaxsga, ijtimoiy vaziyatga ko'ra o'zgaruvchi ma'nolar. Obrazli-assotsiativ qatlam esa xalqning tarixiy-madaniy tajribasi orqali yaratilgan ramziy mazmunlar majmui. Masalan, “non” konsepti yadroda — oziq-ovqat, yashash manbai; periferiyada — baraka, mehnat; obrazli qatlamda — halollik, rizq, qut, hurmat kabi qiymatlarni o'z ichiga oladi. Konseptning talqini, shubhasiz, tilni, jamiyatni, madaniyatni, tafakkurni o'rganishda yangi istiqbollar yaratadi. Tilshunoslikdagi an'anaviy semasiologiya til birliklarining ma'nosini formal jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, kognitiv yondashuv tilning orqasida turgan inson ongini, madaniy merosni, psixik jarayonlarni tahlil qilishni maqsad qiladi. Shu sababli konsept lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika va kognitiv psixologiyaning ham umumiy kategoriya hisoblanadi. Bu yondashuvlar konseptni turli tomondan ochib, uni mukammal o'rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, **konsept** tilshunoslikdagi oddiy semantik birlik emas, balki inson ongining, psixik faoliyatining hamda milliy va ijtimoiy-madaniy tajribaning murakkab, ko'p qatlamli kognitiv tuzilmasidir. Uning tarkibida til, tafakkur, tarixiy xotira, mental tasavvurlar va madaniy qadriyatlar uyg'unlashadi. Konsept tilda ifodalanadi, ammo uning asl mohiyati tilning o'zidan kengroq bo'lib, inson ongining chuqur qatlamlari, ijtimoiy-madaniy xotira va kollektiv dunyoqarashda yashaydi. Shu bois konseptni o'rganish — nafaqat til birliklarini, balki insonning dunyoni qanday idrok qilishi, qanday kategoriyalar asosida fikrlashi va qanday madaniy kodlar bilan yashashini o'rganish demakdir. O'zbek tilshunosligida ham konsept va lingvokulturologik yondashuv bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar bu tushunchani yanada chuqurroq ilmiy asoslash, uni til–madaniyat–tafakkur uchligi doirasida tahlil qilish imkonini yaratmoqda. Demak, konsept bugungi kunda nafaqat lingvistika, balki kognitiv fanlar, madaniyatshunoslik va psixologiya uchun ham markaziy ilmiy kategoriya sifatida e'tirof etiladi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [https://psyjournals.ru/en/journals/chp/archive/2021\\_n2/Lago\\_Mattos?utm\\_source.com](https://psyjournals.ru/en/journals/chp/archive/2021_n2/Lago_Mattos?utm_source.com)
2. [https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/1243?utm\\_source.com](https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/1243?utm_source.com)
3. [https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/view/21114?utm\\_source.com](https://journals.rudn.ru/russian-language-studies/article/view/21114?utm_source.com)
4. FarDU ILMIY XABARLAR. Farg'ona, 2023-yil, maxsus son. TILSHUNOSLIKDA “KONSEPT” TUSHUNCHASI Mukhtorova Barno Alisherovna 1 PhD student, Fergana State University.

## GULJAMOL ASQAROVA SHE'RIYATIDA ALLYUZIV ANTROPONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

**Shokirova Feruza**

*NavDU Tillar fakulteti Lingvistika yo 'nalishi  
1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishimizga imkon yaratadi. Ushbu maqolada Guljamol Asqarova she'rlarida qo'llanilgan allyuziv antroponimlarning lingvopoetik xususiyatlari misollar asosida atroflicha yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, intertekstuallik, intertekstual bog'liqlik, madaniy kod, allyuziya, allyuziv antroponimlar, badiiy matn, zamonaviy tilshunoslik.

**Kirish.** Guljamol Asqarova zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xos ovozigaga adibalaridan bo'lib, uning poetik dunyosida allyuziv antroponimlar muhim estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shoira tarixiy, diniy, adabiy shaxslar obrazidan foydalanib, matnning mazmun qatlamini chuqurlashtiradi, pragmatik ma'nolarni boyitadi hamda o'quvchi idrokida yangi assotsiativ maydon yaratadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Allyuziya hodisasi intertekstuallikning o'ziga xos turlaridan biri hisoblanadi. Badiiy matnni tushunishda intertekstual birliklarning o'rnini belgilash uchun uning turlariga to'xtalishimiz lozim. Rus tilshunosi Fateva intertekstual birliklarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Allyuziya
2. Reminissensiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol va matallar<sup>60</sup>

Allyuziyalar matnda intertekstual bog'liqlik yaratib, o'quvchini boshqa matnlar, davrlar va madaniy kodlarga murojaat qildiradi.

**ALLYUZIYA** [lot. allusio – ishora; hazil] Muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Lingvomadaniyatshunoslikda allyuziya ikki madaniy-semiotik maydonning o'zaro munosabati nuqtayi nazaridan o'rganiladi.<sup>61</sup>

<sup>60</sup> Фатеева Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Фатеева Н.А. //Известия АН. Сер.литературы и языка, 1997. Т.56.

<sup>61</sup> Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B.10.

Allyuziyaning maxsus turlaridan biri allyuziv antroponimlar o‘quvchiga matndagi yashirin ma’noni anglash, madaniy kodni eslash, tarixiy xotirani jonlantirish, ma’naviy assotsiatsiyalarni uyg‘otish uchun xizmat qiladi.

**ALLYUZIV ANTROPONIM** alluziv matnda allyuziya ko‘rsatkichi vazifasida keluvchi antroponim, allyuziv nomning bir turi. Masalan: Ermak ekan endi Laylolar, Majnun g‘arib kezgan sahrolar, Ermak ekan Tohir-Zuhrolar, bevafo ko‘p ekan dunyoda (M. Yusuf).<sup>62</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda lingvopoetik, kognitiv pragmatik, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ushbu maqolamizda xalqimizning sevimli shoirlaridan biri Guljamol Asqarova ijodida mahorat bilan qo‘llangan allyuziv antroponimlarni tahlilga tortamiz.

*Ayol qo‘llarida qilichmi, qalam,  
Muhimi qalbida yashar muhabbat.  
Nodira umrini qirqqan qayg‘ular,  
Mening qismatimda bo‘lmagay albat.*<sup>63</sup>

“**Nodira umrini qirqqan qayg‘ular**” misrasida tarixiy shaxs – **Nodira (Mohlaroyim)** siymosining fojiali taqdiriga ishora qilingan.

Bu antroponim uch asosiy ma’nodagi yuklamani yuzaga keltiradi: **fojiali taqdir, ayolning ma’rifatparvar ruhi, zo‘ravon zamon qurboni**. Shu bilan, muallif ayolning hayotini tasvirlash bilan birga, tarixdagi ayollar fojiasiga ham ishora qiladi.

*G‘amlaringni pishir xumdonda,  
Har giyohni pir bil, Xizir bil.  
Mehr tilansa har qanday banda,  
Qalbingni ber, dil hayitlik qil.*56-b

Guljamol Asqarovaning “Taqdir” nomli she’rida qo‘llangan **Xizir** allyuziv antroponimi diniy-afsonaviy qatlamga mansub bo‘lib, u matnda chuqur **lingvopoetik va pragmatik** vazifa bajaradi.

**Xizir (al-Xizir)** – islomiy rivoyatlar va xalq e’tiqodlarida **abadiy hayot sohibi, ilohiy ilm egasi, yo‘lovchilarga hidoyat ko‘rsatuvchi pir, baraka va rahmat timsoli** sifatida talqin qilinadi. O‘zbek xalq tafakkurida Xizir qiyinchilikda yordam beruvchi, bexosdan uchrab yo‘l ko‘rsatuvchi, “har joyda hozir” muqaddas siymo. Shu sababli uning nomi matnga **sakral (muqaddas) semantika** olib kiradi.

*Naqshbandning poyida turib,  
Tomosha qil qalbing naqshini.  
Ulug‘ pirlar darsxonasidan,  
Iching bo‘m-bo‘sh ketsa yaxshimi?*

Ushbu she’riy parcha shoiramizning “Taqdir” nomli she’ridan olingan. Bu o‘rinda allyuziv antroponim sifatida tasvirlangan Naqshband – tarixiy-shaxs emas, balki tasavvufiy ramz sifatida ishlatilgan. U Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liq bo‘lib,

<sup>62</sup> O‘sha manba. – B. 4.

<sup>63</sup> Guljamol Asqarova. Oshiqlar tumori. – Toshkent: Faqur Fulom. 2012.– B. 56.

Naqshbandiya tariqatining asoschisi, ma’naviy poklanish, ruhiy tarbiyaning timsolidir. Shoira mazkur allyuziya orqali tasavvuf maktabi, pir-murid munosabati va ruhiy kamolot g‘oyalariga ishora qiladi. “Naqshbandning poyida turib” – pir huzurida kamtarlik, ruhiy shogirdlik holati; “qalbing naqshini” – tashqi naqsh emas, balki qalbga bitilgan ma’naviy izlar, ya’ni e’tiqod, ixlos, poklik. Bu yerda “naqsh” so‘zi Naqshband nomi bilan so‘z o‘yini (paronomaziya) hosil qilib, mazmunni chuqurlashtiradi. Naqshband – qalb – naqsh uchligi markaziy poetik konseptni tashkil etadi. “Ulug‘ pirlar darsxonasi” – tasavvufiy maktab, hayotning o‘zi. Allyuziv antroponom matnga muqaddaslik, jiddiylik va ruhiy kamolot bag‘ishlaydi

*Bir sandiq yasab qo‘ydim **Tohir** bilan **Zuhro**ga,  
Qumlarin sanab berdim savodi yo‘q sahroga,  
Bir-birga oqay deb ko‘p yalindim daryoga,  
Manzilim bo‘larmisan, heeey, manzilim bo‘larmisan?*

Guljamol Asqarovaning “Takbir” she’rida Tohir va Zuhro allyuziv antroponimlari keltirilgan. Tohir va Zuhro – Sharq mumtoz adabiyotida mashhur bo‘lgan fojeaviy ishq qissasi qahramonlari. Ular pok va sadoqatli muhabbat, taqdir sinovlari, visolga yetolmagan oshiq-ma’shuq ramzi sifatida xalq ongida mustahkam joylashgan. Shoira bu nomlarni bevosita voqeani hikoya qilish uchun emas, balki madaniy xotirani faollashtirish uchun ishlatadi. Natijada lirik qahramonning ichki iztirobi Tohir va Zuhro fojeasi bilan qiyoslanadi, ammo bevosita aytilmaydi – bu bilvosita poetik ta’sirdir.

*Orzu edi menga **Mashrab** osilgan dorlar,  
Bor borlig‘im bilan isyonga yotman.  
Oldga qadam tashlay desam oyoqlarim yo‘q,  
Men qo‘rqaman do‘stim axir taraqqiyotdan.*

Guljamol Asqarovaning “Shoir do‘stimga xasrat” she’ridan olingan nutqiy parchada Mashrab allyuziv antroponimi qo‘llangan. U o‘zbek mumtoz adabiyotida isyonkor ruh, tasavvufiy erkinlik, haqiqat yo‘lida jon fido qilish timsoli bo‘lgan tarixiy-shaxs nomidir. Uning osib o‘ldirilishi (dor) adolatga qarshi tizimning zo‘ravonligi, so‘z erkinligining jazolanishi ramziga aylangan. She’riy matnda bu antroponom madaniy xotira kodi sifatida ishlatiladi. Ya’ni erkin fikr, isyon, haqiqatparastlik semalarini faollashtiradi. “Dor” leksemasi bilan birikib, fojaviy-allyuziv obraz hosil qiladi, shoira orzu qilgan ruhiy jasorat va o‘zini qurbon qilish darajasidagi e’tiqodni bildiradi. Bu yerda Mashrab – individual shaxs emas, balki ideallashtirilgan ruhiy holat ramzi sifatida talqin qilinadi.

*Bildim ko‘ngling ilitmadi ishq.  
Bildim andak ko‘zlaring g‘amgin.  
Hatto **Momo Havo** bilganmi,  
Ishq atalmish saodat ta‘min.[G.Asqarova ‘Erkalik imtiyozi’.316-b]*

**Momo Havo** – diniy-mifologik diskursda insoniyatning ilk onasi, muhabbat va juftlik (Odam Ato bilan birlik) ning ibtidosi timsolidir. “O‘zbek tilining izohli

lug'ati"da **Momohavo** [momo + qad. yah. Havvo – hayot manbai] Islomga ko'ra, Odamatoning xotini, birinchi ayol va inson zotining onasi (Injilda Eva nomi bilan ma'lum)<sup>64</sup> sifatida yoritiladi.

Shoira Momo Havo obrazini tilga olib, ishq tushunchasining qadimiyligi va murakkabligini vaqtlar osha sinovdan o'tgan hodisa sifatida ko'rsatadi. Mazkur allyuziv antroponim ishqni insoniyat tarixining eng ibtidoiy, ammo hanuz yechilmagan sirlaridan biri sifatida talqin etishga xizmat qiladi. U lirik matnda ishqning saodat bilan birga keladigan iztirobli va bilish qiyin bo'lgan mohiyatini poetik jihatdan chuqur ochib beradi. Momo Havo obrazi **ona, boshlanish, fitrat** ramzi sifatida ishqni tabiiy va ilohiy tuyg'u darajasiga ko'taradi.

**Xulosa va takliflar.** Badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etish uchun unda lingvistik vositalarning o'zaro bog'liqligi va estetik vazifasi masalasi o'ta muhim hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytadigan bo'lsak, Guljamol Asqarova she'rlarida allyuziv antroponimlar poetik matnning mazmuniy chuqurligini oshiradi, intertekstual maydon yaratadi, lingvopoetik obraz yasashda kuchli estetik vosita bo'lib xizmat qiladi, milliy tarixiy xotira va madaniy ramzlarni she'rga olib kiradi, o'quvchida keng assotsiativ-kognitiv maydon hosil qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гулжамол Асқарова. Ошиқлар тумори. – Тошкент: Гафур Ғулом. 2012.– Б. 56.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – 680 б.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – 785 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2007. – 687 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – 606 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2008. – 591 б.
7. Фатеева Н.А. Интертекстуальность и её функции в художественном дискурсе Текст. / Фатеева Н.А. //Известия АН. Сер.литературы и языка, 1997. Т.56.
8. Xudayberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent. – 2024. – B.12.

<sup>64</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ илмий нашриёти, 2006. – Б.612.



## ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA SHODMONQUL SALOM IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI



**Majidova Umida,**  
*mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya.** Maqolada mustaqillikdan keyingi zamonaviy o‘zbek she‘riyati jarayonida shakllangan yangi avlod vakili Shodmonqul Salom ijodining badiiy-estetik o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shodmonqul Salom she‘riyatida vatanparvarlik g‘oyasining noan‘anaviy talqini, “Vatan haqida she‘r”dagi lirizm va falsafiy ohang, “shom”, “oy”, bolalik xotiralari hamda janub manzaralarining poetik tizimdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, shoir she‘rlarining badiiy hamda lingvopoetik xususiyatlar tahlil qilinadi. Til va uslub xususiyatlari, nasr va publitsistika bilan she‘riyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari ham yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *zamonaviy o‘zbek she‘riyati, Shodmonqul Salom, poetika, vatanparvarlik, obraz, shom, oy, lingvopoetika.*

**Резюме.** В статье анализируются художественно-эстетические особенности творчества представителя новой генерации поэтов независимого периода – Шодмонкула Салом в контексте современной узбекской поэзии. Рассматриваются нетрадиционные формы выражения идеи патриотизма в лирике Шодмонкула Салом, лиризм и философское звучание стихотворения «Ватан хақида шеър», а также роль образов «шом», «луна», детских воспоминаний и южного пейзажа в его поэтической системе. В тексте статьи приводятся строки из стихотворений поэта и на их основе проводится лингвопоэтический анализ. Отдельное внимание уделяется языку и стилю, а также внутренней связи между поэзией, прозой и публицистикой автора.

**Ключевые слова:** *современная узбекская поэзия, Шодмонкул Салом, поэтика, патриотизм, образ, сумерки, луна, лингвопоэтика.*

**Abstract.** The article analyses the artistic and aesthetic peculiarities of the poet Shodmonqul Salom, a representative of the new generation of the post-independence period, in the context of contemporary Uzbek poetry. The study focuses on the non-traditional expression of patriotic ideas in Shodmonqul Salom’s lyrics, on the lyricism and philosophical tone of the poem “Vatan haqida she‘r” (“A Poem about the Motherland”), and on the role of such key images as “dusk”, “moon”, childhood memories and southern landscape in his poetic system. The article includes quotations from the poet’s works and offers a linguopoetic analysis of these lines. Special attention is paid to the features of language and style, as well as to the internal connection between the author’s poetry, prose and publicistic writings.

**Keywords:** *contemporary Uzbek poetry, Shodmonqul Salom, poetics, patriotism, image, dusk, moon, linguopoetics.*

Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati mavzu va shakl, ruh va uslub jihatidan yangilanish, ichki erkinlashuv jarayonini boshdan kechirdi. Bu jarayonda 1980-yillar avlodi – istiqloq yillarida voyaga yetib, o‘tish davri ijtimoiy-ruhiy larzalarini jonli his qilgan shoirlar alohida guruhni tashkil etadi. Shodmonqul Salom (Shodmonqul Salomov) ana shu avlodning yorqin vakillaridan biridir.

So‘nggi yillarda ilmiy maqolalarda shoir ijodida vatanparvarlik g‘oyasining noan‘anaviy talqini, obraz va peyzaj uyg‘unligi, shom va oy timsollari, bolalik xotiralari hamda poetik uslub masalalari alohida o‘rganilayotgani uning zamonaviy o‘zbek she‘riyati kontekstidagi o‘rnini yanada mustahkamlamoqda [4–7].

Shodmonqul Salom adabiy maydonga 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshlarida kirib kelgan. Surxon vohasi – Qumqo‘rg‘on, Boysun atrofidagi tabiiy-madaniy muhit uning poetikasida “janub quyoshi tafti” tarzida aks etadi. Xurshid Davron kutubxonasida e‘lon qilingan sahifada shoir aynan janub iqlimiga xos badiiy olam egasi sifatida tilga olinadi, bu sahifada uning tarjimai holi va she‘riy namunalaridan turkum keltirilgan [2].

Shoirning “Yurak iqlimi”, “Ko‘ngil kitobi”, “Borligini bilganlar” kabi she‘riy to‘plamlari, “Ko‘ngil obidasiga yo‘l”, “Oqqapchig‘ay to‘lqinlari” singari nasriy kitoblari nashr etilgani ma‘lum [1–3; 8]. Bu asarlar o‘zbek she‘riyati va nasriy tafakkurining yangi qirralarini namoyon etadi. Masalan, “Yurak iqlimi” lirik kechinmalarning, “Ko‘ngil obidasiga yo‘l” esa ruhiy-axloqiy mushohadalarning badiiy ifodasidir.

Matbuotdagi ko‘p yillik faoliyat – gazetalar va jurnallardagi ish tajribasi – Shodmonqul Salomga adabiy jarayonni ichdan ko‘rish, kitobxon kayfiyati, ma‘naviy muhit muammolari haqida aniq tasavvur hosil qilishga imkon bergan. Natijada uning she‘rlari oddiy “ko‘ngil yozish” emas, balki jamiyat va davr bilan muloqot shakliga aylanadi.

Shodmonqul Salom she‘riyatida vatan mavzusi markaziy o‘rinda turadi. Biroq u bu mavzuni haddan tashqari jo‘shqin, balandparvoz shiorlar bilan emas, balki ichki suhbat, samimiy e‘tirof va dardli savollar orqali ifoda etadi. Uning “Vatan haqida she‘r”da shunday satrni o‘qiymiz:

*Sendan boshqa uy yo‘qdir, mendan boshqa devona.*

Bu misrada vatan “muqaddas diyor” tasviri emas, balki shaxsiy “uy”, yagona boshpana sifatida talqin qilinadi [4]. Lirik qahramon “devona” so‘zi orqali vatanga bo‘lgan muhabbatini haddan ziyod, o‘zini unutgudek, hatto biroz faryodga yaqin holatda ifoda etadi. Ushbu she‘riy misra shoirga xos vatanparvarlik tipini aniq ko‘rsatadi. Vatan uchun faxrlanish bilan bir qatorda, vatan uchun kuyinish, o‘zini uning oldida mas‘ul his etish, “devona” bo‘lishga tayyorlik kabilarni o‘zida yuksak darajada ifodalay olgan misra, she‘r sifatida qayd qilish lozim.

Ismigul Sobirova zamonaviy davr o‘zbek she‘riyatida an‘anaviy g‘oyalarni noan‘anaviy uslubda yetkazish masalasini aynan Shodmonqul Salom ijodi misolida tahlil qilish davomida ana shu misraning mazmuniy asosiga alohida to‘xtaladi. Muallif shoirning vatanparvarlikni shioriy balandparvozlikdan ko‘ra, timsollar, falsafiy mushohada va ichki monolog orqali ifoda etishini e‘tirof etadi [4].

Shodmonqul Salom uchun vatan – geografik hudud, siyosiy tushuncha emas, avvalo, ruhiy makondir. Vatanni sevish – uni ideallashtirish emas, balki uning og‘riqlari va kamchiliklarini ham ko‘ra bilish, o‘sha og‘riqni yurakdan o‘tkazish demakdir. Shu bois uning vatan haqida bitilgan misralarida ehtiros va iztirob ham, minnatdorlik va talabchanlik ham birga yashaydi.

Shodmonqul Salom ijodida ayrim obrazlar: “shom”, “oy”, “bolalik”, “ona”, janub manzaralari unsurlari – qayta-qayta tilga olinib, poetik dunyoqarashning asosiy timsollariga aylanadi.

Shoir she‘rlarida ayniqsa *shom* obrazining badiiy-falsafiy kuchiga e‘tibor qaratilganligini anglash mumkin. *Shom* shoir she‘rlarida kunning oddiy bir pallasini emas, balki ichki hisob-kitob, o‘tmish va bugunning, umid va qo‘rquvning chegaraviy nuqtasi sifatida talqin qilinadi [6].

She‘rlar turkumida janubga xos peyzaj tasvirlari – tog‘lar, adirlar, sahrolar, qishloq yo‘llari, shudringli tonglar – keng uchraydi [2]. ResearchGate‘da e‘lon qilingan maqolada Shodmonqul Salom ijodida tabiat tasviri lirik qahramon ruhiy holatining lingvopoetik ekvivalenti sifatida tahlil qilingan: peyzaj faqat fon emas, balki ichki kechinmalarning ifoda vositasidir [3].

Bolalik motivlari ham shoir she‘riyatida muhim o‘rin tutadi. Surxon vohasi qishlog‘i, bolalik uyi, onaning fig‘oni, qishloq hayotidagi oddiy, lekin ta‘sirchan manzaralar bugungi zamon og‘riqlari bilan qiyoslanadi; natijada “kecha” va “bugun” o‘rtasida ruhiy ko‘prik vujudga keladi [5]. Adabiyotshunoslar Shodmonqul Salomda bolalik xotirasi faqat xotira emas, balki “insoniylikka qaytish mezonini” sifatida namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydilar.

Shodmonqul Salom she‘riyati tilining eng diqqatga sazovor tomoni tashqi soddalikdir. She‘rlarda og‘zaki nutqqa yaqin sintaktik qurilish, xalqona iboralar, qisqa va lo‘nda gaplar ustun bo‘lib, o‘qishga yengil, tabiiy ohang yaratadi. Shu bilan birga, bu soddalik ortida murakkab ma‘no qatlamlari yashiringan.

Shoirning “Maktub” she‘ridan o‘rin olgan quyidagi misraga diqqat qaratamiz:

*Olamni suv olgan, birgina orol – shu qog‘oz.*

Bu satrda “olamni suv olgan” iborasi beqaror zamon, bo‘hronli holat, ma‘naviy inqiroz ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. “Birgina orol – shu qog‘oz” esa shu bo‘hron ichida ijodkor uchun qolgan yagona najot manbai – yozish, she‘r, ijod ekanini bildiradi. Qog‘oz bu yerda boshpana, “qutqaruvchi orol” timsoliga aylanadi. Oddiy ko‘rinadigan

sintaktik qurilish ichida kuchli metafora, falsafiy mushohada va ijodkor ruhiy holatining obrazli tasviri o‘z mujassamini topgan.

Shoir she’rlaridagi ana shunday badiiy detallar, yangi tashbeh va metaforalar, ruhiy holatni ifodalovchi o‘xshatishlar, shakily soddalik va mazmuniy chuqurlikning o‘ziga xos uyg‘unligi masalasi ham tadqiqotlar manbayi bo‘lgan [2].

Ranglar leksikasi (oq–qora, ko‘k–yashil, qizil–kulrang kabi qarama-qarshi yoki o‘zaro tutash ranglar juftligi) shoir ijodida shunchaki tasviriy vositagina bo‘lib qolmasdan, konseptual ma’no tashuvchi semantik kod vazifasini ham bajaradi. Bu ranglar an’anaviy madaniy-ma’naviy talqinlar bilan bir qatorda, zamonaviy subyektiv idrok, psixologik holat va ijtimoiy kayfiyatni ifodalovchi yangicha mazmun bilan to‘ldiriladi. Natijada rang leksemalari shoir she’rlarida tasviriylikdan chiqib, ma’no yaratishning faol omiliga aylanadi.

Frazeologizmlarning yangicha kontekstda qo‘llanishi esa shoir tilining individuallik, o‘ziga xos jihatini yanada kuchaytiradi. Xalqona iboralar odatdagi mazmuniy doiradan chiqarilib, individual poetik tafakkur doirasida yangi mazmun paydo qilinadi va faollashtiriladi. Bu jarayonda frazeologik birliklarning ichki obrazlilik saqlangan holda, ularning ma’no markazi siljiydi, natijada kutilmagan estetik va ma’naviy effekt yuzaga keladi. Fikrlarni asoslash uchun quyidagilarga e’tibor qaratib o‘tish lozim deb sanaymiz:

frazeologizmning semantik siljishi (xalqona ibora - ichki holat ifodasi)

*Ko‘nglinga sig‘may qoldi dunyo,*

*Yuragim tor ko‘chaga aylangan.*

“Ko‘ngliga sig‘maslik” iborasi odatda “hafsalasi pir bo‘lishi” ma’nosida qo‘llanadi. Bu yerda esa ibora psixologik makon sifatida kengaytiriladi: ko‘ngil — shaxsiy hudud, dunyo – tashqi bosim. Frazeologizm subyektiv idrok orqali qayta semantizatsiyalanadi, yangi mazmun kasb etadi.

Xalqona iboraning poetik kontekstda faollashuvi

*Boshimdan o‘tdi deyilgan dardlar*

*Yuragimdan endi o‘tayotgandek.*

*Boshidan o‘tmoq* frazeologizmi odatda kechmish voqea, jarayonni ifodalash uchun xizmat qildi. Shoir esa uni ichki kechinmaning hozirgi davomiyligini ifodalash maqsadida qo‘llaydi va bu orqali zamonaviy lirik diskursda vaqt koordinatasini o‘zgartiradi.

*Tilimda sukut turib qoldi,*

*Aytilmagan gaplarim baland.*

Shoirning ushbu misralarida xalqona *gap tilimda turibdi* mazmuni inkoriy poetik konstruktsiya orqali yangilanadi. Frazeologik ma’no markazi nutqdan sukutga ko‘chadi, natijada paradoksal estetik ta’sir yuzaga keladi.

*Qo‘limdan kelgan ish – kutish,  
Kutishdan esa qo‘lim kelmaydi.*

O‘zbek tilida *qo‘lidan kelmoq* iborasi an’anaviy imkoniyat ma’nosini ifodalaydi, ushbu misralarda esa u iroda va o‘jizlik ziddiyatini ifodalovchi poetik birlikka aylanadi. Frazeologizm psixologik yondashuv orqali yanada faollashganligini kuzatamiz.

Shodmonqul Salom lirikasi doirasida frazeologik birliklar tayyor qolip sifatida emas, balki individual poetik tafakkur tomonidan qayta ishlangan semantik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Xalqona iboralarning ichki obrazlilik saqlangan holda, ularning ma’no markazining siljishi shoir tilida kutilmagan estetik va ma’naviy effektini yuzaga keltiradi. Bu holat frazeologizmlarning lingvopoetik transformatsiyasini o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqona iboralarning ma’no markazining siljilishi shoirning til bilan ijodiy munosabatini namoyon etadi. An’anaviy nutqiy birliklar poetik makonda yangi funksional vazifani bajarib, individual muallif uslubining ajralmas qismiga aylanadi. Bu holat xalq og‘zaki nutqi bilan zamonaviy adabiy tafakkur o‘rtasida uzviy va dinamik bog‘lanishni yuzaga keltiradi.

Shu jihatlarning barchasi shoir tilini zamonaviy o‘zbek lirik tili uchun tajriba maydoni sifatida namoyon qiladi: unda milliy leksik meros, poetik topilma va individual uslub bir nuqtada tutashadi. Natijada bunday matnlar lingvopoetik tadqiqotlar uchun qulay asos bo‘lib, rang semantikasi, frazeologik transformatsiya, ma’no siljishi va individual poetik tafakkurning til vositalarida ifodalanishi kabi masalalarni yaxlit o‘rganish imkonini beradi.

Shodmonqul Salom faqat lirik shoir emas, balki nasriy asarlar, esse va publitsistik chiqishlar muallifi hamdir. “Ko‘ngil obidasiga yo‘l”, “Oqqapchig‘ay to‘lqinlari” kabi asarlarida Surxon vohasi, xalqona hikmatlar, insoniylik saboqlari, adabiy-axloqiy mulohazalar badiiy publitsistika ruhida yoritiladi [8].

Shoir obrazini zamonaviy o‘zbek adabiyotida faqat “ko‘ngil shoiri” tarzida emas, balki jamiyat oldida mas’uliyatli ziyoli, ma’naviy mas’uliyatni chuqur his etadigan ijodkor sifatida tasavvur etish mumkin.

Zamonaviy o‘zbek she’riyati kontekstida Shodmonqul Salom ijodi an’ana va yangilanish, vatanparvarlik va ichki dramatism, xalqona til va murakkab ma’no uyg‘unlashgan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqoridagi kuzatuvlar asosida quyidagi xulosalar ilgari surilishi mumkin:

Shoir vatanparvarlik g‘oyasini an’anaviy shoiriy uslubda emas, balki “Vatan haqida she’r”dagi “Sendan boshqa uy yo‘qdir, mendan boshqa devona” kabi satrlar misolida ko‘rinadigan dardli sadoqat, ichki “devonalik”, shaxsiy mas’uliyat orqali ifoda etadi.

“Shom”, “oy”, bolalik xotiralari, janub manzaralari, ranglar leksikasi shoir poetikasida davr va shaxs, tarix va bugun, umid va iztirob o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi konseptual timsollardir.

Shodmonqul Salom tilining tashqi soddaligi ortida ko‘p qatlamli badiiy-falsafiy mazmun yashiringan; “Olamni suv olgan, birgina orol – shu qog‘oz” singari misralar uning metaforik tafakkuri va lingvopoetik salohiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Nasr va publitsistika bilan she‘riyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shoir obrazini to‘ldirib, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotida ijtimoiy mas‘uliyatni chuqur his qiladigan ijodkor sifatida namoyon etadi.

Shodmonqul Salom ijodini chuqur o‘rganish zamonaviy o‘zbek she‘riyati taraqqiyoti, mustaqillik davri poetik tafakkurining asosiy tendensiyalarini aniqlash, vatanparvarlik, ruhiyat va til masalalarini yangi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Janub quyoshi taftida ulg‘ayganlar: Shodmonqul Salom. She‘rlar. – Xurshid Davron kutubxonasi.
2. Shodmonqul Salom. “Vatan haqida she‘r”. – ziyouz.com, “Zamonaviy o‘zbek she‘riyati” bo‘limi.
3. Sobirova I. Zamonaviy davr o‘zbek she‘riyatida an‘anaviy g‘oyalarni noan‘anaviy uslubda yetkazib berish (Shodmonqul Salom yoziqlaridagi vatanparvarlik g‘oyasi misolida) // Qo‘qon universiteti xabarnomasi.
4. XXI asr o‘zbek she‘riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg‘unligi (Shodmonqul Salom ijodi misolida). – 2025, iyun, researchgate.net/publication.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Karimboyeva D., Allamberganova Sh. Shodmonqul Salom she‘riyati tahlili // “Uchinchi Renessans: muammo va yechimlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. 2022. –B. 68–74; inlibrary.uz



## IKKILAMCHI NOMINATSIYANING METAFORA VOSITASIDA NAMOYON BO'LISHI

**Davlatova Rushana**  
*tayanch doktorant,*  
*Navoiy davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada nominatsiya nazariyasiga doir qarashlar va ikkilamchi nominativ jarayonda metaforik talqinning o'rni, individual metaforaning yuzaga kelishi borasida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** nominatsiya, birlamchi nominatsiya, ikkilamchi nominatsiya, metafora, leksika.

**Аннотация.** В статье идет речь взгляды на теорию номинации и роль метафорической интерпретации во вторичном номинативном процессе, возникновении индивидуальной метафоры.

**Ключевые слова:** номинация, первичная номинация, вторичная номинация, метафора, лексикон.

**Annotation.** The article discusses views on the theory of nomination and the role of metaphorical interpretation in the secondary nominative process, the emergence of an individual metaphor.

**Keywords:** nomination, primary nomination, secondary nomination, metaphor, lexicon

**Kirish.** Tilshunoslikda nominatsiya masalasi o'zining uzoq tarixiy rivojlanish bosqichiga ega, insonning konseptual olamidagi tushunchalarni eslab qolishi uchun, verbal ifodalashi, tushuntirishi, anglatishi uchun nomlashi kerak bo'lgan. Obyektiv borliqdagi biror bir tushunchaga nom, belgi bo'lib keluvchi til belgilari fondi oldindan mavjud bo'lgan imkoniyat bilangina chegaralanib qolmaydi, sababi ijtimoiy hayotdagi o'sish-o'zgarishlar, ishlab chiqarish, jamiyatning uzluksiz taraqqiy etishi, ma'naviy-madaniy, mafkuraviy sohalarda yangi tushunchalar, ba'zi tushunchalarni baholash, ularning yangi qirralarini ifoda etish ehtiyoji tug'ilib turadi, natijada tilda yangi so'zlar – nomlar zarur bo'ladi, nom birlamchi kommunikativ talabdir, bu talab tilning o'ziga qarashli yoki o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Nominatsiya muammosini yaratishda dunyo olimlari E.Sepir, L.Georg, J.Mark, J.Lakoff, M.Jonson, V.Gak, N.Arutyunova, A.Dorofeeva, J.Vardzelashvili, o'zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Maxmaraimova, A.Hasanov qarashlariga tayanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni yoritishda tavsifiy, kognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Semantik taraqqiyotga ko'ra til birliklarining ko'chma ma'nolarda ishlatilish qamrovining kengligi tabiiy tilning eng muhim belgisi sanaladi. Ikkilamchi nominatsiyaning tabiati va uning til taraqqiyotidagi ta'siri masalasi qadimdan oq tilshunoslarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Ko'p ma'nolilik va ma'no ko'chirishga bo'lgan qiziqish tadqiqotchilarning tilni real borliqqa mutanosib kelishi qonuniyatlarini ochib berishga bo'lgan qiziqishlariga borib taqaladiki, bunda tilning ko'p qirraliligi va chegarasizligi muhim ahamiyat kasb etadi. To'la ma'noda, insonning tafakkur imkoniyatlari hadsizligini, biroq xotira imkoniyati chegaralanganligini e'tiborga olsak, til egalari til leksikasida mavjud barcha so'zlarni bilish va eslab qolishga qodir emas, nomning ko'payishi xotirani susssaytiradi, shu sabab birlamchi nominatsiyalar ikkilamchi nominatsiyalar uchun zahira vazifasini bajaradi.

Asosiy ma'no, odatda, to'g'ridan-to'g'ri anglashilgan ma'nodir, asosiy ma'no so'zning birlamchi ma'nosi bo'lib, obyekt, harakat yoki xususiyatni to'g'ridan-to'g'ri nomlaydi. To'g'ridan-to'g'ri ma'nosi deganda so'z kontekstdan tashqarida ham aynan shu ma'noni anglatadi. Birlamchi nominatsiya - hali nomga ega bo'lmagan obyektga nom berishdir, ikkilamchi nominatsiya allaqachon nomlangan obyektga qayta (ikkinchi) nom berish, ikkilamchi nominatsiya orqali biz ular uchun yangi nomlash funksiyasida nominativ vositalardan foydalanishni tushunamiz. Til egalari nomlash kechimida yangi tushunchani atashda tilning ichki imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishga intiladi. Zero, yangi tushunchaning jamoa uchun tushunilishi va ommalashuvchan bo'lishi shu jihatga bog'liq [1, 16], shuningdek, ikkilamchi nominatsiya ham mavjudki, uning paydo bo'lishi inson tafakkurining tabiati va xususiyatlari, uning mavhum va umumlashtiruvchi tabiati bilan belgilanadi, u obyektiv voqelikni uning barcha elementlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligida aks ettirishga qodir. Oldindan mavjud bo'lgan nominativ birlikning yangi semantik funksiyada qo'llanilishi odatda bu yangi ma'no va oldingisi o'rtasidagi ichki bog'liqlikni anglatadi.

Tilning leksik qatlamida har bir so'z muayyan tushunchani nomlash ehtiyoji hosilasi ekan, har bir nom o'zining ma'no qamroviga ega, hatto bir tushunchani nomlovchi sinonim so'zlar ham differensiallikka ega, ya'ni o'zi ifodalayotgan tushunchani nomlashda muayyan tafovutlarni namoyon qiladi. Demak, har bir o'z lisoniy qiymati va ahamiyatiga ega, biroq til egalari ulardan foydalanish jarayonida ularni bir-biri bilan taqqoslaydi, o'zining tafakkur tarziga mosini lisoniy bazasiga kiritadi, saqlaydi va ehtiyoj sezganida nutqida qo'llaydi. Shuning natijasida tilshunoslikda nomlarni o'rganuvchi nominatsiya atamasi paydo bo'lgan. "Nominatsiya nazariyasi va umuman, onomasiologiyaga yondashuv antik davrlarda Platon, Aristotel, Diogen Bobillik, Varron tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Tilshunoslikda nom(nominatsiya) masalasi uzoq tarixga ega bo'lib, ism ob'ektni shartli belgilash,

belgilanayotgan predmetga nisbatan munosabat qoidalari yoki inson xarakteri va hattiharakatlarini tushuntirish, anglatish vositasi bo'lgan." [2.14].

XX asrga kelib nominatsiyaga doir qarashlar maydonga keldi, nominativ birliklar qatoriga leksemalar emas, frazemalar, balki gapga teng jumlar, ko'chma ma'no ifodalovchi vositalar kiritildi, natijada birlamchi va ikkilamchi nominatsiyaga alohida e'tibor qaratildi. "Fanda nominatsiyaning to'rt turi ajratiladi: 1) hosil bo'lishiga ko'ra normal yoxud tabiiy nominatsiyalar, 2) mutatsiyalar – metafora, metonimiya ta'sirida yuzaga kelgan nominatsiyalar, 3) ongli ravishda (lug'at tarkibiga kiritish maqsadiga yo'naltirilgan nutq) vujudga kelgan sun'iy nominatsiyalar, 4)"patologik" nominatsiya, lisoniy mezonlardan og'ishish, ekstralingvistik faktorlar evaziga hosil bo'lgan nominatsiyalar" [3. 28].

So'zlarning leksik ma'nolari tiplari masalasini birinchi bo'lib V.V.Vinogradov qo'ygan bo'lib, u asosiy (yoki birlamchi) va hosila (yoki ikkilamchi) nominativ ma'nolarni farqlagan. Berilgan kontekstda ma'lum bir obyektни belgilash uchun asosiy vazifasida ishlatiladigan shakl asosiy yoki to'g'ridan-to'g'ri nominatsiya deb ataladi [4, 321-322]. Zamonaviy tadqiqotlarda ikkilamchi nominatsiya hodisasi bir necha terminlar bilan nomlangan: "ikkilamchi signifikatsiya" (E.A.Zemskaya), "semantik derivatsiya" (D.N.Shmelev) va "semantik innovatsiya" (V.N.Zabotkina). Ushbu atamalarni o'rganish ularning konseptual mazmunidagi yaqinlikni ko'rsatadi.

Ikkilamchi nominatsiya hodisasining paydo bo'lishi bir necha omillarga bog'liq: til tejamkorligi birinchi omil bo'lsa, til birliklarning miqdoriy o'sishidan qochish istagini ikkinchi omil sifatida ko'rsatish mumkin. E.Sepir hatto "hech bir til har bir aniq g'oyani mustaqil so'z yoki asosdosh so'z bilan ifodalay olmaydi, tajriba Tajriba imkoniyatlari cheksizdir, ammo eng boy tilning resurslari qat'iy cheklangan" deb ta'kidlagan [5, 65]. Muayyan tushuncha yoki "predmetni bilish jarayoni uning nominatsiyasi bilan bog'liq" [6, 107] ekan, olamda namoyon bo'ladigan jamiki mavjudlik o'zining lisoniy ifodasini topishi, nomlanishiga ehtiyoj bor, bu inson tafakkurining taraqqiy etishi bilan aloqadorlikda bo'lib, inson yangi tushunchalarni atash uchun quyidagi jihatlardan foydalanadi: 1) yangi tushunchaga yangi nom (so'z) berish; 2) yangi tushunchani unga o'xshash tushuncha nomi bilan metaforik nomlash. Aksar hollarda ikkinchi usul faol qo'llanadi. Chunki yangi so'z jamiyat a'zolari tomonidan osonlikcha tushunilmaydi [7, 120].

Antropotsentrik tilshunoslikning kognitiv tilshunoslik doirasida qaralganda, metafora bir konseptni boshqa bir konsept vositasida anglash bo'lib, ma'lum bir shaxs tomonidan yaratiladi. Inson tafakkurining qiyoslashga asoslangan eng yuksak ifodasi sanaluvchi metafora olamni anglashning alohida usuli va vositasi ekanligi antik davridayoq ilg'angan, Aristotel, Sitseron qarashlarida ifoda etilgan edi. [8,155], masalan, Aristotel "... faqat shunigina o'zgalardan o'zlashtirib bo'lmaydi, bu qobiliyat

iste'dodning belgisi bo'lib xizmat qiladi. Axir, yaxshi metaforalar yaratish – o'xshashlikni ko'ra olish demakdir” [9, 173], Sitseron metafora dastlab tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish ehtiyojidan paydo bo'lgan va keyinchalik estetik zavq uchun qo'llanadigan bo'lib qolganligini ta'kidlagan [10]. Metafora vujudga kelishi bevosita inson tafakkurining ijodiy mahsuli, bu mahsulning lisonda aks topishi deya qaralib, metafora ikkilamchi nominatsiya namunasi sifatida qaraladi, V.N.Teliya ikkilamchi nominatsiyani tilda mavjud nominativ vositalardan nomlashning yangi funksiyasi uchun foydalanish sifatida ta'riflaydi [11, 129].

Metafora til egasi ijodkorligi va bir vaqtning o'zida bu faoliyat metaforaning shakllanishi va undan fikrni bayon qilish ifodasi sifatida foydalanish harakatlarini qamrab oladi [12, 656]. Metaforani kognitiv jarayon mahsuli sifatida chuqur o'rgangan Jorj Lakoff va Mark Jonson har bir tushunchaning yuzaga kelishi asosida metaforizatsiya jarayoni mavjudligini qayd etishgan [13, 26. ], metaforadan tilda ilgari mavjud bo'lgan so'z yoki iborani ko'rsatish unga oldingi ma'noning bir qismini berish maqsadida ham foydalaniladi. N.D.Arutyunova: “metafora” – trope yoki nutq mexanizmi, muayyan sinfni bildiruvchi so'zni ishlatishdan iborat ob'ektlar, hodisalar va boshqalar, ob'ektni tavsiflash yoki nomlash, boshqa sinfning a'zosi yoki boshqa obyekt sinfining nomi, shunga o'xshash har qanday jihatni tekshirib ko'rish lozim” [14, 56] degan ta'rifiga diqqat qaratish lozim.

Badiiy nutqda, keyingi paytlarda so'zlashuv nutqida ko'p darajali hodisa sanaluvchi metafora yangi vazifalarni, masalan, matnni hosil qilish vazifasini o'z zimmasiga olganligini ta'kidlash joiz. Bunday semantik struktura to'g'ridan-to'g'ri tushunishni emas, agar badiiy matnda muallif tomonidan hosil qilingan individual yaratilma bo'lsa, o'quvchi tomonidan individual anglanishni namoyon qiladi. Jumladan, *Endi sirimning pardasini yanada balandroq ko'tarsam, u shudir: Odil aka o'zini qanday tutarkan?* (Sh.Xolmirzayev) misolida parda leksemasi ikkilamchi nominativ birlik sifatida muallifning individual yaratilmasi sifatida qo'llangan. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeyini har bir til egasining kognitiv imkoniyatlari belgilaydi, masalan, “hosila ma'no yuzaga kelishi” [15, 95] natijasi bo'lgan metafora ijodkorning ruhiyatini aniqroq ochib berish uchun yuzaga keladi. Sh.Xolmirzaev ikkilamchi nominatsiyani – individual metaforalarning eng sara namunasi *parda* metaforasi orqali ko'rsatib bergan. O'zbek tilining izohli lug'atida parda so'zining quyidagi ma'nolari berilgan: “PARDA 1 Xonani quyosh nuri, shamol va *hokazolardan* to'sish yoki bezak uchun deraza, eshik va sh.k.ga tutiladigan gazlama, mato. 2 *ko'chma* Borliqni ko'zdan berkitib, to'sib turgan narsa, mas. qorong'ilik, tuman, bulut, ko'z yoshi. 3 *s.t.* Ekran, kino ekрани. 4 *anat* . Organizmda ayrim a'zolari qoplab, o'rab yoki bir-biridan ajratib turadigan yupqa to'qima. 5 Sahna asarining yoxud filmning mustaqil voqelikdan iborat tugal bir qismi. 6 Teatrda tomosha boshlangunga qadar sahnaga

ilingan mato. 7 *ko'chma* Biror holatni yashirish vositasi, to'sib turuvchi niqob. 8 *ayn.* tovush paychalari. *q.* paycha. 9 *Parda* (erkaklar ismi)." [16,221-222].

Yuqorida keltirilgan misolda *parda* so'zi ikkilamchi nominatsiya sifatida kontekstda, boshqa so'zlar qurshovida "yashirish, yopish" semalari reallashgan. Bu kabi qo'llanish badiiy asar tili uchun mos keladi.

Odatda, metaforalarning ikkilamchi nominatsiyaning bir ko'rinishi ekanligi tadqiqotlarda keng tilga olingan. "a) birlamchi nominatsiya jarayonida hosil bo'lgan lingvistik metaforalar; b) ikkilamchi nominatsiya jarayonida hosil bo'lgan, biroq tilda qayta-qayta takrorlanishi oqibatida uzual ma'no doirasida til hodisasiga aylangan badiiy metaforalarni kiritish mumkin. Bu o'rinda lingvistik metaforalar va individual metaforalar xususida fikr yuritilmoqda.

N.D.Arutyunova metaforalarni quyidagi ko'rinishlarda farqlab ko'rsatadi:

1) Nominativ metafora. Nomni bir obyektidan boshqasiga o'tkazish, bir tavsifni boshqasiga ko'chirish. Masalan: *kema burni, stul oyog'i*. Nominativ metafora ishora qiliadi, buning uchun kontekstga tayaniladi.

2) Majoziy metafora. Bu metafora o'tish bilan bog'liq predikatdagi aniqlovchi qiymat. Ushbu turdagi metafora obyektini individuallashtirishni anglatadi. Majoziy metafora tilning sinonim vositalarini kengaytirishga yordam beradi va bundan tashqari, yangi sinonimlar paydo bo'lishiga olib keladi (*latta, qo'y, jo'ja*).

3) Kognitiv metafora. Bu metafora predmetli so'zlar (sifat va fe'llar) ning mosligini o'zgartirish, ya'ni ifodalar qiymatini o'tkazishdir. Metaforaning ushbu turi kognitiv, chunki kognitiv metafora tufayli inson, asosida muayyan tushuncha, mavhum tushunish mumkin: *sovuq yurak, o'tkir qarash*. N.D.Arutyunovaga ko'ra, obraz yaratish vositasidan kognitiv metafora yetishmayotgan til qadriyatlarini ishlab chiqarish uchun bir yo'l hisoblanadi.

4) Umumlashtiruvchi metafora. Bu metafora leksik ma'noni o'chiradi so'zlar mantiqiy buyurtmalar o'rtasidagi chegaralar va ko'rinishini rag'batlantiradi. [14, ].

J.Lakoffning ta'kidlashicha, metafora bizga mavhum e'ki o'z tabiatiga ko'ra tushunarsiz bo'lgan narsalarni tushunish imkoniyatini beradi [17, 10].

Metaforani tilda shunchaki bezak vositasi sifatida emas, balki qayta qurish, strukturalash va hatto haqiqatni yaratish uchun konseptual vosita sifatida qabul qilish mumkin [18,13]. Metaforaning hosil qilinishi va tahlil qilinishidagi komponent ikkita obyekt kategoriyalari va ikki kategoriyaning xossalaridir. Bir predmetdagi belgining boshqa predmetga o'xshashlik asosida ko'chirish metafora deyiladi, masalan, insonga nisbatan *jo'ja* deyilganda, kichiklik belgisi. *Jo'ja* so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da shunday izohlanadi: *Jo'ja* 1 Tovuqning va ba'zi qushlarning bolasi. 2 *ko'chma*. Farzand, bola; *go'dak*. Shunday qilib shu bilan birga, insonga xos salbiy yoki ijobiy munosabat ifodalanadi, o'zbek ongida salbiy ma'no ifodalovchi ushbu metafora orqali

uningkichikligini, yoshligini nazar-pisand qilmaslik kabi jihatlar voqelanadi, insonga xos uning ruhiy qiyofasi yaratiladi va yangi ma’no hosil bo’ladi: *jo’ja* so’zi majoziy ma’no oladi – *kichiklik*. Ushbu obyektlar guruhining xususiyatlari, turli tillarga xos bo’lgan metafora bilan ko’rsatiladi. Metafora o’zbek tilida umumiy fikrlar to’plamiga tegishli, mifologiya yoki madaniy an’analardan iborat bo’lishi mumkin. Masalan, o’zbek tilida *tulki* metaforik tarzda, “*ayyor, aldoqchi*” degan ma’noni anglatadi va rus tilida birovning aytganini qiladigan, go’l inson ma’nosida tushuniladi.

Ikki alohida so’z metaforaning asosiy belgisini — uning semantik ikki taraflamaligini shakllantiradi, metafora tuzilmasiga ikki komponent kiradi — uning ma’nosi va uning yordamchi subyekt obrazini. “Tulki” so’zi bilan assotsiatsiya qilinadigan va insonga nisbatan qo’llaniladigan sifat sifatida asosan “ayyorlik” ma’nosini hosil qiladi. Konseptual metaforalar bevosita til egalari hayot tarzi, faoliyati, dunyoqarashining va bilimining lisoniy aks etishi sifatida baholanadi. obyekt va hodisalarga aloqador konseptual metaforalarda, birinchi navbatda, etnik, milliy-madaniy, mentalitet, o’sha etnos istiqomat qiladigan tabiiy sharoitga moslik kuzatiladi. Tiriklik – sayohat konseptual metaforasi turli millatga mansub til egalari ongida jamuljam bo’lib, mutanosibliklar yaqqol namoèn bo’ladi. Sh.Xolmirzayev hikoyasidan olingan *Sen jo’jadan shu gaplarni eshitdim-a.* (Tikan orasidagi odam) misolida yuqoridagi ma’no voqelantirilgan. Mazkur hikoyaning ikkinchi o’rnida keltirilgan ikkilamchi nominatsiya – metaforada so’zlovchining salbiy emotsiyasi bo’rtib turiganligini ko’rish mumkin:

1.*Hali ko’zi ochilmagan mushukvachchasan, otishaylik, a?* (Tikan orasidagi odam).

2.*Unda meni atay otgan bo’lasiz... O’lmay qolishim ham mumkin, unda men bari bir sizni otib o’ldiraman! Mening patronimda to’ng’iz o’q.*

— *To’ng’iz o’q?*

— *Ha, boshmoldoqdek keladi! Tekkan joyini o’pirib ketadi. To’xtang, avzoyiniz buzuq... hozir.* (Tikan orasidagi odam).

3.*So’ng, Mirhaydar otadigan cho’chqa o’q ko’kragiga tegishini taxminlab, orqasiga burildi.* (Tikan orasidagi odam).

**Xulosa va takliflar.** Inson tafakkuri rivoji til rivojini belgilab beradi, inson ongining to’xtovsiz taraqqiy etishi, shuningdek, har bir til egasining individual lisoniy idroki natijasida ikkilamchi nominatsiya yuzaga keladi. Ikkilamchi nominatsiyaning bir turi bo’lgan metafora muayyan tushunchani obrazli shakllantirishi bilan til sohiblari mental sifatlarini namoyon qiladi. Ikkilamchi nominatsiya talabiga ko’ra bir so’zning bir necha tushunchalarni ifodalashga moslashtirilishi til egalari konseptual olamining kengligini ko’rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hasanov A. O'zbek adabiy tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishning dialektal asoslari. – T., 2022.
2. Qarang: Maxmaraimova Sh. O'zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Filol.fan.d-ri. ...diss.avto-ref. – Samarqand, 2020.
3. Русская грамматика / Под ред.Н.Ю. Шведовой. Т.2. – М., 1980.
4. Гак В.Г. Языковые преобразования / В.Г. Гак. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998.
5. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи – М.: Изд-во «Русский язык», 1993.
6. Maxmaraimova Sh. O'zbek tilida metaforaning nominativ funksiyasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019 yil, №3.
7. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. –T.: Mumtoz so'z, 2017.
8. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. №4.
9. Aristotel. Ritorika. Poetika. – М.: Labirint, 2000. – S. 173
10. Вардзелашвили Ж. О двойкой сущности метафоры / <http://vjanetta.narod.ru/bakan4.html>
11. Серебренников, Б.А. Языковая номинатсия (Виды наименований) / Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. – М. : Наука, 1977.
12. Kövecses Z. A New look at metaphorical creativity in cognitive linguistics // Cognitive Linguistics. Vol. 21(4), 2010. – pp. 655-690.
13. George L., Mark J. Les métaphores dans la vie quotidienne (trad. fr.), Paris, Éd. de Minuit, 1983.
14. Арутюнова, Н. Д. Теория метафоры : сборник: пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Н. Д. Арутюнова; под ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. – М. : Изд-во Прогресс, 1990.
15. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
16. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – T.: O'zME, 2007.
17. Lakoff J., Jonson M. Metaphors we live by. The University of Chicago Press. Chicago, 1980.
18. Dedaxonova M.A. Modern she'riyatda ma'no ko'chishining lingvokognitiv aspekti (Rauf Parfi ijodi misolida). Filol.fan.bo'yicha fals.d-ri diss... avto-ref. – T., 2021.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI  
ELEKTRON JURNALI**

**№ 3 (4),  
2025-yil, Dekabr**

**O‘zbekcha matn muharriri:**

**Ruscha matn muharriri:**

**Inglizcha matn muharriri:**

**Musahhah:**

**Texnik muharrir:**

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Boltayeva Gulchehra Shokirovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

Sharopova Ra’no Jaxonovna

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li

**XXI ASR TILSHUNOSLIGI: TAHLIL  
VA TALQIN ILMIY-METODIK  
JURNALI  
3-jild, 4-son**

**SCIENTIFIC-METHODICAL  
JOURNAL OF LINGUISTICS OF XXI  
CENTURY  
VOLUME 3, ISSUE 4**

**Tahririyat bilan bog'lanish:**

Manzil: Navoiy shahar, Ibn Sino ko'chasi, 45-uy

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45

**Editorial staff of the journal:**

Address: 45, Ibn Sino street, Navoi city

Web-site: <http://linge.nspi.uz>

Tel: +998(97) 378 - 34 -45